



«KAMOLOT»
KUTUBXONASI

Ivan
Turgenev

Otalar va bolalar





Ivan
Turgenev

Otalar va bolalar



YANGI ASR AVLODI

TOSHKENT

2015

**UO'K: 821.161.1-1
KBK: 84(2 Ros = Rus)1**

T - 88

Turgenev, Ivan

Otalar va bolalar / Ivan Turgenev. – Toshkent: Yangi asr avlod, 2015. – 292 b.

ISBN 978-9943-27-414-3

Mashhur rus yozuvchisi I.S.Turgenevning o‘z davrida katta shuhrat qozongan ushbu “Otalar va bolalar” romanı rus adabiyotshunosligida yozuvchi ijodining cho‘q-qisi sifatida talqin etiladi. Adib bosh qahramon Bazarov obrazida hurfikrlilik va yangilik sari intilish kabi fazilatlarni asarning asosiy g‘oyasi sifatida talqin etadi. Kitobdagı voqealar o‘scha davrda chiriy boshlagan jamiyatni shunchaki isloh etish emas, balki poydevorini tagtugi bilan yo‘q qilib, yangisini barpo etish kerakligini ko‘rsatib beradi. Turgenev Bazarovdagı nigelizmni (barcha narsalarni inkor qilish) tasvirlash orqali rus yoshlariga xos xarakterni ham namoyon etgan. Kattalarni hurmat, kichiklarni izzat qilishga o‘rgatuvchi ushbu asar mutolaasi kitobxonga zavq bag‘ishlaydi, degan umiddamiz.

**UO'K: 821.161.1-1
KBK: 84(2 Ros = Rus)1**

Malik RAHMON tarjimasi

ISBN 978-9943-27-414-3

© Ivan Turgenev, «Otalar va bolalar». «Yangi asr avlod», 2015-yil.



Yoshi qirqlardan sal oshgan, chang bosgan palto va katak cholvor kiygan badavlat odam, 1859-yilning 20-mayida *** degan tosh yo'l bo'yidagi saro-yining zinapoyasiga boshyalang chiqib, o'zining yosh, beti cho'zinchoq, iyagiga oqish tuklar sabza urgan, ko'zlarini kichik va xira xizmatkoridan:

– Xo'sh, Pyotr? Hali ko'rinxaptimi? – deb so'radi.

Har jihatni: qulog'idagi feruza isirg'asi, bo'yalgan sochi, sertavoze harakatlari, xullas, butun qiyofasi eng so'nggi barkamol bo'g'inga mansubligini namoyon etib turgan bu xizmatkor muruvvat bilan yo'lga qarab:

– Taqsir, ko'rinxapti, – dedi.

– Ko'rinxapti degin-a? – takror so'radi xo'jayin.

– Ha, ko'rinxapti, – deb yana javob qildi xizmatkor.

Xo'jayin «uh» tortdi-da, o'rindiqqa cho'kdi. U oyoqlarini bukkan holda o'rindiq tagiga tiqib, o'yga tol-gancha, tevarak-atrofga nazar tashlab o'tirarkan, biz kitobxonlarni qahramonimiz bilan tanishtiramiz.

Uning nomi Nikolay Petrovich Kirsanov. U saroydan o'n besh chaqirim narida yaxshigina yer-mulkka va ikki yuz nafar dehqonga egalik qilardi yoki o'zining

aytishiga ko'ra, o'sha vaqtarda, ya'ni dehqonlar bilan mulkining chegarasini aniqlab, «ferma»¹ qurban kunidan boshlab, ikki ming botmon yeri bor edi. Uning otasi umr bo'yи shahardan chekkaroqda yashab, o'z martaba-yu darajasi soyasida ancha obro' qozongan, avval brigada², so'ng diviziya³ qo'mondonligiga erishgan, hayoti mehnatga baxshida, omi, qo'rs, biroq xushfe'l odam bo'lib, 1812-yilning shijoatli rus generallaridan edi. Nikolay Petrovich akasi Pavel singari (akasi to'g'risida keyinroq hikoya qilinadi) Rossiya janubida tug'ilib, o'n to'rt yoshiga qadar uyda, arzon-garovga ishlaydigan murabbiyalar, betakalluf, lekin xushomadgo'y ad'yutantlar, polk va shtab ahllari muhitida tarbiyalangandi. Uning voldasi Kolyazinlar naslidan bo'lib, qizlik vaqtida Agathe (Agafya), generalga tekkanidan keyin esa Agafokleya Kuzminishna Kirsanova deb yuritilgan «qo'mondon oyim»lardan bo'lib, hashamador chepchik⁴ bilan g'alati shoyi ko'ylak kiyar, butxonaga borganida, sanam oldiga hammadan avval o'tar, shang'llab gapirar, bolalariga har kuni ertalab qo'lini o'pgani ijozat berar, kechalari esa yotar oldidan ularni duo qilar, xullas, o'z gashti ni surib, rohatda yashar edi. Generalning o'g'li bo'lgan Nikolay Petrovich dovyuraklik narida tur-sin, hatto «qo'rkoq» degan laqab orttirgandi. U aka-si Pavel kabi harbiy xizmatga kirishi lozim edi-yu, lekin o'zining harbiy mакtabга олингани haqidagi xabar kelgan kuni oyog'ini mayib qilib qo'yib, ikki

¹ Ferma – yer-mulkning ayrim xo'jalik shaklida ajratilgan bir qismi.

² Brigada – qo'shilma.

³ Diviziya – bir necha polkdan iborat harbiy qismi.

⁴ Chepchik – keksa ayollarning bosh kiyimi.

oy to'shakda yotganidan keyin umrbod «cho'loq» bo'lib qolgan. Otasi undan qo'l siltab, uni xizmatga qo'ygan edi. O'g'li o'n sakkiz yoshga to'lishi bilan otasi uni Peterburgga olib borib, universitetga joylashtirib qo'ydi.

Xuddi o'sha kezda uning akasi harbiy maktabni bitirib, gvardiyachi polk zobiti bo'ldi. Aka-uka tog'alari, katta amaldor Ilya Kolyazinning nazorati ostida bir xonada turardilar. Ularning otasi o'z diviziyasiga va rafiqasi yoniga qaytib, o'g'illariga har zamon-har zamonda katta kulrang qog'ozga mirzasи tomonidan xunuk yozuvda yozilgan noma yo'llab turardi. Nomalarning oxiriga o'z qo'li bilan aji-buji qilib, «General-major Piotr Kirsanof» deb imzo qo'yardi. 1835-yilda Nikolay Petrovich universitetni bitirib, nomzodlik unvonini oldi va xuddi o'sha yili, askarlari ko'rikdan ko'ngilsiz o'tgani uchun xizmatdan bo'shatilgan general Kirsanov turmushini o'tkazish niyatida xotini bilan Peterburgga ko'chib keldi. U Tavricheskiy bog'i yonidagi bir uyni ijara ga olib, ingliz klubiga¹ yozilishni ko'zlagan edi, ammo nogahon o'lib qoldi. Agafokleya Kuzminishna ham undan keyin uzoq yashamadi. U poytaxtning karquloq hayotiga ko'nika olmadidi, iste'fodan so'nggi hayot g'uussasi uni go'rga tiqdi. Nikolay Petrovich esa ota-onasi tiriklik chog'idayoq, ularning qattiq ranjishlariga qaramay, o'zining sobiq uy xo'jayini bo'lmish amaldor Prepolovenskiyning ko'hlikkina va aytishlaricha, o'qimishli, ya'ni jurnallarning «fan» bo'limidagi jiddiy maqolalarini mutolaa qilib turadigan qiziga ko'ngil qo'ygan edi. Nikolay Petrovich ota-onasiga tutgan aza kun-

¹ Peterburgda faqat zamindor va badavlat boylarni a'zoli akka qabul qiluvchi klub.

lari o'tishi bilan shu qizga uylandi va otasi oshna-oq'aynigarchilik bilan joylashtirib qo'ygan yer ishlari vazirligidagi xizmatini tashlab, o'zining Mashasi bilan boshqa o'rmon institutiga yaqin bir bog'da, keyin shaharda mehmonxonasi sovuqroq, zinapoyali yax-shigina bir uyda, nihoyat, qishloqda, butkul ko'chib kelgan joyida – kayf-safo bilan umr kechirdi va tez orada farzand ko'rib, otini Arkadiy qo'yishdi. Er-u xotin tinch-totuv umr kechirar edi. Ular hech qachon deyarli bir-biridan ajralmay, birga kitob o'qishar, birgalashib pianino chalishar, lapar aytishardi. Xotini gul o'stirish-u parranda boqish bilan mashg'ul bo'lar, eri esa ba'zan ovga chiqar va xo'jalik ishlariga andarmon edi. Arkadiy ham bu tinch-osuda hayotda kundan-kunga o'saverdi. O'n yil xuddi tushdek o'tib ketdi. 1847-yilda Kirsanovning xotini vafot qildi. Nikolay Petrovichga bu judolik qattiq ta'sir qilib, bir necha hafta ichida sochlari oqarib ketdi, biroz bo'lsa-da ovunib kelmoq uchun chet elga borishga hozirlangan edi... Ammo 1848-yil¹ boshlanib qoldi. U istar-istamas qishlog'iga qaytdi va uzoq vaqt bekor yotganidan keyin xo'jalikni tuzatish ishlariga kirishdi. 1855-yilda o'g'lini universitetga oborib, Peterburgda uch qishni jigarbandi bilan birga o'tkazdi. U Arkadiyning o'rtoqlari bilan do'stlashishni istab, hech qayerga chiqmas edi. Keyingi qishda u Peterburgga borolmadi, ana endi biz uni 1859-yilning may oyida soch-soqollari oqargan, biroz bukchaygan va shishinqiragan holda ko'rib turibmiz: u bir zamonalr o'zi ham nomzodlik unvonini olganidek, nomzod bo'lib qaytayotgan o'g'lini kutib turmoqda edi.

Xizmatkor odob yuzasidanmi yoki xo'jayinning ko'z o'ngida turishni o'ng'aysiz deb bilganidanmi,

¹ G'arbiy Yevropada inqilob harakatlari boshlangan yil.

darvozadan ichkariga kirib, tamaki cheka boshladi. Nikolay Petrovich esa boshini quyi solib, chirik zinapoyaga ko'z tashladi. Kattakon chipor jo'ja zinalarda qo'pol sariq oyoqlari bilan tap-tap etib, chiqib-tushib yuribdi. Zinapoyaning panjarasi ustida shumshayib o'tirgan iflos mushuk unga xo'mrayib qarab turibdi. Oftob qizdirar, saroyning yarim qorong'i dahlizidan issiq qora non hidi kelib turardi. Bizning Nikolay Petrovichimiz xayol daryosiga cho'mgan. Uning boshiga hadeb: «O'g'lim... Arkasha... nomzod bo'libdi-da...», degan o'y kelgani-kelgan edi. U boshqa xayollarga berilishni istardi-yu, biroq miyasida nuqul shu o'y charx uraverardi. Marhuma xotini esiga tushdi: «Shu kunlarga yeta olmadi» deb shivirladi u qayg'urib. Nogahon yo'lga katta bir ko'k kaptar uchib tushdi va quduq yonidagi ko'lmaidan suv ichgani o'sha tomonga yo'rg'alab ketdi. Nikolay Petrovich kaptardan ko'z uzmay turar ekan, qulog'iga yaqinlashib kelayotgan g'ildirak tovushlari eshitildi...

Xizmatkori darvozadan chiqib:

– Kelishayotganga o'xshaydi, – dedi.

Nikolay Petrovich irg'ib o'rnidan turdi-da, yo'lga ko'z tikdi. Uchta bekat otlari qo'shilgan tarantas¹ kelayotgani ko'rindi. Unda talaba bosh kiyimining hoshiyasi va qadrdon kishining tanish chehrasi ko'zga tashlandi.

– Arkasham! Arkasham! – deb qichqirib yubordi Kirsanov va quchoq ochib yugurdi... Birozdan keyin uning lablari yosh nomzodning soqolsiz, chang bosgan va oftobda qoraygan yuzlaridan o'pa boshladi.

¹ Tarantas – yomon yo'llardan yurishga moslangan arava.



Dadasining erkalatishidan boshi osmonga yetgan Arkadiy uzoq yo'l bosib kelgani sababli xirillab qolgan, lekin yoshlarga xos jaranglagan ovoz bilan:

– Ust-boshimni qoqib olay, dada, bo'lmasa hamma yog'ingizni iflos qilib qo'yaman, – derdi.

Nikolay Petrovich iljayib:

– Hechqisi yo'q, hechqisi yo'q, o'g'lim, – dedi va o'g'lining shinelli yoqasi-yu o'zining paltosini birikki marta qoqdi. – Qani, menga qara, durustroq ko'ray-chi, – deb orqaga tisarildi va, – mana bu yoqqa, bu yoqqa, otlarni ham tezroq olib kelinglar, – deb, jadallaganicha saroyga qarab yurdi.

Nikolay Petrovich o'g'lidan ko'ra ko'proq haya-jondan o'zini yo'qotib qo'ygan va bundan biroz uyalganday ko'rinar edi. Arkadiy uni to'xtatib:

– Dada, jonajon o'rtog'im Bazarov bilan tanishtirib qo'yishga ijozat bering. Men u haqda sizga ko'p xat yozgan edim. O'rtog'im shunday iltifotli odamki, biznikida mehmon bo'lib qolishga ko'ndi, – dedi.

Nikolay Petrovich darrov orqasiga qayrilib, endigina tarantasdan tushgan, popukli uzun chopon kiygan novcha yigit oldiga keldi-da, uning uzatgan qo'lini qattiq qisib:

– Xursandman, biznikiga tashrif buyurganin-gizdan minnatdorman, umid qilamanki... Ismingiz va otangiz nomini bilsak bo'ladimi? – deb gap boshladi.

Bazarov asta, lekin dadillik bilan:

– Yevgeniy Vasilyev, – dedi-da, chophonining yoqasini qaytardi, uning yuzini Nikolay Petrovich ko'rди. Keng peshana, osilgan yaltiroq chakka soqol, qirra burun, ko'kka moyil katta ko'zlar, muloyim tabassum bilan jonlangan yuz – ozg'in-u novcha

bu yigitning o'ziga ishonchi zo'r, g'oyatda aqliligin ko'rsatib turardi. Nikolay Petrovich so'zida davom etib:

– Muhtaram Yevgeniy Vasilich, biznikida zerikib qolmassiz, deb o'ylayman, – dedi.

Bazarovning nozik lablari sal-pal qimirladi-yu, lekin hech qanday javob qaytarmadi, faqat bosh kiyimini sal ko'tarib qo'ydi. U uzun-u quyuq qoramtsariq sochli yigitning kattakon boshini butunlay berkitib turmas edi.

Nikolay Petrovich yana o'g'li tomon burilib:

– Xo'sh, Arkadiy, otlarni hozir qo'shaversinmi yoki picha dam olasizlarmi? – deb so'radi.

– Uyda dam olarmiz, dada, otlarni qo'shishga buyuravering, – dedi Arkadiy.

Nikolay Petrovich darrov:

– Hozir, hozir. Hoy, Pyotr, eshityapsanmi? Buyur, uka, chaqqon bo'l, – dedi.

Barkamol xizmatkor sifatidagi Pyotr Arkadiyning oldiga yaqin kelmay, uzoqdan ta'zim qildi-da, yana darvozadan ichkariga kirib ketdi. Nikolay Petrovich o'g'liga:

– Men o'zim ham bu yerga izvoshda kelgan edim, ammo sening tarantasing uchun ham uchta ot tayyor, – dedi shoshib-pishib Arkadiy, o'sha paytda u saroy bekasi olib kelgan mis cho'michdan suv ichib turardi. Bazarov esa mushtugiga tamaki solib chekdi-da, otlarni chiqarayotgan aravakash yoniga keldi:

– Mening izvoshim ikki kishilik, xolos. Ammo o'rtog'ingni... – deb gap boshlagan edi Nikolay Petrovich, Arkadiy uning gapini bo'lib shivirladi:

– U biz kelgan tarantasda borar, unga oshiqcha takalluf qilib o'tirishning hojati yo'q. U juda ajoyib va sodda yigit, keyin yaxshiroq bilib olasiz.

Nikolay Petrovichning izvoshchisi otlarni yetaklab keldi.

Bazarov aravakashga qarab:

– Qani, tezroq bo'l, patak soqol! – dedi.

Uning yonida qo'lini po'stinining yirtig'iga tiqib turgan aravakash sherigiga qarab:

– Hoy, Mityuxa, xo'jayin nima deyaptilar, eshitayapsanmi? Rostdan ham patak soqol ekansanku, – dedi.

Mityuxa esa telpagini silkitdi-da, o'rtadagi terga pishgan ot tizginini tortdi.

– Hoy, yigitlar, chaqqon-chaqqon bo'salarling-chi, choychaqalik chiqib qolar axir! – dedi Nikolay Petrovich.

Birpasda otlar qo'shib bo'lindi. Ota-bola izvoshga o'tirdilar. Pyotr izvoshchi yonidan joy oldi. Bazarov tarantasga chiqdi-da, boshini teri yostiqqa qo'ydi. Ik-kala ekipaj yo'nga tushdi.

3

Nikolay Petrovich o'g'lining goh yelkasiga, goh tizzasiga qoqib:

– Shunday qilib, axiyri nomzod bo'lib, o'z uyingga qaytibsan-da, juda soz! – derdi.

Arkadiy, o'zining butun vujudini qamrab olgan bolalarcha samimiy xursandligiga qaramasdan, hayajonlantiradigan gaplarni tezroq boshqa yoqqa burmoqchi bo'lib:

– Amakim qalay? Salomatmilar? – dedi.

– Salomat, seni qarshi olgani men bilan birga kelmoqchi edi, ammo nimagadir kelmadi, – dedi Nikolay Petrovich.

– Siz meni ko'p kutib qoldingizmi? – deb so'radi Arkadiy.

- Besh soatcha.
- Dadaginamdan o'rgilay.

Arkadiy otasi tomon tez burildi-da, uning betidan cho'pillatib o'pib oldi. Nikolay Petrovich esa sekin kulib qo'ydi-da:

- Men senga g'alati bir ot hozirlab qo'yibman. Uni hali ko'rarsan. Hujrangga ham guldor qog'ozlar yopishtirilgan, – dedi.
 - Bazarovga ham hujra bormi?
 - Unga ham topilib qolar.
 - Jon dada, uni qo'lingdan kelgancha hurmat qil. Do'stimni naqadar qadrlashimni senga aytib ado qilolmayman.
 - Sen u bilan yaqinda tanishdingmi?
 - Ha, yaqinda.
 - Shuning uchun ham o'tgan yilgi qishda uni men ko'rmagan ekanman-da. Nima bilan mashg'ul?
 - Asosan tabiiy fanlar bilan shug'ullanadi. Shunday bolsa-da, hamma narsani biladi. Kelgusi yili doktorlikka imtihon bermoqchi.
 - Ha-ha! U tibbiyot fakultetida ekan-da, – dedi Nikolay Petrovich va biroz jim qoldi, keyin qo'lini bir tomoniga cho'zib: – Pyotr, anavi ketayotganlar bizning dehqonlar emasmi? – deb so'radi.
- Pyotr xo'jayin ko'rsatgan tomoniga qaradi. Suluqsiz otlar qo'shilgan bir nechta arava qishloqning tor yo'llaridan gizillab ketmoqda edi. Har qaysi aravada uzun po'stinlarining oldi ochiq bittadan dehqon, ko'p bolsa ikkitadan o'tirib ketishardi.
- Bular qayoqqa ketayotibdi ekan, shahargami deyman-a?
 - Shaharga bolsa kerak. Qovoqxonagadir-da, – deb qo'shimcha qildi nafrat bilan Pyotr izvoshchiga qochiriq qilganday, uning tomoniga sal engashib. Bi-

roq izvoshchi pinagini ham buzmadi, chunki u eski zamon odami bo'lib, yangi maslaklarga sira tobi yo'q edi.

Nikolay Petrovich o'g'liga qarab, tag'in gap boshladi:

– Bu yil dehqonlar meni ko'p tashvishga solib qo'yishdi. Obrok¹ to'lashmayapti. Ular bilan qanday kelishish mumkin, hayronman?

– Yollagan xizmatkorlaringizdan o'zingiz rozimisiz?

– Ha, – dedi Nikolay Petrovich g'ijinib, – lekin ular boshqalarni quturtirishyapti, hamma balo shunda. Hech biri jon kuydirib ishlamaydi. Ot-abzallarini ishdan chiqarishyapti. Ammo yerlarni tuzuk haydashdi... Mayli, bu savdolar ham o'tib ketar. Sen xo'jalik ishlariga qiziqasanmi?

Arkadiy dadasining so'nggi savoliga javob bemay:

– Bu yerda soya-salqin joy yo'q, shunisi yomon, – dedi.

– Men boloxonaning shimol tomoniga katta parda to'sib qo'ydim. Endi ochiq havoda ovqat qilinsa ham bo'laveradi, – dedi Nikolay Petrovich.

– U holda, dala hovliga o'xshab qolar ekan-da... Ha, mayli bularning ahamiyati yo'q. Ammo bu yerning havosini aytmaysizmi? Naqadar xushbo'y-a! Menimcha, bu kabi xushhavo joy dunyoning hech yerida bo'lmasa kerak! Bu yerning osmoni ham...

Arkadiy birdan gapini to'xtatdi, qayrilib orqasiga ko'z tashladi-da, jim bo'lib qoldi.

– Albatta, – dedi Nikolay Petrovich, – shu yerda tug'ilib o'sding, shuning uchun ham bu zamin tabiatiga senga qimmatli bo'lib ko'rinishadi...

– Yo'q, dada, kishi qayerda tug'ilib o'smasin, baribir.

¹ Obrok – dehqonlarning zamindorga pul yoki mahsulot ko'rinishida beradigan soliq turlaridan biri.

– Har holda...

– Yo‘q, buning hech farqi yo‘q.

Nikolay Petrovich o‘g‘liga qiyo boqib qo‘ydi, yana suhbat boshlanib ketguncha izvosh yarim chaqirim yo‘l bosdi. Nikolay Petrovich gap boshladi:

– Yodimda yo‘q, senga yozdimmi, yo‘qmi, burungi enagang Yegorovna vafot etdi.

– Yo‘g‘-e? Sho‘rlik kampir! Prokofyevich tirikmi?

– Tirik, hech o‘zgargani yo‘q. Hamon to‘ng‘illab yurgani-yurgan. Xullas, Marinoda¹ katta o‘zgarishlar bo‘lgani yo‘q.

– Gumashtangiz hali ham o‘sha kishimi?

– Ha, aytgandek, boshqa gumashta oldim. Krepostnoylikdan² ozod qilingan xizmatkorlarni saqlamaydigan bo‘ldim, saqlasam ham ularga biror javobgarlik ish topshirmayman. (Shunda Arkadiy ko‘zlar bilan Pyotrga ishora qildi, Il est libre en effet³, – dedi Nikolay Petrovich asta, – ammo bu kamerdiner-ku⁴. Hozirgi gumashtam shaharlik yigit, juda ishbilarmonga o‘xshaydi. Men unga bir yilga ikki yuz ellik so‘m maosh tayinladim. Aytgandek, – deb qo‘srimcha qildi Nikolay Petrovich peshanasi va qoshlarini qo‘li bilan artib, u tashvish tortganida yo biror nima demoqchi bo‘lganida, har doim shunday qilar edi. – Men hozir senga Marinoda aytarlik o‘zgarishlar bo‘lgani yo‘q dedim-ku... Bu gapim unchalik to‘g‘ri emas. Shuni ham aytib qo‘ymoqchimanki, garchi...

Nikolay Petrovich birpas duduqlanib qoldi-da, gapini fransuzcha davom ettirdi:

¹ Marino – Nikolay Petrovich Kirsanov qishlog‘i – qo‘rg‘oni.

² Krepostnoy – g‘oyatda qashshoq dehqonlar. Krepostnoylik huquqi asosida zamindorlar ularni qulday ishlatishgan.

³ Il est libre en effet’ – u chindan ham ozod (krepostnoy qulligidan) degan ma’noda.

⁴ Kamerdiner – uy egasining shaxsiy xizmatkori.

– Axloq bobida o'taketgan qattiqqa'l bo'lgan kishi mening ochiqso'zlashishimni nojo'ya deb topar; lekin, avvalo, buni yashirib bo'lmaydi, so'ngra, otaning, o'g'liga munosabati masalasiga kelganda har doim alohida yo'l tutib kelganligimni o'zing yaxshi bilasan. Albatta, mening ustimdandan qanday hukm chiqarsang haqlisan. Mening shu yoshimda... Xullas, haligi... O'sha qiz, ehtimol, sen u haqda eshitgan bo'lsang kerak.

– Fenichkami? – deb so'radi Arkadiy mulohaza qilmasdan.

Nikolay Petrovich bir qizardi-yu so'zida davom etdi:

– Uning nomini sekinroq aytgin... Ha u... O'sha qiz hozir menikida yashayotir. Men unga joy berdim... Anavi yerda ikkita kichik uycha bor edi. Albatta, lozim bo'lar ekan, bularning barini o'zgartirish mumkin.

– Qo'ysangiz-chi, dada, nega endi?

– O'rtog'ing biznikida mehmon bo'lib qoladi-ku... O'ng'aysiz...

– Bazarov xususida ko'nglingizni to'q qiling. U bunday masalalarda juda olivjanob kishi.

– Shundaylikka shundayku-ya, lekin fligelning¹ mazasi yo'q, shunisi yomon, – dedi Nikolay Petrovich.

– Dada, sizni qarang-a, afv so'ramoqchimisiz deyman! Uyat emasmi?

Nikolay Petrovich borgan sari qizarib:

– Albatta uyat, – dedi.

– Bo'ldi, dada, bo'ldi, bas! – muloyim kulib qo'ydi Arkadiy.

Keyin «Nimadan afv so'rayapti?», deb o'ylanib qoldi va dilida qandaydir yashirin, otasidan ustunlik hissi tug'ilib, mehribon-u muloyim dadasiga rahmi

¹ Fligel – hovli ichiga solingan kichik uy.

keldi. «Bas qiling», deb takrorladi u yana, o'zining kamolga erishganligidan beixtiyor huzurlanib.

Nikolay Petrovich, peshanasini artar ekan, barmoqlari orasidan o'g'liga qaradi va nimadir qalbiga sanchilganday bo'ldi... Biroq o'sha zahotiyoy, o'zini-o'zi aybladi, ancha sukut saqlaganidan keyin u:

– Ana endi bizning yerlarimiz boshlandi, – deb yana gap boshladi.

– Anavi ko'rinyotgan o'rmon ham bizniki bo'lsa kerak? – deb so'radi Arkadiy.

– Ha, bizniki. Lekin men uni sotib yubordim. Bu yil kesishadi.

– Nega uni sotdingiz?

– Pul zarur bo'lib qoldi. Undan tashqari, bu yer dehqonlarga o'tib ketadi.

– Sizga pul to'lamaydigan dehqonlargami?

– Bu endi ularning ishi, har holda, qachon bo'lsa-da, to'lashar.

– Essizgina o'rmon! – dedi Arkadiy va chor atrofга nazar tashlay boshladi.

Ular o'tib borayotgan joylarni xushmanzara deb aytib bo'lmaydi. Ufqqacha cho'zilib ketgan bepo-yon, past-baland dalalar, siyrak va pastak butalar qoplagan kichik o'rmonlar, o'z manzaralari bilan Yekaterina zamonasida ishlangan qadimgi inshootlarni eslatadigan chuqurliklar ko'rinaridi. Qirg'oqlari o'pirilib tushgan anhorlar, eskirgan to'g'onlar bilan burilgan kichkina damlar, usti poxol bilan yopilgan va poxoli qoraygan tomlarining yarmini shamol uchirib ketgan pastak uylardan iborat qishloqchalar, bo'shab qolgan xirmonxonalar yoni-dagi chetandan qilingan devorlari qiyshiq va darvozalari lang ochiq bostirmalar, unda-bunda shuvoglari ko'chgan g'ishtin butxonalar va vayrona

qabriston bilan buti bir tomonga qiyshayib ketgan yog'och butxonalar ham uchrab qolar edi. Arkadiyning yuragi qisila boshladi. Xuddi aksiga olganday ust-boshi juldur, oriq ot mingan dehqonlar duch kelib qolar, yo'l bo'yidagi po'stlog'i shilingan va shoxchalari singan tollar xuddi janda kiygan gadoydek tuyilardi. Eti ustixoniga yopishgan sigirlar go'yo g'ajib tashlayotgandek ariq bo'yidagi o'tlarni apil-tapil yeishardi. Ular go'yo kimningdir qo'rinchli va halokatli panjalaridan hozirgina qutulib chiqqanday edilar. Bu sho'rlik jonivorlarining go'zal ko'klamdag'i shunday xunuk ko'rinishi bo'ronli, qorli va ko'ngilsiz sovuq qish kunlarini eslatardi... «Yo'q, bu o'lka boy emas, – deb o'yladi Arkadiy, – bunda na farovonlikdan asar ko'rindi va na mehnat rohatidan. Bu o'lkaning shundayligicha qolishi yaramaydi, aslo, uni o'zgartirish zarur, biroq buni qanday amalga oshirsa, nimadan boshlasa bo'larkin?..»

Arkadiy o'ylardi, atrofda esa ko'klam nafasi ufurib turardi. Hammayoq ko'm-ko'k, butun nabotot olami: daraxtlar, butalar, o'tlar asta esgan iliq shabadada mayin to'lqinlanar, tovlanar, har tomonda to'rg'aylar chuldirashar, qushlar goh pastqam o'tloqlar ustidan sayrab uchishar, goh tinib to'ngakdan to'ngakka sakrashar, endigina ko'karib kelayotgan mayin bug'doylar orasida quzg'unlar qorayib uchar, ular endigina oqarib kelayotgan qora bug'doy ichiga kirib ko'zdan g'oyib bo'lar, goho uning tutunsimon to'lqinlari orasida boshlarigina ko'riniib qolar edi. Tavarakka hadeb tikilavergan Arkadiy xayollari astasekin tarqala boshladi. U ustidagi shinelini yechib tashladi va yosh boladay suyunib, dadasiga qaradi. Ota nuri diydasini tag'in bag'riga bosdi.

– Ana endi yaqin qoldi, – dedi Nikolay Petrovich.
 – Hu anavi tepalikka chiqib olsak bas, uyimiz ham ko'rinib qoladi. Biz, Arkasha, sen bilan yayrab-yash-nab umr kechiramiz. Agar xo'jalik yumushlari zerik-tirmasa, bu ishda menga qarashasan. Endi ikkovichimiz bir-birimiz bilan inoq bo'lismiz, bir-birimizni yaxshi bilishimiz kerak, shunday emasmi, o'g'lim?

– Albatta, – dedi Arkadiy. – Bugun kun muncha ham yaxshi-ya!

– Sening kelishing sharafiga-da, bolajonim. Ha, ko'klamning eng yashnagan chog'i.

Aytgandek, Pushkinning fikrlariga qo'shilaman, Yevgeniy Onegindagi quyidagi misralar esingdam:

Kelishing naqadar hasrat baxsh etar,

Bahor, bahor! Sen, ey, sevgi mavsumi!

Qanday...

Shu onda orqada tarantasda kelayotgan Bazarovning:

– Arkadiy! Gugurtingni berib yubor, tamakini chekib olay, – degan ovozi eshitilib qoldi.

Nikolay Petrovich jim bo'ldi. Uning gaplariga biroz ajablanib va shu bilan birga fikriga xayriyohlik bilan qulq solayotgan Arkadiy cho'ntagidan darrov kumush qutichali gugurtini olib, Pyotrdan Bazarovga berib yubordi. Bazarov yana:

– Tamaki chekasamni? – deb qichqirdi.

– Mayli, berib yubor! – javob qildi Arkadiy.

Pyotr qaytib kelib, Arkadiyga gugurt bilan birga bitta yo'g'on qora tamakini uzatdi. Arkadiy uni darrov tutatdi. Atrofga achchiq tamaki hidi tarqaldi. Umrida hech tamaki chekmagan Nikolay Petro-

vich, o'g'lini ranjitmaslik uchun sezdirmaygina bextiyor burnini chetga o'girdi.

Chorak soatdan keyin ikkala ekipaj ham qizil tunuka tomli, kulrang bo'yoq bilan bo'yalgan yangi yog'och uyning zinapoyasi oldiga kelib to'xtadi. Novaya-Slobodka, yoyinki dehqonlar tili bilan aytganda, Bobiliy-Xutor deb ataladigan Marino qishlog'i xuddi mana shu edi.

4

Xo'jayirlarni kutib olgani xizmatkorlar eshik oldiga yopirilishib chiqmadi: faqat o'n ikki yoshlar chamasidagi bir qiz qarshiladi, uning ketidan xuddi Pyotrga o'xshab, tugmasiga oq tamg'a tushirilgan kalta jiyilan kiygan bir yigit – Pavel Petrovich Kirsanovning xizmatkori ko'rindi. Undamadan kelib, izvoshning eshigini ochdi-da, tarantasnning pardasini ko'tardi. Nikolay Petrovich o'g'li bilan Bazarovni ergashtirib, qorong'iroq, bo'm-bo'sh keng yo'lakdan o'tib, yangicha yasatilgan mehmonxonaga kirdi. Ular yo'lakdan o'tayotganlarida, mehmonxona eshigi ortidan yoshgina bir juvonning yuzi ko'zga tashlandi.

Nikolay Petrovich bosh kiyimini olib, sochlariini tuzatar ekan:

- Ana endi uyga ham yetib keldik, hozir eng muhimi, ovqat yeb, dam olishimiz kerak, – dedi.
- Darhaqiqat, ovqatlanib olsak yomon bo'lmasdi,
- deya kerilib suhbatga aralashdi Bazarov va divanga cho'kdi.
- Ha-ha, qani, ovqatni olib kelinglar, tezroq, – deb bekordan-bekorga depsindi Nikolay Petrovich.
- Ana, Prokofyevich ham keldi.

Egniga mis tugmali jigarrang frak kiygan, bo'yniga pushtirang ro'mol o'ragan chamasi olt-mish yoshlardagi oriqqina, qoramag'iz, mo'ysafid odam eshikdan kirib keldi. U iljayganicha, Arkadiy bilan kelib ko'rishdi, keyin mehmonga ta-zim qilib, eshik yoniga bordi-da, qo'llarini orqasi-ga qilib turdi.

– Mana, bu Prokofyevich, – deb gap boshladи Nikolay Petrovich, – shunday qilib, Arkadiy ham keldi... Qalay? Ko'zingga qanday ko'rinyapti?

– Juda joyida, – dedi chol yana iljayib, keyin darrov qalin qoshlarini pastga tushirib, qovog'i solingan holda, – stol ustiga dasturxon yozishni buyurasizmi? – deb so'radi salmoqlab.

– Ha-ha, albatta, – dedi Nikolay Petrovich cholga, so'ng Bazarovga qarab, dedi: – Yevgeniy Vasil'yevich, avval uyingizni ko'rib chiqmaysizmi?

Bazarov choponini yechayotib:

– Tashakkur, hojati yo'q, jomadonim bilan mana bu kiyimni o'sha yoqqa opchiqib qo'yishni buyursangiz, kifoya, – dedi.

– Xo'p, xo'p, Prokofyevich, shinellarini olgin. (Prokofyevich hayrat ichra Bazarovning kiyimini qo'shqo'llab oldi-da, baland ko'tarib, oyoq uchida yurib chiqib ketdi). Sen-chi, Arkadiy, hujrangga birrov chiqib kelasanmi?

– Ha, tozalanib olish kerak, – deb Arkadiy endi eshik tomon yurmoqchi bo'lgan paytda egniga ing-lizcha qoramtil kostyum, oyog'ida qisqa qo'njli amirkon etik kiygan, bo'ynida yangi bo'yinbog' taqqan o'rta bo'yli Pavel Petrovich Kirsanov kirib keldi. Ko'rinishdan bu kishi qirq besh yoshlarga borgan edi, qirqilgan kalta sochlari oqargan, xudi asl kumushdek yarqirab turardi. Uning zahil,

ammo ajinsiz, nihoyatda kelishgan va tiniq yuzi ilgari juda ham chiroyli yigit bo'lganligidan dalolat berib turardi. Ayniqsa, uning nurli va cho'ziqroq qora ko'zлari chiroyli edi. Arkadiyning go'zal va naslnasabli amakisi butun qiyofasi bilan yoshlik soxtini va kishilarda taxminan yigirma yoshlardan keyin yo'q bo'lib ketadigan o'sha o'sish, o'zini yer-suv ishlardan chetga tortish havasini saqlagan bir kishi edi.

Pavel Petrovich qo'lini shiminining cho'ntagidan chiqarib, jiyaniga cho'zdi, uning uzun barmoqlari yirik tugmali oppoqqina qo'lqopida yanada chiroyliroq bo'lib ko'rinaridi. Pavel Petrovich jiyani bilan avval yevropachasiga qo'l berib so'rashdi, keyin russchasiga uch marta o'pishdi, ya'ni o'zining xushbo'y mo'ylovini uning yuziga uch marta tekkizdi-da:

– Xush keldingiz, – dedi.

Nikolay Petrovich uni Bazarov bilan tanishtirdi. Pavel Petrovich o'zining ixcham gavdasini andak engashtirib, tabassum qilsa-da, lekin qo'l bermadi va, hatto qo'lini yana cho'ntagiga tiqib qo'ydi, so'ng oppoq tishlarini yarqiratib, kiftini qoqarkan, nazokat bilan tebranib, yoqimli tovushda:

– Men sizlarni bugun kelmassizlar deb o'ylay boshlagan edim, yo'lda biror kor-hol ro'y bermadimi? – dedi.

– Hech nima bo'lgani yo'q, – deb javob qildi Arkadiy, – shunday, o'zimiz shoshilmasdan keldik, lekin qorin piyozning po'sti bo'lib ketdi. Bo'ridek ochmiz. Dada, Prokofyevichingizga aytsangiz, tezroq qimirlasa, men hozir qaytib kelaman.

Arkadiy shunday deyishi bilan Bazarov birdaniga divandan turib:

– Shoshma, men ham sen bilan birga boraman! – dedi. Ikkovlon oldinma-keyin chiqib ketishdi.

- Bu kim? – deb so‘radi Pavel Petrovich.
- Arkadiyning o‘rtog‘i. Uning aytishicha, juda aqlli yigit emish.
- Biznikida mehmon bo‘lib turarkanmi?
- Ha.
- Shu paxmog‘-a?
- Ha.

Pavel Petrovich tirnog‘i bilan stolni chertdi.

- Menimcha, Arkadiy sest degouredi¹. Qaytgani-ga juda xursandman, – dedi u.

Kechki ovqat mahalida oz so‘zlashildi. Ayniqsa, Bazarov og‘iz ochmadi desa ham bo‘ladi, ammo ovqatni ko‘p yedi. Nikolay Petrovich o‘z hayoti, fermerlik sohasida yuz bergen turli hodisalar, yaqinda hukumat tomonidan amalga oshiriladigan choralar, qo‘mita va deputatlar, mashinalarni ishlatish va shu singarilar haqida so‘ylay ketdi. Pavel Petrovich oshxonada asta-sekin u yoqdan-bu yoqqa yurar (u aslo kechqurun ovqat yemasdi), to‘latib qizil may quyilgan qadahdan ora-sira bir-ikki qul-tum ho‘plar va har zamonda bir luqma tashlab, «Ha! Ha-ha! O‘zim!» deb qo‘ya qolardi. Arkadiy Peterburg yangiliklaridan gapirib berdi. Ammo u biroz uyalar edi. Yoshligidan ko‘rib yurib, bola deb qarashga odatlanganlar davrasida yigitlar doim shunday uyatchan bo‘ladilar. U jo‘rttaga gapini cho‘zar, «dada» deb chaqirmaslikka harakat qilar va, hatto, bir safar til uchida «ota» degan so‘zni ham aytib qo‘ydi. Arkadiy ortiqcha andishasizlik bilan piyolaga keragidan ortiq may quyib, hammasini ichib yubordi. Prokofyevich undan ko‘zini uzmasdan lablarinigina qimtib qo‘ya qoldi. Kechki ovqatdan so‘ng hamma tarqaldi.

¹ Sest degouredi – andishasiz bo‘lib qolibdi.

Bazarov ustidagi xalati bilan Arkadiyning kara-voti yonida kalta mushtugini tortib, o'tirar ekan:

– Amaking qiziq tabiatli kishiga o'xshaydi. Qishloqda ham shunaqangi oliftagarchilikmi! Tirnoqlariga qapa, ularni ko'rgazmaga qo'yса ham bo'ladi! – dedi.

– Hali sen uning kimligini bilmaysan, o'z davrida arslonday odam edi. Vaqt bilan men senga u haqda gapirib berarman. U kelishgan yigit bo'lib, ko'p xotinlarning boshini garang qilib yurgan, – dedi Arkadiy.

– Shundaymi?! Eski odatini qo'msayapti degin. Afsuski, bu yerda shaydo bo'ladigan jazman yo'q-da. Men boshdan-oyoq ko'z yogurtirdim. Yoqasini aytgin, xuddi toshdan qilinganga o'xshaydi-ya. Baqbaqalarini ham juda silliq qilib qirdiripti. Arkadiy Nikolayevich, bu deyman, kulgili emasmi?

– Ehtimol, lekin o'zi juda yaxshi odam.

– Eskirgan odat-da! Biroq dadang yaxshi odam ekan. Ammo she'r o'qishi o'ziga biroz kelishmaydi, xo'jalik ishlariga ham uquvi bo'lmasa kerak nazarimda, lekin o'zi yaxshi odam ekan.

– Dadam oltin odam.

– Andak cho'chiyapti-a, fahmladingmi?

Arkadiy, go'yo o'zi cho'chimagandek boshini chayqab qo'ydi.

– Bu keksa xayolparastlar ajib odamlar-da! – deb gapini davom ettirdi Bazarov. – O'zlarini asabiylashtirguncha harakat qiladilar-da... muvozanat degani darrov buziladi. Endi, xayr! Hujramda ingлиз obdastasi turibdi, lekin hujraning eshigi quflanmaydi. Harqalay, buni taqdirlash kerak – ingliz obdastasi, ya'ni madaniyat!

Bazarov chiqib ketdi. Arkadiyning vaqtি chog' edi. O'zi tug'ilgan uyda, ehtimolki, enagasingin muloyim

va hormas-tolmas mehribon qo'llari bilan tiqilgan yumshoq tanish ko'rpa ichida uyquga ketish qanday yaxshi. Arkadiy enagasi Yegorovnani eslab, og'ir xo'rsinib qo'ydi va «Joying jannatda bo'sin», dedi. O'zi haqida Xudoga iltijo qilmas edi.

Arkadiy ham, Bazarov ham tezda uyquga ketishdi, lekin uydagi boshqa kishilar allamahalgacha uslashmadi. O'g'lining kelganiga Nikolay Petrovich o'zida yo'q suyungan edi. U joyiga yotdi-yu, lekin shamni o'chirmadi, qo'lini boshiga tirab, uzoq o'nga toldi. Akasi Pavel Petrovich esa yarim kecha bo'lishiga qaramay, o'z uyida, tosh-ko'mir xiyol yashnayotgan kamin oldidagi katta yumshoq kursida o'tirar edi. U kiyimlarini almashtirmsandan faqat amirkon etigini yechib, dastaksiz qizil xitoycha poyabzal kiyib olgan edi. Pavel Petrovichning qo'lida «Galignani»¹ jurnalining so'nggi soni bo'lib, lekin u jurnalni o'qimasdi. Kamin ichidagi goh yashnab, goh uchayotgan havorang alangaga tikilib turar edi... Uning xayoli qayerlarda uchib yurgani yolg'iz Xudoga ayon, lekin uning o'ylari yolg'iz o'tgan zamon to'g'risida emasdi, chunki chuqur o'nga tolgan chehrasi tund, qovogi soliq ediki, yolg'iz o'tmish xotiralarinigina o'ylagan kishining yuzi bunday bo'lmaydi. Orqadagi kichkina uyda, katta sandiq ustida havorang nimcha kiygan, qo'ng'ir sochli boshiga oq ro'mol tashlagan bir yosh juvon o'tirardi. Ayolning ismi Fenichka edi. U goh nimagadir qulqolar, goh uyqisirab mudrar, goh ochiq eshikka qarab qo'yardi. Eshik ortidan bolalar belanchagi ko'rinar va unda uxbab yotgan chaqaloqning bir zaylda nafas olgani eshitilib turar edi.

¹ Galignani – ingliz tilida nashr qilinadigan jurnal.



Ertasiga ertalab Bazarov hammadan ilgari uyg'ondi va uydan tashqariga chiqdi. Atrofga bir nazar solganidan keyin: «Be, bu joylar u aytganday yaxshi emas ekan-kul!» deb o'yladi. Nikolay Petrovich o'z dehqonlari bilan yerining chegarasini aniqlab olganida, yangi qo'rg'on solish uchun to'rt botmon tep-tekis, quryq yer ajratib olgan edi. Shu yerda u bir uy, xizmatkorlarga xonalar va mol-hol uchun og'ilxona va ferma imoratlari soldirgan, hovuz va ikkita quduq kavlatgandi, biroq yosh daraxtlar yaxshi o'smagan, hovuzda suv juda kam va quduqlarning suvi sho'r chiqqan edi. Atrofidagi siren guli-yu akas daraxtigina yaxshi o'sgan shiyponda ba'zan choy ichishar va ovqatlanishardi. Bazarov bir necha daqiqa ichra bog'ning barcha yo'llarini aylanib chiqdi, molxona-yu otxonaga ham kirdi, keyin ikki xizmatkor bolani topib, ular bilan darrov tanishib oldi, so'ng uchovlashib qo'rg'ondan bir chaqirim naridagi ko'lga baqa tutgani ketishdi. Bolalardan biri undan:

– Baqani nima qilasiz, xo'jayin? – deb so'radi.

O'zidan past tabaqa vakillarini nazariga ilmay, ular bilan doimo iltifotsiz muomala qilsa-da, biroq odamlarni o'ziga rom qilishga juda usta bo'lgan Bazarov bolaning savoliga javoban:

– Qornini yorib, uning ichida nimalar bo'layotganini ko'raman. Sen bilan biz ham shu baqaga o'xshash jonivormiz, farqimiz shuki, biz tikka turib yuramiz. Baqanining ichini bilganimdan keyin o'z ichimizda nimalar bo'layotganini ham bilib olaman.

– Bilib nima qilasiz?

– Agarda tobing qochib qolsa va seni davolaydigan bo'ssam, o'shanda yanglishmaslik uchun.

- Siz do'xtirmisiz?
- Ha.
- Vaska, eshitayapsanmi, xo'jayin aytayaptilarki, sen bilan biz ham xuddi o'sha baqaning o'zi emishmiz. Qizig'-a!

Sochi paxtaday oppoq, ustiga tik yoqali uzun kamzul, oyoq yalang yetti yashar Vaska:

- Men baqadan qo'rqaman, - dedi.
- Nimasidan qo'rqasan? Baqa yeb qo'yarmidi?
- Qani, suvga tushinglar-chi, shovvozlar, - dedi Bazarov ularga.

Bu orada Nikolay Petrovich ham uyg'onib, ustboshini kiyishga ulgurgan Arkadiyning huzuriga kirib keldi. Ota-bola ayvonga chiqishdi. Ayvon panjurasi oldiga qo'yilgan stolda ikkita kattakon guldasta orasida samovar qaynab turar edi. Kecha mehmonlarni qarshilagan haligi qizcha ayvonga yaqinlashib, mayin ovoz bilan:

- Fedosya Nikolayevnaning toblari bo'lmay turibdi, choyga chiqolmaydilar. Choyni o'zingiz quyaverasizmi, yo Dunyashani yuborsinlarmi? Shuni sizlardan so'rashni buyurdilar, - dedi.
- O'zim quyaman, o'zim, - dedi Nikolay Petrovich shoshib-pishib, - sen, Arkadiy, choyni nima bilan ichasan: qaymoq bilanmi yo limon?
- Qaymoq bilan, - deb javob qildi Arkadiy va birozdan so'ng savol ohangida: - dada, - deb murojaat qildi.

Nikolay Petrovich javdirab, o'g'liga qaradi-da:

- Nima gap? - dedi.
- Arkadiy pastga qaradi.
- Agar savolim sizga nojo'ya bo'lib ko'rinsa, kechirasiz, dada, - deya gap boshladi u. - Kechagi ochiq so'zlaganining bilan meni ham ochiq gapirishga majbur qilayapsiz... Xafa bo'lmafsizmi?
- Gapiräver.

– Siz mening yurak betlab so'rashimga yo'l qo'yyapsiz... Nega Fen... mening bu yerdaligim uchungina u kelib, choy quyib bermayaptimi?

Nikolay Petrovich yuzini sal chetga o'girib:

– Ehtimol, shundaydir... U, balki... uyalayotgandir... – dedi.

Arkadiy dadasiga bir qarab qo'ydi.

– U bekordan-bekorga uyalayapti. Birinchidan, mening turmushga qanday qarashim sizga ma'lum (bu so'zlarni Arkadiy juda yoqtirib aytardi), ikkinchidan, sizning turmushingiz, odatlaringizga ham zarracha e'tirozim yo'q. Buning ustiga aminmanki, siz har qanaqa xotinni ham xushlayvermaysiz. Agar Fenichka bilan birga turmush kechirishga jazm qilgan ekansiz, demak, u shunga loyiq. Har holda o'g'il otaga, ayniqsa, menday o'g'il va, ayniqsa, mening hech qanday ra'yimni qaytarmaydigan sizday otaga qozi bo'lolmaydi.

Boshda Arkadiyning tovushi titrardi, chunki u o'zini shu tobda oliyanob his qilardi. Ammo shu bilan birga dadasiga nasihatgo'ylik qilayotganini ham sezardi. Odamning o'z nutqi o'ziga qattiq ta'sir qiladi. Shu bois, Arkadiy so'nggi so'zlarini dadil va, hatto, ta'sirli so'zladidi.

Nikolay Petrovich muloyim tovush bilan:

– Rahmat, Arkasha, – dedi va qo'li bilan yana qoshlarini, peshanasini arta boshladi. – Sening taxminlaring to'g'ri. Albatta, qiz loyiq bo'lmaganda edi... Har holda bu – durust o'ylanmay qilingan ish emas. Bu haqda sen bilan so'zlashish menga o'ng'aysiz. Sening oldingga chiqish, xususan, uyga birinchi kelgan kuniyoq yuzma-yuz o'tirish uning uchun juda og'ir.

Arkadiyning oliyjanoblik hislari yana mavj urib:

– U holda uning oldiga men o'zim boraman, – dedi-da, o'rnidan sapchib turdi, – mendan uyalib o'tirishning hojati yo'qligini unga tushuntiray.

Nikolay Petrovich ham o'rnidan turdi.

– Arkadiy, – dedi u, – shoshilma... qanday bo'ladi... U yoqqa.. men senga aytganim yo'q...

Biroq Arkadiy uning gapiga qulq solmasdan, yugurganicha, ayvondan chiqib ketdi. Nikolay Petrovich o'g'lining ortidan qarab qoldi va boshi qotib, kursiga o'tirdi. Uning yuragi gupillab ura boshladidi... Shu tobda u kelgusida o'g'li bilan o'zi o'rtasida muqarrar g'alati munosabatlar ro'y berishini o'ylardimi, bu ishni qilmaganida Arkadiy, balki uni ko'proq hurmat qilar deb iqror edimi yoki o'zining zaifligidan o'zi koyinib o'tirarmidi, buni aytish qiyin edi; bu xayollarining barisi ham ko'ngildan joy olgan bo'lsa-da, lekin hammasi faqat sezgi shaklida bo'lib, u ham ravshan emas, yuzi boyagidek qizil va yuragi esa hamon tepmoqda edi.

Tez-tez yurib kelayotgan oyoq tovushi eshitildi. Arkadiy ayvonchaga qaytib keldi. U yuzida qandaydir muloyimlik va xursandlik ifodasi bilan:

– Ota, biz tanishdik! Fedosya Nikolayevnaning rostdanam bugun sal tobi yo'qqa o'xshaydi, keyinroq chiqaman, dedilar. Nega menga ukam borligini aytmaditingiz? Men uni kecha kechqurunoq, hozirgiday o'pib-o'pib olgan bo'lar edim.

Nikolay Petrovich nimadir demoqchi, o'rnidan turib, quchog'ini ochmoqchi bo'ldi. Arkadiy uning bo'yniga tashlandi.

Shu onda ular ortidan Pavel Petrovichning:

– Tag'in nima gap? Yana quchoqlashyapsizlar-mi? – degan tovushi eshitilib qoldi.

Shu tobda uning hozir bo'lganligidan ota-bola bavar suyunishdi. Ba'zan shunday ta'sirli holatlar boladiki, undan tezroq qutulishni istaysan kishi.

Nikolay Petrovichning kayfiyati ko'tarilib:

– Nega hayron bo'layapsan? Arkashani qachon-dan buyon kutaman, axir... Kechadan beri uning diydoriga to'yganimcha yo'q, – dedi.

– Aslo hayron bo'lmadim, – dedi Pavel Petrovich,
– o'zim ham u bilan quchoqlashishga tayyorman.

Arkadiy amakisining oldiga keldi va yana betiga uning xushbo'y mo'ylovi tekkanini sezdi. Pavel Petrovich stol yoniga o'tirdi. Uning egnida o'ziga juda yarashgan ertalab kiyiladigan inglizcha kostyum, boshida kichkinagina fas. Bu fas va bo'shgina boylangan bo'yinbog' – qishloq hayotining erkin-ligidan darak berib turar edi. Biroq ko'ylagining tor yoqasi odatdagicha qattiq qisib, ustara bilan qirilgan iyagiga tiralib turar, ko'ylagi ham oq emas, balki chiporroq bo'lib ertalabki yasan-tusan qoidasiga muvofiq edi.

Pavel Petrovich Arkadiydan:

– O'rtog'ing qani? – deb so'radi.
– Uyda yo'q. Odatda, u erta turib, biror joyga chiqib ketadi. Eng muhimi, unga e'tibor qilmaslik kerak. U takallufni yoqtirmaydi.

– Ha, sezilib turibdi, – dedi Pavel Petrovich va nonga bamaylixotir moy surkardi: – Biznikida uzoq turadimi?

– Non-nasibasiga qarab. Otasining oldiga ketayotgan edi, yo'l-yo'lakay biznikiga tushib qoldi.

– Otasi qayerda turarkan?

– Bizning gubernamizda, bu yerga sakson cha-qirimcha keladi. U yerda otasining kichkinagina mulki bor. U kishi ilgari polk doktori bo'lgan ekan.

– Ha, bo'ldi. Bazarov degan sharifni qayerda eshitgan ekanman, deb o'zimdan-o'zim so'rayotgandim. Nikolay, otamizning diviziyasida Bazarov degan tabib bo'lar edi, esingda bormi?

– Bor edi shekilli.

– Bor edi, bor edi, ana o'sha tabib uning otasi ekan-da, hm! – dedi Pavel Petrovich mo'ylovini burab va biroz sukut qilgach: – Xo'sh, Bazarov afandining o'zi kim bo'ladi? – deb so'radi.

Arkadiy kulimsirab:

– Bazarov kim bo'ladi deysizmi? Xohlasangiz, amaki, men uning kimligini sizga aytib beraman, – dedi.

– Marhamat, jiyanginam.

– U – nigilist.

– Nima? – deb so'radi Nikolay Petrovich. Pavel Petrovich esa moy olingan pichoqni yuqoriga ko'targanicha, turgan joyida qotib qoldi.

– U – nigilist, – deb takrorladi Arkadiy yana.

Nikolay Petrovich so'zga kirishib:

– Nigilist. Bu, lotincha nihil, ya'ni hech nima degan so'zdan olingan bo'lsa kerak, deyman. Binobarin, bu so'z hech nimani e'tirof etmaydigan kishiga qarata aytilar ekan-da? – dedi.

Pavel Petrovich uning so'ziga qo'shilib:

– Hech nimani hurmat qilmaydigan kishiga aytildi, degin, – dedi-da, yana moy yeishsga tutindi.

– Har narsaga tanqid nuqtayi nazaridan qarayveradigan kishilarga aytildi, – deb qo'shib qo'ydi Arkadiy.

– Baribir emasmi? – deb so'radi Pavel Petrovich.

– Yo'q, baribir emas. Nigilist hech qanday obro'li zotlar oldida bosh egmaydi, hurmatga sazovor har qanday qarashni ham e'tiqod tarzida qabul qilmaydi.

Pavel Petrovich uning so'zini bo'lib:

- Xo'sh, shu yaxshimi endi? – dedi.
- Har kimga har xil, amaki. Birovga yaxshi, birovga yomon.

– Shunday degin. Biroq bu bizga to'g'ri kelmaydi-ganga o'xshaydi. Biz eski odamlarmiz. Fikrimizcha, prinsipsiz, ya'ni (Pavel Petrovich bu so'zni fransuz-larday oxirgi hijoga bosib «prinsip» deb, Arkadiy esa aksincha, «printsip» deb birinchi hijoga bosib, talaf-fuz etar edi), sen aytmoqchi, e'tiqod tarzida qabul qil-ingan qarashlardan bo'lak bir qadam ham bosish va nafas olish mumkin emas. Vous avez change taut cela¹, Xudo umrlaringni uzoq qilsin va generallik mansabini bersin, biz bo'sak, sizlarni ko'rib zavqlanaylik... Haligi nima edi?

– Nigilistlar, – dedi Arkadiy aniq qilib.

– Ha. Ilgari gegelchilar² bor edi, endi nigilistlar chiqibdi-da. Ko'ramiz, bariga munkir kelib qanday yasharkansizlar, endi, ukam, Nikolay Petrovich, bir jiringlatsang bo'lardi, kakao ichadigan vaqtim ham bo'lib qoldi.

Nikolay Petrovich qo'ng'iroq chaldi va «Dunyasha!» deb chaqirdi, lekin Dunyashaning o'rniga ay-vongga Fenichkaning o'zi chiqdi. U oppoqqina, yum-shoqqina, qorasoch va shahlo ko'z, labi bolalarniki singari qip-qizil bo'rtgan, qo'llari nozik, yigirma uch yoshlар chamasidagi yosh bir juvon edi. Uning ustida ozodagina chit ko'yvak lo'ppigina yelkalariga zangor durrachasi tushib turardi. U katta piyolada kakao olib kirib, Pavel Petrovichning oldiga qo'ydi-

¹ Sizlar buning barini o'zgartirdilaring.

² Gegelchilar – XIX asr boshlarida olmon faylasufi Georg Vilgelm Fridrix Gegelning qarashlariga xayrixoh yoshlар o'zlarini shunday ataganlar.

da, juda uyalib, muloyim yuzi loladay qizarib ketdi. Fenichka yerga qarab, barmoq uchlarini tirab, stol yonida to'xtab qoldi. U bu yerga kelganiga xijolat chekkanday, shuningdek, kelishga haqliday ko'rinar edi.

Pavel Petrovich qoshlarini chimirib qo'ydi, Nikolay Petrovich esa nima qilishini bilmay:

– Salom, Fenichka, – deb qo'ya qoldi.

Fenichka ohistagina, lekin qo'ng'iroqday ovoz bilan:

– Salom, – dedi va do'stona jilmayib o'tirgan Arkadiyga ko'z qirini tashladi-da, sekingina chiqib ketdi. Yurganda u biroz chayqalib yurar, ammo bu uning o'ziga yarashar edi.

Ayvonda bir necha daqiqa jimlik hukm surdi. Pavel Petrovich kakaoni ichayotib, birdaniga boshini ko'tardi-da, sekin:

– Mana, janob nigilist ham biz tomonga qadam ranjida qilibdilar, – deb qo'ydi.

Haqiqatan ham, Bazarov bog'dagi gul push-talari ustidan yurib kelmoqda edi. Uning movut paltosi bilan shimi loy bo'lib ketgandi. Eski, du-maloq shlyapasi tepasida yopishqoq botqoq o'simligi chirmashib, osilib turardi. O'ng qo'lidagi xaltachada qandaydir bir jonivor qimirlardi. U jadallab ayvon oldiga keldi-da, boshini chayqab:

– Salom janoblar, choyga biroz kechikib qol-ganim uchun kechirasizlar. Hozir kelaman, mana bu asirlarni joylashtirib qo'yay, – dedi.

– Qo'lingizdagি nima, zuluklarmi? – deb so'radi Pavel Petrovich.

– Yo'q, baqalar.

– Baqalarni yeysizmi, yoyinki ko'paytirasizmi?

– Tajriba uchun, – deb beparvo javob berdi Bazarov va uyiga kirib ketdi.

– Baqalarni yorib ko'radi, – dedi Pavel Petrovich,
– qarashlarga ishonmaydi-yu baqaga ishonarkan.

Arkadiy o'kinch bilan amakisiga qaradi. Nikolay Petrovich sezdirmaygina kiftini uchirib qo'ydi. Pavel Petrovichning o'zi esa o'rinsiz qochiriq qilganini fahmlab, xo'jalik ishlari to'g'risida, kuni kecha kelib, Foma degan xizmatkor «janjalkashlik qiladi» va «o'z bilgicha yuradi», deb shikoyat qilgan yangi sarkor to'g'risida gap ochib qoldi. Pavel Petrovich so'z orasida: «Ezopning o'zi yomon odam ekan, hamma joyda ham yomonlik bilan nom chiqargan, yoshini yashab, dunyodan ahmoqligicha o'tib ketar», deb qo'ydi.

6

Bazarov qaytib kelib, stol yoniga o'tirdi-da, shoshib-pishib choy icha boshladı. Aka-uka indamasdan unga tikilishar, Arkadiy bolsa bildirmay, goh otasiغا, goh amakisiga qarab qo'yardi. Nihoyat, Nikolay Petrovich:

- Qayoqqa bordingiz? – deb so'radi.
- Shu yerda, terakzor yonida kichik ko'l bor ekan, o'sha yerga bordim. Beshtacha loyxo'rak hurkib, uchib ketdi. Sen otib olsang bo'ladi, Arkadiy.
- Siz ovchi emasmisiz?
- Yo'q!
- Pavel Petrovich ham o'z navbatida gapga aralashib:
 - Siz aslida fizika bilan shug'ullanaszizmi? – deb so'radi.
 - Ha, fizika bilan. Umuman tibbiyat fanlari bilan shug'ullanaman.
 - So'nggi vaqtarda olmonlar bu sohada boshqlardan o'tib ketgan deyishadi.

Bazarov:

– Ha shunday, olmonlar bu sohada bizning ustozimiz, – deb qo‘ya qoldi e’tiborsizgina.

Pavel Petrovich «nemislar» deyish o‘rniga, «olmonlar» so‘zini ishlatishi istehzo ohangida aytilgan bolsa hamki, buni hech kim fahmlamadi. U kamoli tavoze bilan so‘zini davom ettirib:

– Siz nemislar haqida shunchalik yuqori fikr-damisiz-a? – dedi.

Nimadir uning ichini tirnay boshladi. Bazarovning ibosizligi uning kibor tabiatiga ozor berar edi. Bu tabibvachcha hayiqish u yoqda tursin, hatto cho‘rt kesib gapirar, istar-istamas javob qaytarar, ovozida allaqanday dag‘allik, hatto surbetlik sezilardi.

– U yerdagi olimlar ishbilarmon odamlar.

– Balli, barakalla. Rus olimlari to‘g‘risida siz bunchalik balandparvoz fikr egasi bo‘lmasangiz kerak?

– Shunday desa ham bo‘ladi.

Pavel Petrovich qomatini rostladi va boshini orqaga tashlab:

– Bu tahsinga loyiq fidokorlik. U holda nega Arkadiy Nikolayevich bizga sizni hech qanday obro‘li zotni e’tirof etmaydi, dedi? Siz obro‘li zotlarga ishonmaysizmi? – so‘radi u.

– Axir nima uchun men ularni e’tirof etay? Ularning nimasiga ishonay? Men haqiqat taraf doriman, vassalom.

– Nemislarning hammasiyam haq gapni so‘zlar ekanmi? – dedi Pavel Petrovich va shu gapni aytgani-da, afti shunday loqayd bo‘ldiki, go‘yo bu dunyoni qo‘yib, ko‘klarga uchib ketgandek edi. So‘z tala‘ o‘tirishni mutlaqo istamagan Bazarov salgina

– Hammasi emas, – dedi.

Pavel Petrovich «do'sting juda ham nazokatli kishi ekan» demoqchi bo'lganday, Arkadiyga bir qarab qo'ydi.

Pavel Petrovich yana chiranib gapira ketdi:

– Menga qolsa, aybga buyurmaysiz, nemislarni taqdirlamayman. Rus nemislarini bu yerda zikr qilib ham o'tirmayman, chunki ularning qanday zotligi hammaga ma'lum. Ammo nemis nemislari ham mening tabiatimga to'g'ri kelmaydi. Ilgarilariku, uncha-muncha tuzuk edi. U vaqtarda ularning masalan, Shiller yoxud Gyote singari mashhurlari bor edi... Mana, ayniqsa, ukamizning ularga ehtiromi yuksak ekan... Endilikda esa allaqanday kimyogar-u manfaatparstlar ko'payib ketdi...

Bazarov uning so'zini bo'lib:

– Yaxshi kimyogar – har qanday shoirdan yuz karra foydaliroq, – dedi.
– Shunaqa deng-a, demak siz san'atni e'tirof etmas ekansiz-da? – dedi Pavel Petrovich va qoshlarini uyqusiragan kabi sal ko'tarib qo'ydi.

– Tekinga pul topish san'ati bo'lmasa, bavosil ham bo'lmaydi¹, – dedi Bazarov tahqiqomuz jilmayib.

– Balli, balli, shunaqangi hazillashayapman deng-a. Demak, siz bularning barini inkor qilar-kansiz-da? Xo'p, shunday ham bo'lsin, binobarin, siz faqatgina fanga ishonar ekansiz-da?!

– Men sizga, o'zimning hech nimaga ishonmasligimni qayd qilib o'tgan edim. Fan, umuman fan, nima demak? Har qanday fan ma'lum bir hunar yoki bilimdan iborat, umuman fan deganining o'zi yo'q.

¹ Bu o'rinda Bazarovning mazax qilib aytgan so'zi bavosil kasalidan butkul qutulish uchun hech qanday dori-darmon bo'lmagani kabi san'atga ham ustunlik berilishi mumkin emas, degan ma'noni anglatadi.

– Juda soz. Xo'sh, bo'lmasa, odamlar qabul qilgan boshqa tartib-qoidalar xususida nima deysiz, ularni ham inkor etasizmi?

– Nima bu, meni so'roq qilyapsizmi? – dedi Bazarov.

Pavel Petrovichning rangi sal oqardi... Nikolay Petrovich suhbatga aralashishni lozim topib:

– Biz, marhamatli Yevgeniy Vasilich, – dedi, – bu masala haqida siz bilan qachon bo'lsa-da, mufas-salroq gurunglashamiz. O'shanda fikringizni bilib, o'z fikrimizni ham aytarmiz. Men sizning tibbiyot fanlari bilan shug'ullanayotganingizdan juda ham mamnunman. Yerlarni o'g'itlash borasida Libix¹ ajoyib kashfiyotlar qilibdi, deb eshitdim. Siz menga biror foydali maslahat berib, ekin-tikin ishlarimga yordam berishingiz mumkin.

– Bosh ustiga, Nikolay Petrovich. Lekin bizga hali Libixday bo'lish qayoqda deysiz! Avvalo, alif-boni o'rganib, keyin kitob o'qishga tutinish kerak. Biz esa hali alifni tayoq deyolmaymiz-ku.

Nikolay Petrovich: «Rostdanam nigilistning o'zginasi ekansan», deb o'yladi.

– Har holda fursati bilan o'zingizga murojaat qilishga ruxsat eting, – dedi u hammaga eshittirib, – endi, bi-rodar, borib gumashta bilan gaplashadigan vaqt ham bolgandir, – deb ovozini chiqarib qo'shib qo'ydi.

Pavel Petrovich kursidan turdi va hech kimga qaramasdan:

– Shunday buyuk dono kishilardan uzoqlashib, besh yilcha qishloqda yashashning o'zi – bir ko'rgulik! Ahmoqning xuddi o'zginasi bo'lib qola-

¹ Libix, Yustus (1803–1873-yillar) – kimyo sohasida katta kashfiyotlar qilgan mashhur olmon kimyogari. U agronomiya ilmiga asos solgan olimlardan sanaladi.

san kishi. O'qiganingni unutmaslikka tirishasan-ku, natija – hech! O'qiganing bari safsata bo'lib qoladi va senga yo'lni tanigan odam hozir bunaqangi behuda ishlar bilan shug'ullanmaydi, sen orqada qolgansan, deyishadi. Nima ham qillardik! Ko'riniq turibdiki, yoshlar bizlardan ko'ra aqlliyoq – dedi.

Pavel Petrovich tovoni bilan asta burildi-da, sekin ayvondan chiqib ketdi. Nikolay Petrovich ham uning ketidan shunday qildi.

Aka-uka ketidan eshik yopilishi hamon Bazarov sovuqqonlik bilan Arkadiydan:

- Nima, amaking doim shundaymi? – deb so'radi.
- Menga qara, Yevgeniy, sen unga nihoyatda dag'al muomala qilding, uni haqoratlading, – dedi Arkadiy.

- Be, bunaqangi qishloq aslzodalariga bo'sh kelamanmi! Buning bari xudbinlik, quruq maqtanchoqlik, oliftagarchilik! U shunaqa odam ekan, o'z ishini Peterburgda davom ettirsin edi. Ha, mayli, nima ishimiz bor... Aytgandek, men juda siyrak uchraydigan suv qo'ng'izlaridan Dytiscus marginatus topdim. Bilsanmi? Uni senga ko'rsataman.

- Men senga uning tarixini so'zlab berishni va'da qilgan edim, – dedi Arkadiy.

- Qo'ng'izning tarixinimi?
- Yetar, Yevgeniy. Amakimning tarixini. U sen o'ylaganday odam emasligini ko'rasan. U mazax qilishga emas, balki ko'proq achinishga loyiq.

- Men da'voysi-doston qilayotganim yo'q, lekin sen nima uchun hadeb o'sha to'g'risida gapiraverasan?

- Odil bo'lish kerak-da, Yevgeniy.
- Nega unday deyapsan?

- Yo'q, sen qulq solgin...

Arkadiy unga amakisining tarixini so'zlab berdi. Kitobxonlar hikoyani quyidagi bobdan topadilar.

Pavel Petrovich Kirsanov ham o'z ukasi Nikolay singari avval uyda va keyin harbiy mактабда пажеский корпусда¹ tarbiyalandi. U bolalik chog'idan chiroyliligi bilan ajralib turar edi. Buning ustiga o'ziga ishongan, biroz pichingchi va odamning kulgisini qistaydigan zahar tabiatli edi. Shunday bo'lsa-da, uni hamma yoqtirardi... U zabit bo'lib chiqishi bilan har yerda hozir bo'la boshladi. Yigitni hamma joyda hurmat qilishardi. U o'zicha erkalanar, qiyshanglanar, hatto tentakliklar qilardi, lekin barcha qiliq'i o'ziga yarashardi. Xotin-qizlar uni ko'rganda shaydo bo'lishar, erkaklar uni olifta deyishar va zimdan kuyunishardi. U ilgarigidek ukasi bilan bir uyda turar, garchi ukasiga aslo o'xshamasa-da, uni juda yaxshi ko'rardi. Nikolay Petrovich biroz oqsardi, yuzi kichkina, issiqqina, lekin biroz g'amgin, kichik ko'zlari qop-qora, sochlari yumshoq va siyrak bir yigit edi. U biroz yalqov bo'lsa ham, lekin kitob o'qishga serhavas, yor-birodarlariga aralashishdan qo'rqardi. Pavel Petrovich esa bir kecha ham uyda o'tirmas, dadil-u abjirligi bilan mashhur edi. (U kibor yoshlari o'rtasida gimnastikani ham rasm qilgan edi). U bor-yo'g'i besh-oltita fransuzcha kitob o'qigan, xolos. Yigirma sakkiz yoshga kirganida, kapitanlik unvoniga erishdi. Kelgusidan umidi zo'r edi-yu, lekin birdaniga bari o'zgarib ketdi.

O'sha vaqtida Peterburg kiborlari o'rasida, har zamonda bir R. degan knyaginya paydo bo'lib qolardi. Uni hozirgacha ham unutmaydilar. Xo-

¹ Korpus – Inqilobdan burun Rossiyada asilzodalar harbiy o'quv yurti. Bu maskanda faqat katta to'ra va oqsuyaklarning bolalarigina qabul qilinardi.

nimning yaxshi tarbiya ko'rgan, kelishgan, biroq biroz tentaknamo eri bo'lib, bolalari yo'q edi. Bu xotin kutilmaganda xorijga ketib qolar va tag'in to'satdan Rossiyaga qaytib kelar, xullas, umuman g'alati hayot kechirar edi. Xalq orasida yengiltak satang deya nom qozongan, kayf-safoga mukkasidean ketgan ayol davralarda holdan toyguncha raqsga tushar, yoshlar bilan kulishar hazillashar, ularni tushlik oldidan qorong'i mehmonxonada qabul qilar, kechalari esa yig'lar va ibodat qilar, hech qayerdan taskin topolmay, alam bilan qo'llarini siqib, uy ichida saharga dovur yurib chiqar, yoyinki rang-quti o'chib, junjikib Zaburni o'qib o'tirar edi. Tong otishi bilan yana kibor ayol qiyofasiga kirar, tag'in ko'chaga otlanar, o'yin-kulgi qilar va sal-pal ko'ngilxushlik ato qiladigan har ishga bosh suqib ko'rardi. U qaddi-qomati kelishgan g'aroyib ayol edi. Uning oltin rang va sal kumushtob sochlari tizzasidan pastroqqa tushib turardi, lekin uni hech kim chiroylik deb aytolmasdi. Faqat ko'zlarining e'tiborni tortardi. Ko'zlarining o'zi emas, (kichkina ko'zları kulrang edi) hammadan ham ko'ra uning o'tkir, behad xotirjam, g'amgin-u o'ychan qarashlari go'zal edi. Hatto tili har qanday behuda gaplarni gapirib turgan mahalda ham, ko'z qarashlari g'alati porlar edi. U juda yaxshi kiyinardi. Pavel Petrovich uni bir ziyofatda uchratib qoldi-da, mazurkaga¹ raqsga tushdi. Raqs vaqtida u bir og'iz ma'noli so'z aytmadni. Pavel Petrovich unga oshiq-u beqaror bo'lib qoldi. Muvaffaqiyat qozonib, o'rganib qolgan Pavel Petrovich bu borada ham tezda maqsadiga erishdi, ammo osonlik bilan muddaoga ye-

¹ Mazurka – polyak xalq raqsi.

tish Pavel Petrovichning ko'nglini sira sovutmadı. Aksincha, bu xotinga u yanada qattiqroq bog'landı. Ayol, hattoki jon dili bilan taslim bo'lganida ham Pavel Petrovichning nazarida unda qandaydir muqaddas va hech kim tuyassar bo'lolmaydigan yana bir nima qolganday bo'lar edi. Go'zal xonimning qalbida yana nimalar bor, bu – yolg'iz Xudoga ayon! Go'yoki ayol o'ziga ham noma'lum qandaydir sirli kuchlar ixtiyorida edi. Bu yashirin kuchlar uni har maqomga solib o'ynatar, kichkinagini aqli esa ularning orzusiga qarshi turolmasdi. Ayolning fe'l-atvori ham antiqa edi. Erining hadiksirashi jo'yali bo'lgan xatlarni u o'ziga butunlay yot odamga yozganday yozar edi. Uning muhabbat esa g'am-g'ussaga aylanardi, chunki yaxshi ko'rgan kishisi bilan o'ynab-kulmas va hazillashmas, suhbatini angrayib tinglar hamda unga anqayib qarardi. Ba'zan uning to'satdan anqayishi dahshatga aylanardi. Shundan keyin ayolning basharasi o'liknikiday oqarar va yovvoyi bir tusga kirardi. U yotog'iga kirib, eshikni ichkaridan berkitar, oqsochi esa, kalit teshigiga qulog'ini qo'yib tinglasa, uning o'ksinib yig'lagan tovushini eshitar edi. Pavel Petrovich Kirsanov bir martagina emas, balki ko'p marotaba bo'lgan shirin uchrashuvlardan keyin uyiga qaytayotib, butkul muvaffaqiyatsizlikka uchragandan keyingina yurakda paydo bo'ladigan achchiq alamni his qilardi. «Yana men nimani istayman?» deb u o'z-o'zidan so'rardi, yuragi esa, hamon siqilardi. U bir kuni xonimga sfinks¹ surati solingan bir uzuk hadya qildi.

– Bu nima? – deb so'radi u. – Sfinks mi?

¹ Sfinks – bilib bo'lolmaydigan odam.

– Ha, shu sfinks siz bo'lasiz, – dedi Kirsanov.

– Men? – deb so'radi u va Kirsanovga sirli nazar tashladi. – Buning men uchun iftixorli ekanligini bilasizmi? – deb qo'shib qo'ydi, uning qarashi bo'yagidek qandaydir g'alati edi.

Knyaginiya R. uni, hatto sevgan chog'ida ham yori bilan musohiblik Pavel Petrovich uchun og'ir edi. Lekin xonim undan sovigandan so'ng (bu hodisa juda tez ro'y berdi), u jinni bo'layozdi. U azoblanar-u rashk qilar, ayolga tinchlik bermas va doim ma'shuqasining ketidan yurgani-yurgan edi. Oshig'ining soyaday ergashishi knyaginyani bezor qildi va u chet elga ketib qoldi. Pavel Petrovich, oshna-og'aynilarining iltimosi-yu boshliqlarining nasihatiga qaramay, xizmatdan bo'shadi va knyaginyaning ortidan xorijga jo'nadi. Pavel Petrovich goh xonimning iziga tushib, goh jo'rttaga uni ko'zdan yo'qotib, to'rt yilcha mu'sofirchilikda umr kechirdi. U o'z-o'zidan uyalar, jur'atsizligidan achchig'lanardi, lekin buning hech qanday nafi yo'q edi. Ma'shuqasining sirli, deyarli bema'ni, lekin jozibador qiyofasi Pavel Petrovichning qalbida juda chuqur iz qoldirgan edi. Pavel Petrovich Baden¹ shahrida nima bo'ldi-yu u bilan yana avvalgiday osh-qatiq bo'lib qoldi, go'yoki xonim unga ilgarigidan ko'ra ko'proq oshiq-u beqarorday tuyilar edi... Ammo oradan bir oy o'tgach, ish pachava bo'ldi, alanga bir lovulladi-yu keyin butkul so'ndi-qo'ydi. Knyaginyadan ayriliq muqarrarligiga ko'zi yetgandan so'ng Pavel Petrovich go'yoki shunday xotin bilan do'stlashish mumkin-day, jilla qursa uning do'sti bo'lib qolishga urinib

¹ Baden Avstriyadagi kurort joyi. Bu yerga rus boylari davolanish uchungina emas, balki kayf-safo qilish uchun borib yurganlar.

ko'rdi... Xonim esa Baden shahridan sekingina juftakni rostladi va o'shandan beri Kirsanovdan qochib yurardi. Pavel Petrovich Rossiyaga qaytib kelgach, burungicha davr surishga urinib ko'rdi, ammo endi hayoti ilgarigiday iziga tushmadi. U xuddi zaharlangan kishidek u yoqdan-bu yoqqa tentirab yurdi, sayohat ham qilib ko'rdi, o'zining kibor odatlarini ham yo'qotmadi, ikki-uch xotinni o'ziga moyil qilganligi bilan maqtansa bo'lar edi, lekin u endi na o'zidan va na boshqalardan yaxshilik kutar, hatto bunga urinib ham ko'rmasdi. U qaridi, sochlari ham oqardi. Kechqurunlari klubda o'tirish, o'z-o'zidan siqilish, o'zi singari so'qqaboshlar bilan bo'limg'ur bahslashuvlar zaruratga aylanib qoldi. Ma'lumki, bular yaxshilik alovchisi emas. U uylanishni xayoliga ham keltirmasdi, albatta. Shu tariqa ko'ngilsiz, foydasiz, o'n yil – tez, nihoyatda tez o'tib ketdi. Hech bir joyda vaqt Rossiyadagidek tez o'tmaydi. Qamoqxonada esa vaqt yanada tezroq odimlaydi, deb aytadilar. Kunlardan bir kun klubda tushlik qilib o'tirganida, Pavel Petrovich knyaginya R. ning vafoti haqidagi xabarini eshitdi. U Parijda yarim jinni bo'lib qolay degan holda olamdan ko'z yumibdi. Shunda Pavel Petrovich stoldan turdi-da, klub ichida anchagacha u yoqdan-bu yoqqa yurdi, ba'zan qartabozlar yoniga kelib, g'o'dayib turdi, lekin uyiga odatdagি vaqt dan oldin qaytmadi. Ko'p o'tmay, u o'z nomiga yozilgan noma oldi. Undan knyaginyaga hadya qilgan uzugi chiqdi. Knyaginya uzuk hoshiyadagi sfinks ustiga xoch chizib quyibdi-da, Pavel Petrovichga sirning manosi ana shu deb aytishga amr qilibdi.

Bu voqeа 48-yilning boshida, ya'ni Nikolay Petrovichning xotini o'lib, Peterburgga kelgan vaqtida

da sodir bo'ldi. Pavel Petrovich qishloqqa ko'chib chiqqandan beri ukasi bilan deyarli ko'rishmagan edi, chunki Nikolay Petrovichning to'yi Pavel Petrovichning knyaginya bilan endigina tanishgan vaqtiga to'g'ri kelgan edi. Pavel Petrovich xorijdan qaytib kelganidan keyin, ukasini kida bir-ikki oy mehmon bo'lish va uning baxtli hayotini ko'rish niyatida uni-kiga keldi-yu, lekin bir haftadan ortiq turolmadi. Aka-ukaning ahvoli bir-birinikidan juda farq qildi. Ammo 48-yilda bu farq kamaydi, chunki Nikolay Petrovich xotinidan ajraldi. Pavel Petrovich esa o'zining ma'shuqasi haqidagi xotiralardan mahrum bo'ldi. Knyaginya o'lgandan keyin u haqda o'yłamaslikka urinardi. Nikolayda esa to'g'ri o'tkazilgan hayotning izi qolgan, o'g'li ko'z oldida o'sib borar edi. Pavel esa, aksincha, so'qqaboshligicha yoshlik davri o'tib, istiqboli xira, dudmal umidga o'xshash pushaymonlar, pushaymonga o'xshash umidlar bo'ladijan davrga, ya'ni yoshlik o'tib, qarilik hali kelib yetmagan bir vaqtga qadam qo'ya boshlagan edi.

Bu davr boshqalardan ham Pavel Petrovich uchun og'irroq edi, chunki u o'tmishi bilan birga butun hayotini ham qo'ldan boy bergen edi.

Bir kuni Nikolay Petrovich akasiga:

– Men endi seni Marinoga taklif qilmayman (u o'z qishlog'ini xotinining hurmati uchun shu nom bilan atagan edi). U yerda marhuma tiriklik vaqtida ham zerikar eding, endi bo'lsa diqqatpazlikdan o'lasan, – degandi.

Pavel Petrovich unga javoban:

– Men u vaqtarda tentak va hovliqma edim, endi aqlliroy bo'lmasan bo'sham ham ancha bosilib qoldim. Hozir, aksincha, agar sen xo'p desang, butunlay senikiga ko'chib borishga tayyorman, – dedi.

Javob o‘rniga Nikolay Petrovich uni quchoqlab oldi. Ammo Pavel Petrovich o‘zining bu niyatini amalga oshirgunicha bir yarim yil o‘tib ketdi. Lekin qishloqqa ko‘chib kelganidan keyin, hatto Nikolay Petrovich o‘g‘li bilan uch yil Peterburgda yashagan vaqtida ham u qishlog‘ini tashlab ketmadi. U kitob o‘qishga kirishdi, ko‘proq inglizcha o‘qirdi, umuman butun hayotini inglizcha tuzgan edi. Pavel Petrovich qo‘ni-qo‘snilari bilan ham kamdan-kam uchrashar va faqat saylovlargagina borar edi. Saylovlarda esa aksar sukut saqlar va ba’zi vaqlardagina eskilik tarafdori bo‘lgan zamindorlarni o‘zining liberallarga¹ xos qiliqlari bilan qo‘rqitar, ammo yangi bo‘g‘in vakillariga yaqinlashmas edi. Eskilik tarafdorlari ham, yangilik tarafdorlari ham uni mutakabbir deyishar, lekin uning ajoyib kiborlarga xos odatlari va g‘alabalari to‘g‘risidagi hikoyalari, po‘rim kiyingani, ko‘zga ko‘ringan musofirxonaning hashamdon xonasini band etgani, shohona tushlik qilgani va bir safar, hatto Lyudovik-Filippnikida² Wellington³ bilan bir dasturxon

¹ Liberallar – Liberalizm (burjua parlament tuzumi va burjua erkinliklari tarafdorlarini birlashtirgan, proletar inqiloblar davrida oshkora ravishda ishchilar sinfi va mehnatkashlar ommasining manfaatlariga qarshi kurashgan g‘oyaviy-siyosiy oqim) tarafdorlari.

² Lyudovik Filipp (1773–1850-yillar) fransuz qiroli. U 1830-yilgi iyul inqilobi vaqtida xalq g‘alabasidan so‘ng burjuaziya tomonidan taxtga o‘tqazilgan. 1848-yilgi inqilob davrida taxtdan tushirilgach, Angliyaga qochgan va o‘scha yerda vafot etgan.

³ Wellington, Artur (1763–1850-yillar) – ingliz sarkardasi va davlat xodimi. U Vater Loo yonida 1814-yilning 18-iyunida bo‘lgan urushda birlashgan ittifoq qo‘s Shiniga qo‘mondorlik qilgan. Bu jangda fransuz qiroli Napoleon mag‘lubiyatga uchrab, butkul inqirozga yuz tutgan edi.

atrofida o'tirgani, oro beradigan buyumlari solingan asl kumush qutichasi-yu safar vannasini o'zi bilan birga olib yurgani; undan qandaydir «ajoyib» xushbo'y atir hidi kelib turgani, qartaga usta bo'lsa-da, doim yutqazgani va nihoyat; chin oriyatli odamligi uchun ham hurmat qilardilar. Xonimlar uni g'aroyib savdoyi kishi deyishar, biroq uning xotinlar bilan ishi yo'q edi...

Arkadiy, hikoyasini tamomlar ekan:

– Ana, ko'rdingmi, Yevgeniy, amakimdan xafa bo'lishing aslo to'g'ri emas-da! Uning otamni necha martaba balolardan qutqorganini, o'zining bor-yo'q pullarini unga bergenini hali men senga aytganimcha yo'q. Sening xabaring bo'lmasa kerak, ularning mulki taqsimlanmagan, shunday bo'ssayam, u hammaga yordam qilishga tayyor va shu bilan birga doim dehqonlar yonini oladi. Biroq shunisi borki, dehqonlar bilan so'zlashganida, aftini burishtirib, atir hidlab turadi... – dedi.

Bazarov Arkadiyning so'zini bo'lib:

– Turgan gap, asabiy-da, – dedi.
– Balki shundaydir, lekin uning ko'ngli bo'sh, rahmdil-u, lek beaql emas. U menga qanday yaxshi maslahatlar berardi, ayniqsa, xotin-qizlar bilan bo'ladigan munosabatlar to'g'risida.

– Ha! Sutdan og'zi kuygan qatiqni ham puflab ichadi. Buni biz juda yaxshi bilamiz!

Arkadiy so'zida davom etdi:

– Xullas, u sho'rpeshana odam, menga ishon, uni tahqirlash gunoh, – dedi.

Bazarov unga e'tiroz bildirdi:

– Kim uni tahqirlayapti, har holda o'zining butun umrini xotin-qizlar ishqiga sarf qilib, bu yo'l-dagi harakatlari chippakka chiqqach, hayotidan aynib, ruhi tushib hech qanday, ishga yaroqsiz

bo'lib qolgan bunday kishi erkak zotidan emas. Sen uni sho'rpeshana deyapsan, albatta, bu senga oydinroq, biroq uning miyasidan tentaklik bata-mom chiqib ketgani yo'q. Imonim komilki, u o'zini bekorga ishbilarmon kishi deb o'ylamaydi, chunki Galinyashkani¹ o'qiydi va har oyda bir karra dehqonni jazodan ozod qiladi.

– Ha, xo'p, lekin sen uning tarbiyasi-yu u yashagan davrni nazarga olsang-chi... – dedi Arkadiy.

– Tarbiyami? – dedi uning so'zini ilib olib Bazarov. – Odam o'zini-o'zi tarbiya qilmog'i lozim. Masalan, aytaylik, aqalli men kabi... Endi davr masalasiga kelsak, nima uchun men davrga tobe bo'lay? Yaxshisi, davr menga tobe bo'sin. Yo'q, birodar, bularning bari beboshlig-u ma'niszlik! Er-xotin o'tasida qanday sirli munosabat bo'lishi mumkin? Biz fiziologlar bu munosabatlarning nimaligini bilamiz. Sirli ko'z qarashlar degani ham behuda gap. Ko'z anatomiyaning bir boshdan sinchiklab o'qib ko'rsang, o'zing ham buning behudaligiga amin bo'lasan. Hammasi xom xayol, safsata, sarob, xolos. Yur, yaxshisi, qo'ng'izni tomosha qilaylik.

Shundan keyin ikkovlon Bazarovning hujrasiga kirishdi. Uydan arzon tamaki isiga qorishiq tibbiyot-dagi jarrohlik hidi kelib turar edi.

Pavel Petrovich ukasi bilan sarkor o'tasida bo'layotgan suhbatda ko'p o'tirmadi. Qotma-yu novcha mayingina sil ovoz va dog'uli ko'z sarkor Nikolay Petrovichning har bir gapiga: «Kechirasiz,

¹ Galinyashka – fransuzcha jurnal.

bor gap-ku», deb javob qilar, dehqonlarni piyonista va o'g'ri qilib ko'rsatishga tirishardi. Yaqindagina yangi usulda qurilgan xo'jalik yog'lanmagan aravaning g'ildiragidek g'ijirlar va nam yog'ochdan qo'lda uquvsiz usta yasagan kursiday qirsillab turardi. Nikolay Petrovich unga xafa bo'lmasa ham, lekin ko'pincha oh tortar va chuqur o'yga tolar edi. U ishning pulsiz olg'a bormasligini sezар, biroq pulining hammasi yeb bo'lingan desa bo'lardi. Arkadiy to'g'ri gapirgan edi: Pavel Petrovich o'z ukasiga ko'p yordam qilgan. U ukasining pulga muhtojlik sezib, vaziyatdan chiqib ketish uchun chora izlab, bosh qotirayotganini ko'rib, astagina deraza oldiga keladi-da, qo'lini cho'ntagiga tiqib: «mais je puis vous donner de l'argent»¹, deb g'o'ng'irlab, ukasiga pul berib ketar edi. Ammo bugun o'zining yonida hemirisi bo'Imagani uchun u o'zini bir chetga tortishni ma'qul ko'rdi. Xo'jalik ishlaridagi janjallar uni qayg'uga solardi. Shu bilan birga, ukasining serg'ayrat-u serharakatligiga qaramay, u doim unga ishni biroz noto'g'ri yurgizayotganday tuyilar, lekin xatosini ko'rsatib berishga qodir emas edi. «Ukamning tajribasi yetarli darajada emas-da, uni aldashyapti», deya o'zicha muhokama qilardi. Nikolay Petrovich esa, aksincha, akam juda tajribali deb o'ylar va hamisha undan maslahat so'rardi. U aka-siga: «Mening tabiatim yumshoq, bo'sh, butun umrimni qorong'i burchakda o'tkazgan odamman, sen esa ko'p odam ko'rgansan, ularni yaxshi ajratasan, ko'zing lochinning ko'ziday o'tkir», der edi. Pavel Petrovich bu so'zlarga javob berish o'rniga tes-kari o'girilar, ammo ukasining fikrini rad qilmasdi.

¹ «Mais je puis vous donner de l'argent» – shunday bo'l-gach, men senga pul bera olaman. (Frans.)

Pavel Petrovich ukasini o‘z xonasida qoldirib, hovlini ikkiga ajratgan yo‘lakdan yurib, pastgina eshik yoniga kelgach, o‘ylanib to‘xtab qoldi, mo‘ylabini burab, eshikni taqillatdi.

Ichkaridan Fenichkaning:

– Kim u? Kiravering, – degan ovozi eshitildi.

– Bu men, – dedi Pavel Petrovich va eshikni ochdi.

Fenichka bolasini ushlab o‘tirgan kursisidan irg‘ib turdi va uni darrov shu yerda turgan oqsoch qizga berib, shosha-pisha ro‘molini to‘g‘riladi. Oqsoch qiz esa bolani darrov uydan olib chiqib ketdi.

– Kechirasiz, xalaqit berdim chog‘i, – deb gap boshladи Pavel Petrovich Fenichkaga qaramasdan, – sizdan bir iltimosim bor edi... bugun shaharga odam yubormoqchilar shekilli... menga ko‘k choy olib kelishni buyurtirsangiz, deb edim...

– Xo‘p, qancha buyuradilar? – so‘radi Fenichka...

– Yarim qadoq bo‘lsa yetar deb o‘layman, – dedi Pavel Petrovich va tevarakka bir ko‘z yogurtirdi, so‘ng nigohi Fenichkaning yuziga qadaldi. – Uyningiz o‘zgarib qolibdimi? – dedi va Fenichkaning bu gapni tushunmaganini sezib, – mana bu pardalar, – deb pardalarga ishora qilib qo‘ydi.

– Ha, pardalar, Nikolay Petrovich in’om etdilar, osganimizga ancha bo‘ldi.

– Menam ko‘pdan beri bu yerga kirganim yo‘q edi. Endi hujrangiz ancha ko‘rkam bo‘libdi.

– Nikolay Petrovichning marhamatlari bilan, – deb shivirlab qo‘ydi Fenichka.

Pavel Petrovich muloyim, lekin jilmaymasdan:

– Ilgarigi yon hujradan ko‘ra, bu yer sizga qulay bo‘lsa kerak-a? – deb so‘radi.

– Albatta.

- Sizning o'rningizga kimni qo'yibdilar?
- Hozir u yerda kir yuvadigan xotinlar turadi.
- Shundaymi?

Pavel Petrovich jim bo'lib qoldi: «Endi ketar», deb o'yladi Fenichka, lekin u ketmadi. Fenichka Pavel Petrovichning oldida barmoqlarini o'ynab, qotib qolganday turar edi.

Nihoyat, Pavel Petrovich:

- Nima uchun chaqalog'ingizni olib chiqishni buyurdingiz? Men bolalarni yaxshi ko'raman, uni bir ko'rsatsangiz, – dedi yana.

Fenichka quvonch-u uyatdan qip-qizarib ketdi. U Pavel Petrovichdan qo'rqardi, chunki Pavel Petrovich u bilan hech vaqt so'zlashmas edi.

- Dunyasha, – Fenichka oqsochini chaqirdi-da,
- Mityani bu yoqqa olib keling (u uydgilarning hammasini sizlardi). Ha, aytganday shoshmay turing, ko'ylak kiydirish kerak, – dedi va eshikka qarab yurdi.

- Mayli, baribir emasmi, – dedi Pavel Petrovich.
- Men hozir, – deb javob berdi Fenichka va tezda chiqib ketdi.

Pavel Petrovich xonada yolg'iz qolgach, atrofga boshqacha nazar bilan qaray boshladi. Pastakki-na-yu kichkinagina hujra toza-ozoda, saranjom-sarishta edi. Uyda gazak o't, limon va yaqinda bo'yalgan poldan buyoq hidi kelardi. Devor oldida toj shaklidagi kursilar tizilib turibdi. Bu kursilar marhum general tomonidan Polshaga qilingan yurish vaqtida sotib olingan edi. Uyning bir bur-chagida pashshaxona tutilgan belanchak, uning yonida qopqog'i yumaloq tunuka sandiq turitti. Narigi burchakda Nikolay Chudotvorekning katta, qora surati oldida shamchiroq yonar edi.

Avliyoning ko'kragidagi yong'oqday kichkinagina chinni tuxumcha qizil tasma bilan osib qo'yilgan. Deraza tokchalarida bulturgi murabbolar solingan og'zi mahkam bog'langan ko'm-ko'k shisha idishlar tizilib turibdi, ularning qog'oz qopqoqlari ustiga Fenichkaning o'zi yirik harflar bilan «Qorag'at» deb yozib qo'ygan edi. Nikolay Petrovich, ayniqsa, shu murabboni yaxshi ko'rardi. Uzun ip bilan shipga osib qo'yilgan qafas ichida jing'archa hadeb chirqillab sayrardi, uning harakatidan qafas doim chayqalar va undan tiq-tiq etib, kanop urug'i polga to'kilib turar edi. Ikki deraza orasidagi kichkina javon ustida Nikolay Petrovichning o'tkinchi bir ras-som chizib bergen turli holatdagi xunukkina suratlari osilig'liq edi. Xuddi o'sha yerda Fenichkaning mutlaqo beo'xshov surati ham ilib qo'yilgan, qora rom ichida qandaydir kulib turgan beko'z basharadan bo'lak hech nima ko'rinas edi. Fenichkaning surati ustida kavkazcha burka kiygan, ignalar qadab qo'yish uchun ipakdan qilingan va peshanasigacha tushib turgan yostiqchasi tagidan dahshat bilan qovog'ini solib, uzoq kavkaz tog'larini tomosha qilib turgan general Yermolovning¹ surati osig'liq edi.

Oradan besh daqiqacha vaqt o'tdi. Xonadan qushning shitir-shitir va shivir-shiviri eshitildi. Pavel

¹ Yerlomov, Aleksey Petrovich (1777–1861-yillar) – 1816-yildan 1827-yilgacha Kavkaz qo'shiniga qo'mondonlik qilgan rus generali. Taxtga Nikolay I o'tirganidan so'ng, Yerlomov dekabristlarga (1825-yilning 14-dekabrida hukumat siyosatiga qarshi yashirin tashkilot a'zolari davlat to'ntarishi qilishga urinib, qo'zg'olon ko'tarishgan. Uning ishtirokchilari o'zlarini shunday ataganlar) xayrixoh deb shubha qilingani uchun Kavkazdan qaytarilganidan so'ng umrini behuda o'tkazgan.

Petrovich javondan Masalskiyning Strelsov¹ nomli kirlanib ketgan tomini olib varaqladi. Eshik ochilib, uyga Mityani ko'tarib, Fenichka kirib keldi. U Mityaga yoqasiga kashta tikilgan qizil ko'ylak kiygizgan, sochlarini taragan, betlarini artgan edi. U harsillar, barcha sog' bolalar singari hadeb qollarini yozar va butun gavdasi bilan olg'a talpinar edi. Ohorli ko'ylak unga yoqqan bo'lsa kerakki, uning momiqday gavdsidan xursandlik alomati aks etib turardi. Fenichka o'z sochlarini ham tarab-tuzatib olgan va boshiga boshqa yaxshiroq ro'mol o'rangan edi. Lekin u ilgarigi holicha tursa ham bo'lardi. Darvoqe, qo'liga sog'lom bola ko'tarib turgan chiroqli yosh onadan jozibaliroq mavjudot dunyoda bo'lishi mumkinmi? Pavel Petrovich muloyimgina qilib:

– Qanday do'ndiq bola-ya, – dedi va ko'rsatkich barmog'ining uzun tirnoqlari bilan Mityaning baqbaqasini qitiqlab qo'ydi. Bola sariq chumchuqqa qarab kula boshladi.

Fenichka yuzini bolasiga yaqin keltirib, uni salpal silkib qo'yib:

– Bu kishi amaking bo'ladi, – dedi.

Shu paytda Dunyasha tamaki chekish uchun yoqilgan shamni chaqaga o'rnatib, asta deraza tokchasiga qo'ydi.

– Necha oylik bo'ldi? – deb so'radi Pavel Petrovich.

– Olti oylik, yaqinda, o'n birinchi sanada, yettinchi oyga qadam qo'yadi.

– Sakkizinchи oyga emasmi, Fedosya Nikolaevna? – deb gapga aralashdi Dunyasha uyalibroq.

– Yo'q, yettinchi oyga. Voy seni qara! – Bola yana kuldii, keyin sandiqqa tikildi-da, birdaniga

¹ Rus yozuvchilaridan Masalskiyning (1802 – 186-yillar) realistik romani.

onasining burni-yu labiga changal soldi. Fenichka uning qo'lini yuzidan olmasdan: – juda sho'x-da, – deb qo'ydi.

– Xuddi ukamning o'zi-ya, – dedi Pavel Petrovich.

Fenichka ichida: «Bo'lmasa kimga o'xshasin?» deb qo'ydi.

Pavel Petrovich go'yo o'zi-o'ziga gapirganday so'zini davom ettirib:

– Ha, quyib qo'ygandek o'zi, – dedi va Fenichkaga boshdan-oyoq sinchkov va ma'yus nigoh tashladi.

Fenichka shivirlab:

– Bu kishi amaking bo'ladi, – deb takrorladi.

Shu payt birdaniga Nikolay Petrovichning:

– Iy-ye, Pavel! Shu yerda ekansiz-ku, – degan tovushi eshitilib qoldi.

Pavel Petrovich shoshib orqasiga qaradi-da, qovog'ini soldi, ammo ukasi unga shu qadar xursand va muloyim boqar ediki, uning kulib javob berishdan bo'lak iloji qolmadi:

– O'g'ling ajoyib, – dedi va soatiga qarab qo'ydi. – Men bu yerga choy masalasida kirgan edim.

Pavel Petrovich hech nimaga e'tibor qilmaganday bo'lib, darhol uydan chiqib ketdi.

Nikolay Petrovich Fenichkaga qarab:

– O'zi kirdimi? – deb so'radi.

– Ha, o'zлari, eshikni taqillatib, kirib keldilar.

– Xo'sh, Arkasha-chi, sening oldingga boshqa kirgani yo'qmi?

– Boshqa yo'qlamadi. Yon hujraga ko'chib chiqsam qanday bo'larkin, Nikolay Petrovich?

– Nima sababdan?

– Hozircha yaxshiroq bo'lasmikan deyman-da.

Nikolay Petrovich biroz duduqlanib:

– Yo'q, – dedi va peshanasini artdi, – ilgariroq shunday qilish kerak... Salom, pufakcha, ishlar

qalay? – deb bolaga yaqin keldi-da, uning betidan o'pdi, keyin sal egilib, lablarini Fenichkaning Mityaning qizil ko'ylakchasi ustida sutdek oqarib turgan qo'liga tekkizdi.

– Nikolay Petrovich! Sizga nima bo'ldi? – dedi Fenichka yerga qarab, so'ngra boshini asta ko'tardi... Uning muloyim jilmayishi chog'idagi ko'z qarashlari ajoyib-u go'zal edi.

Nikolay Petrovich Fenichka bilan mana bunday ravishda tanishgandi. Bir kuni, bundan uch yilcha burun Nikolay Petrovich uzoq shaharlardan birida, saroyda qo'nib qolgandi. Hujraning ozodaligi bilan undagi ko'rpa-yostiqning tozaligi uni juda hayratda qoldirdi. Xayoliga: «Nima balo, saroy egasi nemis ayol emasmikin?» degan fikr keldi. Biroq saroy egasi ellik yoshlarga borgan, chiroyli kiyangan, yuzi ko'rkam, so'zлари salmoqdor farosatli bir rus xotin ekan. Nikolay Petrovich choy mahalida u bilan gurunglashib, yoqtirib qoldi. O'sha vaqtda Nikolay Petrovich endigina yangi qo'rg'oniga ko'chgan va o'z huzurida krepostnoylarni saqlashni istamay, yollanib ishlovchilarni izlardi. Saroy egasi esa shaharda o'tkinchilarining kamligidan, zamonanining og'irligidan zorlanardi. Nikolay Petrovich unga, uyida ro'zg'or ishlarini yurituvchi bo'lib xizmat qilishni taklif etdi. Xotin rozi bo'ldi. Uning eri allaqachon o'lib ketgan bo'lib, umr yo'ldoshidan Fenichka degan bir qiz qolgan edi. Oradan ikki hafta o'tdi deganda, Arina Savishna (yangi xodimaning ismi shunday edi) qizi bilan Marinoga ko'chib kelib, yon hujraga joylashdi.

Nikolay Petrovichning topgan xodimasi juda ko'ngildagidek bo'lib chiqdi. Arina uyda tartib o'rnatdi. O'sha vaqtarda endigina o'n sakkizga chiqqan

Fenichka to'g'risida hech kim og'iz ochmas va u deyarli ko'zga ko'rinnmas edi. U jimgina, kamsuqum yashar, Nikolay Petrovich bozor kunlarigina mahalla ibodatxonasida chetroq bir joyda uning oppoq va nozik yuzini yon tomondan ko'rib qolar edi. Shu zayl bir yildan oshiq vaqt o'tdi.

Bir kun saharmardonda Arina, Nikolay Petrovichning uyiga kelib, odatdagicha unga egilib salom bergach, qizining ko'ziga pechkadan chiqqan o't uchquni kirganini aytib, arz qildi va unga: «Nikolay Petrovich yordam qilmasmikinlar», deb iltimos qildi. Uyda o'tiradigan kishilar singari Nikolay Petrovich ham kasallarni davolash bilan shug'ullanar, hatto gomeopat¹ usulida tuzatish uchun ishlataladigan dori-darmonlarni ham olib kelgan edi. U darhol Arinaga qizini keltirishni buyurdi. Fenichka esa xo'jayin chaqirayotganini eshitib, qo'rqib ketdi, lekin onasiga ergashib bordi. Nikolay Petrovich deraza yonida ikkala qo'li bilan uning boshidan tutdi. Qizning qizargan va shishgan ko'zlarini yaxshilab qaraganidan keyin, ko'zini suyuq dori bilan ho'llab turishini buyurdi va dorini ham darrov o'zi tayyorlab, dastro'molini yirtib, qanday ho'llash kerakligini Fenichkaga ko'rsatdi. Fenichka uning gapini uqqandan keyin chiqib ketmoqchi boldi, lekin onasi unga: «Voy jinni, xo'jayinning qo'llarini o'psang-chi», dedi. Nikolay Petrovich unga qo'lini bermadi, ammo o'zi uyalinqirab, uning engashib turgan boshidan, sochining farqidan o'pdi. Fenichkaning ko'zi tezda tuzaldi. Ammo qizning Nikolay Petrovichda qoldirgan taassuroti tezda unutilmadi. Bo'y qizning pokiza, muloyim va cho'chigansimon

¹ Gomeopatiya – alternativ (tibbiyotda bir-biriga zid usulda davolash usuli).

yuzi Nikolay Petrovichning doim ko'z o'ngidan ketmasdi. U Fenichkaning yumshoq sochlarini kaftlari bilan siypalayotgandek his qilar, uning ma'sum, salgina ochilib turgan lablarini-yu ular orasidan oftob nurida inju kabi tovlanadigan yaltiroq tishlarini ko'z oldiga keltirar edi. Shundan keyin Nikolay Petrovich ibodatxonada unga ko'proq tikiladigan va qiz bilan gaplashishga harakat qiladigan bo'lib qoldi. Avvaliga Fenichka Nikolay Petrovichdan tortinardi, bir kuni kechqurun xo'jayinni uchratib qolib, unga ko'rinxmay deb bo'tako'z-u shuvoq bosgan qalin bug'doy poya ichiga kirib yashirindi. Nikolay Petrovich uning oltin boshqolar orasidan kiyik bolasi kabi boshini chiqarib qarab turganini ko'rib, muloyim ohangda:

– Yaxshimisan, Fenichka! Menden muncha qo'rqasan, tishlab olmayman-ku, axir! – dedi.

Fenichka turgan yeridan chiqmasdan sekingina:

– Salom, – deb javob berdi.

U asta-sekin Nikolay Petrovichga o'rgana boshladi. Lekin u bor joyda qiz hamon tortinardi. Shu orada uning onasi Arina vaboden o'lib qoldi. Endi Fenichka qayoqqa borsin? U o'z onasidan har ishda saranjom-sarishtalikni, ehtiyyotkorlik va og'irbosiqlikni meros qilib olgandi, lekin yosh va yolg'iz edi. Nikolay Petrovich esa g'oyat mehribon-u muloyim odam. Boshqasini so'zlab o'tirishning hojati ham yo'q...

Nikolay Petrovich Fenichkadan:

– Demak, akam sening oldingga o'zi kiripti-da! Eshikni taqillatdi-yu ochib kiraverdimi-a? – deb so'radi.

– Shunday.

– Xo‘p, juda yaxshi. Qani, Mityani menga bergen-chi, bir o‘ynatay.

Nikolay Petrovich bolani qariyb shipgacha yetkazib, irg‘itib o‘ynay boshladi, bundan bola juda quvonar, qiyqirib kular, ammo onasi, bolam yiqilib ketmasin deb, qo‘rqqanidan har bir irg‘ishida uning yalang‘och oyoqlaridan ushlab olmoqchi bo‘lib, qo‘llarini cho‘zar edi.

Pavel Petrovich devorlariga chiroysi kulrang qo‘ozlar yopishtirilgan, ola-chipor eron gilami uzra har xil quroq-aslahalar osib quyilgan yong‘oqdan qilin-gan, duxoba qoplangan jihozlar tizilgan, chiroysi yozuv stoli ustiga mis haykalchalar qo‘yilgan va eski qora eman yog‘ochidan renaissance¹ kutubxona-sasi bo‘lgan kamin pechkali xonasiga qaytib keldi... Pavel Petrovich darrov o‘zini divanga tashladi-da, qo‘llarini boshining orqasiga qo‘yib, umidsizlikdan ojiz bir holda shipga tikilib, jim qotib qoldi. Yuz ifodasini devorlardan yashirmoqchi bo‘lganidanmi yoki boshqa sababdanmi, har holda nimagadir u o‘rnidan turdi-da, deraza pardasini tushirib qo‘yib, o‘zini tag‘in divanga tashladi.

9

O‘sha kuni Bazarov ham Fenichka bilan tanishdi. U Arkadiy bilan birga bog‘da yurib, unga ba’zi daraxtlarning, ayniqsa emanning nima uchun ko‘karmayotganini tushuntirdi.

– Bu yerga qora tuproq aralashtirib, ko‘proq terak, archa hamda juka² daraxtlaridan o‘tqazish

¹ Renaissance – uyg‘onish davri uslubida.

² Juka – lipa.

kerak. Ko'rayapsanmi, shiypon yonidagi daraxtlar qanday yaxshi ko'kargan, chunki akatsiya bilan siren beor bo'lgani uchun parvarishtalab emas, – deb qo'shimcha qildi Bazarov. – Iy-ye, bu yerda birov borga o'xshaydi, – dedi.

Shiyponda Fenichka Dunyasha va Mitya bilan birga o'tirar edi. Bazarov to'xtadi, Arkadiy esa eski tanishdek Fenichkaga bosh silkib qo'ydi.

Ular shiypon oldidan o'tgandan keyin Bazarov darhol:

– Bu kim? – deb so'radi va: – qanday nozanin-a! – deb qo'ydi.

– Sen kim to'g'risida gapiryapsan?

– Kimni aytardim, nozanin faqat bitta.

Dovdirab qolgan Arkadiy bir necha og'iz so'z bilan Fenichkaning kimligini unga tushuntirib berdi.

– Ha! – dedi Bazarov. – Uning didi joyida. Otang menga yoqadi Xudo haqi! Boplapti! Tanishib qo'yishimiz, kerak, – dedi-da, shiyponga qaytdi.

Qo'rqib ketgan Arkadiy uning ortidan:

– Yevgeniy! Xudo haqi, ehtiyyot bo'l, – deb qichqirdi.

– Tashvishlanma, ko'pni ko'rghan shaharda oz-moz esini tanigan odammiz, – dedi Bazarov.

U, Fenichkaga yaqin kelib, shapkasini oldi va ta'zim qilib, salom berdi.

– Ruxsatetsangiz, tanishsak. Arkadiy Nikolayevichning o'rtog'i bo'laman, o'zim yuvosh odamman, – dedi.

Fenichka o'rnidan turdi va indamasdan unga qarab qoldi.

– Muncha ham ajoyib bolangiz bor ekan! – deb davom etdi Bazarov, – xotirjam bo'ling, mening hali hech kimga ko'zim tekkan yo'q, nega betlari buncha qizil? Yo tishi chiqayaptimi?

– To'rtta tishi chiqdi, hozir milki yana shishib turibdi, – dedi Fenichka.

– Qani, ko'rsating-chi... qo'rwmang, men doktorman.

Bazarov bolani qo'liga oldi. Bola onasi bilan Dunyashani hayron qoldirib, undan hech tortin-madi va qo'rwmadi ham.

– Ha, ha, tishi chiqyapti... Zarari yo'q, joyida, tishi o'tkir bo'ladi. Biror gap bo'lib qolsa, menga aytинг. O'zingiz sog'misiz?

– Xudoga shukr.

– Juda yaxshi, – dedi Bazarov, keyin Dunyash-kaga qarab: – Siz-chi? – deb so'radi.

Dunyasha uy ichida o'zini juda odobli tutib, ko'cha-kuyda hadeb kulib yuradigan bir qiz bo'lga-nidan Bazarovning savoliga faqat pishqirib qo'ydi.

– Juda soz. Mana, bo'lmasa, polvoningizni oling?

Fenichka bolasini qo'liga oldi-da, sekingina:

– Sizning qo'lingizda qanday jim turdi-ya, – dedi.

– Mening qo'limda bolalarning bari o'zini xotir-jam tutadi. Men buni bilaman, – dedi Bazarov.

– Bolalarning aqli ularni kim yaxshi ko'rishiga yetadi, – dedi Dunyasha.

Fenichka unga qo'shilib:

– Rost, Mitya ham hamma odamga boravermaydi, – dedi.

Biroz narida turib qolgan Arkadiy shiyponga yaqin kelib:

– Menga kelarmikan? – deb so'radi.

U Mityani o'ziga imladi, lekin bola boshini orqaga tashlab, yig'lab yubordi. Fenichka uyalib ketdi.

– Mayli, o'rgansin, keyin kelar, – dedi Arkadiy mu-loyimgina. Keyin ikkala do'st o'z yo'llarida davom etishdi.

– Uning oti nima edi? – dedi Bazarov.

– Fenichka... Fedosya, – dedi Arkadiy.
 – Otasining oti nima ekan? Buniyam bilib qo'yish kerak.

– Nikolayevna.
 – Bene¹. Uning uyalib turmasligi menga yoqdi. Boshqa birov, ehtimol, buni ayb qilar edi. Bo'lmagan gap, uyalishning nima keragi bor? O'zi tuqqan bola-da.
 – Bu gaping to'g'riku-ya, – dedi Arkadiy, – lekin otam...

Bazarov uning so'zini bo'lib:
 – Otang durust qilipti, – dedi.
 – Yo'q, men uni durust qildi, deb aytolmayman.
 – Yana bir merosxo'rcha ortgani yoqmayapti chog'i?

Arkadiy Bazarovning bu so'ziga juda qizishib:
 – Nahotki menda shunday fikrlar bor deb o'ylasang, uyat emasmi! Men otamni buning uchun ayblayotganim yo'q, menimcha, u qizga uylanishi kerak edi, – dedi.

– O'ho', – dedi Bazarov, – biz shunaqa olijjanobmiz degin! Sen ham nikohga ahamiyat berar ekansan-da, buni sendan sira kutmagan edim-a, – dedi.

Ikki do'st sukut ichida yana bir necha qadam bosishdi.

Bazarov yana gap boshlab:
 – Men otangning butun xo'jaligini ko'rib chiqdim. Mollari yomon, otlari ham pachoq, imoratlari bo'lsa yiqilay deb turibdi; xizmatkorlari o'taketgan yalqov, sarkori yo ahmoq yo yolg'onchi – hali bunisini yaxshi payqay olmadim, – dedi.

– Bugun juda jiddiy ko'rinasan, Yevgeniy Vasil'yevich.

¹ Bene (lotincha) – yaxshi.

– Yaxshi dehqonlar ham otangni muqarrar al-daydilar. «Rus dehqoni Xudoni ham aldaydi», degan maqolni bilasanmi?

– Men amakimning fikriga qo'shila boshladim, sen ruslar to'g'risida juda yomon fikrdasan, – dedi Arkadiy.

– Nima qipti! Rus kishisining faqat bir yaxshi tomoni shuki, u o'zi haqda yomon fikrda bo'ladi. Muhimi shuki, ikki karra ikki – to'rt, boshqasi bekor.

Arkadiy o'yga tolib, oftob nurida chiroyli va mayin bo'lib yarqirab turgan olisdagi rang-barang dalalarga ko'z tashlab:

– Tabiat ham arzimasmi? – dedi.

– Sen tushungan ma'noda tabiat ham arzimasdir. Tabiat ibodatxona emas, balki ishxona va undagi odamlar esa ishchilar, – dedi.

Xuddi shu onda, uy tomondan violonchelning cho'zib chalinayotgan tovushi eshitildi. Kimdir, mahorat bilan bo'lmasa hamki, lekin, Shubertning¹ «Kutish» asarini ta'sirli ohangda chalar va havoga mungli sadolar tarqalmoqda edi.

Bazarov ajablanib:

– Bu nima? – deb so'radi.

– Otam chalayapti.

– Otang violonchel chaladimi?

– Ha.

– Necha yoshga kirgan?

– Qirq to'rtga.

Bazarov birdan xaxolab kulib yubordi.

– Nimaga kulayapsan?

– Tavba! Falon qishloqda pater familias² bo'lgan qirq to'rtga kirgan bir kishi... violonchel chaladi.

¹ Shubert – romanslar yozib shuhrat qozongan nemis bastakori (1797–1828-yillar).

² Rater familias – oila otasi, oila boshlig'i (lotincha).

Bazarov qotib kulaverdi, ammo Arkadiy o'z muallimini qancha zahmat qilsa ham, bu safar aqalli jilmayib ham qo'ymadni.

10

Oradan ikki haftacha o'tdi. Marinoda hayot bir zaylda o'taverdi. Arkadiy kayf-safo qilar, Bazarov esa ishlar edi. Uydagilarning bari Bazarovga, uning betakallufligiga, qisqa-qisqa va cho'rt kesib, dangal gapishtalariga ko'nikib qolishdi. Ayniqsa, Fenichka unga shunday el bo'lib qoldiki, hatto bir kuni kechasi Mitya shaytonlab qolganda uni uyg'otishni buyurdi. Bazarov kelib, odatdagicha, sal-pal hazillashib esnay-esnay uning oldida ikki soatcha o'tirdi-da, bolasiga yordam qildi. Pavel Petrovich bolsa o'zining butun vujudi bilan Bazarovni yomon ko'rib qoldi. U Bazarovni takabbur, surbet, hayosiz va past odam deb hisoblardi. Pavel Petrovich: «Bazarov meni hurmat qilmaydi, hatto meni – Pavel Kirsanovni! Yomon ko'radi», deb gumon qilar edi. Nikolay Petrovich esa, «yosh nigilist»dan biroz qo'rqrar va Arkadiyga yomon ta'sir qilsa kerak, deb o'ylardi. Ammo Nikolay Petrovich Bazarovning gaplarini maroq bilan tinglar, uning fizika va kimyodan qilgan tajribalariga jon-jon deb qatnashar edi. Bazarov o'zi bilan mikroskop olib kelgan, soatlab u bilan ovora bo'lgani bo'lgan edi. Uy ichidagi xizmatkorlar ham garchi Bazarov ularni masxara qilib hazillashsa hamki, uni yaxshi ko'rishar, chunki ular Bazarovni har holda kiborlardan emas, balki o'zlariga yaqin odam deb bilishar edi. Dunyasha u bilan jon deb qiqirlashar, uning oldidan «bedana yurish» qilib o'tgan chog'larida qiyshanglab,

unga ko'z qirini tashlab qo'yardi. O'taketgan xudbin va nodon, doim peshanasini tirishtirib yuradigan, yagona fazilati – boadab qarashdan, hijjalab o'qishidan, jiylanini cho'tka bilan hadeb tozalab turishdan iborat bo'lgan xizmatkor Pyotr ham Bazarov unga e'tibor qilgan vaqtida jilmayar va chehrasi ochilar edi. Xizmatkorlarning bola-chaqalari esa «do'xtir» ketidan kuchukchaday yugurishgani-yugurishgan edi. Faqat mo'ysafid Prokofichgina uni yomon ko'rар, unga ovqat olib kelganida qovog'ini solar, uni «qurumsoq» va «muttaham» deb atar, o'zining chakkasoqoli bilan xuddi buta orasida yotgan cho'chqaga o'xshaydi, derdi. Prokofich, o'zicha, Pavel Petrovichdan sira qolishmaydigan asilzoda edi.

Yilning eng yaxshi kunlari – iyun oyi boshlandi. Xavo juda yaxshi edi. Uzoqdan yana vabo kasalli tahdid qilar, lekin *** gubernasining aholisi bu ofatga o'rganib qolgan edi. Bazarov uyqudan erta turardi-da, har xil o'tlar va hasharotlar yig'ish uchun ikki-uch chaqirim nariga ketardi. Ammo u aylangani chiqmasdi, chunki bekor aylanib yurishni yomon ko'rardi. Bazan Arkadiyni ham o'zi bilan birga olib chiqar edi. Qaytib kelayotganlarida, ular o'rtasida biror mavzuda doim munozara boshlanar, Arkadiy o'rtog'iga qaraganda ko'p so'zlashiga qaramay, oxirida har vaqt yengilardi.

Bir kuni ikkovi anchagina hayallab qolishdi. Nikolay Petrovich ularni qarshi olmoq uchun bog'chaga chiqdi. Shiypon yoniga yetganida, beixtiyor ularning tez yurayotgan oyoq tovushi-yu suhbatini eshitib qoldi. Ikkovlon shiyponning narigi tomonidan kelayotganlari bois, Nikolay Petrovichni ko'rmasdilar.

– Sen otamni hali yaxshi bilmaysan, – dedi Arkadiy.

Nikolay Petrovich darhol yashirindi.

– Otang yaxshi odam, lekin qatordan chiqib qolgan, uning bozori o'tgan, – dedi Bazarov.

Nikolay Petrovich tinglab, qulqoq soldi... Arkadiy hech nima deb javob qaytarmadi.

«Qatordan chiqib qolgan odam» turgan joyida birpas qotib qoldi-da, keyin sekkingina uyga qarab ketdi.

Bazarov o'z so'zini yana davom ettirib:

– O'tgan kuni qarasam, Pushkining kitobini o'qiyapti, bu ishning keraksizligini unga tushuntir. Axir u yosh bola emas-ku, bunaqangi bo'limg'ur ishlarni tashlash vaqtি yetdi. Hozirgi zamonda xayolparast bo'lish nima degan gap! Unga biror foydali kitob bergin, – dedi.

– Qaysi kitobni bersam bo'lar ekan? – deb so'radi Arkadiy.

– Menimcha, birinchi galda, unga Byuxnerning Stoff und Kraft¹ degan asarini berish kerak.

Arkadiy Bazarovning so'zini ma'qullab:

– O'zim ham shunday deb o'ylovdim. Soff und Kraft sodda tilda yozilgan, – dedi.

Nikolay Petrovich o'sha kuniyoq, ovqatdan keyin akasining xonasida o'tirib:

– Mana, aka, siz bilan biz qatordan chiqib qolgan odam bo'lib qolibmiz, bozorimiz ham o'tibdi, na chora? Ehtimol, Bazarovning gapi to'g'ridir, lekin to'g'risini aytish kerakki, men faqat bir narsaga achinaman, u ham bo'lsa – men xuddi mana shu paytda Arkadiy bilan yaqin do'st bo'lmoqchi edim, lekin men orqada qolib ketgan ekanman, u bo'lsa oldinlab ketibdi. Biz bir-birimizni tushunolmaymiz, – dedi.

Pavel Petrovichning toqati toq bo'ldi.

¹ Stoff und Kraft – nemis tibbiyotshunoslaridan Byuxnerning «Kuch va materiya» degan kitobi.

– Nega endi u oldinlab ketarkan? Nimasi bilan u bizdan bunchalik katta farq qiladi? Uning miyasini o'sha nigilist janoblari aynitgan bo'lsa kerak. O'sha tabibnusxani juda yomon ko'raman. Menimcha, u haqiqiy tovlamachi. Men o'ylaymanki, o'zining baqalari bilan u fizikada ham unchalik uzoqqa ketmagandir.

– Yo'q, aka, unday demang. Bazarov aqlli va bilimdon yigit.

Pavel Petrovich yana Nikolay Petrovichning so'zini bo'lib:

– Xudbinligi odamni jirkantiradi, – dedi.

– Ha, u xudbin, – dedi Nikolay Petrovich, – ehtimol, shunday bo'lmasa ham to'g'ri kelmas. Lekin men bir masalaga tushunolmayman. Zamondan orqada qolmaslik uchun men hamma ishni qilyapman shekilli. Dehqonlarni joylashtirdim, ferma qurdim. O'qiyapman, uni-buni o'rganishga harakat qilyapman, umuman saviyam hozirgi zamon talablariga javob berarlik bo'lsin deb urinyapman, ular esa meni bozori o'tgan deyishadi. Shunday aka, o'zim ham bozorim o'tib ketibdimikin, degan xayolga borib qoldim.

– Nima sababdan?

– Sababi shunday. Bugun Pushkinning «Lo'llilar» poemasini o'qib o'tirgandim, birdaniga Arkadiy oldimga keldi-da; yuzida qandaydir muloyim achinish bilan xuddi bolalar qo'lidan tortib olgandek, hech bir so'zsiz men o'qiyotgan asarni sekingina qo'limdan tortib oldi va oldimga boshqa bir nemischa kitobni qo'yib, bir jilmaydi-da, Pushkinning asarini olib chiqib ketdi.

– Shunday degin! Senga u qanday kitob berdi?

– Mana buni.

Nikolay Petrovich jiylanining orqa cho'ntagidan Byuxnerning to'qqizinchi marta nashr qilingan mashhur kitobchasini olib berdi.

Pavel Petrovich uni qo'liga olib, bir necha marta aylantirib ko'rdi va:

- Him! Arkadiy Nikolayevich sening tarbiyang haqida g'am yeydi. Xo'sh, o'qib ko'rdingmi? – dedi.
- O'qib ko'rdim.
- Xo'sh, qalay ekan?
- Yo men aqlsiz, yo buning bari safsata. To'g'rirog'i, men aqlsiz bo'lsam kerak.
- Nemischani unutganing yo'qmi axir? – deb so'radi Pavel Petrovich.
- Nemischani tushunaman.

Pavel Petrovich kitobni yana bir marta aylantirib ko'rdi va yer ostidan ukasiga qarab qo'ydi. Ikkovi ham jimb qolishdi.

Nikolay Petrovich gapni boshqa yoqqa burib yuborish maqsadida:

- Ha, aytganday, Kolyazindan xat oldim, – dedi.
- Matvey Ilichdanmi?
- Ha, o'shandan. U gubernani taftish qilish uchun ***ga kelibdi. E'tiborli kishi bo'lib ketibdi. Qarindoshlarcha bizni ko'rish orzusida ekanini yozib, siz bilan meni, Arkadiyni shaharga taklif qilipti.
- Borasanmi? – deb so'radi Pavel Petrovich.
- Yo'q, siz-chi?
- Men ham bormayman. Kisel yeymen deb, ellik chaqirim yerga sudralib borishning nima keragi bor. Mathieu¹ bizga o'zining savlatini ko'rsatmoqchi bo'ladi, yuzi teskari bo'lsin! Gubernada maqtashganiyam uning uchun kifoya qilib turar, biz maqta masak kuni o'tadi. Mavhum maslahatchi bo'lsa

¹ Mathieu – Matvey.

o'ziga! Agar men o'sha bema'ni xizmatimni davom ettiraverGANIMDA shu mahalgacha allaqachon general-ad'yutant¹ bo'lardim. Undan keyin sen bilan biz qatordan chiqib qolgan kishilarmiz.

– Shunday, aka, tobut buyurtirib, qo'llarimizni ko'kragimizga chalkashtirib qo'yish vaqtı yetgan bo'lsa kerak, – dedi Nikolay Petrovich xo'rsinib.

– Yo'q, men hali-beri bo'sh kelmayman. Men hali bu tabib bilan ko'p olishaman, buni sezib turibman, – dedi Pavel Petrovich g'o'ldirab.

Janjal o'sha kuniyoq kechki choy mahalida boshlandi. Pavel Petrovich mehmonxonaga urishishga tayyor, achchig'i chiqqan holda shaxdam kirib keldi. U kushandasiga hujum qilish uchun biror sabab izlar, biroq hadeganda o'sha bahona topilmasdi. Bazarov esa «keksha Kirsanovlar» huzurida umuman oz so'zlardi. (U aka-ukani shunday deb atardi). Buning ustiga o'sha kecha kayfiyati ham joyida emasdi, shuning uchun indamasdan hadeb choy ketidan choy ichardi. Pavel Petrovich betoqat bo'lardi, nihoyat uning istagani yuz berdi.

Qo'shni zamindorlardan biri to'g'risida so'z ochildi. Bazarov u bilan Peterburgda uchrashib yurgan ekan. U beparvogina so'zga aralashib:

– Iflos odam, asilzodacha-da, – deb qo'ydi.

Pavel Petrovichning jahli chiqib, lablari qaltiray boshladи.

– Afv etasiz, sizningcha, «iflos» bilan «asilzoda» so'zлari bir ma'nodami? – dedi.

Bazarov choydan istar-istamas bir ho'plab:

– Men «asilzodacha» deb aytdim, – dedi.

– To'g'ri, lekin men asilzodachalar to'g'risida qanday fikrda bo'lsangiz, asilzodalar xususida

¹ Ishonchli shaxs sifatida podsho xizmatini qilgan generallarning faxriy unvoni.

ham xuddi shunday fikrda bo'lsangiz kerak, deb o'ylayman. Men bunday fikrga qo'shilolmayman va shuni sizga bildirib qo'yishni lozim, deb topaman. Meni odamlar liberalizm va taraqqiyot tarafidori deb biladi, deyishga jur'at eta olaman. Shu sababdan asilzodalarni, chin asilzodalarni hurmat qilaman. Ingliz asilzodalarini xotirangizga oling, muhtaram afandim (bu so'zdan keyin Bazarov Pavel Petrovichga ko'z tashladi), ingliz asilzodalarini oling, muhtaram afandim, – deb takrorladi Pavel Petrovich qizishib ketib, – ular o'z huquqlarining zarrachasini ham birovga bermaydilar va shuning uchun ular boshqalarning huquqlarini ehtirom etadilar. Ular o'zlariga nisbatan boshqalarning vazifa o'tashini talab qiladilar va shuning uchun ham ular o'zlarining vazifalarini o'taydilar. Asilzodalik Angliyaga hurriyat berdi va uni yoqlab keldi.

Bazarov Pavel Petrovichga e'tiroz bildirib:

– Bunaqangi gaplarni ko'p eshitganmiz, bu bilan siz nimani isbot qilmoqchi bo'lasiz? – dedi.

– Men, muhtaram afandim, bu bilan shuni isbot qilmoqchimanki; qadringni bilmay, o'zingni hurmat qilmay turib (asilzodalarda bu tuyg'ular kuchli taraqqiy etgan), ijtimoiy... bien public¹..., ijtimoiy binoning mustahkam poydevori bo'lishi mumkin emas. Eng muhimi – shaxsiyat, muhtaram afandim, kishilik shaxsiyati qoyaday mustahkam bo'lishi lozim; chunki hammasi o'shang aсосланаб quriladi. Men masalan, juda yaxshi bilamanki, siz kaminaning odatlarini; yasan-tusanlarini va nihoyat, pokizaligini kulgiga olasiz, vaholanki, bularning bari odamning o'z-o'zini hurmat qilish tuyg'usidan, burch, taqsir, burch tuyg'usidan kelib

¹ Bien public – ijtimoiy saodat (fransuzcha).

chiqadi. Men qishloqda, qorong'i go'shada tura-man, lekin o'z obro'yimni aslo tushirmayman, men o'zimni odam deb hurmat qilaman.

– Kechirasiz, Pavel Petrovich. Mana, siz o'zingizni hurmat qilasiz-u, lekin qo'l qovushtirib bekor o'tirasiz, endi bien public uchun bundan nima foya-da? Vaholanki, o'zingizni hurmat qilmasangiz ham shunday qilar edingiz, – dedi Bazarov.

Pavel Petrovich bo'zarib ketdi.

– Bu butunlay boshqa masala. Hozir men mar-hamat qilib aytganingizday, qo'l qovushtirib bekor o'tirishimning sababini sizga bayon etishim aslo nojoiz. Men faqat shuni aytmoqchiman: asilzodalik – qarash demakdir. Bizning zamonamizda esa fa-qat axloqsiz va quruq odamlargina qarashsiz ya-shay oladi. Men buni Arkadiyga kelgan kunining ertasigayoq aytgan edim, endi bo'lsa sizga takror-layapman. Shunday emasmi, Nikolay? – dedi u.

Nikolay Petrovich bosh irg'adi.

– Asilzodalik, liberallik, taraqqiyot va qarash, – dedi Bazarov, – o'ylab ko'rsang, qanchalik ahamiyatsiz, ajnabiyo so'zlar-a. Rus uchun bu so'zlar tekinga ham kerak emas.

– Bo'lmasa, sizningcha, unga nima kerak? Gapin-gizga qaraganda, biz insoniyatdan hamda uning qonunlaridan tashqarida yashar ekanmiz-da? Kechirasiz, tarixiy mantiq shuni talab qiladiki...

– Bizga bu mantiqning nima hojati bor? O'sha mantiqsiz ham kunimiz o'tadi.

– Qanday qilib?

– Qanday qilib bo'lar edi. Qorin ochganda, bir burda nonni og'zingizga solish uchun bunaqangi mantiqqa muhtoj bo'lmastangiz kerak, deb o'lay-

man. Biz ham bunday mavhum tushunchalardan uzoqdamiz!

Pavel Petrovich qo'l siltab:

– Men sizga aslo tushunmayman, – dedi. – Siz rus xalqini haqorat qilyapsiz, men hayronmanki, qarashlar-u qoidalarni qanday qilib e'tirof etmaslik mumkin? Siz axir nimaga asoslanib ish tutasiz?

Arkadiy suhbatga aralashib:

– Men sizga, amaki, biz hech qanday mo'tabar zotni e'tirof etmaymiz, deb aytgandim, – dedi.

– Biz o'zimiz foydali deb hisoblagan qarashlar asosida ish tutamiz, – dedi Bazarov, – hozirgi vaqt-da eng yaxshisi, inkor etish, shuning uchun biz inkor etamiz.

– Hammasini-ya?

– Hammasini.

– Nechun? Faqat san'at-u she'riyatnigina emas... balki yana, hattoki... aytishga odamning og'zi bormaydi...

Bazarov pinagini buzmay:

– Hammasini, – dedi.

Pavel Petrovich unga tikilib qoldi. U Bazarovdan buni kutmagan edi. Arkadiyning zavqi kelganidan qizarib ketdi.

Nikolay Petrovich gap boshlab:

– Bu qanday gap, siz hammasini inkor etasiz, yoki aniqroq qilib aytganda, hammasini vayron qilasiz... qurish ham kerak-ku, axir.

– Bu bizning ishimiz emas... Avval zamin tay-yorlash kerak.

Arkadiy kibr bilan Bazarovning so'ziga qo'shilib:

– Xalqning hozirgi ahvoli shuni talab qiladi. Biz bu talablarni bajarishimiz kerak, shaxsiy manfaatni qondirishga berilishga haqimiz yo'q.

Arkadiyning so'nggi jumlalari Bazarovga yoqmadidi shekilli, bu gapdan falsafa, ya'ni xomxayolning hidi kelardi; Bazarov falsafani ham xomxayol der edi. U yosh shogirdining gapini rad qilishni lozim deb topmadidi.

– Yo'q, yo'q! – deb birdaniga qizishib ketdi Pavel Petrovich, – men siz janoblarning rus xalqini yaxshi bilihlariningizga, uning talab-u tilaklarini bajo keltirishga qodirligingizga sira ishonmayman! Yo'q rus xalqi siz tasavvur qilgandek emas. Rus xalqi o'z otabobosidan qolgan rivoyatlar, o'git-nasihatlarni muqaddas ko'radi. U qadimiylar urf-odatga sodiq, e'tiqodsiz yashay olmaydi... – dedi.

Bazarov Pavel Petrovichning so'zini bo'lib:

– Bunga qarshi e'tirozim yo'q, hatto bu so'zingiz to'g'ri deb aytishga ham tayyorman, – dedi.

– Agar so'zim to'g'ri bo'lsa...

– Shunday bo'lsa ham, bu hech nimani isbot qilmaydi.

Arkadiy raqibining xatarli yurish qilishini oldindan bilib turgan va shu sababdan aslo hayratda qolmagan usta shaxmatchi singari dadil bo'lib:

– Haqiqatan ham hech nimani isbot qilmaydi, – deb takrorladi.

Pavel Petrovich bu so'zga hayron qolib:

– Nechuk hech nimani isbot qilmaydi? Demak, siz o'z xalqingizga qarshi borarkansiz-da?

Bazarov unga qarshi qizishib:

– Shunday bo'lsa nima qilipti? Momaqaldiroq bolganda, xalq Ilyos payg'ambar osmonda arava choptirib yuribdi, deb o'ylaydi. Xo'sh, sizning-cha, men shunga qo'shilishim kerakmi? Mana shu xalq – rus, men o'zim rus emasmi?

– Yo'q, hozirgi gapingizdan keyin siz rus emassiz! Sizni rus deb aytolmayman.

Bazarov iftixor bilan javob berib:

– Mening buvam qo'sh haydagan, – dedi, – istagan dehqoningizdan so'rab ko'ring, u qaysimizni – siznimi yoki meni – asl vatandoshi deya tan olar ekan. Siz ular bilan so'zlasholmaysiz.

– Siz esa dehqon bilan suhbat chog'ida ham undan hazar ham qilasiz.

– O'zi shunga sazovor bo'lsa nima qilay! Mening tutgan yo'llimni qoralaysiz, ammo kaminaning tutgan yo'li tasodifiy va u siz jon kuydirayotgan xalq ruhidan kelib chiqmagan, deb sizga kim aytdi?

– Nigilistlarning juda keragi bor-da!

– Ularning keragi bormi, yo'qmi, buni biz hal qilmaymiz. Vaholanki, siz ham o'zingizni keraksiz odam deb hisoblamaysiz-ku!

Nikolay Petrovich:

– Janoblar, janoblar, zinhor shaxsiyatga til tek-kizmanglar! – dedi-da, o'rnidan turdi.

Pavel Petrovich jilmayib qo'ydi va qo'lini ukasining yelkasiga qo'yib, uni yana o'z joyiga o'tirishga majbur qildi.

– Xotirjam bo'l, izzat-nafs degan so'zdan janob, doktor janoblari qattiq kulsalar ham, men xuddi shu izzat-nafs tufayli o'zimni yo'qotmayman, – dedi Pavel Petrovich va Bazarovga murojaat qildi, – kechirasiz, siz ehtimol, o'z ta'limotingizni yangi bir qarash deb o'ylayotgandirsiz? Bunday xayol qilishingiz behuda. Siz targ'ib qilayotgan manfaatparastlik bundan ilgari ham bir necha bor maydonga chiqqan edi-yu, lekin hech qachon barqaror bo'lolg'an emas.

– Yana ajnabiy so'z-a! – dedi Bazarov uning so'zini bo'lib. Yigitning jahli chiqqa boshladi va yuzlari negadir bo'zarib ketdi. – Birinchidan, biz hech

nimani targ'ib qilayotganimiz yo'q, bizda bunday odat yo'q...

– Bo'lmasa nima qilyapsiz?

– Mana, bunday qilyapmiz. Ilgarilari, yaqin orada, amaldorlarimiz pora oladilar; bizda yaxshi yo'llar, savdo-sotiq va odil sudlar yo'q derdik...

– Shunday, sizlar fosh qiluvchilarsiz, buni shunday deb aytishardi, shekilli. Fosh qilgan ayblarингиздан ko'plarini men ham tan olaman, lekin...

– Keyin quruq gap-u hadeb jarohatlar to'g'risida vaysab yurishdan hech ish chiqmasligini, bu faqat qabohatni muhofaza etishga olib borishini angladik va oldingi safdag'i fosh qiluvchi deb ataladigan o'zbilarmonlarimizning hech nimaga arzimasligini ko'rdik. Oldimizda kundalik tirikchilik masalasi va o'taketgan xurofot bizni burib turgan bir vaqtدا, butun shirkatlarimiz ishonchli kishilarimizning kamliги bois barbod bo'layotganda, dehqonlarimiz qovoqxonada aroq ichib, o'z-o'zini talashdan tortinmayotgan mahalda, hukumat intilayotgan ozodlikning bizga nafi tegishiga hali ko'zimiz yetmagan bir zamonda allaqanday san'at, falsafa bilan shug'ullanganimizni, ya'ni bekordan-bekorga allaqanday san'at, ongsiz ijodkorlik, parlament tuzumi, oqlovchilik va tag'in Xudo bilsin, qanday balo-yu battarlar to'g'risida quruq gap sotib yurga-nimizni payqadik.

Pavel Petrovich uning so'zini bo'lib:

– Ha-a, ha-ha, siz bularning bariga ishonch hosil qildingiz va demak, hech ishga jiddiy kirishmaslikka qaror qildingiz, – dedi.

Bazarov Pavel Petrovichning so'zini jahl bilan takrorlab:

– Hech ishga jiddiy kirishmaslikka qaror qildik,
 – dedi. Bu janob oldida shunchalik fikr bayon qilib
 o'tirishi birdaniga Bazarovning o'ziga alam qildi.

– Faqat so'kishishgagina jiddiy kirishasizlarmi?

– So'kishishga ham.

– Bu nigelizm degani ekan-da!

Bazarov Pavel Petrovichning so'zini bu safar
 ham yanada dag'alroq qilib takrorladi-da:

– Nigelizm degani shu bo'ladi, – dedi.

Pavel Petrovich ko'zlarini sal qisib qo'ydi va
 g'alati bir bosiq tovush bilan gapirdi:

– Hali shunaqa deng! Nigelizm hamma dardga davo
 bo'lishi kerak, demak, sizlar bizning xaloskorimiz va
 qahramonimiz bo'lasizlar, shundaymi? Xo'p, bo'lma-
 sa nima uchun siz boshqalarni masalan, o'sha fosh
 qiluvchilarni yomonlaysiz? Siz ham boshqalar sin-
 gari safsata sotayotganingiz yo'qmi? – dedi.

– Boshqa aybimiz bo'lsa bordir, lekin bunaqasi
 yo'q, – deb zarda bilan javob qaytardi Bazarov.

– Yo'qsa nima? Amaliy ishga kirishdingizmi?
 Yoyinki kirishmoqchimisiz?

Bazarov javob bermadi, Pavel Petrovich qaltiray
 boshladi, lekin darrov o'zini tutib oldi va so'zini da-
 vom ettirib:

– Him!.. Amaliy ishga kirishmoq – vayron qil-
 moq... Axir nima uchunligini bilmay turib, qanday
 vayron qiladi kishi? – dedi.

– Biz vayron qilamiz, chunki biz kuchmiz, – deb
 qo'ydi Arkadiy.

Pavel Petrovich jiyaniga qarab, zaharxanda qildi.

Arkadiy yana so'zida davom etib:

– Ha, kuch degani o'ylab o'tirmaydi, – deb qo-
 matini rostladi.

Shundan keyin Pavel Petrovichning aslo toqati
 qolmadi va baland ovoz bilan:

– Baxtsiz! Sen axir bo'limg'ur maslaging bilan Rossiyada nimaga yordam qilayotganiningni bir o'ylab ko'rsang bo'lardi! Yo'q, bu hol farishtani ham g'azabga keltirishi mumkin! Kuch emish! Vahshiy qalmoqda ham, mo'g'ulda ham kuch bor, lekin uning bizga nima keragi bor? Biz uchun madaniyat qimmatli. Ha-ha, muhtaram afandim, biz uchun uning samarasi qimmat. Yana siz menga bu samaralar hech nimaga arzimaydi, deb aytmang, eng yomon un barbuilleur¹ rassom ham bir kechalik mehnati uchun besh tiyin oladigan mashshoq ham sizdan foydaliroq; chunki ular, dag'al vahshiy mo'g'ul kuchining emas, balki madaniyat vakillaridir! Sizlar o'zlarining peshqadam deb xayol qilasizlar, holbuki, faqat qalmoq o'toviga munosib odamlarsizlar! Kuch emish-a! Axir o'ylab qaranglar, sizday kuchli janoblaridan nihoyati to'rt-to'rt yarimtagina bordir, biroq, o'zlarining muqaddas imonini oyoq osti qilgani sizlarga yo'l qo'ymaydiganlar million-millionlarcha. Ular sizlarni yanchib tashlaydi!

– Yakson bo'sak bo'ldik-da, – dedi Bazarov. – Ammo buvimning gapi hali qat'iy emas. Bizlar, siz o'ylaganchalik oz emasmiz.

– Nechuk siz hali chindan ham butun boshli xalqni yengmoqchimisiz?

Bazarov bunga javoban:

– Bir chaqalik shamdan butun Moskva yonib ketganini boxabarsiz-ku², – dedi.

¹ Un barbuilleur – bo'yoqchi, yomon (fransuzcha).

² Fransuz qo'shini Moskvaga kirgan paytda (1812-yil sentyabr oyida) paydo bo'lgan va Moskvani yondirib bitirgan tarixiy yong'inga asoslangan maqoldir. Ma'nosi – juda kichkina bir sabab – katta natijalarga olib borishi mumkin.

– Xo'sh, xo'sh! Boshqa allaqanday safsatabozlig-u, keyin mazax. Mana, yoshlar nima bilan shug'ullanadi-yu yosh bolalarning tajribasiz yuragi nimalar bilan zaharlanadi! Mana ko'ring, shundaylardan biri sizning yoningizda o'tiribdi, sizga topinay deyishga tayyor turadi, tomosha qiling (shu paytda Arkadiy teskari qarab, qovog'ini soldi). Bu ofat oz-muncha tarqalgan emas. Menga aytishdiki, Rimga borgan rassomlarimiz Papa saroyiga qadam bosmas emishlar. Ular Rafayelni¹ obro'yli bo'lgani uchun ham tentak deyishga tayyor emishlar-a. O'zлari esa hadsiz zaif va samarasizlar, qancha urinsalar ham xayollari «Fontan yonidagi qiz»dan nariga yetmaydi. Qizning surati ham juda xunuk solingan. Sizningcha, ular azamat yigitlar bo'lsa kerak-a?

Bazarov unga e'tiroz bildirib:

– Menimcha, Rafayel sariq chaqaga ham arzimaydi, ammo siz aytgan rassomlar ham Rafayel-dan ortiq emas.

– Ofarin! Ofarin! Eshitib qo'y, Arkadiy... hozirgi yoshlar gapni ana shunday gapirishi kerak ekan-a! Endi qanday qilib, ular sizga ergashmasin! Ilgari yoshlarga o'qish to'g'ri kelardi, ular nodon qolishni istamas edilar, shuning uchun majburan mehnat qilardilar. Hozir esa ularga: «dunyoda bor haqiqatning bari safsata!» deyilsa bas, hamma ish joyida. Yoshlar xursand bo'lishadi. Darvoqe, ilgari ular so'tak edilar, hozirchi, birdan nigilist bo'lib qoldilar.

Bazarov bo'shanggina javob berdi.

– Mana, izzat-nafs degan mag'rur tuyg'uyingiz chippakka chiqdi, – deb qo'ydi. Arkadiy esa qizishib, ko'zлari chaqnab ketdi. – Munozaramiz juda gazak olib ketdi... Tugatsak yaxshiroq bo'lardi. Ammo,

¹ Rafayel – mashhur italyan rassomi.

men, hozirgi oilaviy yoki ijtimoiy turmushimizda batamom va rahmsiz tarzda rad qilishni talab qilmaydigan birorta odat borligini ko'rsatib bermaguningizcha fikringizga qo'shilolmayman, – deb qo'shib qo'ydi o'rnidan turayotib.

– Men sizga bunday odatlarning millontasini ko'r-satib beraman, millontasini! – dedi Pavel Petrovich. – Mana, hech bo'limganda jamoani olaylik.

Bazarov sovuq bir tabassum bilan:

– Jamoa to'g'risida mendan ko'ra, ukangiz bilan suhbatlashsangiz tuzukroq bo'lardi. Hozir endi u jamoa, o'rtoq kafillik¹, quvlik va shunga o'xshaganlarning nimaligini o'z tajribasida sinab ko'rganga o'xshaydi, – dedi.

– Oila masalasi, dehqonlarimizning hozirgi oilaviy hayotini olaylik, – deb baqirdi Pavel Petrovich.

– Menimcha, bu masalani ham batafsil tekshirmasangiz yaxshiroq bo'lar. Kelinboz qaynatarni eshitgandirsiz? Menga qarang, Pavel Petrovich, siz bir-ikki kun dam oling, yo'qsa darrov bir nima deyishingiz qiyin bo'lib qoladi. Siz butun tabaqalarini tekshirib chiqing, ularning har biri ustida yaxshilab mulohaza yuriting. Biz esa unga-chaga Arkadiy bilan...

Pavel Petrovich uning gapiga gap qo'shib:

– Ungacha hammani mazax qilib o'tiraylik deng, – dedi.

– Yo'q, baqalarni yorib ko'ramiz. Yur, Arkadiy, xayr janoblar!

¹ Kafillik – soliq masalasidagi o'rtoq kafillik – zamindorga qarashli butun dehqon xo'jaliklari jamoasining va har bir dehqonning hamma uchun, hamma har bir kishi uchun javobgar bo'lishidan iboratdir.

Ikki do'st chiqib ketishdi. Aka-uka yolg'iz qolib, bir-birlariga qarab o'tirishdan bo'lak iloj topolmalarilar.

Nihoyat, Pavel Petrovich gap boshladi:

– Mana, mana hozirgi yoshlari! Ana bizning vorislarimiz!

– Vorislar, – deb takrorladi Nikolay Petrovich ma'yus xo'rsinib. U butun bahs davomida cho'g' ustida o'tirgandek, betoqat bo'ldi va faqat yuragi achinib, tez-tez Arkadiyga ko'z qirini tashlab qo'yar edi. – Bilasizmi, aka, yodimga nima tushdi? Bir kuni marhuma onamiz bilan janjallashib qoldim: u qichqirardi, gapimga quloq solgisi kelmasdi... Oxiri, men unga: «Onajon, gapimni tushunmayapsiz, biz ikkimi boshqa-boshqa bo'g'inga mansub odamlarmiz», dedim. U qattiq xafa bo'ldi, men esa: «Nachora, dori achchiq, biroq uni yutishdan bo'lak iloj yo'q» deb o'yladim. Ana endi bizning navbatimiz keldi, vorislarimiz ham: «Sizlar bizning bo'g'inga mansub emassiz, dorini yutaveringlar», deb aytishi mumkin.

Pavel Petrovich unga e'tiroz bildirib:

– Sen haddan tashqari xushtabiat va kamtarsan. Garchi, birmuncha eskirib iste'moldan chiqib qolgan tilda gapirsak va mutakabbir bo'lmasak ham gapimizni bu boyvachchalarnikidan ancha to'g'ri deb bilaman... Hozirgi yoshlari naqadar gerdagan-a! Bordi-yu, birortasidan siz mayning qanaqasidan ichasiz – oqidanmi yoki qizilidanmi, deb so'rasang, shu tobda go'yo butun olam unga qarab turgandek gerdayib, yo'g'on tovush bilan: «Men ko'proq qizil mayni afzalroq ko'rishga odat qilganman!» deb javob beradi...

Shu choq Fenichka eshikdan boshini suqib:

– Yana choy kerakmi? – deb so‘radi. U mehmonxonada bahs-munozara bo‘layotgani uchun kirishga tortinib turgan edi.

– Yo‘q, ichmaymiz, ayt, samovarni olib chiqib ketsin, – dedi Nikolay Petrovich va uni qarshilab o‘rnidan turdi.

Pavel Petrovich ukasiga: «bon soir»¹ dedi-da, xonasiga chiqib ketdi.

11

Yarim soatdan so‘ng Nikolay Petrovich bog‘dagi o‘zining sevimli shiyponchasiga chiqib ketdi. Uning xayoliga qayg‘uli o‘ylar keldi. U o‘g‘li bilan fikri bir joydan chiqmaganini ilk marta ravshan angladi va bu ziddiyat kundan-kun chuqurlashi-shi tabiiyligini fahmladi. Demak, Peterburgda qishlagan chog‘ida kun bo‘yi yangi asarlar mutolaa qilgani, yoshlarning suhbatlariga qulqoq so‘lib o‘tirgani, ularning qizg‘in suhbatlariga aralashib, o‘z tomonidan biror so‘z qistirib qo‘yib, xursand bo‘lgani behuda gap ekan. U: «Akam bizning gapimiz to‘g‘ri, deb aytadi, men ham har qanaqangi izzat-nafbsni bir chekkaga yig‘ishtirib qo‘yib o‘ylasam, nazarimda, ular bizga qaraganda haqiqatdan uzoqroq ko‘rinadi, lekin shu bilan birga, ularda qandaydir bizda bo‘lmagan nimadir borligini, ular nimasi bilandir bizdan yuqoriroq turganini sezaman... Yoshlikmikan? Yo‘q, yolg‘iz yoshlikkina emas. Ularning bizdan yuqori turi-shiga sabab, ularda kiborlik hissi bizdan ko‘ra ozroq bo‘lishidamikan?» deb o‘yladi.

¹ Bon soir – oqshomingiz xayrli bo‘lsin.

Nikolay Petrovich boshini quyi solib, betini siy-pab qo'ydi.

«Lekin she'riyatni inkor etish! – dedi yana o'ziga o'zi, – san'at-u tabiatga iltifot ko'rsatmaslik?...»

U qanday qilib tabiatni suymaslig-u siylamaslik mumkinligini aqliga sig'dirishni istaganday, te-varak-atrofga nazar tashladi. Kech kiray deb qol-gan, quyosh bog'chadan yarim chaqirim naridagi kichkina terakzor ortiga kirib yashiringan. Terak-zor soyasi keng va sokin dala ustidan allaqayer-largacha cho'zilib ketgan edi. Daraxtzor bo'ylab, qorong'i va tor yo'l bilan bir dehqon oq otini yeldirib borar edi. U soyadan ketayotgan bo'lsa-da, ko'zga juda ravshan, hatto yelkasidagi yamog'igacha aniq ko'riniib turardi, otning ketma-ket bosgan qadam-lari ham ko'zga chiroyli tashlanardi. Daraxtzor ichiga tushgan quyosh nurlari teraklarni shu da-rajada iliq yoritardiki, ular baayni qizil qarag'ayga o'xshab tuyilar, barglari havorang tusga kirgan edi. Daraxtzor ustida shafaq nuri bilan sal-pal qizargan oqsil-zangor osmon ko'riniib turardi. Osmonda qal-dirg'ochlar baland uchib yurardi, shamol butunlay to'xtagan, kechikkan asalarilar siren gullar orasida mudrab, yalqovlik bilan g'o'ng'illashar edi. Baland-ga dikkaygan yolg'iz va uzun shox tepasida turkum-turkum iskaptoparlar qaynashardi. Nikolay Petro-vich «Yo Rabbim, qanday yaxshi-ya!» deb o'yładi va tilining uchiga yaxshi ko'rgan she'rlari keldi, lekin aytolmadi, yodiga Arkadiy va Stoff und Kraft tush-di-yu jim qoldi, lekin boshiga yana har xil qayg'u-yu quvonchga qorishiq o'ylar kelardi, u shirin xayol surishni yaxshi ko'rardi. Qishloq hayoti unda xayol surish iste'dodini o'stirgandi. Yaqindagina u saroy oldida o'g'lini kutib, hozirgidek xayol su-

rib o'tirganmidi yo yo'qmi, bu ahamiyatsiz, ammo bundan buyog'iga qancha o'zgarishlar bo'ldi. O'sha paytda hali ravshan bo'lмаган munosabatlar hozir endi aniqlanib qoldi... Aniqlanganda yana qanday deng! Uning ko'z oldiga yana marhuma xotini keldi, ammo rafiqasining ko'п yillardan beri o'zi ko'rib yurgan, doim uyda o'tiradigan mehribon uy bekasi bo'lib turgandagi qiyofasi emas, balki xipcha bel, ma'suma, nigohlari sinchkov va uzun-u mustahkam o'ralgan soch o'ramlari nozik bo'yni osha orqasiga tashlangan bo'y qizlik vaqtি keldi. U vaqtarda Nikolay Petrovich talaba edi. Yigit uni o'z uyining zinapoyasida uchratib, nogahon turtib yuborgandi. U afv so'ramoqchi bo'lib, orqasiga burildi-da, «pardon, monsieur»¹ degan edi, qiz boshini egib, muloyimgina jilmaydi va birdan ohu kabi hurkib, qochib ketdi. Zinapoyaning qayrilish joyiga yetganda, unga bir qarab qo'ydi-yu, so'ng kutilmaganda jiddiy tortib, qulog'igacha qizarib ketdi. Ana shu ilk uchrashuvdan so'ng Nikolay Petrovich qo'rqa-pisa qizning oldiga kiradigan bo'ldi. Orada bir-ikki og'iz gap, tabassum, hayrat-u hayajon, shirin qayg'u, nihoyat mana bu entiktiradigan saodat... Qani endi u zamonlar? Qiz unga tegdi, Nikolay Petrovich olamda kamdan-kam odamlarga muyassar bo'ladigan baxtga erishdi... U: «O'sha shirin ilk damlar abadiy hayot bilan mangu tursa bo'lmasmidi?» deb o'ylandi.

Nikolay Petrovich o'z fikrini o'zi ravshan anglashga urinmadi, lekin o'zining rohatda kechirgan o'sha umrini faqat xotirada saqlash bilangina qanoatlanmas, Mariyasini yana o'z yonida ko'rishni, uning harorati-yu nafas olishini his qilishni istaganini angladi va shu xayollar ichida xotini go'yo tepasida turib...

¹ «Pardon, monsieur» – afv eting, azizim.

Shu choq yaqindan Fenichkaning:

– Nikolay Petrovich, qayerdasiz? – degan tovushi eshitildi.

U cho'chib tushdi. U xafa ham, xijolat ham bo'lmasdi. U xotinini Fenichka bilan taqqoslashni xayoliga ham keltirmas, ammo qidirib kelgani uchun unga ichi achidi. Fenichkaning tovushi birdan unga sochlari oqorganini, qarib qolganini, hozirgi ahvolini eslatdi...

Alhol o'zi kirib borayotgan, o'tmishning tumanli to'lqinlari orasidan paydo bo'lib kelayotgan ajoyib olam bir qimirladi-yu, ko'zdan g'oyib bo'ldi-ketdi.

– Men shu yerdaman, hozir boraman, ketaver,
 – deb javob berdi-da, Nikolay Petrovich va uning xayoliga: «Mana kiborlik asarlari» degan fikr kelib, o'tib ketdi. Fenichka indamasdan shiyponga qarab qo'ydi va darhol ko'zdan yo'qoldi. Nikolay Petrovich xayolga cho'mib o'tirganicha, kech kirib qolganiga hayron bo'ldi. Atrof butunlay qorong'ilashib, jimjit bo'lib qolgandi. Fenichkaning kichkinagina, oppoq yuzi uning ko'z o'ngidan lip etib o'tdi. U joyidan turib, uyga qaytmoqchi bo'ldi, lekin ko'ksida yumshab qolgan qalbi tinchlana olmasdi. Nikolay Petrovich o'yga tolib, goho oyoq ostiga, goho ko'kda yarqirab turgan yulduzlarga qarab, bog' ichra sekin-asta qadam tashladi. U holdan toygunicha yurdi, ammo yuragida nimanidir izlayotgan noma'lum g'amgin tashvish hanuz bosilmas edi. O'sha paytda uning ko'nglidan nimadir o'tayotganini bilsa, Bazarov toza kulgan bo'lardi. Hatto o'g'li Arkadiy ham ayb qilar edi. Qirq to'rt yoshli zamindor, xo'jayinning ko'zlaridan yosh, hech qanday sababsiz yosh kelardi, bu esa katta violonchel chalishdan ham yuz karra yomon edi.

Nikolay Petrovich hamon yurar va uyga, charag'on derazalari bilan go'zal ko'rinyotgan sokin-u rohatbaxsh uyiga kirishga jur'at qilolmasdi. Qorong'i kecha, bog' yuzini silab-siypayotgan sof havo, qalbidagi g'am-qayg'usi-yu, hayrat-hayajonini tashlab ketishga uning kuchi yetmas edi...

Muyilishda unga Pavel Petrovich duch kelib qoldi.

– Senga nima bo'ldi? – deb so'radi undan Pavel Petrovich. – Arvohdoy oqarib ketibsan, tobing yo'q ekan-ku, nega yotmaysan?

Nikolay Petrovich ikki og'iz so'z bilan o'zining ruhiy ahvolini unga bayon qildi-da, yo'lida davom etdi. Bog'ning narigi chekkasiga borgan Pavel Petrovich ham xayolga cho'mdi. U ham boshini ko'tarib, ko'kka qaradi. Ammo uning shahlo ko'zlarida yulduzlar nuridan bo'lak hech nimaning aksi ham ko'rinasdi. U xayolparast emasdi, uning oliftana-mo, fransuzlarga o'xshash odam suymas, qizg'in ruhi xayol surishini bilmas edi...

O'sha kechasi Bazarov Arkadiyga:

– Bilasanmi nima? Menda juda ajoyib bir fikr tug'ildi. Bugun otang o'sha mashhur qarindosh-laringdan xat olganini, uning mehmonga chaqirayotganini aytgan edi. Otang baribir bormaydi, ikkovimiz *** shahriga borsak-chi, o'sha janob seni ham taklif qilgan ekan. Havoning yaxshilagini qara, bir aylanib, shahar tomosha qilib kelamiz, besholti kun o'ynab qaytamiz, vassalom, – dedi.

– Undan keyin sen shu yerga qaytib kelasanmi?

– Yo'q, otamning oldiga borishim kerak. Bilasanmi, *** shaharidan o'ttiz chaqirimcha narida turadi. Men uni anchadan beri ko'rganim yo'q, onam bilan ham diydorlashay. Keksalar ko'nglini ko'tarish

kerak, ular yaxshi odamlar, ayniqsa, otam ajoyib odam-da. Ularning mendan bo'lak bolasi ham yo'q.

- U yerda uzoq turasanmi?
- Yo'q, zerikib qolaman.
- Qaytishda biznikiga kirasanmi?
- Bilmadim... O'ylab ko'raman-da. Bo'pti bo'lmasa, ketdikmi?

– Mayli, – deb, tilar-tilamas javob berdi Arkadiy.

Arkadiy do'stining taklifidan juda xursand bo'ldi, lekin buni unga sezdirgisi kelmadi. U bekorga nigliist bo'lmanan-da, axir.

Ertasiga u Bazarov bilan *** shahriga jo'nab ketdi. Ularni kuzatgan Marinodagi yoshlar xafa bo'lishdi. Dunyasha, hatto ko'z yoshi ham qildi... Keksalar esa yengil nafas olishdi.

12



Bizning do'stlarimiz jo'nab ketgan *** shahri Rossiyaning juda ko'p joyida uchragani singari, yoshlardan chiqqan, taraqqiyat parvar, mustabid bir gubernatorning qo'l ostida edi. U o'zi hukm surgan dastlabki yildayoq, iste'fodagi gvardiya shtab vaziri, mehmondo'st guberniya oqsoqoli bilangina emas, hatto o'z qo'l ostidagi amaldorlar bilan ham janjallashishga ulgurgandi. Shu munosabat bilan paydo bo'lgan o'zaro nizolar shu qadar kuchayib ketgan ediki, Peterburgdagi vazirlik bu ishni tekshirish uchun ishonchli bir vakil yuborishni lozim topgandi. Vazirlik yuborgan bu vakil bir vaqtlar Pavel va Nikolay Petrovich Kirsanovlarni o'z qanoti ostiga olgan, Kolyazinning o'g'li Matvey Ilich Kolyazin edi. U ham «yoshlardan», ya'ni endigina qirq-

dan oshgan, lekin, shunday bo'lsa-da, endi davlat xodimlari qatoriga kirayotgan va ko'kragining har ikki tomoniga bittadan yulduz taqib olgan kimsa edi. To'g'ri, yulduzlarning bittasi xorijdan olingan bo'lib, darajasi u qadar yuksak emasdi. Kolyazin ham ishini tekshirgani kelgan gubernator singari taraqqiyparvar hisoblanar va kuzurlardan bo'lgan holda, ularning ko'pchiligiga o'xshamas edi. U o'zini juda katta odam hisoblar, haddan tashqari shuhratparast bo'lsa-da, o'zini kamtar tutar, ham-maga ochiq chehra bilan qarar, birovning so'zini il-tifot bilan tinglar va shunday samimiy kular ediki, birinchi ko'rgan kishi «ajoyib yigit» deb qo'yari edi. Ammo muhim paytlarda, xalq aytgandek, boshqa-larning changini chiqarish ham qo'lidan kelar edi. Bunday vaqtarda u: «Quvvat – ehtiyoj «l'energie est la premiere qualite d'un homme d'état»¹, derdi. Lekin shunday bo'lishiga qaramay, o'zi doim al-danar va biroz tajribasi bor amaldor uning yelka-siga minib olardi. Matvey Ilich Gizo² haqida juda ehtirom bilan so'zlar va har kimga o'zining eski-lik tarafdori bilan qoloq to'ralarga munosib emas-ligini va ijtimoiy hayotda sodir bo'ladigan muhim hodisalardan hech birini e'tiborsiz qoldirmas-ligini tushuntirishga intilardi... Shunga o'xshash gaplar unga yaxshi ma'lum edi. U katta kishi ko'chada yosh bolalarning o'yinini ko'rib, ba'zan unga qo'shilganday, garchi mensimasa ham, o'z zamonasining adabiyoti rivojini kuzatardi. Zotan, Matvey Ilich ham, Aleksandr zamonasining, o'sha

¹ Quvvat – davlat xodimining asosiy xislatidir.

² Gizo – fransuz siyosiy arbobi va tarixchisi, (1782–1847-yillar).

vaqtida Peterburgda yashab turgan Svechina¹ xonimnikiga ziyofat kechasiga borish uchun tayy-orgarlik ko'rayotganda, ertalab Kondilyak² asaridan biror sahifasini o'qib olishni odat qilgan davlat xodimlaridan uzoq ketgan emas, uning odatlari sal boshqacha va zamonasiga muvofiqroq edi. U juda usta va ayyor saroy a'yонларидан edi, xolos. Kallavaram bolsa ham, lekin o'z ishiga pishiq, bu bora-da uni hech kim qo'lga tushirolmasdi. Eng muhimi ham shu.

Matvey Ilich Arkadiyni o'qimishli amaldorlarga xos sofkillik, hatto hazil-mutoyiba bilan qarshi oldi. Ammo taklif etilgan qarindoshlari kelmasdan o'z qishloqlarida qolganliklarini bilgach, juda hayron bo'ldi. U ustiga kiygan duxoba avra to'nining popuk-chalarini o'ynab: «Otang azaldan g'ayritabiyl odam edi», deb qo'ydi-yu, kutilmaganda tantana marosimlarida kiyadigan chophonining tugmalarini qadab o'tirgan yosh amaldorga qarab, bir nima to'g'risida tashvish tortganday: «Xo'sh?» dedi. Uzoq sukut saqlab o'tirganidan lablari yopishib qolgan yosh yigit o'rnidan turdi-da, hayron bo'lib, boshlig'iga qaradi. Ammo Matvey Ilich o'z xodimini esankiratganidan keyin, unga ortiqcha e'tibor qilmay qo'ydi. Mansabdorlarimiz o'z qo'l ostidagilarini esankiratishni yaxshi ko'radilar. Ularning bu maqsadga erishish uchun ishlatalidigan usullari juda xilma-xil. Jumladan, quyidagi usul juda ko'p qo'llaniladi, inglizlar aytganday, «is quite a favourite»³: mansabdar birdaniga eng oddiy

¹ Svechina – yozuvchi ayol, katolik dinini qabul qilib, Rossiyanı tark etgan (1782–1847-yillar).

² Kondilyak – 1715–1780-yillarda yashagan fransuz faylasufi.

³ Is quite a favourite – juda suyladi, (inglizcha).

so'zlarni ham tushunmaslikka va o'zini kar qilib ko'rsatishga harakat qiladi. Masalan, u: «Bugun qanday kun?» deb so'raydi.

Unga kamoli ehtirom bilan: «Bugun muborak juma kuni, janobi oliylari» deb ma'lumot beradilar.

Mansabdor zo'r berib:

– A? Nima? Nima, nima? Nima deyapsiz? – deb yana takrorlaydi.

– Bugun juma, taqsir.

– A? Nima? Muborak juma nimasi? Qanaqa juma?

– Juma taqsir, haftaning beshinchi kuni.

– E-ha, sen menga o'rgatmoqchi bo'lasanmi?

Matvey Ilich, liberal hisoblansa ham, har holda, mansabdor bir kishi edi. U Arkadiyga:

– Sen, azizim, gubernatornikiga ziyoratga bor, – dedi, – lekin shuni anglaginki, men buni hukmdorning oldiga borib, salom qilish zarur degan eski tushunchalarga ergashib, maslahat berayotganim yo'q, balki gubernatorning o'zi yaxshi odam bo'lgani uchun aytayapman. Undan keyin sen, albatta, bu yerdagi odamlar bilan ham tanishmoqchidirsan... Sen ayiq emassan, axir? Gubernator indinga katta bal o'tkazmoqchi.

– Siz ham balda bo'lasizmi? – deb so'radi Arkadiy.

Matvey Ilich deyarli taassuf bilan:

– Gubernator bu balni men uchungina beryapti. Raqsga tushasizmi? – dedi.

– Raqs tushaman-u, lekin yaxshi bilmayman.

– Mana bunisi chakki. Bu yerda yaxshi nozaninlar bor, yosh yigitning raqsga tushishni bilmasligi – ayb. Buni ham men eski tushunchalar yuzasidan aytmayman. Men aql oyoqda bo'lishi kerak deb,

aslo o'ylamayman. Lekin bayronizm¹ kulgili-da, il a fait son temps².

– Yo'g'-ey, tog'ajon, men aslo bayronchilardan emasman...

Matvey Ilich Arkadiyning so'zini bo'lib:

– Men seni bu yerning xonimlari bilan tanishtiraman, o'z qanotim ostiga olaman, huzur qilasan-a? – dedi va mamnun bo'lib, kulib yubordi.

Shu orada xizmatkor kirib, qatl palatasi³ raisi kelganligini xabar qildi.

U labi burishgan, xumor ko'zli chol bo'lib, tabiatni juda yaxshi ko'rар, ayniqsa, yozni g'oyatda suyardi. Bu chol doim: «Yozda har bir asalari har guldan o'z tegishini oladi...» der edi.

Arkadiy tashqariga chiqib ketdi.

Arkadiy Bazarovni gubernatornikiga borishga uzoq vaqt ko'ndirishga harakat qildi. «Boshqa iloj yo'q, – dedi nihoyat Bazarov. – Shatakkal olma, olgandan keyin kuchim yetmaydi dema. Zamindorlarni ko'rishga kelgan ekanmiz, ko'raylik!» Gubernator yoshlarni ochiq chehra bilan qarshi oldi, lekin ularni o'tqizmadni va o'zi ham o'tirmadni. U juda hovliqma, shoshqaloq edi. U ertalab tor mundirini kiyib, bo'yinbog'ini tortib bog'lar, ovqatni chala-chulpa yeb,

¹ Bayronizm – XIX asr boshida Yevropa adabiyotida hukm surgan oqim. Mashhur ingliz shoiri Bayron ismi bilan yuritiladi. Bu oqim uchun o'ziga xos sifat: shu zamon jamiyatiga teskari qarash, turmushdan ixlos qaytish va ko'ngil ovutish uchun jamiyatdan ajralib, Yevropa madaniyatining ta'siri bilan o'z-garmagan ellarga ketib turish bo'lgan.

² Il a fait son temps – u o'z davrini surib bo'lgan.

³ Qatl palatasi – inqilobdan burun Rossiyada gubernanining ma'muriy bir organi bo'lib, vazifasi soliqlar toplash, soliq taqsim qilish va boshqa shunga o'xshash ishlar ustidan nazorat qilishdan iborat bo'lgan.

choyni ham apil-tapil ichib, doim buyruq berish bilan mashg'ul bo'lardi. Gubernada uni Burdalu deyishardi, ammo bu – Burdalu ismi bilan mashhur fransuz voiziga emas, balki bemaza atalaga kinoya qilib berilgan laqab edi.

U Kirsanov bilan Bazarovni o'zinikiga bazmga taklif etdi, ikki daqiqadan keyin, ularni aka-uka deb hisoblab, Kirsanovlar deb atab, yana ikkinchi marta taklif qildi.

Arkadiy bilan Bazarov gubernatornikidan o'z uylariga qaytib ketayotganlarida, ko'chadan o'tib borayotgan aravadan majorcha chopon kiygan pakanaroq bir kishi sakrab tushdi-da, «Yevgeniy Vasilyevich!» deb, Bazarovga tashlandi.

Bazarov yo'lkadan ketib borar ekan:

– E! Sizmisiz, Sitnikov janoblari, qaysi shamol uchirdi? – dedi.

– Hech kutilmaganda, tasodifiy ravishda, – dedi Bazarovga javoban va ortiga burilib, besh-olti marta aravasiga qo'l siltagandan keyin, baqirib, – optimizdan yuraver, optimizdan! – dedi. – Bu yerda otamning bir ishi chiqib qoldi, – deb davom etdi ariqchadan sakrab o'tayotib, – shuning uchun dadam mendan iltimos qildi... Kelganlaringizni bugun eshitdim va tushgan joylaringizga ham bordim... (haqiqatan ham ikki o'rtoq musofirxonaga joylashganlaridan keyin burchaklari buklangan, bir tomoniga fransuzcha, ikkinchi tomoniga slavyancha xunuk husnixat bilan Sitnikov deb yozilgan tashrif qog'ozini oldilar). Gubernatornikidan qaytayotgan bo'sangiz kerak, deb o'ylayman? – dedi.

– O'yashning hojati yo'q, biz xuddi o'sha kishinikidan kelayapmiz.

– Iy-ye! U holda menam u kishinikiga borishim kerak... Yevgeniy Vasilyevich, meni sheringiz bilan tanishtirsangiz...

Bazarov yo'ldan to'xtamay, borar ekan:

– Sitnikov, Kirsanov, – deb to'ng'illab ikkovini tanishtirdi.

Sitnikov yon tomondan yaqinlashdi. U jilmayib, olifta to'qilgan qo'lqopini asta-sekin yecha boshladi:

– Minnatdorman, siz to'g'ringizda juda ko'p eshitganman... Men Yevgeniy Vasilyevichning eski tanishlaridanman va, hatto, shogirdlariman desam ham bo'ladi. U kishi menga butunlay boshqacha tarbiya bergenlar... Buning uchun men qarzdorman.

Arkadiy Bazarovning shogirdiga qarab qo'ydi. Uning kichik, lekin yoqimli chehrasida tashvish va hayronlik alomatlari sezilardi. Ichiga botgan ko'zлari suhabatdoshiga tikilib va javdirab qarar, kulganda ham qandaydir tashvish aralash, g'ayritabiyy kulardi.

Sitnikov gapini davom ettirib:

– Ishonasizmi, Yevgeniy Vasilyevich, mening oldimda birinchi marta «hech qanday obro'li zotni e'tirof etish kerak emas» deganida, quvonchim ichimga sig'may ketgandi... Go'yo ko'zlarim endigina ochilganday bo'ldi! Mana endi qidirgan odamimni topdim, deb o'yladim. Aytganday, Yevgeniy Vasilyevich, siz bu yerlik bir xonimnikiga, albatta, borishingiz zarur. Bu xonim sizning gap-so'zingizga tushunadi va tashrifingiz uning uchun katta bir bayram bo'ladi. Siz u haqda eshitgan bo'sangiz kerak? – dedi.

– Kim ekan? – istar-istamas so'radi Bazarov.

– Kukshina, Eudxie, Yevdoksiya Kukshina. Ajoyib bir xilqat. Tom ma'nosi bilan emancipee¹ avvalgi ayollardan. Bilasizmi? Yuringlar, hozir ham-mamiz o'shanikiga birga boramiz. U xonim xuddi shu yerda turadi. O'sha yerda nonushta qilamiz. Hali tuz totmagan bo'lsangiz kerak?

– Yo'q hali.

– Juda soz, bilsangiz, u erdan chiqqan, boshi ochiq xonim.

Bazarov uning so'zini bo'lib:

– Chiroylimi? – deb so'radi.

– Yo'q... yo'q, chiroyli deb bo'lmaydi...

– Bo'lmasa, nimaga hadeb bizni unikiga borgani qistayapsiz?

– Sho'xlik qilmang... Bir qadahdan may tutadi.

– Shunday deng! Tajribali odamligingiz oyday ravshan. Aytmoqchi, otangiz hali ham otkup² bilan shug'ullanadilarmi?

Sitnikov shoshib:

– Otkup bilan, – dedi va chiyillab, kulib yubordi.

– Qani boramizmi?

– To'g'risini aytganda bilmadim.

Arkadiy sekingina:

– Sen bu yerning odamlarini ko'rmoqchi eding-ku, borgin-da endi, – dedi.

– O'zлari-chi, Kirsanov janoblari, – dedi Sitnikov, – o'zлari ham marhamat qilsinlar, o'zlarisiz bo'lmaydi-da.

– Hammamiz birdan borsak qanday bo'larkan?

– Hechqisi yo'q, Kukshina juda olivjanob xotin.

¹ Emancipee – erkin, xurofotdan ozod.

² Otkup – davlatga to'lanadigan soliq va to'lovlarni hukumatdan ko'proq qilib sotib olib, ularni o'zi undirib olish huquqi.

- Bir qadahdan may tutadi, dedingmi? – deb so'radi Bazarov.
- Bir emas, naq uch shisha! Bunga men kafil! – dedi Sitnikov.
- Nima bilan javob berasiz?
- Boshim bilan.
- Undan ko'ra otangizning hamyoni bilan kafillikka olsangiz tuzukroq bo'lar edi. Mayli, boraylik-chi.

13



Avdotya Nikitishna (yoki *Yevdoksiya*) Kukshina *** shahrining yaqindagina yonib ketgan (ma'lumki, bizning gubernadagi shaharlarimiz har besh yilda bir marta yonib turadi) ko'chalaridan birida, Moskva uylari taxlitida solingan kichik bir dvoryan uvida turar edi. Eshikdag'i qiyshi qoqilgan tashrif qog'ozi ustida qo'ng'iroqchaning dastasi ko'rinib turardi. Mehmonlarni dahlizda xonimning oqsochimi yoyinki dugonasimi qarshi oldi. U boshiga qalpoqcha (chepets) kiygan edi, bu esa uy egasining ochiqdan-ochiq taraqqiy parvarligidan dalolat edi... Sitnikov: «Avdotya Nikitishna uydami?» deb so'radi. Qo'shni bo'lmadan:

– Sizmisiz, Viktor? Kiravering, – degan ingichka tovush eshitildi.

Chepets kiygan xotin darhol g'oyib bo'ldi.

Sitnikov kamzul ustidagi choponini chaqqonlik bilan yechayotib, Arkadiy bilan Bazarovga bir qaradi-yu:

– Men yolg'iz emasman, – dedi.

– Mayli, entrez¹, – deb javob qildi haligi ovoz.

¹ Entrez – Kiringiz (fransuzcha).

Yigitlar ichkariga kirdilar, ular qadam ranjida qilgan uy mehmonxonadan ko'ra ko'proq idoradagi xonaga o'xshardi. Chang bosgan stol ustida har xil qog'ozlar, xatlar, hali aksari qirqilmagan qalin-qalin ruscha jurnallar qalashib yotar edi. Har joyda chekib tashlangan papiros qoldiqlari oqarib turardi. Och-sariq sochlari to'zg'igan, ustiga biroz g'ijimlangan shoyi ko'ylik kiygan, kaltagina qo'llariga katta-katta bilaguzuk taqqan, boshiga to'r ro'mol o'ragan yoshgina xonim charm divanda yonboshlab yotar edi. U o'rnidan turdi-da, sarg'aygan duxoba po'stinini behafsala yelkasiga tashlab, erinchoqlik bilan:

– Salomatmisiz, Viktor, – dedi va Sitnikov bilan ko'rishdi.

Sitnikov Bazarovga taqlidan dona-dona talaffuz qilarkan:

– Bazarov, Kirsanov, – deya ularni xonimga tanishtirdi.

– Xush kelibsizlar, marhabo, – dedi Kukshina va qizargan burnini ko'tardi hamda dum-dumaloq ko'zlarini Bazarovga tikdi. – Men sizni taniyman, – deya qo'shimcha qildi va u bilan ham ko'rishdi.

Bazarov aftini burishtirdi. Erkinlikka chiqqan xonimning kichik, savlatsiz jussasida hech qanday xunuklik yo'q edi-yu, ammo uning chehrasi boshqalarga allaqanday yomon ta'sir qilar edi. Ixtiyorsiz ravishda undan: «Senga nima bo'ldi, qorning ochmi? Yo zerikayapsanmi? Yoyinki qo'rqayapsanmi? Nega buncha chiranyapsan?» deb so'raging kelar edi. Sitnikovga o'xshash uning ham ichini doim bir nima tirnab turar edi. U gapirganida va yurganida o'zini juda erkin, betakalluf tutsa-da, harakatlarining bari o'ziga yopishmasdi. Xonim o'zini oqko'ngil va sodda ayol deb hisoblasa kerak. Lekin nima qilmasin, na-

zaringizda, xuddi shuni qilishni istamagandek bo'lib ko'rinar edi. Uning hamma tabiatи g'ayrioddiy va g'ayritabiyyday tuyilardi.

– Ha-ha, men sizni taniyman, Bazarov, – deb takrorladi u va tag'in (ko'pgina viloyat va Moskva xonimlari singari u ham erkak bilan birinchi tanishgandayoq, uning sharifini aytar edi):

– Tamaki chekasizmi? – deb so'radi.

– Chekish o'z yo'liga, – dedi yumshoq kursiga gavdasini tashlab, oyog'ini yuqori ko'tarib yotgan Sitnikov. – Bizni nonushta qildiring. Qornimiz had-dan tashqari och, bir shisha may ham buyuring.

– Tanparvarsiz-a, – dedi Yevdoksiya va kulib yubordi. (U kulganda, ustki milki ko'rinish turardi). Keyin: – To'g'ri emasmi, Bazarov, tanparvar-a?

– Men maishatni yaxshi ko'raman, – dedi ger-dayib Sitnikov, – bu mening liberal bo'lismiga xalal bermaydi.

– Yo'q, xalal beradi xalal beradi! – deb xitob qildi Yevdoksiya, ammo o'sha onda oqsochiga nonushta va may keltirishni buyurdi. Keyin Bazarovga murojaat qilib: – Siz bu to'g'rida nima deb o'ylaysiz? Menning fikrimga qo'shilsangiz kerak?

– Yo'g'-ey, – deb e'tiroz bildirdi Bazarov, – hatto kimyo nuqtayi nazaridan ham, bir burda nondan ko'ra, bir parcha go'sht afzal.

– Siz kimyo bilan shug'ullanaszizmi? Bu mening eng sevgan ishim-ku. Men, hatto o'zim bir xil moy o'ylab chiqardim.

– Moy deysizmi? Siz-a?

– Ha, men. Bilasizmi, qanday maqsad bilan? Qo'g'irchoq yasash uchun, kallasi sinmasin deb. Menam tajribakor bir ayolman. Lekin hozircha bu ish adog'iga yetgan emas. Hali Libixning kitobini

o'qib chiqish kerak. Aytganday, siz Kislyakovning «Moskovskiye Vedomosti»da xotin-qizlar mehnati to'g'risida yozgan maqolasini o'qidingizmi? Albatta, o'qib ko'ring. Sizni xotin-qizlar masalasi qiziqtiradi-ku. Maktablar hammi? O'rtog'ingiz nima ish bilan shug'ullanadi? Ismi nima?

Kukshina xonim, javobini kutmasdan nozli iltifotsizlik bilan, arzanda bolalar o'z murabbiylari bilan gaplashganday, ketma-ket savol berardi.

Arkadiy:

– Mening ismim Arkadiy Nikolayevich Kirsanov, men hech ish oilan shug'ullanmayman, – dedi.

Yevdoksiya xaxolab kulib yubordi.

– Mana bu ishingiz joyida! Siz chekmaysizmi? Viktor, bilasizmi, men sizdan xafaman.

– Nima uchun?

– Eshitishimcha, siz tag'in Jorj Sandni¹ maqtay boshlagan emishsiz. U orqada qolgan bir xotin-ku, boshqa nima bo'lar edi! Qanday qilib o'sha ayolni Emerson² xonim bilan tenglashtirib bo'ladi! U na targ'ib, na fiziologiya va na boshqa masalalarда – hech qanday fikrga ega emas. Imonim komilki, u hali embriologiya to'g'risida biror gap ham eshitgani yo'q. Bizning davrimizda bundan bexabar qanday yashash mumkin axir? Oh, Yeliseyevich, bu haqda qanchalar ajoyib maqola yozibdi-ya! Buyuk bir janob ekannda! (Yevdoksiya «odam» o'rniiga, doim «janob» so'zini ishlatardi) Bazarov, mening yonimga,

¹ Jorj Sand (1801–1876-yillar) – mashhur fransuz yozuvchisi. O'zining ilk romanlarida nikoh va oila masalalarida cherkovga qarshi chiqib, erkin niqob ostida oshkora muhabbatni himoya qilgan. Uning asarlari Rossiyada ham juda yaxshi kutib olingan.

² Emerson (1803–1883-yillar) – Amerika yozuvchisi va faylasufi.

divanga o'tirsangiz-chi, ehtimol, bilmassiz, men sizdan juda qo'rqaman.

– Nega endi? Bizgayam aytинг-da.

– Siz xavfli janobsiz, siz shafqatsiz tanqidchisiz. Yo Rabbim! Qiziqman-a, xuddi qishloqi zamindor xotinday gapirayapman. Aytganday, men chindanam zamindor ayolman. Mulkimni o'zim idora qilaman. Bilasizmi, oqsoqolim Yerofey ajoyib bir zot, xuddi Kuper Patfaynderining¹ o'zginasi, juda danganchi odam-da! Men bu yerga butunlay ko'chib keldim, lekin shaharning mazasi yo'q ekan, shunday emasmi? Ammo na iloj?

Bazarov sovuqqonlik bilan:

– Shahar shahar-da, – deb qo'ydi.

– Butun turmush mayda manfaatparastlikdan iborat – ana shunisi yomon! Men ilgarilari qishni Moskvada o'tkazardim... Lekin hozir u yerda mening sodiq Kukshin afandim turadi. Endi Moskva ning o'ziyam... Nima desam bo'ladi, ilgarigi Moskva emas. Men chet ellarga borib kelsam deyman. O'tgan yil tayyorgarlik ko'rib edim-u, lekin borolmay qoldim.

– Parijga bo'lsa kerak? – dedi Bazarov.

– Parijga, Geydelbergga ham.

– Geydelbergga borib nima qilasiz?

– Kechirasiz, u yerda Bunzen² bor!

Bazarov bunga hech qanday javob qaytara olmadı.

– Pierre Sapojnikovni... bilarsiz?

– Yo'q, bilmayman.

¹ Kuper Patfayderi – (1785–1831-yillar) Shimoliy Amerika yozuvchisi. U Shimoliy Amerika shaharlari turmushidan olib yozilgan romanlari bilan shuhrat qozongan.

² Robert Vilgelm Bunzen – XIX asrning eng buyuk kimyogarlaridan biri.

– Kechirasiz, pierre Sapojnikov... doim Lidiya Xostatova xonimnikida ham bo'ladi.

– Men u kishiniyam bilmayman.

– Xullas, Sapojnikov janoblari meni uzatib bor-moqchi bo'ldi. Xudoga shukr, men ozodlikka chiq-dim. Mening bola-chaqam yo'q... Nima dedim: Xu-doga shukr! Mayli, baribir emasmi.

Shu paytda Yevdoksiya o'zining tamaki tutu-nidan sarg'ayib ketgan barmoqlari bilan tamaki o'radi-da, uni tili bilan yopishtirib bo'lgach, so'rdi va cheka boshladи. Patnis ko'tarib, oqsoch kirdi.

– Mana, nonushta ham tayyor! Biroz tanovul qilib olsak nima deysiz? Viktor, shishani oching, bu sizning vazifangiz.

– Ha, mening vazifam, mening, – dedi Sitnikov to'ng'illab va tag'in chiyillab kulib yubordi.

– Bu yerda yaxshi nozaninlardan bormi? – deb so'radi Bazarov, uchinchi qadahni icharkan.

Yevdoksiya unga javoban:

– Bor-u hammasiyam juda puch ayollar, Masa-lan, mon amie¹ Odinsova – yomon emas. Shunisi borki, u g'alatiroq nom chiqargan... Bunisi ham mayli-yu unda hech qanday erkin fikr, keng mulo-haza yo'q, uning butun tarbiyasini boshdan-oyoq o'zgartirish kerak. Men bu to'g'rida o'ylovdim, xo-tin-qizlarimizning tarbiyasi juda yomon, – dedi.

– Ularni hech nima qilolmaysiz, – deb gapga ara-lashdi Sitnikov. – Bundaylardan nafratlanish kerak, men omi ayollardan mutlaqo nafratlanaman. (Birovni yomon ko'rish va uni hammaga eshittirib ay-tish mumkin joyda Sitnikov juda xursand bolardi. U ayniqlsa, xotin-qizlarga qattiq yopishar, ammo bir necha oydan keyin ayoli oldida, xotini knyaz Dur-

¹ Mon amie – mening do'stim.

doleosovlar naslidan bo'lgani uchun tiz cho'kishga to'g'ri kelishidan bexabar edi). Ulardan birortasiyam suhbatimizni tushunish darajasida emas, birortasiyam bizning, biz kabi jiddiy erkaklarning, tilga olib, so'zlashimizga arzimaydi!

– Ha, ularga bizning suhbatimizni tushunish butunlay kerak emas, – deb qo'ydi Bazarov.

Yevdoksiya so'zga aralashib:

– Siz kim to'g'risida gapiryapsiz? – deb so'radi.

– Go'zal nozaninlar haqida.

– Nechuk? Demak, siz Prudonning¹ fikriga qo'shilar ekansiz-da?

Bazarov g'urur bilan qomatini rostlab oldi-da:

– Men hech kimning fikriga qo'shilmayman. Menning o'z fikrim bor, – dedi.

Sitnikov xushomadgo'ylik qiladigan kishisi hu-zurida shartta gapirish fursati kelganidan shod-lanib:

– Yo'qolsin obro'li zotlar! – deb qichqirib yubordi.

– Ammo Makaley o'zi, – deb Kukshina gap bosh-lamoqchi bo'lgan edi, Sitnikov qichqirib:

– Yo'qolsin Makaley! Siz hali shu bo'limg'ur xotinlarni yoqlamoqchi bo'lasizmi? – dedi.

– Bo'limg'ur ayollarni emas, xotin-qizlar huquqini yoqlayman, bu huquqni tanimda bir tomchi qonim qolguncha, yoqlashga ont ichganman.

– Yo'qolsin! – Sitnikov shunday dedi-yu keyin to'xtab qoldi va: – men ularni inkor etmayman, – deb qo'ydi.

– Yo'q menimcha, siz slavyanfil!

– Yo'q, men slavyanfil emasman, garchi, albatta...

¹ Per-Jozef Prudon – fransuz siyosatdoni, publisist, iqtisodchi, faylasuf va sotsiolog. U o'zini federallardan deb atagan.

– Yo‘q! Yo‘q! Yo‘q! Bekor gap, siz slavyanfilsiz. Siz Domostroyning¹ shogirdlaridansiz. Qo‘llingizga qamchini ushlaganingizda ham bo‘lardi!

– Qamchi-ku yaxshi narsa-ya, ammo, – dedi Bazarov, – eng so‘nggi tomchiga qarab qoldik.

Yevdoksiya uning so‘zini bo‘lib:

– Nima dedingiz? – deb so‘radi.

– Mayning so‘nggi tomchisiga, muhtaram Avdot-ya Nikitishna, may deyapmiz, qoningiz tomchisiga emas.

Yevdoksiya so‘zini davom ettirib:

– Birovlar xotin-qizlarga hujum qilib gapirganda, men beparvo quloq solib turolmayman. Bu – yaxshi emas, yaxshi emas, ularga hujum qilgandan ko‘ra, Mishlening «De L’amur»² kitobini o‘qib chiqinglar. Bu ajoyib bir asar! Ajoyib! – dedi. Keyin juda g‘alati bir noz bilan qo‘lini divanning g‘ijimlangan yostig‘iga tashlab: – Afandilar, endi ishq-muhabbat to‘g‘risida gaplashaylik, – deb qo‘shib qo‘ydi.

Birdaniga hamma jim bo‘lib qoldi.

– Yo‘q, ishq-muhabbat to‘g‘risida so‘zlashishga ne hojat? – dedi Bazarov, – siz hali Odinsova to‘g‘risida gap ochgan edingiz, shekilli... Uning otini shunday deb atadingiz chog‘i? Bu xonimning o‘zi kim?

– Jonon! Jonon! – dedi Sitnikov chiyillab, – men hali sizni tanishtiraman. Juda aqli, boy xotin, o‘zi tul. Afsuski, u hali u qadar chuqur ma‘lumotga ega emas. U bizning Yevdoksiyamiz bilan yaqinroq ta-

¹ Domostroy – oilaviy hayot qoidalari to‘g‘risida qadimgi rus majmuasi. Unga muvofiq, oila ichida uning boshlig‘i hokim bo‘lib, ayol kishi juda kamsitilishi kerak bo‘lgan.

² Jyul Mishle – fransuz tarixchisi va publisisti. U asarlarida liberalizm g‘oyalarini targ‘ib qilgan. «De l’amour» – «Muhabbat to‘g‘risida».

nishganida, nur ustiga nur bo'lardi. Sizning salomatligingizga ichaman, Eudoxe! Urishtiraylik! «Et toc, et toc, et tin-tin-tin! Et toc, et toc, et tin-tin-tin!»¹

– Viktor. Siz juda sho'xsiz!

Nonushta uzoq davom etdi. Mayning birinchi shishasidan keyin ikkinchisi, uchinchisi va, hatto, to'rtinchisi keldi... Yevdoksiya tinmay, shaqillab gapiraverdi. Sitnikov ham undan qolishmadi. Ular nikoh nima – xurofotmi, yoyinki jinoyat, odamlar qanday tug'iladi – bir xildami yoki yo'q, shaxsiyat zotan nimadan iborat kabi masalalar to'grisida juda ko'p gurunglashishdi. Nihoyat, ish shunga borib yetdiki, may ta'siridan tamom qizarib ketgan Yevdoksiya pianinoni yalpoq tirnoqlari bilan chalib, bo'g'iq tovushda avval lo'licha ashula, keyin esa Seymour Shiffning²: «Mudraydi uyquda Granada» nomli romansini aytdi. Sitnikov esa boshini sharf bilan bog'lab ashulaning

*Lablarimiz jipslashdi,
Shirin o'pishmoq uchun,*

degan bandiga kelganda, es-hushini yo'qotgan oshiqqa taqlid qilib o'tirdi.

Nihoyat, Arkadiy chidab turolmadi. U hammaga eshittirib:

– Janoblar, endi bunisi jinnilikka aylanib ketdi, – dedi.

Ko'proq may bilan ovora bo'lib, suhbatga ora-sira kulgili gaplarni qistirib o'tirgan Bazarov qattiq esnadi-da, o'rnidan turdi va xayrplashishni nasiya

¹ Et toc, et toc, et tin-tin-tin! – qadahlar jaranglashiga taqlid qilib aytilgan ashula.

² Seymour Shiff – mashhur pianinochi va bastakor.

qilib, Arkadiy bilan birga chiqib ketdi. Ularning ortidan Sitnikov ham yugurib chiqdi.

– U goh Arkadiy, goh Bazarovning oldiga yugurib o'tib:

– Xo'sh, qalay? Nima deysiz? Men sizlarga aytmadimmi, ajoyib xilqat deb! Mana shunaqa ayollardan bizda ko'proq bo'lsa edi! Yevdoksiya axloqda o'rnak bo'ladigan ayol, – dedi.

Shu tobda ular qovoqxona oldidan o'tib, borar edilar. Bazarov qovoqxonani qo'li bilan ko'rsatib:

– Otangning mana bu joyi ham axloqda o'rnak bo'ladigan joymi? – deb qo'ydi.

Sitnikov yana chiyillab kului. U o'zining nasl-nasabidan uyalar va Bazarovning qo'qqisidan sensirashidan xursand bo'lishini ham, xafa bo'lishni ham bilmadi.

14

Bir necha kundan keyin gubernatornikida bal bo'ldi. Matvey Ilich haqiqiy «bayram qahramoni» edi. Guberna oqsoqoli o'zining faqat Matvey Ilichning hurmati uchungina kelganini hammagaga va har kimga birma-bir aytib yurardi. Gubernator esa, hatto balda ham bir joyda qotib turib bo'lsa ham «buyruq berish» bilan ovora edi. Matvey Ilichning xushmuomalasini faqat uning ulug'vorligiga baravarlashtirish mumkin edi. U har bir kimsani – ba'zilarni yolg'on, ba'zilarni esa hurmat bilan erkaladi. Xonimlarga xushomad qilar va mansabdorlarga xos to'xtovsiz, jaranglagan ovoz bilan, qah-qahlab kulgan-kulgan edi. U Arkadiyning yelkasiga qoqib, uni baland ovoz bilan «jiyanginam» deb atadi, eskirgan frak kiygan Ba-

zarovga yuzakigina, lekin lutfan ko'z tashlab, tus-hunib bo'lmaydigan, lekin yoqimli qilib to'ng'illab, bir-ikki so'z qildi, uning so'zlaridan faqat «men»... va «ja» deganini anglash mumkin edi, xolos. Sit-nikovga esa qo'lini cho'zdi-yu, lekin negadir teskari o'girilib kulib qo'ydi. Hatto balga yasan-tusansiz kir qo'lqop kiyib, ammo sochiga jannat qushi qad-ab kelgan Kukshinaga ham «enchante»¹ dedi. Zalda odam ko'p, yigitlar ham serob edi. Oddiy odamlar devorga qapishib turishar, harbiylar esa zo'r berib, raqs tushardilar. Harbiylardan, ayniqsa, biri juda berilib o'ynardi, bu kishi olti haftacha Parijda turib, «zut», «Ah fichrrre», «pst, pst, mon bibi» va boshqa shu singari gaplarni o'rganib kelgan va ularni juda kelishtirib, chinakam parijcha oliftagarchilik bilan talaffuz etar va shu bilan birga «si j'avrais» de-yish o'rniga, «si j'avais» deb aytar, «absalument»² so'zini «albatta» ma'nosida qo'llar edi. Xullas, fransuzchani buyuk rus – fransuz shevasi bilan, ya'ni fransuzlar bizlarga: bizning tilimizda farishta singari «comme des anges»³ gapirasiz, deb aytishga ehtiyoj yo'qligini bilganlarida, ular bizdan kuladi-gan sheva bilan gapirar edi.

Arkadiy bilganimizcha, raqsga usta emas edi. Bazarov esa butunlay raqs tushmasdi. Ikkovlon bir burchakka kirib olgan edilar, ular yoniga Sitnikov ham kelib qo'shildi. Sitnikov har bir o'tgan kishiga nafrat bilan qarar va zaharxanda pichinglar otib, uyalmay u yoqdan-bu yoqqa qarar va shundan rosa huzur qilayotganday ko'rinardi. Shu paytda birdaniga uning chehrasi o'zgardi va Arkadiyga

¹ Enchante – maftun bo'ldim.

² Absalument – mutlaqo degan so'zlar.

³ Comme des anges – farishta kabi, ya'ni juda to'g'ri.

burilib, go'yo dovdirab qolgan kishidek, «Odinsova keldi», dedi.

Arkadiy burilib qaragan edi, zal eshigi yonida turgan qora ko'ylakdagi novcha ayolni ko'rdi. Bu xonim o'zining kelishgan qaddi-qomati bilan Arkadiyni hayratda qoldirdi. Uning ochiq qo'llari benihoya kelishgan gavdasi bo'ylab, osilib turardi. Yelkasi osha yoyilgan yarqiragan sochlariga fuksiyaya¹ gulining novdachalari solingan bo'lib, juda chiroqli ko'rinaridi. Uning biroz do'ng, oppoq peshanası tagidan nurli ko'zlari o'ychan emas, osoyishta, ma'noli qarab turar, lablarida esa xiyol tabassum jilvalanardi. Uning yuzida qandaydir muloyim, yumshoq kuch borligi sezilib turardi.

Arkadiy Sitnikovdan:

- Siz u bilan tanishmisiz? – deb so'radi.
- Aytarli yaqin emas. Istanasangiz men sizni tanishtirib qo'yay?
- Mayli... shu o'yin tamom bo'lgandan keyin.

Bazarov ham Odinsovaga diqqat bilan nazar tashladi.

- Bu qanday qomat-a? – dedi u. – Boshqa xotinlarnikiga sira o'xshamaydi.

Raqs tamom bo'lgandan keyin Sitnikov Arkadiy ni Odinsovaning oldiga boshlab bordi, lekin u bilan yaqin tanish emasligi bois, so'zidan adashib qoldi. Ayol ham unga biroz taajjublanib qaradi. Arkadiy ning sharifini eshitgach, Odinsovaning yuzida qandaydir shodlik alomatlari paydo bo'ldi. U Arkadiy dan: «Siz Nikolay Petrovichning o'g'li emasmisiz, mabodo?» – deb so'radi.

– Xuddi shunday.

Odinsova so'zida davom etib:

¹ Fuksiya – uyda o'stiriladigan chiroqli gul.

— Men otangizni ikki marta ko'rganman, lekin u kishi to'g'risida ko'p eshitganman. Siz bilan tанишганымдан жуда хурсандман, — деди.

Шу орада qандайдир бир ад'ютант Odinsovaning oldiga yugurib kelib, raqsga taklif qildi. Ayol rozilik bildirdi.

Arkadiy ehtirom bilan:

— Siz ham raqs tushasizmi? — deb so'radi.

— Albatta. Siz meni raqs tushmaydi, deb o'ylovdingizmi? Yoyinki qarib qolgan, deb bilingizmi?

— Kechirasiz, hech-da... U holda mazurkaga sizni taklif qilishga ijozat bering.

Odinsova muloyimgina kuldi-da: «Marhamat», dedi va Arkadiyga kibr bilan emas, erga tekkan qizlar yot ukalariga qanday qarasalar, xuddi shunday qarab qo'ydi.

Odinsova Arkadiydan ozgina kattaroq bo'lib, yigirma to'qqiz yoshga kirgan edi, lekin yigitga ayol bilan o'zi o'rtasidagi yosh tafovuti ancha ulkanday, uning oldida o'zini maktab o'quvchisi yoki oddiy talabadek his qilardi.

Шу орада savlatli bir qiyofa bilan Matvey Ilich Odinsovaga yaqinlashdi va unga bir necha og'iz xushomad gap qildi. Arkadiy o'zini bir chetga tortdi-yu, lekin ayoldan nigohini uzmadi. Odinsova mansabdor bilan qanday tortinmay gaplashgan bo'lsa, raqsdagi harifi bilan ham shunday izo chekmasdan so'zlashar edi. U bir necha marta sekingina chetga burilib qaradi va bir-ikki marta sekingina kulib qo'ydi. Xonimning burni ruslar burniga o'xshash, sal katta va terisining tusi ham жуда тоза эмас edi. Shunga qaramay, Arkadiy shu damgacha bunday go'zal ayolni aslo uchratmagan-dim, degan xulosaga keldi. Униг товushi Arkadiy-

ning qulqlaridan hech nari ketmas edi. Xonimning ko'ylak burmalari ham Arkadiyning ko'ziga qandaydir o'zgacha, boshqa xotinlarnikidan ko'ra, xushbichim-u kengroq, ayni zamonda harakatlari ham juda mayin va tabiiy bo'lib ko'rinar edi.

Arkadiy mazurka boshlanishi bilanoq, xonimning yoniga kelib o'tirganida, yuragida qandaydir jasoratsizlik sezar va gap boshlamoqchi bo'lib, qo'li bilan sochlarini tuzatib qo'yar va so'zlashgani so'z topolmas edi. Lekin u uzoq tortinib va hayajonlanib o'tirmadi. Odinsovaning osoyishtaligi unga ham ta'sir qildi. Oradan chorak soat ham o'tmasdan ota-si, amakisi, Peterburg va qishloq hayoti to'g'risida bemalol hikoya qilib bera boshladi. Odinsova esa qo'lidagi yelpig'ichini goho sal ochib, goho yopib uning gapiga astoydil qulq solar, bo'lak yigitlar kelib, ayolni raqsga taklif qilgandagina Arkadiyning gapi uzilib qolardi. Sitnikov ham uni ikki marta raqsga taklif qildi. Odinsova raqs qilib bo'lib, yana Arkadiyning yoniga kelib o'tirar, yana yelpig'ichini tutib, yana boyagidek asta nafas olar edi. Arkadiy esa uning yonida o'tirishni, uning ko'zlariga, go'zal manglayiga, muloyim, jiddiy va aqli yuziga qarab gaplashishni o'zi uchun katta baxt deb sanab, tag'in gapini davom ettirardi. Odinsova oz so'zlar, lekin uning so'zlaridan turmushni yaxshi bilganligi sezilib turardi. Uning ba'zi gaplaridan Arkadiy, bu yosh ayol ko'p kunlarni boshidan kechirgan ekan, degan xulosaga keldi...

Odinsova Arkadiydan:

– Sitnikov afandi sizni mening oldimga olib kelgan vaqtida kim bilan gaplashib turgan edingiz? – deb so'radi.

Arkadiy ham:

– Siz uni ko'rganmidingiz? – deb so'radi. Keyin: – istarasi issiq yigit-a, shunday emasmi? U Bazarov – mening do'stim bo'ladi, – dedi.

Arkadiy «o'z do'sti» to'g'risida so'zlay boshladi.

U, Bazarov haqda mufassal va shu darajada zavq bilan so'zladiki, Odinsova yigit tomonga burilib, diqqat bilan tikildi. Mazurka ham tugay deb qolgan edi. Arkadiy esa xonimdan ajralgisi kelmasdi. U bir soatcha vaqtini shunday yaxshi o'tkazdiki, Arkadiy shu vaqt ichida va Odinsova unga lutf qilganday, go'yo buning uchun ayolga minnatdorlik bildirishi kerakday his qildi... Lekin yosh yuraklar bunday tuyg'udan ozor topmaydilar.

Musiqa tovushi tindi. Odinsova o'rnidan turayotib:

– Merci¹, siz menikiga borishni va'da qildingiz, do'stingizni ham birga olib keling. Hech nimaga ishonmaslikka jur'at etadigan kishi bilan ko'rishib, suhbatlashish men uchun juda maroqli bo'ladi, – dedi.

Gubernator Odinsovaning oldiga kelib, kechki taom tayyorligini bildirdi va g'amxo'rlik bilan unga qo'lini uzatdi. Gubernator bilan ketayotib, Odinsova orqasiga burilib, so'nggi marta Arkadiyga bosh silkidi va jilmayib qo'ydi. Arkadiy ta'zim bilan javob qaytardi-yu, ortidan qarab qoldi (xonimning kulrang tus berib, yarqirab turgan qora shoyiga o'ralgan qomati Arkadiyga judayam xushbichim ko'rindi) va shu onda u endi, mening dunyoda borligimni ham esidan chiqarib qo'ygan bo'lsa kerak», deb o'ylab, ko'nglida qandaydir ko'nikish hissi borligini sezdi.

Arkadiy burchakka qaytib kelishi bilan Bazarov:

¹ Merci – rahmat (fransuzcha).

– Xo'sh, qalay? Maza qildingmi? Mana hozirgina bir janob bu xonimga hay-hay-hay deb o'tirgan edi, lekin u janob ham ahmoqqa o'xshaydi. Xo'sh, se ningcha, u haqiqatan hay-hay-hay ekanmi? – dedi.

Arkadiy unga javob berib:

– Men bu gapni uncha tushunolmadim, – dedi.

– Ana xolos! Naqadar ma'sumlik-a!

– Unday bo'lsa men sening janobingga tushunolmayman. Odinsova, shubhasiz, juda muloyim, lekin u o'zini shu qadar sovuq va shu qadar sipo tutadiki...

– Pismiq ayol... bilasanmi! – deb uning so'zini bo'ldi Bazarov. – Sen uni sovuq deyapsan. Maza deganing ham o'sha sovuqlikda bo'ladi-da. Muzqaymoqni yaxshi ko'rasanmi?

– Ehtimol, – dedi Arkadiy, – bu to'g'rida men hech nima deya olmayman. U sen bilan tanishmoqchi, mendan seni o'zinikiga olib borishni iltimos qildi.

– Men to'g'rimda unga nimalar deganiningni bila man! Har holda, yaxshi ish qilbsan. Meni olib bor. U kim bo'lsa ham – gubernaning farishtasimi yoxud Kukshina singari «erkin yashovchi» bir ayol mi, mayli, ammo men unikiday go'zal yag'rinni an chadan beri ko'rganim yo'q.

Bazarovning pastkashligi Arkadiyni ranjitti. Ammo u ko'p do'stlardek do'stining o'ziga yoqmagan odati uchun ta'na qilmadi... Yigit sekin gapirib:

– Sen nima uchun ayollarda erkin fikr bo'lishi mumkin emas, deysan? – deb so'radi.

– Shuning uchun hamki, birodar, mening tajribalarimga ko'ra, ayollar orasida faqat mayib kishilargina erkin fikr qiladi.

Shu bilan suhbat tugadi. Ikki yigit kechki ovqat tamom bo'lishi bilan darrov jo'nab ketishdi. Kuk-

shina esa asabiy qahr bilan biroz hayiqqani holda ular ketidan kulib qoldi. Unga na Bazarov va na Arkadiy zarracha e'tibor berishmagani alam qildi. U balda hammadan keyin qolib, tungi soat to'rtlargacha Sitnikov bilan parijchasiga polka-mazurkaga raqsga tushdi. Shu ibratlil tomosha bilan gubernatorning bayrami ham tamom bo'ldi.

15

Ertasiga ikki do'st Odinsova qo'nim topgan mu-sofirxonanining zinapoyasidan chiqayotib, Bazarov Arkadiyga:

– Ko'raylik-chi, bu zot sut emarlarning qaysi turkumiga mansub ekan. Ko'nglim bu yerda biror noma'qulchilik borligini sezayapti, – dedi.

– Men senga hayronman! Nega degin? Sen Bazarov bo'la turib, haligi tor axloqqa ergashgansan, holbuki buni...

Bazarov e'tiborsiz ravishda uning so'zini bo'lib:

– Qiziqsan-a! Biz va bizga o'xhash odamlar uchun «noma'qul» so'zi «ma'qul» degan ma'noni anglatishini bilmaysanmi? Demak, bir gap bor. Bugun o'zing Odinsova juda g'alati tarzda erga tegibdi, deb aytmadingmi? Menimcha, boy cholga tegish – g'alati emas, balki, aksincha, oqilona ish. Men shahardagi mish-mishlarga ishonmayman, lekin men, ma'rifatli, gubernatorimiz aytgandek, bu gaplar rost deb o'ylashni yaxshi ko'raman, – dedi.

Arkadiy, hech nima deb javob bermadi va bo'lmaning eshigini taqillatdi. Livreya¹ kiygan yosh

¹ Livreya – dvoryan va burjua oilalarida uy xizmatkorlariga xos kiyim.

bir xizmatkor ikkalasini ham katta bo'lma boshlab kirdi. Bo'lma rus musofirxonalarining aksariyati singari, yaxshi yasatilmagan, ammo gullar qo'yilgan edi. Tezda ertalabki oddiy kiyimda Odinsonning o'zi paydo bo'ldi. U bahorgi oftob nuri-da yana ham yoshroq bo'lib ko'rinar edi. Arkadiy Bazarovni unga tanishtirdi va Bazarovning go'yo biroz uyalinqirab turganiga hayron bo'ldi. Odinsonova esa xuddi kechagidek xotirjam edi. O'zining uyalganini Bazarovning o'zi ham sezdi va bu unga alam qildi. «Ana xolos! Xotin kishidan uyal emish!» deb o'yladi va divanga o'tirib, Sitnikovdan hech bir qolishmasdan, mubolag'a bilan takallufsiz so'zga kirishdi. Odinsonova esa o'zining ravshan ko'zlarini undan uzmay, qarab turardi.

Anna Sergeyevna Odinsonova mashhur kelishgan lo'ttivoz-u qimorboz Sergey Nikolayevich Loktevning qizi edi. Bu odam Peterburg bilan Moskva shaharlарida o'n besh yilcha to's-to'polon qilib, davr-u davron surib, dong chiqazib, pirovardida bor-yo'g'ini qartaga yutqazib qo'ygach, qishloqqa, ko'chib borishga majbur bo'ldi va tez orada shu yerda vafot etdi. Undan juda ozgina meros bilan ikki qizi: yigirma yashar Anna bilan o'n ikki yashar Katerina qoldi. Ularning kambag'allashib qolgan knyazlardan X... urug'iga mansub bo'lgan onasi, otasi hali bardam vaqtidayoq, Peterburgda o'lib ketgan edi. Otasining vafotidan keyin Annaning ahvoli juda og'irlashdi. Uning Peterburgda olgan g'oyat go'zal tarbiyasi – qorong'i qishloq hayotidan uy-ro'zg'or ishlarining mashaqqatlariga yaroqli qilib moslanmagan edi. U butun tevarak-atrofda hech kimni tanimas, maslahat so'rarlik hech kimi yo'q edi. Otasi qo'ni-qo'shnilarini bilan aloqa

qilishdan qochar, u qo'shnilarini, qo'shnilar esa uni o'zicha yomon ko'rardi. Shunday bo'lsa ham Anna boshini yo'qotmadi. Xolasi knyajna Avdotya Stepanovna X-ni darhol oldiga chaqirib oldi. U juda badjahl va takabbur bo'lib, jiyannikiga ko'chib kelgandan keyin uydagi eng yaxshi bo'lmalarni o'zi olib, ertalabdan kechgacha g'idi-bidisi bilan hamman ni bezor qilar va, hatto, bog'ga sayrga chiqqan vaqtida ham yolg'iz chiqmay, ustiga zangor pozument taqilgan mallarang eski livreya bilan uchbur-chak qalpoq kiyib yuradigan birdan-bir krepostnoy xizmatchisi badqovoq lakeyni ergashtirib chiqardi. Anna esa xolasining butun qiliqlariga tishini tishiga qo'yib chidar, singlisini tarbiyalash bilan shug'ullanar va shu qorong'i burchakda umr ke-chirishga ko'nikib qolganday ko'rindi... Ammo uning taqdiri boshqacha ekan. Kutilmaganda u Odinsov degan qirq olti yoshlар chamasidagi juda boy odamning nazariga tushib qoldi. U g'ayritabiyy, vasvas, semiz, vazmin va serqovoq bo'lsa-da, lekin aqli va yuvosh bir kishi edi. Odinsov Annaga xush-tor bo'lib, uning qo'lini so'radi. Qiz unga turmushga chiqishga rozi bo'ldi. Ular olti yilcha birga turishdi. Odinsov o'layotganida, butun boyligini Annaga vasiyat qilib qoldirdi. Erining vafotidan so'ng u bir yil-cha qishloqdan chiqmadi. Keyin singlisi bilan chet ellarga ketdi, lekin Germaniyadan boshqa yurtda bo'lmasdi. U yerda zerikib, *** shahardan qirq cha-qirimcha naridagi o'zi suygan qishlog'iga qaytib keldi. Bu yerda uning chiroyli yasatilgan uyi, ajoyib bog'i, gulzori bor edi. Marhum Odinsov hayotligida o'zidan hech nimani ayamasdi. Anna Sergeyev-na ham shaharga kam borardi, odatda ish bilan borib, ish bilan qaytardi. Gubernada uni yomon

ko'rishardi. Uning Odinsovga tegishi borasida ko'p g'alvalar bo'lib, ayol haqda bo'limg'ur gap-so'zlarni tarqatishdi. «Otasining qalloblik kirdikorlariga qayishar, bekordan-bekor xorijga borgan emas, balki baxtsizlik oqibatini yashirish zarurligi uchun bongan», deyishar edi darg'azab bo'lganlar. «Bilasizmi, u tegirmondan butun chiqadi», dedilar ayol xususida. Gubernanining mashhur askiyachisi esa: «Ignaning teshigidan ham o'tadi», deya qo'shimcha qilardi. Bu gaplarning bari uning qulog'iga yetib tursa hamki, mish-mishlarga sira e'tibor qilmas, chunki xonim tabiatan erkin-u mard ayol edi.

Odinsova kursiga suyanib, qo'llarini chalmashtirib, Bazarovning so'zlarini tinglardi. Bazarov esa odatdagidan ko'proq gapirib, suhbatdoshining e'tiborini qozonishga tirishardi. Bu esa Arkadiyni hayratda qoldirdi. U Bazarovning o'z maqsadiga erishish-erishmasligini anglay olmasdi. Bazarovning so'zlaridan Anna Sergeyevna qanday taassurot olganini bilish qiyin edi. Uning yuzi muloyim-u mayin ifodasini hech o'zgartirmas edi. Ayolning chiroqli ko'zları diqqat bilan, lekin juda osoyishta boqib turardi. Suhbat avvalida, Bazarovning bunday qiy panglashi Anna Sergeyevnaga badbo'y hid yoxud yoqimsiz ovoz singari yomon ta'sir etgan edi. Lekin Odinsova Bazarovning uyat-u andishadan o'zini yo'qotgani bois, uni hayosiz deb hech kim ham aytolmas edi. O'sha kuni Arkadiy hayratdan yoqa ushlab qoldi. U Bazarov Odinsova kabi aqli ayol bilan o'z maslagi va qarashlari to'g'risida so'zlashar, deb o'ylagan edi, chunki xonim «hech nimaga ishonmaydigan odam» bilan suhbatlashmoqni istardi. Lekin Bazarov maslag-u qarashlaridan bir qadar chekinib, obiyot, go-

meopatiya va botanika haqida gap sotib o'tirdi. Odinsova o'zining yolg'iz yashagan davrini bekor o'tkazmagan ekan. U bir necha yaxshi kitoblar ni o'qigan va ruschani chiroylı talaffuz bilan gapirardi. Musiqa to'g'risida so'z ochdi, ammo Bazarovning san'atni inkor etishini fahmlab, Arkadiy xalq ohanglarining ahamiyati to'g'risida gap ochishiga qaramay, asta-sekin suhbatni botanikaga burib yubordi. Odinsova Arkadiy bilan xuddi o'zining ukasiday muomalada bo'ldi, ya'ni uning faqatgina sodda-yu ma'sum yoshligi ni hurmat qilganday ko'rinaridi, xolos. Ularning turli xil masalalar to'g'risida kechgan o'zaro suhbatlari uch soatdan ortiq davom etdi.

Nihoyat, do'stlar o'rinlaridan turdilar va xayrlasha boshladilar. Anna Sergeyevna ularga mulloym boqib, ikkalasiga ham chiroylı oppoq qo'llini cho'zdi, so'ngra birpas o'ylab turganidan keyin ikkilanibroq, lekin jozibali tabassum bilan:

- Janoblar, agar zerikib qolamiz demasangiz, biznikiga, Nikolskiyga marhamat qilinglar, – dedi.
- Kechirasiz, Anna Sergeyevna, – dedi Arkadiy,
- aksincha, siznikida bo'lishning o'zi bir baxt...
- Siz-chi, Bazarov afandi?

Bazarov faqat ta'zim qildi va Arkadiy do'stining qizarganini payqab, yana bir marta taajjublandi.

Ko'chaga chiqqandan keyin Arkadiy Bazarovga:

- Qalay, sen uni hali ham hay-hay-hay, deb o'ylayapsanmi? – dedi.

Bazarov unga e'tiroz bildirib:

- Kim biladi deysan! Ko'rdingmi, o'zini qanday tutadi! – dedi biroz sukut saqlaganidan so'ng, – gersoginya xonimlardan ekan-da. Orqa etigini uzun qilib, boshiga toj kiysa bas, – deb qo'shimcha qildi.

- Bizning gersoginyalarimiz ruschani bunday gapirmaydilar, – dedi Arkadiy.
- Dunyo ko'rgan og'ayni, bizning nonimizdan totgan.
- Shunday bolsa ham juda soz, – dedi Bazarov,
- teatr bop ekan.
- Qo'ysang-chi, Yevgeniy, azbaroyi Xudo! Shu ham gap bo'ldimi?
- Achchig'ing chiqmasin, oriyatli yigit, ishqilib, bir navi. Uyiga borish kerak.
- Qachon?
- Menga desa indinga. Bu yerda nima ham qildik! Kukshina bilan may ichamizmi? Yoki liberal qarindoshlaring gapini eshitib o'tiramizmi? Indingga, albatta, boramiz. Aytgandek, otamning qo'rg'oni ham bu yerdan uncha uzoq emas. Nikolskoye *** yo'li ustida-ku axir!
- Shundaymi?
- Optime¹. O'ylashga hojat yo'q. Faqat ahmoqlar-u o'zbilarmonlargina bosh qotirib o'tiradi. Men senga yana aytamanki, zap qomati bor ayol ekan!
- Uch kundan keyin ikki do'st Nikolskiyga qarab yo'l oldi. Havo ochiq bo'lib, kun issiq emasdi. Semiz izvosh otlari o'rib tugilgan dumlarini sal-pal silkitib, baravar chopar edi. Arkadiy yo'lga qarab jilmayib borar, nega buncha jilmayayotganini o'zi ham bilmasdi.
- Meni qutla, – dedi Bazarov, – bugun 22-iyun farishtam kuni². Qani farishtaning karomatini ko'ramiz, bugun meni uyda kutishadi... mayli, kutishsa kutishaverishsin, hechqisi yo'q!

¹ Optime (lotincha) – juda soz.

² Farishta kuni – dindor nasroniy larga birovning ismi cherkov, tomonidan bayram qilinadigan biror avliyo yoki farishta ismiga to'g'ri kelgan kun.



Anna Sergeyevnaning qo'rg'oni yalanglik va ni-shab adr ustida joylashgan edi. Unga yaqin joyda oq ustun, tunuka tom, g'ishtin ibodatxona ko'zga tashlanib turardi. Butxona uzra italyanchasiga «Isoning tirilishi»ni ifodalaydigan al Fresko rasmi yasalgan. Ayniqsa, eng oldinda quchog'ini ochib turgan mis qalpoqli qoramag'iz jangchining surati chiroyli ko'rinaldi. Butxona ortida uzoq-uzoqlarga cho'zilib ketgan ikki qator qishloq bo'lib, ba'zi bir uylarning poxol tomi tepasida mo'rilari ko'zga tashlanardi. Boyonlarning uylari butxona bilan bir xil us-lubda solingan. Odinsov qo'rg'onining rangi sariq, tomi esa ibodatxonaniki kabi yashilga bo'yalsan, oq ustunlari va ravog'ida tamg'a tushirilgan frontoni¹ bor. Har ikkala imoratni ham marhum Odinsov ma'qullashi bilan guberniya me'mori qurgandi.

Bazarov va Arkadiyni ostonada egniga livreya kiygan ikki novcha xizmatkor qarshiladi. Ularning biri darhol eshik og'asiga xabar qilishga oshiqdi. Ustiga qora frak kiygan yo'g'on odam darhol hozir bo'ldi. U mehmonlarni gilamlar to'shalgan zinapoya orqali alohida xonaga olib chiqdi. Bu xonada ular uchun joy hozirlangan, zarur buyumlar oldindan tayyorlab qo'yilgandi. Hamma joy yog' tushsa yalagudek toza-ozoda, go'yo vazir qabulxonasi o'xshar, xonadan xushbo'y hid taralardi.

Eshik og'asi mehmonlarga murojaat qilib:

– Anna Sergeyevna sizlarni yarim soatdan keyin o'z huzurlariga marhamat qilishingizni so'raydilar,

¹ Fronton – bino ravog'iga uchburchak qilib yasalgan bezak.

ungacha o'zлari tomonidan biror farmon yo'qmi? – deya so'radi.

Bazarov unga javoban:

– Hozircha yo'q, muhtaram oqsoqol, marhamat qilib bir qadah sharob keltirsangiz bas, – dedi.

Eshik og'asi:

– Xo'p bo'ladi, – deb biroz ajablanib javob qaytardi-da, etiklarini g'archillatib, eshik tomonga yo'naldi.

– Qanday nazokat-a! – dedi Bazarov. – Gersogin-yaning xuddi o'zginasi-ya.

– Gersoginya emish-a, – e'tiroz bildirdi Arkadiy unga, – gersoginya bo'lganida, sen bilan men singari kiborlarni bir ko'rishdayoq, uyiga chaqirib bo'pti.

– Xususan, kelgusida tabib bo'lishga hozirlilik ko'rayotgan tabibvachcha, dyachok¹ nabirasi meni aytsang-chi... Mening dyachok nabirasi ekanligimni o'zing ham bilasan-ku!.. – Bazarov, biroz suktidan keyin, lablarini burib: – Speranskiy² kabi, – deb qo'shib qo'ydi, – har holda u o'zini anchagina erkalatibdi, bu xonimning nazokatligini-ey! Hali frak ham kiyarmiz deyman-a?

Arkadiy faqat kiftini qoqib qo'ydi, ammo u ham bir qadar tortinar edi.

Yarim soatdan keyin Bazarov bilan Arkadiy mehmonxonaga kirishdi. Mehmonxona keng va

¹ Dyachok – pop yordamchisi, butxona qo'ng'iroqchisi.

² Speranskiy, Mixail Mixaylovich (1772–1839-yillar) – Aleksandr I zamonidagi davlat xodimi. U Rossiyada kapitalizm taraqqiyotini yengillatish maqsadida davlat tuzumini isloh qilish to'g'risida loyiha tuzgan. Bu loyiha, katta yer egalarining qarshilik ko'rsatishi ortida amalga oshmagan. Speranskiy pop o'g'li bo'lib, seminariyada (o'rta diniy mактабда), keyin diniy akademiyada o'qigan. Bu o'rinda Bazarov dyachok nabirasi bo'lgani uchun, o'zini shu kishiga o'xshatib gapiradi.

baland, bezatilganiga qaramay unchalik didga o'tirmas edi. Zarhal yogurtirilgan qoramtil qog'oz yopishtirilgan qimmatbaho jihozlar devor tagiga qator tizib qo'yilgan, marhum Odinsov bu qog'ozlarni bir vaqtlar Moskvadan, o'zining bir mayfurush savdogar oshnasi orqali yozdirib olgan edi. To'rdagi divan tepasida bo'rtiq yuz, malla soch erkakning surati osig'liq bo'lib, u go'yo dehqonlarga qandaydir xo'mraygan chehra bilan qarab turganday edi.

– O'zi bo'lsa kerak, – deya shivirladi Bazarov Arkadiyga va burnini burishtirib ilova qildi: – qo'chamizmi yo?

Lekin shu onda xonim kirib keldi. Uning ustida yupqa shoyi ko'ylak, qulog'i orqasiga tushirib, tekkis taralgan sochlari tiniq va toza yuziga yosh qiz tusini berib turardi.

– Gapingizning ustidan chiqqaneningiz uchun, tashakkur bildiraman, – deb gap boshladi u, – marhamat qilib, menga mehmon bo'lingiz, joyimiz yomon emas. Men sizlarni singlim bilan tanishtiraman. U fortepyanoni yaxshi chaladi. Siz uchun, Bazarov afandi, buning ahamiyati bo'lmasa kerak, ammo siz, Kirsanov afandi, musiqani xush ko'rasiz chog'i. Singlimdan boshqa bu yerda kampir xolam ham yashaydi. Ha, aytganday goho-goho qarta o'ynash uchun qo'shnimiz ham kirib turadi. Ulfatlarimiz ana shulardan iborat. Qani endi o'tiraylik.

Odinsova o'zining bu qisqagina nutqini, xuddi yodlab olgandek, chertib-chertib gapirdi, so'ng Arkadiyga murojaat qildi. Uning onasi Arkadiyning onasini bilar va, hatto, Nikolay Petrovichni yaxshi ko'rib qolgan chog'ida sirdoshi ham bo'lgan ekan. Arkadiy marhuma onasi haqida berilib so'zlardi. Bazarov esa bu orada suratlarni tomosha qilib

o'tirdi. U ichida: «Qanday mo'min-qobil bo'lib qoldim-a», deb o'yldi.

Bo'yniga ko'k tasma taqilgan chiroyli tozi tirnoqlari bilan polni tigirlatib, yugurganicha mehmonxonaga otilib kirdi. Uning ortidan qora soch, qora ko'z, qoramag'iz yuzi biroz dumaloq, yoqimtoygina o'n sakkiz yashar qiz ham kirib keldi. U qo'lida gul to'latilgan savatni ko'tarib turardi.

– Mana, mening Katyam ham keldi, – dedi Odinsova boshi bilan unga ishora qilib.

Katya, sekingina opasi yoniga o'tirdi-da, gullarni saralay boshladi. Fifi (tozi itning nomi shunday edi) quyrug'ini o'ynatib, navbatma-navbat mehmonlar oldiga keldi-da, sovuq tumshug'ini ularning qo'liga surkadi.

– Hammasini o'zing uzdingmi? – deb so'radi Odinsova.

– O'zim, – dedi Katya.

– Xolam choy ichgani chiqadilarmi?

– Chiqadilar.

Katya so'zlaganida, muloyim-u samimiyl jilmayar, qandaydir g'alati tarzda pastdan yuqoriga qarab qo'yardi. U hali navnihol, buni – tovushi, yuzidagi mayin tuklari, pushtirang qo'llari, xiyol qisilgan yelkalari ham yaqqol namoyon etib turar, qiz hadeb qizarar va tez-tez nafas olardi.

Odinsova Bazarovga murojaat qilib:

– Yevgeniy Vasilyevich, mening ko'nglim uchungina suratlarga nigoh tashlayapsiz-a. Ularga qiziqmaysizku, undan ko'ra, bizga yaqinroq keling, biror mavzuda bahslashaylik, – dedi.

Bazarov yaqinroq o'tirdi-da:

– Nima to'g'risida? – deb so'radi.

– Siz istagan mavzuda. Aytib qo'yayki, men g'oyat o'jar munozarachiman.

- Siz-a?
- Ha, men. Bu sizni ajablantirayotganga o'xshaydi. Nega?
- Chunki siz, mening bilishimcha, juda sovuq-qonsiz, holbuki bahslashish uchun qiziqqon bo'lish kerak.
- Qanday qilib mening tabiatimni bunchalar tez bilib oldingiz? Avvalo, men juda sabrsiz-u o'jarman, yaxshisi, buni Katyadan so'rang. Istalgan mavzu menda qiziqish uyg'otishi mumkin.

Bazarov Anna Sergeyevnaga qarab qo'ydi.

- Ehtimol, buni mendan ko'ra o'zingiz yaxshi-roq bilasiz. Demak, bahslashmoqchisiz, marhamat qiling... Rasmlaringiz orasida Saksoniya Shvey-sariyasingning manzaralariga ko'zim tushdi. Hozir suratga qiziqmaysan, dedingiz, buni menda san'atkorlik havasi yo'q, deb gumon qilganingiz uchun aytdingiz, to'g'rimi? Haqiqatan ham, kamina bu tuyg'udan mosuvo, lekin bu manzaralar meni geologiya nuqtayi nazaridan, masalan, tog'larning tuzilishi jihatidan qiziqtirishi mumkin.

- Kechirasiz, geolog rasmlardan ko'ra, geologiyaga oid maxsus asarlarga murojaat qilmaydimi?

- Kitobdag'i o'n sahifada bayon qilinganlarni rasm menga jo'n-u aniq ko'rsatib berishi mumkin.

Anna Sergeyevna biroz sukut saqlagach, so'ng tirsagi bilan stolga tayandi va u shu harakati bilan yuzini Bazarovga yaqinlashtirib:

- Demak, sizda zarracha ham san'atkorlik havasi yo'q ekan-da? Bu qanaqasi?
- Menga uning nima keragi bor, ayting-chi?
- Hech bo'limganda, odamlarni tanish va bilish uchun.

Bazarov kulib qo'ydi.

– Birinchidan, buning uchun turmush tajribasi bor, ikkinchidan esa sizga arz qilay, ayrim shaxslarni bilib olish qiyin emas. Odamlar, jismoni-yu ruhiy jihatdan ham bir-biriga o'xshaydi. Barchamizda ham miya, taloq, yurak va o'pka bir xilda tuzilgan. Ma'naviy xususiyatlar degani ham shunday, ba'zi birovlarda bo'ladigan juz'iy farqning hech bir ahamiyati yo'q. Odamlarning qanday mavjudotligini bilish uchun bir odam kifoya qiladi. Ular o'rmondagi daraxtlar singaridir, hech bir botanik har bitta qayin daraxti ustida alohida shug'ullanmaydi.

Shoshmasdan agul saralayotgan Katya hayrat ichra Bazarovga boshini ko'tarib qaradi va uning beparvo ko'z qarashiga to'qnash keldi-yu, quloqlari-gacha qizarib ketdi. Anna Sergeyevna esa bosh chayqab qo'ydi.

– O'rmondagi daraxtlar deng-a, – deb takrorladi u, – demak, sizningcha, ahmog'-u aqli, yaxshi-yu yomon o'rtasida aslo tafovut yo'q ekan-da!

– Yo'q! Kasal-u sog' orasida qanday farq bo'lsa, shunday farq bor. Sil kasali bilan og'rigan bemor o'pkasi dard zo'ridan shaklan sal o'zgarishini ayt-maganda, tuzilishi jihatdan bizniki singaridir. Biz a'zodagi xastaliklarning nimadan kelib chiqishini taxminan bo'sayam bilamiz. Ma'naviy kasalliklar esa yomon tarbiyalanishdan, odamning yoshligidanoq miyasiga singdirilgan har xil nuqsonlardan, qisqasi, jamiyatning yaramas ahvoldaligidan kelib chiqadi. Jamiyat tuzalsa, kasalliklar ham izsiz g'oyib bo'ladi.

Bazarov bu gaplarni: «Ishonsang ham, ishonmasang ham – menga baribir!» deganday qiyofa bilan so'zlardi. U o'zining uzun barmoqlari bilan chakka soqolini siypab, hadeb burchaklarga ko'z yugurtirar edi.

Anna Sergeyevna:

– Demak, siz jamiyat tuzalsa, ahmoq ham, yomon ham bo'lmaydi, deb o'ylaysizmi? – deb so'radi.

– Har holda, jamiyat to'g'ri tuzilsa, odam ahmoqmi, aqlimi, yaxshimi, yomonmi – hech farqi yo'q.

– Ha, tushundim, tushundim... hammaning talog'i bir xilda bo'larkan.

– Xuddi shunday, xonim.

Odinsova Arkadiyga murojaat qilib:

– Siz nima deysiz, Arkadiy Nikolayevich? – deb so'radi.

– Men Yevgeniyning fikriga qo'shilaman, – dedi u.

Katya Arkadiyga yer ostidan qarab qo'ydi.

– Sizlar meni hayratda qoldirayapsizlar, afandilar, – dedi Odinsova, – lekin biz hali bu to'g'rida siz bilan yana gaplashamiz. Hozir xolamiz choy ichgani qadam ranjida qiladilar, bechorani tinch qo'yishimiz kerak.

Anna Sergeyevnaning xolasi, knyajna X... aya mehmonxonaga kirib keldi. U g'oyat ozg'in-u pakan, yuzi mushtday kichkina xotin bo'lib, oppoq ulama sochlari tagidan qarab turgan ko'zları zahar-u behafsala kampirligini ko'rsatib turardi. U eshikdan kirishi bilan mehmonlarga bosh egaregmas, keng duxoba kursiga cho'kdi. Bu kursiga boshqa birovning o'tirishga haqi yo'q edi. Katya kampirning oyoqlari ostiga kichkina kursi olib kelib qo'ydi, u qizga rahmat ham demadi, hatto qaramadiyam, o'zining butun nimjon gavdassini o'rab turgan qalin, sariq ro'moli tagidagi qo'llarini qimirlatibgina qo'ydi. Knyajna sariq rangni yaxshi ko'rardi. Uning chepchigidagi tasmasi ham och sariq edi.

– Yaxshi uxladingizmi, xolajon? – deb so'radi Odinsova ovozini baralla qo'yib.

Unga javob berish o'rniغا:

– Bu la'nati it yana shu yerda ekan-ku, – deb ming'illadi kampir va Fifining o'ziga tomon qo'rqa-pisa ikki qadam qo'yganini ko'rib: – qoch, yo'qol! – deb qichqirdi.

Katya Fifini chaqirib, uning uchun eshikni ochdi.

Fifi esa aylantirgani olib ketishyapti, deb o'ylab, tashqariga yugurdi, ammo ko'chaga yolg'iz chiqqanini ko'rib, eshikni tirnab, uvlashga tushdi. Kampir qovog'ini solintirdi. Katya tashqariga chiqmoqchi edi...

– Choy ham tayyor bo'lsa kerak, deb o'layman?
– dedi Odinsova. – Qani, janoblar, xolajon, choyga marhamat qiling.

Knyajna indamasdan o'rnidan turdi-da, hammadan burun mehmonxonadan chiqdi. Barcha uning ketidan ergashib, tamaddixona tomon yo'l oldi. Tamaddixona ga livreya kiygan yosh kazak xizmatkor bola kampirning yostiqlar qo'yilgan o'ziga xos kursisini taqurtuqur qilib, olib kirib qo'ygach, u o'z joyiga o'rnashdi. Choy quyayotgan Katya gulli piyolani dastlab xolasiga uzatdi. Kampir esa piyolasiga asal soldi (u o'zi hech narsaga pul sarf qilmasayam, choyni qand bilan ichish ham qimmat, ham gunoh deyar edi) va birdan xirillagan ovoz bilan:

– Knes¹ Ivan nima deb yozipti? – deb so'radi

Unga hech kim javob bermadi. Bazarov bilan Arkadiy bu yerdagilar kampirni hurmat qilishsa ham, unga e'tibor qilmasliklarini darhol sezdlar. Bazarov: «Bu ayol knyaz avlodidan, shuning uchun savlatga asrayotgan ekanlar», deb o'yladi... Choydan keyin Anna Sergeyevna sayr qilib keliishi taklif qildi, lekin yomg'ir tomchilab turgani

¹ Knes – knyaz so'zining buzib aytilgan shakli.

sabab, kampirdan bo'lak hamma mehmonxonaga qaytdi. Anna Sergeyevnaning qarta o'ynini yaxshi ko'radigan qo'shnisi Porfiriy Platonovich ham kelib qoldi. U yo'g'ongina, oyoqlari kaltagina, g'oyat badob va quvnoq bir mo'ysafid edi. Bazarov bilan gaplashib o'tirgan Anna Sergeyevna undan:

– Porfiriy Platonovich bilan eskicha preferans o'ynamaysizmi? – deb so'radi. Bazarov esa kelgusida viloyat doktori bo'lish uchun o'zining shu mansabga oldindanoq hozirlilik ko'rishi kerakligini gapirib, rozi bo'ldi.

Anna Sergeyevna:

– Ehtiyyot bo'ling, Porfiriy Platonovich bilan biz sizni yengamiz, – deb qo'ydi, keyin Katyaga qarab:

– Sen, Katya, Arkadiy Nikolayevichga biror musiqa chalib ber. U kuyni yaxshi ko'radi, bizlar ham eshitib o'tiramiz, – dedi.

Katya xushlamaygina fortepyano oldiga bordi, Arkadiy ham, garchi musiqani yaxshi ko'rsa-da, majburan uning ketidan ergashdi. Arkadiy: «Ondisova meni ataylab turg'izdi», deb o'yladi, chunki qalbida uning yoshida har bir yosh yigitnikiga o'xshash, qandaydir tumanli va yurakni ezadigan ishq-muhabbat tuyg'usi singari bir nima jo'sh urgan edi. Katya fortepyano qopqog'ini ochdi-da, Arkadiya qaramay, past ovoz bilan:

– Nima chalib beray? – deb so'radi.

– Ixtiyor o'zingizda, – deb javob berdi Arkadiy. Katya o'z vaziyatini o'zgartirmasdan:

– Siz qanday kuyni yoqtirasiz? – deya qayta so'radi.

– Mumtoz musiqani, – deb xuddi boyagicha javob qildi Arkadiy.

– Motsartni xush ko'rasizmi?

– Ha!

Katya Motsart asarlaridan «se-mol sonata-fantaziya»sini izlab topdi. U biroz og'irroq va ruhsiz chal-sa-da, lekin maromiga yetkazib, ijro qilardi. Katya lablarini mahkam qimtib, notadan ko'zini olmasdan qimirlamay, to'g'ri o'tirardi va faqat sonataning oxiriga kelgandagina yuzi o't kabi yonib, parishon so-chining bir necha tolasigina qora qoshi uzra tushdi.

Arkadiyni xususan, sonataning so'nggi qismi hayratda soldi, unda qandaydir beg'am, odamni maftun etuvchi kuy orasida to'satdan qayg'uli va fojiali bir ohang paydo bo'lib qoldi. Biroq Motsart sadolari bilan unda bosh ko'targan tuyg'ularning Katyaga hech qanday aloqasi yo'q edi. Arkadiy Katyaga nazar tashlar ekan: «Bu qız chakki chal-maydi, o'zi ham chakki emas», deb o'yladi, xolos.

Sonatani tamomlagach, Katya qo'lini fortepyanodan olmay, «Yetadimi?» deb so'radi. Arkadiy: «Sizni ortiq mashaqqat chektirishga haddim sig'maydi», dedi va u bilan Motsart to'g'risida so'zlashdi. Arkadiy undan: «Bu sonatani o'zingiz tanladingizmi yoki sizga birov tavsiya qildimi?» deb so'radi. Lekin Katya unga qisqagini javob berdi-yu, xayolga cho'mdi. U o'zida shunday kayfiyat yuzaga kelganida, uzoq vaqt jim turardi. Navnihol pariruxsor qiz o'jar, go'yo anqov tusiga kirardi. U qo'rqoq emas, balki birovga ishonmaydigan, opasi to-monidan tarbiya qilingan, biroz cho'chitib qo'yilgan qiz edi. Opasi esa bundan mutlaqo bexabar edi. Arkadiy bu holni ko'rib, shu orada uyga qaytib kirgan Fifini chaqirib oldi-da, beparvo bir holat hosil qilmoq uchun, muloyim jilmayib, it boshini siypalay boshladi. Katya esa yana gul saralashga kirishdi.

Bazarovning jarima to'lashdan boshi chiqmasdi. Anna Sergeyevna qartaga juda usta, Porfiriy Platonovich ham bo'sh kelmasdi. Bazarov yutqazib

qo'ydi, yutqazgan puli ko'p bo'lmasa ham, lekin anchagina alam qildi. Kechki ovqat mahalida Anna Sergeyevna yana botanika haqida so'z ochdi.

– Ertaga ertalab sayrga chiqaylik, – dedi u Bazarovga, – men sizdan dala o'simliklarining lotincha nomlari-yu, xususiyatlarini bilib olmoqchiman.

– Lotincha nomlarining sizga nima keragi bor? – deb so'radi Bazarov.

– Har ishda tartib bo'lishi kerak-da, – deb javob qaytardi Odinsova.

Arkadiy o'zlari uchun ajratilgan uyda do'sti bilan yolg'iz qolgandan keyin:

– Anna Sergeyevna naqadar ajoyib ayol-da, – dedi.

Bazarov unga javob berib:

– Esli-hushli, ko'pni ko'rghan xotin, – dedi.

– Sen buni, Yevgeniy Vasilyevich, qay ma'noda aytapsan? – deb so'radi.

– Yaxshi ma'noda, yaxshi ma'noda, azizim, Arkadiy Nikolayevich! Men uning o'z yer-suvini ham juda yaxshi idora qilishiga ko'zim yetadi. Ammo ajoyib deganining u emas, balki uning singlisi.

– Nechuk? O'sha qoramag'iz qiz-a?

– O'sha qoramag'iz qiz. Onasi o'pmagan hurkak indamas, xullas, nimayiki istasang – bari unda mujassam. Uning payidan yursang bo'ladi. Uni istasang yo'lingga sola olasan, kattasi bo'lsa daryoga olib borib, sug'ormay keladi.

Arkadiy Bazarovga hech nima deb javob bermadi va har ikkisi o'z xayol daryosiga g'arq holda o'rinlariga cho'zilishdi.

Anna Sergeyevna ham o'sha kuni kechasi mehmonlari to'g'risida o'ylanib yotdi. Bazarovning qo'polligi-yu fikrlarining qat'iyligi unga yoqib qoldi. Anna Sergeyevna yigitda ilgari o'zi uchrat-

magan qandaydir yangilikni ko'rdi va bu uni juda qiziqtirib qo'ydi.

Anna Sergeyevna g'alati ayol edi. Har qanday bid'at-u kuchli diniy e'tiqoddan xoli, hech yon bermas va hech qanday yo'lga yurmas edi. Ko'pi unga ayon, ko'pga havaskor va hech nima uni to'la qanoatlantirmas, to'la qanoat hosil etishi ham gu'mon edi. U har narsani bilihga tirishar va ayni zamonda hamma narsaga loqayd qarardi. Shubha-gumonlarining adog'i yo'q, lekin ularni unutish uning uchun hayajon darajasiga yetmas, agar ayol boy-u mustaqil bo'lмаганida edi, ehtimol, o'zini u yoq-bu yoqqa tashlab, ehtiros nimaligini bilardi... U ba'zan zeriksa-da, lekin yaxshi yashardi, hech shoshilmasdan va ba'zi-ba'zidagina hayajonga tushar edi. Ahyon-ahyonda unda ehtiros paydo bo'lar, ammo u bu tuyg'ular so'ngandan keyin orom olar va ularning tez so'nganiga afsuslanmas edi. Uning xayoli, hatto oddiy axloqiy qonunlar joiz ko'rgan chegaralardan ham o'tib ketardi, ammo bunday paytlarda ham uning qoni o'zining jozibador, kelishgan va osoyishta tanasida boyagidek sekin oqaverardi. Xo'shbo'y vannaga tushib, butun badani issiq va latif bo'lib chiqqan vaqtarda u hayotining puchligi, qayg'u-hasratlari, mashaqqat-u tashvishlari to'g'risida xayolga cho'mar edi... Ruhi-da birdaniga dadillik, yaxshi niyatlar tug'ilardi, lekin shu orada yarim ochiq derazadan shamol essa, Anna Sergeyevna bujmayib olar, zorlanar, hatto jahli chiqar va shu tobda unga yolg'iz bir nimani o'sha badbaxt shamolning tegmasliginigina istardi.

Hech kimni umrida yaxshi ko'rolmagan ayol singari, u nimadir istar, lekin nima istaganini o'zi ham bilmas edi. U allanimalarni orzu qilayot-

ganday bo'lsa ham, lekin haqiqatda hech nimani istamasdi. Anna Sergeyevna marhum Odinsnovni sira suymas edi. (U Odinsovga davlati uchun tekkan edi, lekin shu bilan birga uni yaxshi kishi deb hisoblamaganida, ehtimol, unga tegmagan ham bo'lardi). Umuman erkaklardan ham pin-hona jirkanar, ularni badbashara, vazmin, lanj va ezma zotlar deya tasavvur etar edi. Bir vaqtlar chet elda, peshanasi keng, ko'zлari moviy, kelishgan, navqiron bir shved yigit ayol ko'ngliga yo'l topgandi-yu, lekin bu tanishuv uning Rossiyaga qaytib kelishiga mone bo'limgan edi.

U o'zining ajoyib to'shagida, to'r yostiqlarga bosh qo'yib, yengil shoyi ko'rpassi ostida yotarkan: «Bu tabib g'alati odam ekan-al» deb o'ylardi. Anna Sergeyevna o'z otasidan bir qadar ziynatparastlik maylini meros qilib olgandi. U o'zining gunohkor, lekin mehribon otasini juda ham yaxshi ko'rardi. Otasi uni erkalatar, u bilan tengdoshidek do'stona hazillashar, qiziga batamom ishonar va u bilan doim maslahatlashardi. Onasini esa uncha eslolmas edi.

«Bu tabib juda g'alati odam!» deb takrorladi u ichida. U bir kerishdi, kulimsiradi, qo'llarini boshi ostiga qo'yib oldi, keyin qandaydir bema'ni bir fransuz romanini olib, bir ikki sahifasini ko'zdan kechirdi, so'ngra kitobni qo'lidan tushirib yuborib, toza-yu xushbo'y ichki kiyimida beg'ubor boladay, qotib uxbab qoldi.

Ertasiga ertalab Anna Sergeyevna nonushtadan keyin Bazarov bilan o'simliklarni o'rganish mashg'ulotiga chiqib ketdi va uyga faqat tushda qaytib keldi. Arkadiy hech qayerga chiqmadni va bir soatcha vaqtini Katya bilan birga o'tkazdi. Arkadiy Katya bilan bo'lganida zerikmadi. Qiz kechagi sonatani

yana chalib bermoqchi bo'ldi. Lekin Odinsova qaytib kelgach, uni ko'rgan Arkadiyning yuragi birdan uvishib ketdi... Ayol horg'inroq qadam tashlab keilar, betlari qizargan va ko'zлari poxol shlyapa tagida odatdagidan ko'ra nurliroq bo'lib yarqirardi. U nozik bir dala gulining cho'pini qo'lida aylantirar, yelkasiga tashlagan yengil kamzuli tirsaklariga, shlyapasining keng va kulrang tasmachalari ko'kragiga tushib turar edi. Bazarov odatdagiday shaxdam qadam tashlab, ayolga e'tibor qilmay, uning ortidan kelardi. Garchand do'stining chehrasi ochiq, har doimgidan xushchaqchaqroq va, hatto, muloyim ko'rinsa-da, Arkadiya yoqmadi. Bazarov til uchidagina: «Salom!» dedi va o'z hujrasiga qarab ketdi. Parishonxotir Odinsova ham Arkadiyning qo'lini qisdi-yu, o'tib ketdi.

Arkadiy: «Salommish, bugun ko'rishmovdikmi?»
– deb qo'ydi.

17

Vaqt ba'zan qushday tez uchadi, ba'zan toshbaqaday imillaydi, biroq insonga vaqtning tez yoxud sekin o'tganidan ko'ra, sezilmay o'tgani ko'proq yоqadi. Arkadi-yu Bazarov Odinsovaning uyida xuddi shu zaylda o'n besh kunni o'tkazdilar. Bunga ayolning uyida joriy etilgan qat'iy tartiblar va atrofdagilar sabab bo'ldi. Odinsova xonadonidagi o'zi o'rnatgan tartiblarga qat'iy rioya qilar va boshqalarni ham itoat etishga majburlardi. Barcha ishlар o'z vaqtida bajarilardi. Ertalab soat sakkizda hamma choyga hozir bo'lar, choydan keyin tushlikkacha har kim o'z istagan ishi bilan shug'ullanardi. Xonimning o'zi esa eshik og'asi (dehqonlar obrok to'lab turardi)

va bosh omborchи xotin kerakli masalalarni muhokama qilardi. Tushlik oldidan hamma bir joyga yig'ilib, kitob o'qir yoki gurunglashardilar. Kecha sayr-tomosha, qarta o'yini, musiqa bilan o'tkazilar edi. Soat o'n yarimda Anna Sergeyevna ertangi kun uchun buyruqlar berib, o'z bo'lmasiga kirib ketar va uxmlashgani yotardi. Kundalik hayotining bunday o'lchovli, bir müncha tantanali ravishda o'tishi Bazarovning ko'ngliga yoqmas edi. U: «Xuddi temir yo'l izidan yurganday bo'lasan kishi», deb aytardi. Livreya kiyib yuborgan lakeylar va savlatli eshik og'alari uning demokratik tuyg'ularini haqoratlardi. U bunday yo'lga kirgandan keyin tushlikni inglizchasiga oq frag-u bo'yinbog'da qilish kerak deb hisoblardi. Bir kuni u bu to'g'rida Anna Sergeyevnaga ham ochiq aytди.

Anna Sergeyevna o'zini shunday tutardiki, har bir kishi uning oldida o'z fikrini hech bir kinoya-siz, to'ppa-to'g'ri ayta olardi. U Bazarovning gapini tinglagach: «O'z nuqtayi nazaringizda siz haqlisiz, bu masalada men, ehtimol, barinadirman, lekin qishloq yerida betartib yashashning imkonи yo'q, zeriktirishi mumkin», dedi va o'rnatgan intizo-mini joriy etishni davom ettiraverdi. Bazarov esa unga o'z noroziligini bildirardi. Lekin uning ham, Arkadiyning ham Odinsovanikida bexavotir yashaganliklariga sabab – bu yerda hamma narsa «temir yo'l izidan yurganday» bo'lishida edi.

Shu o'rtada, ya'ni Nikolskiyga kelgan kunlaridan boshlab, har ikkala yosh yigitda ham katta o'zgarish sodir bo'ldi. Bazarovda (Anna Sergeyevna uning fikrlariga kamdan-kam qo'shilsa-da, lekin unga biroz yon berardi shekilli) ilgari bo'limgan tashvish sezila boshlandi. U darrov jahli chiqadigan, sir-

kasi suv yugurtirmaydigan, hammaga o'qrayib qaraydigan va bir joyda tinch o'tirolmaydigan bo'lib qoldi, go'yo uni bir nima oqizib ketayotganday tuyillardı. Arkadiy esa Odinsovaga butunlay shaydo bo'lib qoldim, deb o'ylar va asta-sekin tushkunlikka tusha boshladi. Shunday bo'lsa hamki, bu ma'yuslik uning Katya bilan do'stlashuviga xalaqit bermadi va, hatto, bu kayfiyat Katya bilan muloym, do'stona munosabatlarni bog'lashga yordam berdi. Arkadiy: «Opasi mening qadrimga yetmaydi-ya! Mayli!.. Lekin mana bu mehribon zot unday emas, mendan yuz o'girmaydi», deb o'ylardi va shundan keyin uning qalbi yana shirin tuyg'ularni tatirdi. Katya esa o'z suhbatidan Arkadiyning qandaydir tasalli izlashini sal-pal bo'lsa-da, tushunar va bu ma'sumona do'stlikdan uni ham, o'zini ham mahrum qilmasdi. Anna Sergeyevna borida ular bir-birlari bilan gaplashmasdilar. Katya opasi ning sergak qarashidan doim siqilardi. Arkadiy esa har bir oshiqday, o'z yori bor joyda boshqa hech nimaga e'tibor qilolmasdi. Ammo Katya bilan yolg'iz qolganida, ayni muddao bo'lar edi. U Odinsovani suhbatga tortish qo'lidan kelmasligini fahmlardi. Yigit bu xonim bilan xilvatda qolganida uyalar, o'zini yo'qotib qo'yardi. Ayol ham unga nima deyishini bilmasdi. Uning uchun Arkadiy juda yosh ko'rinar edi. Katyaning huzurida yolg'iz qolganida esa, aksincha, yigit o'zini xuddi o'z uyidagidek his etardi. U qiz bilan yaxshi muomala qilardi. Bu suhbatdoshi bilan musiqa, qissa, she'r va shu kabi boshqa ahamiyatsiz narsalardan olgan taassurotini erkin so'zlashiga hech nima to'sqinlik qilolmasdi, ammo ayni zamonda o'sha ahamiyatsiz narsalar o'zini ham qiziqtirganini sezmas yoki anglamasdi. Ammo ba'zida Katya ham

uning ma'yus o'tirishiga mone bo'lmasdi. Arkadiy uchun Katya bilan, Bazarov uchun esa Odinsova bilan birga bo'lish yoqimli-yu qulay edi. Shu bois, ular odatda, ayniqsa, sayr-tomosha chog'ida shunday qilar edilar: to'rtovlon birpas birga yurgach, har qaysi juft o'z yo'liga ajralib ketardi. Katya tabiatni juda yaxshi ko'rар edi. Arkadiy ham tabiatni suyardi, lekin bunga iqrор bo'lgisi kelmasdi. Odinsova esa tabiatga Bazarov singari loqayd qarardi. Bazarov bilan Arkadiyning doimo bir-birlaridan ajralib yurishlari oqibatsiz qolmadi, ularning munosabatlari o'zgara boshladi. Bazarov Odinsova to'g'risida Arkadiy bilan gaplashmaydigan bo'lib qoldi, hatto Odinsovaning «asilzoda odatlarini» ham tanqid qilishdan to'xtadi. Katyani esa ilgarigicha maqtar va faqat uning hissiyotini biroz yumshatish kerak, deb maslahat berar, lekin uning maqtovlari – shoshilinch, maslahatlari – quruq va umuman ahamiyatsiz edi. Bazarov Arkadiy bilan hozir ilgarigidan ancha kam gaplashar edi... U xuddi Arkadiydan qochgandek, undan uyalgandek bo'lib tuyilardi...

Arkadiy buning barini sezar, lekin pinhon saqlardi.

Bu «yangiliklar»ning asl sababi – Odinsova Bazarovga shunday bir tuyg'u taqdim etgandiki, bu tuyg'u uni behad qiynar va g'azablantirardi. Basharti, birov til uchida hazil aralash Bazarovda shunday tuyg'u paydo bo'lganini aytib qolsa bormi, u bunga darhol jirkanch qah-qaha-yu behayo so'kish bilan javob bergan va hissiyotlari dan o'sha lahza voz kechgan bo'lar edi. Bazarov chiroyli ayollarni yoqtiradigan o'taketgan xotinboz edi. Haqiqiy ishq yoki uning tili bilan aytganda, xom xayol muhabbat bu – safsata, kechirib bo'lmas tentaklik! Yigit mardonialik tuyg'ularini

allaqanday telbalig-u kasallik deb bilar va nima uchun Minnezenger Trubadurlar¹ bilan Toggenburgni² sariq uyga qamab qo'ymagan ekanlar? – deb doim ajablanib so'zlardi. U: «Senga bir ayol yoqqan bo'lsa, undan biroz foydalanishga harakat qil, iloji bo'lmasa, mayli keragi yo'q, teskari o'girilib ketaver, boshqasi topilib qolar», derdi. Odinsova unga yoqardi. Ayol haqidagi mish-mishlar, uning erkin va mustaqil fikrlari, xonimning Bazarovga hech shaksiz ko'ngil qo'yanligidan dalolat berar, bari Bazarov foydasiga so'zlaganday bo'lib ko'rinar edi. Biroq u Odinsovadan «hech ish chiqmasligini» tezda fahmlab qoldi, ammo ayoldan uzoqlashishga ojiz, boz ustiga hayron ham edi. Xonimni eslaganida, uning qoni qaynardi; u o'z qonini oson yenga olar, lekin ko'ngliga boshqa – o'zida bo'lishini hech qachon kutmagan va hamma vaqt masxaralagan tuyg'u o'rnashib qolgandi, bu esa uning nafsoniyatiga tegardi. Anna Sergeyevna bilan gaplashib o'tirganida, u xayolparastlikni ilgarigidan ham battar tanqid qilardi, ammo yolg'iz qolganida; o'ziga o'zi hayron bo'lib, xayolparast bo'lib ketayoganini sezardi. Shunday vaqtarda u o'rmonga chiqib ketar, u yerda katta-katta qadam tashlab yurar,

¹ O'rta asrlarda ritsarlar tabaqasiga mansub bo'lgan va ayollarni madh etib yozgan shoirlar (Minnezengerlar – janubiy Fransiyada, Trubadurlar – Germaniyada bo'lganlar).

² Nemis shoirlaridan Shillerning rus tilida V. Jukovskiy tomonidan tarjima qilingan «Ritsar Toggenburg» degan asarida, ritsar Toggenburgning bir xotinga oshiq bo'lib, maqsadiga erisholmaganidan keyin urushga ketgani to'g'risida hikoya qilinadi. Urushdan qaytib, o'z ma'shuqasining ibodatxonaga ketganini bilgach, Toggenburg ham ma'shuqasiga qo'shni ibodatxonaga joylashib, xilvatda qolgan va kecha-yu kunduz ma'shuqasini xotirlab, umrini shirin xayol bilan o'tkazgan.

duch kelgan novdalarni sindirar va o'zini ham, Anna Sergeyevnani ham shivirlab so'kardi yoki saroydagi bedaxonaga kirib yotar; ko'zlarini yumib, uqlashga tirishardi, ammo ko'pincha, shubhabsiz, mijja qoqmasdi. Birdan Bazarovning miyasiga turli xayollar kelardi: Odinsovaning o'sha nozik qo'llari bo'yndan quchoqlab olar, o'sha mag'rur lablar bo'sasiga javob berar, o'sha aqli ko'zlar uning ko'zlariga muloyim tikilar va shunda boshi aylanib; yana o'ziga kelib hayratda qolgancha, bir lahma o'z-o'zini unutib qo'yardi. U xuddi shayton vasvasa qilganday, xayoliga har xil «uyat» fikrlar kelganini fahmlardi. Ba'zan unga Odinsovada ham qandaydir o'zgarish sodir bo'layotganday, uning chehrasi qandaydir sirli tus olganday ko'rinar, kim bilsin, ehtimol... Biroq xayoliga shunday fikrlar kelganida, Bazarov odatda yer tepinar yoyinki tishlarini g'ijirlatib, mushti bilan o'z-o'ziga tahdid qilar edi. Har holda Bazarov ko'p ham yanglishmadidi. U chindan ham Odinsovaning yuragini jarohatlagandi. Yigit ayolning aqlini band qilgan, xonim u haqda ko'p o'ylardi. Bazarov yo'qligida Odinsova garchi zerikmasa va uni kutmasa ham, lekin uning paydo bo'lishi xonimni darhol jonlantirardi. Ayol Bazarov bilan jon deb yolg'iz qolar va u bilan bajonidil suhbatlashar, hatto yigit uning jig'iga tegsa ham yoki uning didi-yu go'zal odatlarini tahqirlasa ham, undan qochmas edi. Go'yo u o'zini ham, Bazarovni ham sinab ko'rmoqchi bolardi.

Bir kuni bog'da aylanib yurishganida, to'satdan Bazarov hazin tovushda: «Yaqinda qishloqqa, otamning oldiga ketishim kerak», deb qo'ydi... Odinsovaning yuragiga go'yo bir narsa sanchilganday,

yuzlari oqarib ketdi, shu qadar qattiq sanchilganday bo'ldiki, «Bu nima ekan?» deb anchagacha hayron bo'lib qoldi. Bazarov jo'nashi haqdagi xabarni uni sinash uchun aytgani yo'q edi, u hech qachon yolg'on to'qimasdi. Yigit o'sha kuni ertalab otasining sarkori, o'zining sobiq amakisi¹ Timofeyich bilan ko'rishgan edi. Ko'pni ko'rgan epchil, malla soch qariyaning rangi zahil, shamol yalagan betlari qizil, qisiq ko'zлari esa sal yoshlanib turadigan chol edi. Timofeyichning egnida kulrang ko'kimtir qalin movutdan tikilgan kalta chakmon, belida uvadasi chiqqan eski kamar, oyog'ida askarcha etik edi, u shu usti-boshda to'satdan Bazarov huzurida paydo bo'lib qoldi. Yigit uni ko'rib:

– Ha, boboy, salomat bormisan? – dedi.

– Shukr, Yevgeniy Vasilyevich afandim, – dedi chol va xursand bo'lib kulimsiradi. Bu kulimsirashdan uning yuzlari to'satdan burishib ketdi.

– Nega kelding? Yo meni olib ketgani yubordilarmi?

– Yo'g'-ey, taqsir, unday emas! – dedi Timofeyich (yo'lga chiqishda xo'jayini tayinlagan gapni eslab), – janob xo'jayinlarning ishi bilan shaharga ketayotgan edik. Sizning bu yerdaligingizni eshitib, yo'l-yo'lakay kirdik, ya'ni siz janoblarini ko'rib chiqaylik dedik... yo'qsa, sizni bezovta qilish mumkinmi, axir!

Bazarov uning so'zini bo'lib:

– Yolg'on gapirma, chol. Shaharga bu yoqdan yo'l yo'q-ku!

Timofeyich taraddudlanib qoldi va hech qanday javob qaytarmadi.

– Otam sog'-salomatmilar?

– Xudoga shukr.

¹ Amaki – zamindorning bolasi ko'z-quloq t'o'lib turadigan va har xil ishlarini bajaradigan krepostnoy xiz natkor.

- Onamiz-chi?
- Arina Vlasyevna ham, Xudoga shukr, sog‘-salomatlar.
- Meni kutishayotgandir-a?
- Chol o‘zining mushtdek boshini bir yoqqa qiyshaytirib:
 - Voy, Yevgeniy Vasilyevich-ey, nahot kutishmasa! Xudoga ishonsangiz, ota-onangiz yo‘lingizga ko‘z tikib, sarg‘ayib ketishdi.
 - Juda yaxshi! Ko‘p sayrayverma. Ularga ayt, tezda borib qolaman.

Timofeyich oh tortib:

– Xo‘p, taqsir, – dedi.

Uydan chiqqandan keyin u ikki qo‘li bilan bosh kiyimini boshiga qo‘ndirdi va darvoza oldida qoldirgan g‘oyat eski aravasiga mindi-da, otini yo‘ttirib yo‘lga tushdi. Lekin ketayotgan yo‘li shahar tomonga emas edi.

O‘sha kuni kechqurun Odinsova o‘z bo‘lmasida Bazarov bilan suhbatlashib o‘tirardi. Arkadiy esa mehmonxonada u yoqdan-bu yoqqa yurib, Katya chalayotgan kuyni tinglar edi. Knyajna o‘z bo‘lmasiga, yuqoriga chiqib ketgandi. Uning umuman mehmonlarga, ayniqsa, o‘zi aytganicha, bu «yangi behayolar»ga tobi yo‘q edi. Mehmon qabul qiladigan xonalarda u faqat qovog‘ini solintirib o‘tirardi, ammo o‘z bo‘lmasida, o‘zining oqsochi oldida ba’zan shunday iflos so‘zlar bilan so‘kinardiki, hatto ulama sochi bilan chepsisi titrab turardi. Odinsova uning bu odatlarini yaxshi bilar edi.

– Nega endi ketaman deyapsiz, va’dangiz qani? – deb gap boshladi xonim.

Bazarov seskanib ketdi.

– Qanday va‘da?

– Esingizda yo‘qmi? Siz menga kimyodan saboq bermoqchi bo‘lgandingiz.

– Nima qilay? Otam meni kutayotgan mish, bundan ortiq kechikishimning sira iloji yo‘q. Aytgandek, siz «Pelouse et Fremy, Notions generales de Chimie»¹ nomli kitobni o‘qib chiqsangiz bo‘ladi, u sodda va ravon tilda yozilgan. O‘zingizga kerakli bilimni o‘sha kitobdan topishingiz mumkin.

– Esingizdami, siz menga kitob... yodimdan ko‘rtarilibdi ham, nimaningdir o‘rnini bosolmaydi degan edingiz, mening nima demoqchiligidagi bilib turgan bo‘lsangiz kerak... Yodingizdami?

– Nima qilay?! – deb takrorladi Bavarov.

– Ketib nima qilasiz? – dedi Odinsova tovushini pasaytirib.

U xonimga qarab qo‘ydi. Ayol boshi bilan kursiga suyanib, tirsagigacha yalang‘och qo‘llarini ko‘kragiga qo‘ydi. Qog‘ozdan to‘r qilib to‘silgan chiroqning xira shu‘lasida uning yuzlari yana ham oqroq bo‘lib ko‘rinardi. Keng harir ko‘ylagi o‘zining mayin burmalari bilan uning butun gavdasini berkitib turar, chalishtirib olgan oyog‘ining uchlarigina etak ostidan salgina ko‘rinib turardi.

Bazarov unga javob berib:

– Qolib nima qilaman? – dedi.

Odinsova boshini biroz chetga burdi.

– Nima qilardingiz? Yo biznikida zerikib qoldingizmi? Yoki ketishingizga bu yerda hech kim afsus qilmaydi, deb o‘ylaysizmi?

– Ha, bo‘lmasa-chi!

Odinsova biroz jim bo‘lib qoldi.

– Xato qilasiz, lekin bu so‘zingizga ishonmayman. Siz chin ko‘ngildan shunday deb aytolmaysiz.

¹ «Kimyo asoslari».

Bazarov jim o'tiraverdi.

– Yevgeniy Vasilyevich, nega indamaysiz?

– Nima desam bo'ladi sizga? Odamlar to'g'risida umuman afsus qilish arzimaydi, ayniqsa, mening haqimda.

– Sabab?

– Men ijobiy kishiman, bunday kishi odamlarga yoqmaydi. Gapga ham usta emasman.

– Siz izzattalabga o'xshaysiz, Yevgeniy Vasilyevich.

– Menda bunday odat yo'q. Hayotning siz yaxshi ko'rgan go'zal tomonlariga bizning qo'limiz yetmasligini o'zingiz ham bilsangiz kerak.

Odinsova dastro'molining uchini bir necha marta tishladi.

– Nima deb o'ylasangiz o'ylang, lekin siz ketgandan keyin men zerikaman.

– Arkadiy qoladi-ku! – deb qo'ydi Bazarov.

Odinsova yengilgina kift qisib qo'ydi va so'zini takrorlab:

– Zerikib qolaman, – dedi.

– Rost aytyapsizmi? Har holda uzoq zerikmassiz.

– Nega bunday deb o'ylaysiz?

– Chunki siz uyimda tartib buzilgan vaqtdagina zerikib qolaman, deb aytgan edingiz. Siz turmushingizni shunday bekam-u ko'st to'g'ri qurgansizki, bunday turmushda na zerikish, na g'ussa, na boshqa bিrор hisga o'rин bo'lmasligi kerak...

– Endi siz meni bekam-u ko'st... ya'ni turmu-shini to'g'ri izga solgan deb o'ylaysizmi?

– Bo'lmasa-chi! Mana, masalan, bir necha daqiqadan keyin soat o'n bo'ladi va men oldindan bila-manki, siz meni haydab chiqazasiz.

– Yo‘q, yo‘q, haydamayman, Yevgeniy Vasilievich, qolishingiz mumkin. Anavi derazani ochib qo‘ysangiz... juda bo‘g‘ilib ketayapman.

Bazarov o‘rnidan turib, derazani itarib yubordi. U qarsillab ochilib ketdi... Yigit derazaning bunday oson ochilishini bilmagandi, buning ustiga qo‘llari qaltirab turgan edi. Deraza ochilishi bilan qop-qora osmon-u asta shovullab turgan daraxtlar ko‘rindi va uyga sof havo kirdi.

Odinsova Bazarovga murojaat qilib:

– Pardani tushirib qo‘ying-da, keyin o‘tiring! Ketishingiz oldidan siz bilan biroz suhbatlashgim keldi. Menga o‘zingiz haqida biror nima hikoya qilib bersangiz, siz hech qachon bu to‘g‘rida so‘zlamaysiz, – dedi.

– Men siz bilan foydali ishlar xususda suhbatlashishga harakat qilaman, Anna Sergeyevna.

– Juda kamtarsiz... Lekin men o‘zingiz, oilangiz – bizni tashlab, oldiga ketayotgan otangiz to‘g‘risida biror nima bilgim keladi.

Bazarov: «Nima uchun u bunaqa gaplarni gapir-yapti-ya?» deb o‘yladi va eshittirib:

– Bularning hech qizig‘i yo‘q, xususan siz uchun, biz qora xalqmiz... – dedi.

– Men-chi, sizningcha, kiborlardanmi?

Bazarov Odinsovaga qaradi-da, shartta kesib:

– Ha, – dedi.

Odinsova kulib qo‘ydi.

– Menimcha, garchi odamlarning bari bir-biriga o‘xshaydi va ularni o‘rganishning hojati yo‘q desangiz ham, siz meni bilmas ekansiz, vaqt kelib men sizga o‘z turmushimni gapirib berarman... lekin, avvalo, menga o‘z hayotingizni so‘zlab bering.

– Men sizni oz vaqtdan beri bilaman, – dedi Bazarov yana, – ehtimol, haqdirlsiz. Ehtimol, haqiqatan ham har bir odam muammodir. Masalan, sizni olaylik, o'zingizni jamiyatdan chetga tortasiz, undan qochasiz va uyingizga ikki talabani olib kelib o'tiribsiz. Nima uchun shunday aql-u husn bilan qishloqda yashaysiz?

Odinsova uning so'zini darhol ilib olib:

– Nima? Qanday dedingiz? Mening... husnim bilan? – dedi.

Bazarov qovog'ini soldi.

– Bunisi-ku baribir-a, men sizning qishloqda turib qolishingizning sababini yaxshi tushunmayman, deb aytmoqchiydim.

– Buni tushunmaysiz... Lekin o'zingizcha biror xulosa chiqargandirsiz?

– Menimcha, sizning doimo bir joyda turib qolishingiz sababi – o'zingizni erkalatib qo'yibsiz. Chunki, siz bekam-u ko'st hayot kechirishni juda yaxshi ko'rasiz, lekin boshqasi bilan ishingiz yo'q.

Odinsova yana kulimsiradi.

– Ishonchingiz komilmi?

Bazarov unga yer ostidan qarab qo'ydi.

– Ishingiz bo'lgan taqdirda ham, shunchaki xo'jako'rsinga, vassalom.

– Rostdan shunday o'ylaysizmi? U holda suhabatimiz qovushganining sababini endi bildim, siz xuddi o'zimga o'xshaysiz.

Bazarov g'ururlanib:

– Suhbatimiz qovushdi... – deb qo'ydi.

– Aytgandek, sizning ketmoqchi bo'lganiningizni esimdan chiqarib qo'yibman.

Bazarov o'rnidan turdi, qorong'ilashgan xilvat xona o'rtaсидаги чироқ xira nur sochardi, pardani hilpillatib ichkariga o'rlayotgan sof havo quloqqa tunning sirli shi-

virini yetkazardi. Odinsova qimirlamasdan jim o'tirardi. Lekin sekin-asta uning butun vujudini allaqanday sirli hayajon chulg'ab olmoqda edi... Bu hol Bazarovga ham o'tdi. U birdaniga o'zining yosh-u go'zal ayol bilan xilvatda yolg'izligini sezdi...

Odinsova sekin:

– Qayoqqa? – deb so'radi.

Bazarov hech nima demasdan kursiga o'tirdi.

Xonim ko'zini derazadan uzmay, boyagi tovush bilan gapini davom ettirib:

– Demak, siz meni bosiq-u tantiq nozanin deb o'ylayotgan ekansiz-da? Ammo men o'zimni baxtsiz bir kishi deb hisoblayman, – dedi.

– Siz baxtsiz? Sabab? Nahotki, bema'ni g'iylatlarga ahamiyat bersangiz?

Odinsova qovog'ini soldi. Bazarov gapini bunday tushunganligiga afsuslandi.

– G'iylatlarga e'tibor ham qilmayman, Yevgeniy Vasilyevich, men bu gaplardan xiyla yuqori turaman. Baxtsiz bo'lishimning sababi menda yashash havasi yo'qligi. Siz menga ishonmay qaraysiz-a, siz bu gaplarni boshqan-oyoq shoyiga o'ranicha, baxmal kursiga suyanib o'tirgan «asilzoda xonim» gapiryapti, deb o'ylaysiz. Men buni yashirmayman ham, men sizning yaxshi hayot deb ataganingizni yaxshi ko'raman va shu bilan birga dunyoda yashashga uncha tobim ham yo'q. Bu qarama-qarshilikni qanday tushunsangiz shunday tushunaving. Aytgandek, sizning nazaringizda, bularning bari xom xayoldan bo'lak narsa emas.

Bazarov boshini chayqab qo'ydi.

– Siz sog'siz, o'zingizga xon-u o'zingizga bek, ko'lankasi maydon davlatmand ayolsiz, tag'in nima? Yana nima istaysiz?

Odinsova Bazarovning so'zini takrorlab:

– Nima istayman? – dedi va og'ir nafas oldi. – Men juda charchadim, qarib qoldim, o'zimga juda uzoq umr ko'rganday tuyiladi. – Odinsova mantilyasining uchlarini yalang'och qo'llari ustiga sekingina tortib qo'ydi: – ha, qarib qoldim, – dedi. Uning ko'zlari Bazarovning ko'zlari bilan to'qnashdi. U salgina qizardi, – o'tmishim xotiralarga juda boy. Peterburgda turishim, to'kin-sochin hayot ketidan kambag'allig-u qashshoqlik azoblari, so'ng otamning vafoti, erga tegishim, keyin chet elga borishim... xotiralar ko'pu, lekin xotiraga oladigan hech narsa yo'q. Oldimga uzoq yo'l, lekin maqsad yo'q... shuning uchun bu yo'ldan borgim ham kelmaydi.

– Shunchalar noumidmisiz? – deb so'radi Bazarov.

– Yo'q, – dedi cho'zib Odinsova, – lekin men qanoat hosil etgan emasman. Biror nimaga astoydil bog'lansam, ehtimol...

Bazarov uning so'zini bo'lib:

– Siz yaxshi ko'rishni istaysiz-u, lekin suyish qo'lingizdan kelmaydi. Baxtsiz bo'lishingizning boisi ham ana shu, – dedi.

Odinsova mantilyasining yeng uchlarini timirs-kilay boshladi.

– Men yaxshi ko'rolmas ekanmanmi? – dedi u.

– Mushkul savdo! Lekin men buni baxtsizlik deyishim chakki bo'ldi. Aksincha, bunga griftor kishini qizg'anish kerak.

– Nimaga griftor kishini?

– Oshiqlik balosiga.

– Siz buni qayoqdan bilasiz?

– Birovlardan eshitdim-da, – dedi jahl bilan Bazarov.

«Noz-karashma qilayapsan-da, o'zing zerika-yapsan-u zerikkaningdan meni mayna qilyapsan, menga esa...», deb o'yladi Bazarov. Bazarovning yuragi, haqiqatan ham qinidan chiqib ketguday bo'lib tuyilar edi.

– Undan keyin sizning talabingiz juda kattaga o'xshaydi, – dedi u butun gavdasi bilan oldinga egilib va qo'li bilan kursining popuklarini o'ynab.

– Ehtimol. Menimcha, bo'lsa yo bari yo hech biri bo'lmasin. Jonga-jon. Menikini oldingmi, o'zingnikini ber, bergandan keyin o'kinma va qayg'urib ham yurma. Shunday bo'lmasa keragi ham yo'q.

– Mana bu shart to'g'ri, lekin istaganingizni qanday qilib, shu kungacha... topmaganingizga hayron qolaman.

– Sizningcha, biron nimaga butunlay berilish oson ekan-da?

– Ko'p o'ylab, kutib o'tiraversang, buning ustiga o'zingga bino qo'yib, qadr-qimmatim deb o'tiraversang, albatta, qiyin bo'ladi, lekin o'ylamasang, berilish juda oson.

– Qanday qilib o'zingni qadrlamaysan kishi? Qadr-qimmatim bo'lmasa sadoqatimning kimga keragi bor?

– Bunisi mening ishim emas. Mening qadr-qimmatimni boshqalar tekshirib ko'rishsin. Eng muhimmi, berilishni uddalash kerak.

Odinsova qomatini sal rostladi.

– Siz bularni xuddi sinab ko'rganday gapirasiz.

– Gapning omadi kelib qoldi, Anna Sergeyevna, o'zingiz bilasiz, bularning menga daxli yo'q.

– O'zingiz-chi, berilarmidингиз?

– Bilmayman, maqtangim kelmaydi.

Odinsova hech nima demadi. Bazarov ham jim bo'lib qoldi. Mehmonxonadan fortepyano tovushi eshitilib turar edi.

– Nima gap o'zi, Katya shunday kech bo'sayam chalyaptimi, deyman-a? – dedi Odinsova.

Bazarov o'rnidan turdi-da:

– Ha, endi rostdan ham kech bo'lib qoldi, endi uxlasangiz ham bo'lar, – dedi.

– Sabr qiling, qayoqqa shoshyapsiz? Sizga bir gap aytmoqchi edim.

– Qanaqa gap?

– Sabr qiling, – deb shivirladi Odinsova, uning ko'zлari Bazarovga tikilib qoldi, go'yo Bazarovga diqqat bilan qarayotganday ko'rinar edi.

Bazarov o'rnidan turib, uyda bir aylandi-da, keyin birdan Odinsovaning oldiga keldi va shoshilinch ravishda «xayr» deb uning qo'lini shu qadar qattiq qisdiki, u dodlab yuborishiga sal qoldi, keyin darrrov uydan chiqib ketdi. Odinsova yopishib qolgan barmoqlarini labiga yaqin olib kelib, ozgina pulfadi-da, keyin birdaniga o'rnidan turib, Bazarovni qaytarmoqchi bo'lganday, eshikka qarab chopdi... Shu orada uyga choynak qo'yilgan kumush patnisni ko'tarib, oqsoch xotin kirib keldi. Odinsova to'xtab qoldi va uni chiqarib yuborib, yana o'z joyiga kelib o'tirdi-da, o'yga cho'mdi. Sochi yechilib ketib, qora ilonday yelkasiga kelib tushdi. Anna Sergeyevnaning uyida chiroq anchagacha yonib turdi va uzoq vaqt o'tirib qoldi. U tungi salqindan uvishgan qo'llarini onda-sonda barmoqlari bilan siypalab qo'yardi, xolos.

Bazarov esa ikki soatcha o'tgach, shudringda ho'llangan etiklari bilan, sochi paxmaygan va qovog'i soliq holda o'z yotoqxonasiga qaytib keldi... Bazarov

kelib kirganida, Arkadiy choponining tugmalarini solib, yozuv stoli yonida kitob o'qib o'tirar edi.

Bazarov attang deganday bir ohangda unga:

– Haliyam yotganing yo'qmi? – dedi.

Arkadiy uning savoliga javob bermasdan:

– Sen bugun Anna Sergeyevna bilan uzoq o'tirib qolding, – dedi.

– Ha, shunday, Katerina Sergeyevna bilan sizlar fortepyano chalib o'tirganlaringda, men ham xonim bilan gurunglashdim.

– Men chalganim yo'q, – deb gap boshlagan edi Arkadiy, lekin darrov jim bo'lib qoldi. U ko'zlariga yosh kelayotganini sezар, lekin hazilkash do'sti oldida yig'lashni o'ziga ep ko'rmasdi.

18

keim...

Ertasiga Odinsova choyga chiqqanda, Bazarov qo'lidagi piyolaga qarab, anchagacha bosh egib o'tirdi, keyin birdan xonimga tikildi. Ayol go'yo yigit uni turganday, burilib qaradi. Bazarovning ko'ziga Odinsovaning yuzi salgina oqarganday ko'rindi. Xonim uzoq o'tirmasdan o'z uyiga chiqib ketdi va faqat tushki ovqat mahalidagina keldi. Ertalabdan yomg'ir yoqqani bois aylanib-sayr qilishning iloji bo'lmadi. Hamma mehmonxonaga yig'ildi. Arkadiy jurnalning eng so'nggi sonini olib o'qiy boshladи. Knyajna go'yo Arkadiy biror noma'qul ish qilayotganday, o'z odati bo'yicha qovog'ini uyib, achchig'lanib unga tikildi. Lekin Arkadiy unga e'tibor qilmadi.

Anna Sergeyevna Bazarovga murojaat qilib:

– Yevgeniy Vasilyevich, yuring, mening bo'lmanga. Men sizdan bir nima so'ramoqchiman... Kecha bir qo'llanma to'g'risida gapirgandim...

Anna Sergeyevna o'rnidan turib, eshikka qarab yurdi. Knyajna tevarak-atrofga xuddi «Qaranglar, qaranglar, hayron qolayapman!» deganday nazar tashladi, keyin Arkadiyga tikildi. Ammo yigit yonida o'tirgan Katya bilan bir ko'z urishtirib oldi-da, yanada balandroq ovoz bilan o'qishda davom etdi.

Odinsova tez-tez qadam tashlab, o'z bo'lmasiga kirdi. Bazarov esa boshini yuqori ko'tarmay, oldinda sudralib ketayotgan shoyi ko'ylakning shaldiragan ovoziga qulq sola-sola, uning ketidan bo'limga kirdi. Odinsova yana o'sha kecha o'tirgan kursisiga, Bazarov ham kechagi joyiga o'tirdi.

Odinsova biroz jim turganidan keyin so'zga kirishib:

– Kechagi aytgan kitobingizning nomi nima edi?
– dedi.

Bazarov unga javoban:

– Pelouse et Fremy. Notions generales... Aytgandek, sizga Ganot, Traite elementaire de physique experimentale¹ degan kitobni ham tavsiya qilishim mumkin. Bu darslikning rasmlari aniqroq... – dedi.

Odinsova qo'lini cho'zdi.

– Yevgeniy Vasilyevich, kechirasiz, men sizni bu yerga darsliklar to'g'risida muhokama qilish uchun chaqiranim yo'q, kechagi suhbatimizni davom ettirmoqchiydim. Siz kecha to'satdan ketib qoldingiz... zerikib qolmaysizmi?

– Bosh ustiga, Anna Sergeyevna. Lekin xotiramda yo'q, siz bilan kecha nima to'g'risida suhbatlashgan edik?

Odinsova Bazarovga ko'z qirini tashlab qo'ydi.

– Biz kecha siz bilan baxt to'g'risida gaplashgan edik shekilli. Men sizga o'zim haqda so'zladim. Ayt-

¹ Gapo, «Amaliy fizikadan boshlang'ich kurs».

gandek, men hozir «baxt» so'zini tilga oldim. Ayting-chi, nima sababdan biz masalan, musiqadan, dilkash odamlar bilan suhbatlashib o'tirishdan lazzat olsak ham bularning hech biri bizga haqiqiy, ya'ni o'zimiz ega bo'lgan baxt kabi emas, balki ko'proq qandaydir cheksiz, qandaydir noma'lum bir baxtning ishorasi bo'libgina tuyiladi? Nima sababdan shunday? Yoxud siz, ehtimol, bunday holni his qilmaysizmi?

— «Biz yo'q joyda, hamma ish joyida», degan maqolni bilsangiz kerak. Shu bilan birga siz kecha o'zingiz, qanoat hosil etganim yo'q, dedingiz. Ammo mening xayolimga bunday fikrlar kelmaydi,

— dedi Bazarov.

— Ehtimol, bu fikrlar sizga g'alati tuyilsa kerak?

— Yo'q, lekin bunday fikrlar mening xayolimga kelmaydi.

— Rostdan ham shundaymi? Bilasizmi, men sizning nima to'g'risida o'ylayotganingizni bilgim keladi?

— Nima? Gapingizga tushunmayapman.

— Yevgeniy Vasilyevich, gapimga qulq soling, men siz bilan ko'pdan beri ochiq gaplashmoqchi edim. Sizning aytadigan gapingiz ham yo'q. Buni o'zingiz ham yaxshi bilasiz, siz oddiy odam emassiz. Hali yoshsiz va butun hayotingiz oldinda. Nimaga tayyorgarlik ko'ryapsiz? Kelajakda sizni nimalar kutadi? Qanday maqsadga erishmoqchisiz, qayoqqa borayotirsiz, ko'nglingizda nimalar bor? Xullas, siz kimsiz-u nimasiz? Shuni bilmoqchiman.

— Bu gapingiz bilan meni hayratda qoldiryapsiz, Anna Sergeyevna. Mening tabiiy fanlar bilan shug'ullanishim sizga ma'lum, kimligim ham...

— Ha, kimsiz?

— Men sizga o'zimning kelajakda viloyat tabibi bo'lajagimni aytgandim.

Anna Sergeyevna betoqat bo'lib, qimirlab qo'ydi-da:

– Nega unday deysiz? Bunga o'zingiz ham ishonmaysiz-ku, siz emas, menga Arkadiy shunday javob bersa bo'lardi, – dedi.

– Nega endi Arkadiy?

– Qo'ying-a! O'zingiz shunday kichik faoliyat bilan qanoatlanishingiz mumkinmi? Har doim tibbiyot men uchun yo'q demabmidingiz, axir? Siz shunchalik izzat-nafs bilan viloyat tabibi bo'lar emishsiz! Kaminadan qutulish uchun menga jo'rttaga shunday javob beryapsiz, chunki menga sira ishonmaysiz, lekin men, Yevgeniy Vasilyevich, gapingizga tushunardim. Men o'zim ham, xuddi sizday, kambag'al va izzat-nafsi butun edim. Boshin-gizdan qanday og'ir kunlarni kechirgan bo'sangiz, men ham, ehtimol, shunday qiyinchiliklarni kechirgandirman.

– Bu gaplarning bari soz-u, Anna Sergeyevna, lekin meni kechirasiz... men umuman o'z ko'nglimdagilarni aytib berishni odat qilgan emasman, undan keyin, siz bilan mening o'rtamdag'i masofa shunday uzoqki...

– Qanaqa masofa? Siz meni yana asilzodacha demoqchi bo'lasizmi? Bas axir, Yevgeniy Vasilyevich, men sizga o'zimni isbot qildim shekilli...

Bazarov uning so'zini bo'lib:

– Undan keyin, bizning kelajagimiz ko'pincha o'z ixtiyorimizga bog'liq emas, shuning uchun bu to'g'rida gapirish-u o'ylab o'tirishning nima foydasi bor? Biror ishning uddasidan chiqar ekanmiz juda soz, bordi-yu, uddasidan chiqmas ekanmiz, bu haqda avvaldan safsata sotmaganimizga xursand bo'laveraylik, – dedi.

– Do'stona suhbatlashib o'tirishni siz safsata sotish deyapsiz, balki ayol deb, menga ishonishni

o'zingiz uchun ep ko'rmayotgandirsiz? Siz umuman ayol zotini yomon ko'rasiz-ku, axir!

– Men sizni yomon ko'rmasligimni, Anna Sergeyevna, o'zingiz ham yaxshi bilasiz-ku.

– Yo'q, men hech nimani bilmayman... Mayli, kelajagingiz to'g'risida nima uchun gaphirishni istamaganingizni bilaman, lekin hozir ichingizda sodir bo'layotgan...

– Sodir bo'layotgan! – dedi Bazarov. – Go'yo men biror davlat yoki jamiyat! Har holda bu gap birovni qiziqtiradigan gap emas, undan keyin, har bir kimsa o'z ichidagi hissiyotlarini har doim ovoza qilishga qodirmikan, axir?

– Men, ko'ngilda bor gapni nima uchun aytish mumkin emasligiga hayronman.

– O'zingiz-chi, aytib bera olasizmi? – deb so'radi Bazarov.

Anna Sergeyevna biroz ikkilanib turganidan keyin:

– Ha, – dedi.

Bazarov boshini egib:

– Siz mendan baxtliroq ekansiz, – dedi.

Anna Sergeyevna unga savol nazari bilan qaradi.

– Nima desangiz deng-u, ammo har holda, gapimiz gapimizga to'g'ri kelganligi bejiz emas, bir-birimiz bilan yaxshi do'st bo'ladigan ko'rinishimiz. Men o'ylaymanki, bu chiranishingiz va bardoshingiz borib-borib yo'qolar.

– Siz menda bardosh... Yana nima dedingiz...

Chiranish sezdingizmi?

– Ha!

Bazarov o'rnidan turib, deraza oldiga keldi.

– Demak, siz bardosh qilishimning sababini, mening vujudimda nimalar sodir bo'layotganini bilmoqchisizda, a?

Odinsova o'z so'zini allaqanday, hali o'zi ham anglab yetmagan bir qo'rquv bilan takrorlab:

- Ha, - dedi.
- Aytsam xafa bo'lmaisizmi?
- Yo'q.

- Yo'qmi? - dedi Bazarov unga orqa o'girib, derazaga qaragan holda, - unday bo'lsa bilib oling, men sizni jon dilimdan ortiq sevaman... Ana endi maqsadingizga erishdingiz.

Odinsova qo'llarini oldinga cho'zdi, Bazarov esa peshanasini deraza oynasiga tirab turardi. Uning nafasi bo'g'ilar, a'zoyi-badani titrar edi. Lekin bu titroq yoshlik qo'rqoqligi yoki ilk muhabbat izhoridagi shirin dahshat emas edi. Uning ichida ehtiros, g'azabga o'xshagan kuchli-yu og'ir ehtiros mavj urmoqda edi... Odinsovani vahima bosdi va Bazarovga achindi ham.

U, qandaydir ixtiyorsiz ohang, muloyim bir tovush bilan:

- Yevgeniy Vasilyevich... - dedi.

Bazarov darrov orqasiga burilib, unga yeb qo'yguday tikildi-da, ikki qo'lidan ushlab, bag'riga bosdi.

Odinsova uning quchog'idan darrov bo'shay qolmadı, lekin birpasdan keyin o'zini narigi bur-chakka olib, o'sha yerdan Bazarovga qarab qoldi. Bazarov yana unga tomon otildi...

Odinsova kapalagi uchgan holda, shosha-pisha shivirlab:

- Siz mening gapimga tushunmadingiz, - dedi.

Agar Bazarov yana bir qadam bossa, go'yo dodlab yuboradiganga o'xshardi... Bazarov labini tishlab, eshikdan chiqib ketdi.

Oradan yarim soat o'tgach, xodima Anna Sergeyevnaga Bazarovdan xat keltirib berdi. Noma

faqat bir satrdan iborat bo'lib, unda: «Bugun ketishim kerakmi yoki ertagacha qolsam ham bo'ladi?» deb yozilgan edi. Anna Sergeyevna unga: «Ketib nima qilasiz? Men sizni anglamabman, siz ham meni tushunmadingiz», deb javob qaytardi. Ammo o'zi: «Men o'zimni ham tushunolmadim», deb xayolidan o'tkazdi.

Anna Sergeyevna tushlik vaqtigacha hech kim-ga ko'rinnadi, qo'llarini orqasiga qilib, goh deraza, goh ko'zgu oldida to'xtab, vaqtini o'z uyida u yoqdan-bu yoqqa yurib o'tkazdi, har zamonda bir bo'ynida issiq dog' borday tuyilib, dastro'moli bilan bo'ynini asta artib qo'yardi. U o'z-o'ziga savol berib, Bazarov aytganday: «Nega men uning sirini bolithga tirishdim yoki biror gumonim bormidi?» deb so'rardi. U o'z-o'ziga gapirib: «Ayb o'zimda, lekin bunday bo'lishini kutmagan edim», deb qo'ydi. Bazarov uni quchoqlamoqchi bo'lib otilgan bir paytda uning yuzi qandaydir vahshiyona tus olganini ko'z oldiga keltirib, xayolga cho'mar va qizarar edi...

U birdaniga «Yoki...» dedi-yu to'xtab, jingalak sochlarini silkib qo'ydi... U o'zini ko'zguda ko'rди, uning yarim ochiq lablari bilan ko'zlarida o'ynab turgan allaqanday sirli tabassum, orqaga tashlangan boshi, shu onda unga nimanidir so'zlaganday bo'lib ko'rinnardiki, bundan o'zi ham cho'chib ketdi...

Nihoyat, u: «Yo'q, Xudo bilsin, bu ishning oqibati nima bo'lishini bilib, bu bilan hazillashish yaramaydi, dunyoda tinchlikdan yaxshisi yo'q», deb jazm qildi.

Xonimning tinchligiga xalal yetgan emas edi, lekin u xafa bo'ldi, hatto bir marta yig'lab ham oldi, buning sababini o'zi ham bilmasdi, biroq Bazarov haqorat qilganidan emasdi. U o'zini tahqirlangan-

day his qilmas, aksincha aybdor deb sezardi. Ayol har xil tumanli xayollar, biror yangilikni havas qilish ta'siri ostida umrning o'tib borishini anglash, o'zini ma'lum bir chegaraga borib yetishga, bu chegaraning narigi tomoniga bir nazar solishga va u yerda tagsiz jarlikkina emas, balki bo'shliq yoki bema'nilik borligini ko'rishga majbur qildi.

19



Odinsova o'zini yaxshi tutadigan har qanday xurofotlardan har qancha yuqori turadigan xotinlardan bo'lsa ham, tushlik qilish uchun yemakxonaga kelgan paytda biroz o'ng'aysiz ahvolga tushdi. Shunday bo'lsa-da, tushlik ancha yaxshi o'tdi. Shahardan endigina qaytgan Porfiriy Platonovich har xil latifalar aytib berdi. U shahar yangiliklari dan so'zlab, gubernator Burdalu, mabodo biron joyga shoshilinch sur'atda otliq yuborishga to'g'ri kelib qolsa deb, o'zining maxsus ishlarini bajaradi gan amaldorlariga shpor taqib yurishni buyurganini so'zlab berdi. Arkadiy bo'lsa, Katya bilan sekin so'zlashardi va shu orada ustalik bilan knyajnaga o'zini juda mo'min ko'rsatishga tirishardi. Bazarov hech gapga aralashmasdan, qovog'ini solib, jim o'tirardi. Odinsova uning jiddi-yu zahar, qovog'i soliq yuziga bir-ikki marta yer ostidan emas, tik qarab, ichida: «Yo'q... yo'q... yo'q...» deb qo'ydi. Tushlikdan so'ng, Odinsova butun ulfatlari bilan bog'chaga chiqdi va Bazarovning o'zi bilan so'zlashmoqchiliginи sezib, yo'dan bir necha qadam chetda to'xtadi. Bazarov unga yaqin kelib, lekin shunda ham ko'zlarini yerdan uzmay, sekkingina:

– Anna Sergeyevna, men sizdan uzr so'rashim kerak. Hoynahoy, mendan qattiq xafadirsiz? – dedi.

Odinsova unga javob berib:

– Yo‘q, men aslo sizdan xafa emasman, Yevgeniy Vasilyevich, o‘zimdan ranjib turibman, – dedi.

– Bu qaytaga yomonroq, har holda, men yetarli darajada jazoyimni tortdim. O‘zingizdan qolar gap yo‘q, men juda yomon bir ahvolda qoldim. Siz menga, ketib nima qilasiz, deb yozibsiz, ammo bu yerda qololmayman va qolishni istamayman ham. Ertaga meni bu yerdan topolmaysiz.

– Yevgeniy Vasilyevich, nega siz...

– Nega ketyapsan deysizmi?

– Yo‘q, men boshqa gap aytmoqchi edim.

– O‘tgan ishga salavot, Anna Sergeyevna... bugunmi, ertami, baribir bu sodir bo‘lishi kerak edi, demak ketishim kerak. Men faqat bir shart bilan qolishim mumkin, lekin bu shart hech qachon bo‘lmaydi. Surbetlik qilganim uchun meni kechiring, siz meni sevmaysiz va hech qachon sevolmaysiz.

Bazarovning qora qoshlari ostidagi ko‘zlar yalt etib ketdi.

Anna Sergeyevna unga hech nima deb javob bermadi. U: «Men bu odamdan qo‘rqaqman», deb o‘yladi.

Bazarov uning fikrini uqqanday:

– Xayr, yaxshi qoling, – deb, uy tomon ketdi.

Bazarovning ortidan izma-iz borayotgan Anna Sergeyevna Katyani chaqirib, uni qo‘ltiqlab oldi. U kechgacha Katyadan ajralmadı. Ayol qarta o‘ynashga unamadi, lekin ko‘p kulib qo‘yar, biroq kulgi uning oqargan va xijolat tortgan yuziga sira yarashmasdi. Buni ko‘rgan Arkadiy hayron bo‘lib, yoshlarga xos odat bilan doim uni kuzatar, hadeb: «O‘zi nima gap, qanday hodisa bo‘ldi ekan?», deb o‘z-o‘zidan so‘rardi. Bazarov bo‘lmasiga kirib, ichkaridan berkitib oldi, lekin choy ichgani chiqdi.

Anna Sergeyevna unga biror yoqimli so'z aytishni istar, biroq gapni nimadan boshlashni bilmasdi...

Uning bu qiyin ahvoldan qutulishiga kutilmagan bir hodisa sabab bo'ldi: eshik og'asi kirib, Sitnikovning kelganidan xabar berdi.

Bu yosh taraqqiy parvarning uyg'a qanday kirib kelganligini so'z bilan ta'riflash qiyin. O'ziga xos shilqimligi bilan qishloqda dovruq qozongan yigit o'ziga yaxshi tanish bo'lмаган va hech qachon chaqirilmagan bir ayolning uyiga qadam ranjida qilishga jazm etgani o'ziga ham erish tuyilganidan qizarib ketdi. Eshitishiga ko'ra, bu yerda shunday aqli va yaqin kishilari mehmon bo'lib turganini bilib kelsa ham, harqalay avvaldan yodlagan so'zları – afv so'rash-u salom berish bilan boshlanadigan nutqi o'rniga bir balolar deb chuldiradi. «Yevdoksiya Kukshina Anna Sergeyevnaning sihat-salomatligidan xabardor bo'lish uchun yubordi, Arkadiy Nikolayevichdan ta'rif-tavsiflarini ko'p eshitgan edim», dedi. Sitnikov shu so'zlarini gapirayotganida tutilib va shu qadar dovdirab qoldiki, hatto shlyapasining ustiga o'tirganini ham sezmadni. Uni hech kim haydab chiqazmagani, hatto Anna Sergeyevna xolasi-yu singlisi bilan tanish-tirgani uchun yigit darrov o'zini tutib oldi va hadeb qaltiray boshladи. Odатда, hayotda jirkanch bir mavjudotning kerakli vaqtida paydo bo'lishi g'oyat foydali, u taranglashgan torlarni bo'shashtiradi, o'zining ularga hamjinsligini eslatib, g'urur yoki manmanlik tuyg'ularini uyg'otadi. Sitnikov kelishi bilan o'tgan gaplar allaqachonlar bo'lib o'tganday, esdan chiqayozganday – hech nima bo'lмагандай bo'ldi. Ovqat har kungidan ko'proq yeildi, uplashga har kungidan yarim soat ilgari tarqalishdi.

Arkadiy ko'rpada yotgan joyida, yechinayotgan Bazarovga qarab:

– Bir mahal menga aytgan so'zlarining endi o'zingga qaytarib aytsam bo'ladi: «Nega muncha g'amginsan? Biror muqaddas burch ado etganga o'xshaysan-a?» – dedi.

Keyingi vaqtarda ikki do'st hazil aralash piching gaplar bilan bir-birlariga tegishadigan bo'lib qolgan edilar, bu esa ular o'rtasida yashirin bir norozilik yoki shubha borligini ko'rsatardi.

– Ertaga men otam oldiga jo'nayman, – dedi Bazarov.

Arkadiy yotgan joyidan sal ko'tarilib, tirsagiga tayanib oldi. Bu gapni eshitib, u ham ajablandi, ham nima sababdandir xursand bo'ldi.

– Ha, shuning uchun diqqat ekansan-a? – deb qo'ydi.

Bazarov bir esnab oldi-da:

– Qancha ko'p bilsang, shuncha tez qariysan, – dedi.
– Anna Sergeyevna nima bo'ladi? – deb davom etdi Arkadiy.

– Nima bo'lar edi?

– U senga javob berarmikin, demoqchiman?

– Men unga yollangan emasman-ku!

Arkadiy o'ylanib qoldi. Bazarov esa devor to-monga burilib yotdi.

Bir necha daqiqadan so'ng Arkadiy birdaniga:

– Yevgeniy! – dedi.
– Xo'sh?
– Ertaga men ham sen bilan jo'nayman.
Bazarov hech nima deb javob qaytarmadi.
– Lekin men uyimga ketaman, – dedi Arkadiy.
– Xoxlovlar durronghasigacha (viselki¹) birga bora-

¹ Viselki – qo'shni qishloqlarda yashovchi dehqonlarning bir qismi ajratib ko'chirilgan yangi qishloq.

miz-da, u yerda sen Fedotdan ot olasan. Men sizlarnikiga jon deb borardim-ku, lekin ularni ham, seni ham tashvishga solib qo'y may deyman. Keyin o'zing biznikiga yana qaytib kelarsan-ku!

— Men sizlarnikida narsalarimni qoldirib ketuvdim, — dedi Bazarov hamon devorga qarab yotganicha.

«Nimaga ketayapsan, deb so'ramaydi-ya? Men ham unga o'xshab, to'satdan ketayapman-ku, axir?» deb o'yladi Arkadiy. Keyin yana: «Darvoqe, men nima uchun ketmoqchiman-u, u nima uchun ketyapti ekan?» deb o'yladi. Arkadiy o'zining bu savoliga qanoat hosil etarlik bir javob berolmas, yuragi esa g'oyat uvishar edi. U odatlanib qolgani bu hayotdan ajralish o'zi uchun naqadar og'ir bo'lajagini sezар edi, lekin Bazarov ketgandan keyin yolg'iz qolishi ham uning uchun nechukdir g'alati tuyilardi. «Ularning o'ttasida bir gap o'tganga o'xshaydi». «Bazarov ketgandan keyin Anna Sergeyevnaning ko'z oldida qaqqayib turishimning nima keragi bor? Uni tozayam bezor qilaman-u, keyin so'nggi umidlarimdanam mahrum bo'lib qolaman», deb o'z-o'zicha o'ylardi. Arkadiy Anna Sergeyevnani ko'z oldiga keltirdi, birozdan keyin bu go'zal yosh tul ayolning siymosi orqali sekinasta boshqa bir chehra ko'rina boshladи.

Arkadiy boshini yostiqqa tiqib: «Katyaga ham uvol», deb shivirlab qo'ydi, ko'zidan yostiqqa bir tomchi yosh ham tomди. U birdaniga boshini ko'tarib, baland ovoz bilan:

— Bu ahmoq Sitnikov qaysi go'rdan ham paydo bo'lib qoldi? — dedi.

Bazarov avvalo bir qimirlab qo'ydi-da, keyin:

— Hali ham aqling kirmapti, uka. Sitnikov singarilar biz uchun juda zarur-da. Bilib qo'yki, menga

shunday telbalar kerak. Axir, xurmachalarni xum-donda Xudoning o'zi pishirmaydi-ku!.. – dedi.

Arkadiy o'yab:

«Eh-he!» – dedi va Bazarovning benihoya xud-binligini yaqqol fahmladi. «Demak, biz Xudo ekan-miz-da, ya'ni sen Xudo-yu, telba deganing yana men bo'lmay?»

Bazarov boyagi so'zni takrorlab to'ng'illadi:

– Beaqlsan hali, – dedi.

Ertasiga Arkadiy Anna Sergeyevnaga o'zining Bazarov bilan ketajagini bildirganida, Anna Sergeyevna bunga ko'pda ajablanmadidi. U parishon va charchaganday ko'rinaridi. Katya unga indamay, jiddiy qarab qo'ydi, knyajna esa, hatto ro'moli ostida cho'qinib oldi, buni Arkadiy payqamay qolmadi. Ammo Sitnikov butunlay shoshib qoldi. U bu safar slavyanchasiga emas, balki boshqacha tarzda, olifta kiyinib, endigina nonushta qilgani tushgan edi. Xuddi kechagina u olib kelgan ust-boshining ko'pligi bilan xizmatidagi xizmatkorni hayron qoldirgan bo'lsa-yu, to'satdan hamrohlari uni tashlab ketsa-ya! Sitnikov xuddi quyonday tipirchilab, ko'zlarini alanglatib, qo'rqa-pisa o'zining ham ketmoqchilagini aytdi. Odinsova uni qoling deb, qistab ham o'tirmadi.

U Arkadiyga qarab:

– Mening izvoshim juda tinch, sizni olib ketishim mumkin, Yevgeniy Vasiliyevich esa sizning tarantasingizda ketsin, shunday bo'lsa qulayroq ham bo'lar, – dedi.

– Ovora bo'lmaning, sizning yo'lingiz boshqa, biz-nikiga uzoqlik qiladi.

– Mayli, hech zarari yo'q, mening vaqtim yetarli, shu bilan birga o'sha tomonda ishim ham bor.

Arkadiy bu safar nafrat bilan:

– Ijara ishlaridir-da? – deb so‘radi.

Ammo Sitnikov shunday xafa ediki, u, hatto odatdagи singari kulib ham qo‘ymadi. U o‘zicha to‘ng‘illab:

– Menga ishonavering, izvoshda hammamizga ham joy yetadi, – dedi.

Anna Sergeyevna gapga aralashib:

– Sitnikov janoblarining ra'yini qaytarib, bu kishini xafa qilmang, – dedi.

Arkadiy Anna Sergeyevnaga qarab qo‘ydi-da, ma’noli bosh egdi.

Nonushtadan keyin mehmonlar ketdilar, Odinssova Bazarov bilan xayrlashayotib, unga qo‘lini cho‘zdi va:

– Biz yana ko‘risharmiz, shunday emasmi? – dedi.

– Ixtiyor o‘zlarida, – dedi Bazarov.

– Unday bo‘lsa, ko‘rishamiz.

Arkadiy zinapoyaga hammadan burun chiqdi. U Sitnikovning izvoshiga o‘tirdi. Eshik og‘asi yigitni hurmat bilan izvoshga chiqarib qo‘ydi. Arkadiy esa alamidan uni savlashga yoyinki yig‘lab yuborishga tayyor edi. Bazarov tarantasiga chiqdi. Xoxlov qishlog‘iga yetgach, Arkadiy musofirxona egasi Fedot ot qo‘shguncha kutib o‘tirdi va tarantas oldiga keldi-da, ilgarigiday jilmayib, Bazarovga qarab:

– Yevgeniy, meni ham o‘zing bilan birga olib ketsang-chi, senikiga boraman, – dedi.

Bazarov behafsala, istar-istamas:

– Chiq, o‘tir, – dedi.

O‘z izvoshi yonida hushtak chalib yurgan Sitnikov bu so‘zlarni eshitgach, anqayib qarab qoldi. Arkadiy esa buyumlarini izvoshdan oldi-da, Bazarov yoniga kelib o‘tirdi va o‘zining sobiq yo‘ldoshiga ta’zim qilib, izvoshchiga xitoban: «Hayda!» deb qichqirdi. Taran-

tas g'izillaganicha jo'nab ketdi va birpasda ko'zdan g'oyib bo'ldi... Sitnikov juda xijolat tortib, izvoshchiga qarab qo'ydi, lekin u loqayd qamchisini o'ynatib turar edi. Shunda Sitnikov izvoshiga sakrab chiqib oldi-da, o'tkinchi ikki dehqonga qarab: «Bosh kiyimlaringni kiyib olinglar, ahmoqlar!», deb do'q urib, shaharga jo'nab ketdi. Sitnikov shaharga juda kech yetib keldi. Ertasiga u Kukshinanikiga borib, ikki «yaramas, mutakabbir va johil»ni rosa so'kdi.

Arkadiy o'zining tarantasiga chiqib o'tirib olgach, Bazarovning qo'lini qattiq siqdi-da, anchaga-chcha indamay o'tirdi. Bazarov bu qo'l siqish-u su-kut saqlashning ham boisini tushungan va buning ma'nosiga yetganday ko'rinar edi. Bazarov o'tgan kuni kechasi mijja qoqmagan, chekmagan, bir necha kundan beri tuz totmagandi. Uning oriqlagan yuzi bostirib kiyilgan shapkasi ostidan cho'zilib chiqib turardi. Nihoyat, u gap boshlab:

– Qani, og'ayni, tamakidan cho'z-chi... Tilimga qara, nima balo, sarg'ayib ketibdimi? – dedi.

– Ha, sarg'ayibdi, – dedi Arkadiy.

– Ha... tamaki og'zimga yoqmayapti. Mazam yo'q.

– Sen chindan ham keyingi kunlarda ancha o'zgarib ketding.

– Zarari yo'q tuzalib qolarmiz, faqat shunisi borki, onam juda jonkuyar, qorin qo'ymasang va kuniga uch mahal ovqat yemasang hech qo'ymaydi. Ammo otam tuzuk, chunki u dunyoning achchiq-chuchugini totgan odam... Yo'q, chekib bo'lmaskan, – dedi-da, tamakini tashladi.

– Sening qo'rg'onning (yer-mulk) bu yerga yigirma besh chaqirim keladimi? – deb so'radi Arkadiy.

– Ha, yigirma besh chaqirim keladi. Buni mana bu donishmanddan so'rasang ham bo'ladi, – dedi

Bazarov Fedotning aravada o'tirgan xizmatkorini ko'rsatib.

Ammo donishmand: «Kim biladi deysiz, birov o'lchaptimi?», deb javob berdi va o'rtaga qo'shilgan otni: «Muncha bosh silkiysan», deb koyib borardi.

Bazarov yana gap boshlab:

– Shunaqa gaplar, siz uchun saboq, yosh do'stim, ibratli bir misol. Bu qanday safsata axir! Har bir kishi qil ustida, har daqiqa jarga yiqilay deb tursa-yu, u bo'lsa yana o'zi uchun har xil noma'qulchiliklar o'ylab chiqaradi, o'z hayotini o'zi buzadi, – dedi.

– Sen buni nimaga kinoya qilib gapiryapsan? – deb so'radi Arkadiy.

– Men hech nimaga kinoya qilayotganim yo'q, men to'g'risini aftyapman, biz ikkovimiz ham o'zimizni juda yomon tutdik. Buni tushuntirib o'tirishning hujati yo'q! Lekin men kasalxonadayoq, sezgan edim, kimki og'riqqa jahl qilsa, kasallikni, albatta yengadi.

– Gapingga tushunolmayapman, hech nima dan shikoyat qilarlik joying yo'q edi shekilli, – dedi Arkadiy.

– Agar gapimga tushunolmasang, men senga shuni aytay: menimcha, ayol kishiga tirnog'ingni boy bergandan ko'ra, ko'chada tosh chaqib o'tirganing yaxshiroq. Bu hammasi... – Bazarov bu yerda sevimli «xom xayol» so'zini aytishiga sal qoldi, lekin aytay deganda, o'zini tutib. – Safsata, – dedi. – Hozir menga ishonmaysan, lekin senga shuni aytay: mana, ikkovi-miz xotinlar suhabatiga kirib qoldik, ancha ko'ngilli bo'ldi. Lekin bunday suhabatni tashlab ketish – issiq kundasov uvgaga cho'milish bilan baravar. Erkak-larning bunday bema'ni ishlar bilan shug'ullanishga vaqt yo'q, ispan xalqining: «Er – berahm bo'lishi lozim», degan go'zal bir maqoli bor. – Bazarov ara-

vakashga qarab: – mana sen aqlli kishisan, ayt-chi, xotining bormi? – deb so'radi.

Ko'zlari ojiz aravakash yalpoq yuzini do'stlarga o'girdi-da:

– Xotining deysizmi? Bor. Nima uchun xotinim bo'lmasin?

– Sen uni urasanmi?

– Xotinimnimi? Ha, endi bo'lib turadi, lekin sa-babsiz urmayman.

– Juda soz. U-chi, seni uradimi?

U otlar tizginini torta boshladi.

– G'alati gaplarni gapiroqapsiz-a, taqsir. Hazil-lashishni yaxshi ko'rasizmi, deyman-a... – aftidan aravakash xafa bo'ldi shekilli.

– Eshitayapsanmi, Arkadiy Nikolayevich? Sen bilan meni savalashib jo'natishdi... O'qimishli odam bo'lishning oqibati mana shu ekan-da.

Arkadiy zo'rma-zo'raki kulib yubordi. Bazarov esa teskari o'girildi-da, butun yo'l bo'yи sira og'iz ochmadi.

Yigirma besh chaqirim yo'l Arkadiyga xuddi ellik chaqirimday bo'lib ko'rindi. Nihoyat, suyri adir etagida Bazarovning ota-onasi yashaydigan kichki-na bir qishloq ham ko'rindi. Bu makon yonida yosh qayinzor va uning ichida tomi poxol bilan yopilgan bir dvoryan uyi ko'riniq turardi. Qishloq etagidagi birinchi uy yonida shapka kiygan ikki erkak bir-biri bilan so'kishardi. Ularning biri: «O'zing kap-katta to'ng'izsan-u, lekin cho'chqa bolasidan bat-tarsan», deb ikkinchisini so'kardi. Ikkinchisi esa: «Senmi, sening xotining jodugar», der edi.

Bazarov Arkadiyga murojaat qilib:

– Bularning bir-biri bilan erkin muomala qili-shidan va qochiriq gaplaridan otamning qattiqqo'l

emasligini bilishing mumkin. Mana, u zinapoyaga chiqdi, qo'ng'iroq tovushini eshitgan bo'lsa kerak. Otamning o'zi, xuddi o'zi, qaddi-bastidan taniyman. Obbo! Ancha qarib qolibdi-ku, bechora! – dedi.

20

Bazarov tarantasdan boshini chiqardi, Arkadiy esa o'rtog'ining yelkasidan bo'ynini cho'zib, qo'rg'onining zinapoyasida, sochlari paxmaygan, qirra burun, etagi ochiq harbiy pidjak kiygan, qotma-yu novcha bir kishini ko'rди. U oyoqlarini kerib, oftobdan ko'zlarini qisib, uzun trubka chekib turar edi.

Otlar to'xtadi.

Bazarovning otasi, hamon chekib, trubkasini barmoqlari oralarida o'ynatib:

– Kelar ekansan-a! Qani, buyoqqa tush, bir quchoqlashaylik-chi, – dedi.

U o'g'lini bag'riga bosdi. Ichkaridan ayol kishining «Yenyusha, Yenyusha» deb chaqirgan ingichka qal-tiroq ovozi eshitildi. Eshik lang ochilib, bo'sag'ada ustiga kalta ola kofta va boshiga oppoq chepchik kiygan, pakana, dum-dumaloq bir kampir ko'rindi. U «voy» dedi, oyoqlari qaltiradi, agar Bazarov kelib ushlab qolmaganida, yiqilib ketishi aniq edi. Kampir yum-shoq va semiz qo'llari bilan darhol Bazarovning bo'yindan quchdi, boshini uning ko'kragiga qo'ydi. Hamma jum bo'ldi. Faqat kampirning piqillagani eshililardi.

Keksa Bazarov og'ir nafas olar, ko'zlar boyagini dan ham battar jimirlar edi.

U, tarantas oldida indamay turgan Arkadiy bilan ko'z urishtirib olib:

– Bo'ldi, bo'ldi Arisha! Bas qil, yig'inining xosiyati yo'q, – dedi. Aravakash kampirga qarab turolmay, orqasiga o'girildi.

– Oh, Vasiliy Ivanovich, – dedi kampir arang, – jonginam, qo'zichog'im Yenyushani qachondan beri endi ko'rdim va qo'llarini olmay, ko'z yoshlaridan ho'l bo'lgan muloyim yuzini Bazarovdan tortdi, ko'zlarini mo'ltilaratib, allaqanday quvonch bilan unga tag'in yopishib oldi.

– Ha, albatta, tabiiy hol, – dedi Vasiliy Ivanovich: – yuringlar, uyga kiraylik, mana Yevgeniy bilan birga mehmon ham kelibdilar, keyin Arkadiyga qarab, xiyol ta'zim qildi. – Kechirasiz, o'zingiz bilasiz-ku, xotinlarning ko'ngli bo'sh bo'ladi, buning ustiga onalik mehri ham... – dedi.

Lekin lablari titrar, qoshlari uchar... aftidan, o'zini tutib olmoqchi va hech bir hayajonlanmagan-day ko'rinxinoqchi bo'lar edi. Arkadiy ham ta'zim qildi.

– Rostdanam, yuring, onajon, uyga kiraylik, – dedi Bazarov va holdan toygan kampirni uyga olib kirdi, uni yumshoq kursiga o'tqizdi-da, otasi bilan tezgina yana bir marta quchoqlashib oldi va keyin uni Arkadiy bilan tanishtirdi.

Vasiliy Ivanovich Arkadiy bilan tanisharkan:

– Tanishganimizga behad hursandman, biroq aybga buyurmaysiz: biznikida hamma narsa harbiycha, oddiy tartibda. Arina Vlasyevna, bo'ldi endi o'zingni tutgin. Mehmon ayb qiladilar, – dedi.

Kampir yig'i aralash:

– Voy, ismlari nima? – deb qo'ydi.

Vasiliy Ivanovich viqor bilan:

– Arkadiy Nikolayevich, – deb uning nomini aytdi.

Kampir burnini qoqdi-da, boshini dam o'ngga, dam chapga qiyshaytirib, ko'zlarini birma-bir yaxshilab artib olganidan keyin:

– Men befahmni kechiring. Kechiring meni, qo'zichog'imni ko'rolmay olib ketamanmi, deb o'ylovdim, – dedi.

– Mana, eson-omon ko‘rishdik bekachim, – dedi Vasiliy Ivanovich. Keyin eshik orqasida hurkib qarab turgan, och qizil chit ko‘ylak kiygan o‘n uch yashar chamasidagi yalang oyoq bir qizga qarab: – Tanyushka, barinaga patnisda bir piyola suv olib kel, eshitdingmi? – dedi. So‘ngra mehmonlarga murojaat qilib, allaqanday eskicha hazil bilan: – siz, janoblar, iste‘fodagi keksa jangchining uyiga marhamat qilsalaring, devdim, – deb qo‘shib qo‘ydi.

Arina Vlasyevna ingrab:

– Yenyusham, kel, yana bir quchoqlay, – dedi. Bazarov unga tomon engashdi: – qanday kelishgan yigit bo‘libsan, bolam.

Vasiliy Ivanovich uning so‘zini bo‘lib:

– Kelishganga-ku kelishgan emas, lekin fransuzlar aytmishli ommfe¹ bo‘lgan... Endi, deyman, sen Arina Vlasyevna, o‘zingning onalik mehringni qondirish bilan, qadrli mehmonlaringning qornini to‘yg‘azish to‘g‘risida ham g‘am yesang bo‘lardi, deb o‘layman, chunki o‘zingga ma’lum. Quruq gap quloqqa yoqmaydi.

Kampir kursidan turdi.

– Hozir Vasiliy Ivanovich, hozir dasturxon yozildi, o‘zim oshxonaga chiqib, samovar qo‘ydiraman. Hammasi bo‘ladi, hammasi. Axir uch yildan beri uni ko‘rmagan bo‘lsam, yedirmagan bo‘lsam, oson tutasizmi, axir!

– Xo‘p dedik-ku, lekin ishingni bilib qil, uyalib qolma. Janoblar, qani marhamat. Ana Timofeyich ham sen bilan ko‘rishgani keldi, Yevgeniy. Bu imonsiz ham xursand bo‘lganga o‘xshaydi. Xo‘sh, xursand bo‘ldingmi? Qani, buyoqqa marhamat qilinglar.

¹ Ommfe so‘zi bu yerda home fait o‘rnida ishlatilgan bo‘lib, (fransuzcha) – yetilgan, voyaga yetgan erkak degani demakdir.

Shunday qilib, Vasiliy Ivanovich oyoq kiyimini tapillatib, olg'a bosdi.

Uning uyi, bor-yo'g'i oltita kichik-kichik bo'lmasdan iborat edi. Ulardan biri, ya'ni hozir mehmonlarni olib ketayotgani, xona deb atalar edi. Changdan, xuddi tutundan qorayganday, qorayib ketgan qog'oz uyilib yotgan yo'g'on oyoqli stol butun ikki deraza orasini egallab olgan edi. Devorlarda turk miltiqlari, qamchilar, qilich, ikki geografiya xaritasi, qandaydir anatomik rasmlar, Gufelandning¹ surati, qora ramkaga, oyna ichiga solingan – birovning ismi yozilgan diplom osilib turar edi. Qayindan ishlangan ikki kat-takon javon orasida, bir xil yerlari botib va yirtilib ketgan charm divan turardi. Tokchalarda kitoblar, qutichalar, qotirib qo'yilgan qushlar, shisha idishlar, betartib ravishda uyilib yotar edi. Bir burchakda siniq elektr mashinasi turardi.

– Men sizni ogohlantirgan edim, aziz mehmonim, biz mana shunday faqirona yashaymiz... – dedi Vasiliy Ivanovich.

Bazarov uning so'zini bo'lib:

– Qo'ysangiz-chi, uzr so'rashingiz nimasi! Badavlat kun kechirmasligimizni, uyimizning sa-roymasligini Kirsanov juda yaxshi biladi. Uni qayoqqa joylashtiramiz, shundan gapiring, – dedi.

– Shoshmagin, axir, Yevgeniy, mening yon hujramda juda yaxshi bir bo'lma bor, mehmonga juda qulay.

– Yon hujrang ham bormi hali?

Timofeyich gapga aralashib:

– Ha, hammomdag'i-chi, – dedi.

– Hammom yonidagi degin, – dedi Vasiliy Ivanovich, – hozir yoz vaqt... men hozir u yerga borib,

¹ Kristor Vilgelim Gufeland – 1762–1836-yillarda yashagan mashhur nemis doktori.

tayinlab kelay. Sen-chi Timofeyich, mehmonlar buyumlarini ichkariga olib kirgin. Senga, Yevgeniy, albatta o'z xonamni beraman. Suum ciuque¹.

Vasiliy Ivanovich chiqib ketishi bilan Bazarov:

– Ana xolos! Alomat chol-da, xuddi sening otanga o'xshaydi-yu, lekin sal boshqacharoq, juda sergap, – dedi.

– Onang ham juda yaxshi ayol, – deb qo'ydi Arkadiy,

– Onam sodda xotinlardan, hali qarab tur, bizni qanday mehmon qiladi.

Shu orada Bazarovning jomadonini olib kirgan Timofeyich:

– Sizlarni bugun kelmaysizlar, deb o'ylagandik taqsirlar, shu sababdan so'qim go'shti olib kelishmapti, – dedi.

– So'qim go'shtisiz ham bo'laveradi, yo'qning aybi yo'q, kambag'allik ayb emas, deydilar.

Arkadiy to'satdan:

– Otangga necha jon qaraydi? – deb so'radi.

– Mulk uniki emas, onamniki, adashmayotgan bo'lsam, o'n besh jon qaraydi.

– Yigirma ikki kishi deyavering, – dedi Timofeyich noroziroq bo'lib, poyabzalining shipillashi eshitilib, yana Vasiliy Ivanovich paydo bo'ldi. U tantana bilan:

– Bir necha daqiqadan keyin bo'lmangiz tayyor boladi, Arkadiy Nikolayevich, ismi sharifingiz shunday edi shekilli? Mana sizga xizmatkor ham tayyor, – dedi u o'zi bilan birga ergashtirib kelgan bolani ko'rsatib. Sochlari kalta qirqilgan xizmatkorning egnidagi uvadasi chiqqan havorang kaftanning tirsaklari yirtilib ketgandi, oyog'iga esa birovning katta etigini kiyib olgandi. – Uning nomi Fedka. O'g'lim

¹ Suum ciuque – har kimga o'ziniki (lotincha).

man etsa ham yana takror aytaman, aybga buyurmaysiz. Aytgandek, mushtukka tamaki solishni biladi. Tamaki cheksangiz kerak-a?

– Men ko'proq sigara chekaman, – dedi Arkadiy.

– Zap ish qilarkansiz. Menam sigarani yaxshi ko'raman, lekin bizning joylarda uni topish juda ham qiyin.

– Bulbuldek sayrashingiz yetar endi, – deb Bazarov yana otasining so'zini bo'ldi, – yaxshisi, mana bu yerga, divanga o'tiring, diydoringizga to'yay, axir.

Vasiliy Ivanovich bir kuldii-da, divanga o'tirdi. Uning afti o'g'linikiga juda o'xshardi, faqat peshanasi torroq, og'zi esa kattaroq edi. Vasiliy Ivanovich tinmay, harakat qilar, xuddi kiyimi qo'lltig'ini siqayotganday yelkalarini qisar, ko'zlarini pirpiratar, yo'talar va barmoqlarini o'ynatib qo'yari edi, o'g'li esa beparvo, og'ir tabiatliligi bilan ajralib turardi.

Vasiliy Ivanovich o'g'lining so'zini qaytarib:

– Sayrash degin-a! – dedi. – Sen, Yevgeniy, o'ylamagin, biz mana shunday bir go'shada, uzoq yerda yashaymiz deb, mehmonga nolimoqchi emasman. Aksincha, fikrlaydigan odam uchun uzoq-yaqin degan tushunchaning o'zi bo'lmaydi – men shunday o'layman. Shuni ham aytayki, har holda mumkin qadar mog'or bosmaslikka, ya'ni zamonamizdan orqada qolib ketmaslikka harakat qilaman.

Vasiliy Ivanovich, Arkadiyga bo'lma tayyorlash uchun chopib yurgan mahalida cho'ntagiga solgan sariq yangi shoyi dastro'molini olib, o'zini yelpib, so'zida davom etdi:

– Masalan, o'zimga jabr qilib bo'lsa ham, erkak-larga yordam qilay deb, ularni obrokga o'tkazganim va yerlarimni yarim hosil baravariga ularga berib qo'yganim to'g'risida gapirib ham o'tirmayman. Men

buni o'z burchim deb bilar edim, boshqa yer ega-lari bu to'g'rida o'ylab ham ko'rмаган bo'salar-da, bunday ahvolda kishilik ahlining o'zi shunga majbur qiladi. Men ilm va ma'rifat to'g'risida gapiryapman.

– Shunday, mana men sizda 1855-yilgi «Drug zdraviya» jurnali borligini ko'rib turibman, – dedi Bazarov.

Vasiliy Ivanovich darrov:

– Menga uni qadrdon oshnam yuborib turadi, – dedi. Keyin ko'proq Arkadiyga bir nigoh tashladi-yu, javon ustidagi ganchdan yasalgan raqamlik to'rtburchaklarga bo'lingan kichik bir bosh su-yagini ko'rsatib: – Biroq biz, masalan, frenologiya¹ haqida ham tushunchaga egamiz, biz Shendeyn², Rademaxerlardan³ ham uncha-muncha xabar-dormiz, – deb qo'shib qo'ydi.

– *** gubernasida hali ham Rademaxerga ishoni-shadimi? – deb so'radi Bazarov.

Vasiliy Ivanovichning yo'tali tutib qoldi.

– Gubernada... Albatta, siz janoblar, yaxshiroq bilsalaring kerak, sizlarga yetib olishga yo'l bo'sin? Axir, sizlar bizning o'rinnbosarlarimiz-ku. Mening davrimda ham biron gumoralist⁴ Hoffman⁵ yoyinki

¹ Frenologiya – odam tabiatini bosh suyagining tuzilishiga qarab belgilab berishi mumkinligini asoslaydigan fan.

² Kristofer Shendeyn – kasalliklarning klassifikatsiyasini tuzishga tutingan nemis doktori (1793–1861-yillar).

³ Yozef Mengeli Rademacher (1772–1849-yillar) – nemis doktori. U o'z ilmiy asarlarida o'ziga qadar bo'lgan doktorlik ilmini inkor qilgan.

⁴ Gumoralist – kasalliklar uzviy hujayralarning faoliyati bilan zohir bo'lishini tushuntiradigan fan.

⁵ Fridrik Hoffman (1660–1742-yillar) – mashhur nemis doktori; u hozirda ham iste'mol qilinadigan mashhur «Hoffman tomchisi» nom'i dorini ixtiro qilgan.

vitalizmni¹ targ'ib qiluvchi Broun² singarilar kulgiday bo'lib ko'rindi, vaholanki zamonasida ular ham shuhrat qozongan. Hozirda sizlarda Rademaxer o'rniga biror yangisi chiqar ekan, unga bosh egasizlar, lekin yigirma yildan keyin esa uning ustidan kulishlari, ehtimol.

– Men senga shuni aytib qo'yay, biz hozir umuman tibbiyotni kulgi deb hisoblaymiz va hech bir kimsa oldida bosh egmaymiz, – dedi Bazarov.

– Bu nima degan gap? Axir sen doktor bo'lmoqchi eding-ku!

– Bo'lmoqchiman, lekin biri ikkinchisiga xalaqit bermaydi. Vasiliy Ivanovich, ichida hali issiq kuli bor trubkasiga o'rta barmog'ini tiqdi-da, so'zida davom etdi. – Ehtimol, shundaydir, lekin bahslashib o'tirmayman, o'zim kimman? Iste'fo bergen shtab – tabib, volatuman³ xolos; hozirda esa agronom bo'lib oldim. Men bobongiz qo'lida xizmat qilganman, – dedi u Arkadiyga qarab. – Shunday, o'z davrimda ko'pni ko'rdim. Qanday joylarda bo'lmadim, kimlar bilang duch kelmadim! Men knyaz Vittenshteyn⁴ bilan Jukovskiyning⁵ tomirlarini ushlab ko'rganman. Men o'sha janubiy qo'shindagi

¹ Vitalizm – har bir organizmining tirik bo'lish sababini jon deb bilgan idealistik bir ta'limot.

² Denner Broun – 1735 – 1788-yillardagi ingliz doktori. U har bir kasallikning zohir bo'lishiga qiziqishning ko'pligi yoki ozligi sabab bo'ladi, deb da'vo qilgan.

³ Volatu – harbiy doktorlarning bir darajasi.

⁴ Pyotr Xristianovich Vittenshteyn – rus general-feldmarshali. U 1812-yilda fransuz imperatori Napoleon I ga qarshi bo'lgan jangda dong chiqargan.

⁵ Vasiliy Andreyevich Jukovskiy – mashhur rus shoiri.

to‘rtinchilarning¹, tushunsangiz kerak (shu o‘rinda Vasiliy Ivanovich labini tishlab qo‘ydi), hammasini besh barmog‘imdek bilar edim. Ha, mening ishim faqat bir chekkada turish edi. Lantsetimnni² bilardim xolos, vassalom! Bobongiz esa juda oliy-janob bir kishi, chinakam harbiy odam edi.

– To‘g‘risi, galvars bir odam edi, desangiz-chi, – deb qo‘ydi Bazarov erinchoqlik bilan.

– Voy, Yevgeniy, shunchalik o‘ylamasdan gapirasan-a! To‘g‘ri, general Kirsanov shunday odamlardan ediki...

Bazarov uning so‘zini bo‘lib:

– Mayli, bu gaplarni qo‘y. Men bu yerga kela-yotganimda, qayinzoringni ko‘rib, juda xursand bo‘ldim, yaxshi bo‘y cho‘zibdi, – dedi.

Vasiliy Ivanovich jonlanib ketdi.

– Bog‘imning hozir qandayligini bir ko‘tsang edi! Har bir daraxtni o‘z qo‘lim bilan o‘tqazdim. Meva daraxtlari ham, rezavor ham, har xil dori o‘simpliklar ham bor. Siz, janob yoshlar, nima desalaring denglar-u, lekin keksa Parasskiyning³ «In herbis, verbis et lapidibus»⁴ degan so‘zlari bilan juda avliyolik qilgan. Bilasan, men davolash ishidan voz kechganman, lekin haftada bir-ikki marta eski hunarni ishlatalishga to‘g‘ri keladi. Maslahat so‘rab kelganlar bor, ularni qanday qilib haydab yuboraman. Kambag‘allarning najot istab kelishlari bo‘ladi. Undan keyin bu yerlarda hech bir doktor yo‘q, shu yerlik qo‘shnilardan biri, haligi iste’fo

¹ To‘rtinchilar – 1825-yilning 14-dekabrida qo‘zg‘olon ko‘targan dekabristlar. Ularning «Janubiy jamiyat» a’zolari janubiy qo‘shinida xizmat qilganlar.

² Lantsetimni – jarrohlikda ishlataladigan pichoq, tig‘, nishtar.

³ Parasskiy – Shveysariyadagi mashhur doktor va tarbiyachi.

⁴ «In herbis, verbis et lapidibus» – «O’simpliklarda, gaplarda va toshlarda».

bergan bir mayor bor, u ham davoleydi. Men bu kishi doktorlikka o'qiganmi, deb so'rasam, yo'q, o'qigan emas, bu kishi ko'proq buni filantropiya¹ yuzasidan qiladi, deb aytadilar. Ha-ha-ha, filantropiya yuzasidan qanday? Buni qarang-a! Ha-ha-ha-ha!

– Fedka! Trubkamga tamaki solib ber! – dedi Bazarov qovog'ini solib.

Vasiliy Ivanovich qizishib, so'zini davom ettirdi:

– Bu yerdagi kasallar oldiga boshqa bir doktor kelib-ketib turadi. Kasal esa allaqachon qulog'i tagida qolgan bo'ladi, shuning uchun kasalning yaqin kishisi doktorni ichkariga kiritmaydi, endi kerak emas deb qaytaradi. Bunday bo'lishini kutmagan doktor uyalib qoladi va: «Qalay, o'lim oldidan marhumning hiqichog'i tutdimi?» deb so'raydi. «Ha, tutdi». «Ko'p tutdimi?». «Ha». «Ha, unday bo'lsa, yaxshi bo'lipti», deb kelgan tomoniga qarab jo'nab ketaveradi. Ha-ha-ha!

Chol yakka o'zi kului, Arkadiy jilmayganday bo'ldi. Bazarov esa trubkasini tortibgina qo'ydi. Suhbat shu tarzda bir soatcha davom etdi. Arkadiy o'zining bo'lmasiga ham borib keldi. Bu bo'lma hammom yonida bo'lib, toza-ozoda edi. Nihoyat, Tanyushka kirib, ovqat tayyor bo'lganini bildirdi.

Eng oldin Vasiliy Ivanovich turdi.

– Qani, marhamat qilinglar, mehmonlar! Zeriktirgan bo'lsam, kechirasizlar. Kampirimiz shoyad sizlarni mendan ziyodaroq kutib olib, xushvaqt qilsa, – dedi.

Tushlik shoshilinch tayyorlangan bo'lsa-da, dasturxon to'kin, faqat maydan biroz ayb topish

¹ Filantropiya – boylarning kambag'allarga ikki yuzlama-chilik qilib ko'rsatadigan arzimas moddiy yordamlari.

mumkin edi. Timofeyichning shahardagi tanish savdogaridan sotib olgan qoramtil mayidan saqich yoki mis mazasi kelib turar edi. Ovqat mahali pashshalar ham tinchlik bermadi. Boshqa vaqtarda bu pashshalarni asrandi bola katta novda bilan qo'rib turar edi, ammo bu safar Vasiliy Ivanovich yosh avlodlarning tanasidan qo'rqib, unga javob berib yuborgandi. Arina Vlasyevna yasanib ham ulgurgan, u ipak tasmaли katta chepchik kiyib, yelkasiga gulli zangor ro'mol solgan edi. U o'g'li Yenyushani ko'rgan zamonni yana yig'lab yubordi, biroq bu safar eriga uni yupatishga to'g'ri kelmadi, chunki ro'molni dog' qilmaslik uchun ko'z yoshlarni o'zi tezda artib qo'ya qoldi. Ovqatni yolg'iz yoshlari yer edi, xolos, chunki uy egalari allaqachon tamaddi qilib bo'lishgandi. Mehmonlarga Fedka xizmat qilib turar, lekin qo'pol etigi uni qiynagan bo'lsa kerak, unga Anfisushka nomli ko'zlarini g'ilay, erkakshoda xotin yordamlashardi. U uyda omborga qarash, parranda boqish-u kir yuvish ishlarini bajarardi. Vasiliy Ivanovich ovqat mahali xonada u yoqdan-bu yoqqa yurib, beixtiyor va, hattoki, xursand bir chehra bilan Napoleon siyosati-yu, Italiya masalasining chuvalashib ketishi oqibatida ko'nglida paydo bo'lgan xavotilaridan gapirar edi. Arina Vlasyevna Arkadiyga e'tibor qilmasdi, uni «oling-oling» deb qistamasdi ham. Bo'rtib chiqqan lablari, ikki chakkasi-yu qoshi ustidagi xoli, dumaloq yuzi ayolning oq ko'ngil ayolligidan dalolat berib turar, u kichkina mushtumiga tirab, o'g'lidan sira ko'zini uzmay, har zamon oh tortar edi. Uning butun fikr-yodi o'g'lining qancha vaqt-

ga kelganini bilishda bo'lsa-da, biroq so'rashga botina olmasdi. «Ikki kungagina keldim desa-ya, unda nima bo'ladi», deb o'ylar va yuragi orziqib ketardi. Qovurma yegilgandan keyin Vasiliy Ivanovich chiqib ketib, og'zi ochilgan yarim shisha may olib keldi. U: «Garchi biz qorong'i go'shada yashasak ham, bunday tantanali vaqtarda o'zimizni xursand qiladigan ne'matlarimiz bor», dedi. U, to'rt qadahni to'ldirib, may quyib, «bebaho mehmonlarga» sog'liq tilab, o'zining qadahini harbiylarcha, bir ko'tarishda ichib yubordi. Kichik qadahdagi mayning bir tomchisini ham qoldirmay ichishga Arina Vlasyevnani majbur qildi. Murabboga navbat yetganda, Arkadiyning shirinlikka tobi bo'lmasa ham, uy egalarining ko'ngli-yu hurmati uchun toza pishirilgan to'rt xil murabbodan birma-bir tatib ko'rishga majbur bo'ldi. Bazarov esa murabbodan butunlay bosh tortib, darhol sigara chekdi. Keyin qaymoq, moy va teshik kulchalar bilan choy keltirildi. Choydan keyin Vasiliy Ivanovich kechki manzarani tomosha qildirish uchun hammani boqqa olib chiqdi. U bir o'rindiq oldidan o'tib ketayotganda, Arkadiyning ulog'iga shivirlab:

– Shu yerda men quyoshning botishiga qarab, falsafa sotib o'tirishni yaxshi ko'raman, sahroyi odamning odati shunaqa bo'ladi, huv anavi yerda Goratsiy¹ yaxshi ko'rgan daraxtlardan bir nechta-sini o'tqazib qo'yganman, – dedi.

Bu gapni eshitgan Bazarov:

– Qanaqa daraxt? – deb so'radi.

– Nima edi... akatsiya daraxtlari-da.

Bazarov esnay boshladi.

¹ Kvint Goratsiy Flag – mashhur Italian shoiri.

– Endi siyosatchilar orom bog'ini sayr qilishsa ham bo'lar deyman, – dedi Vasiliy Ivanovich.

Bazarov uning so'zini ilib olib:

– Ya'ni uqlash vaqtı demoqchisan-da, gaping to'g'ri, darhaqiqat uqlash vaqtı bo'ldi, – dedi.

Bazarov onasi bilan xayrlashib, uning peshanasidan o'pdi, onasi esa uni quchoqlab, orqasidan kishi bilmas uzoq duo qilib turdi. Vasiliy Ivanovich Arkadiyni bo'lmasiga kuzatib bordi va uning ham «shunday baxtli yoshlik chog'larida o'zi tatib ko'rgan rohatni» tatishini tiladi. Arkadiy hammom yonidagi bo'lmasida haqiqatan ham yaxshi uxladi. Undan yalpiz hidi kelar, pechka orqasida xuddi Arkadiyni allalagan kabi ikki chigirtka tarafmataraf chirillab turardi. Vasiliy Ivanovich Arkadiyning oldidan o'z xonasiga qaytib keldi-da, o'g'li bilan biroz gurunglashib o'tirmoqchi bo'lib, divanda yotgan jigargo'shasining oyoq tomoniga o'tirdi, biroq Bazarov uyqum kelayapti, deb uni jo'natdi, ammo o'zi ertalabgacha uqlamay chiqdi. Ko'zlarini katta ochib, g'azablanib, qorong'ilikka qarar edi; bolalik xotiralari to'la hukmronlik qilmas, keyingi achchiq taassurotlaridan hali qutulganicha yo'q edi.

Arina Vlasyevna avvalo xo'p ibodat qildi, keyin Anfisushka bilan uzoq, juda uzoq suhbatlashib o'tirdi. Anfisushka esa boy xotin oldida xuddi qoq-qan qoziqdek tik turgancha, o'zining yagona ko'zini unga tikib, Yevgeniy Vasilyevich haqidagi butun fikr va mulohazalarini allaqanday sirli shivirlash bilan unga yetkazardi. May va sigara tutuni shodlikdan sarmast kampirning boshini butkul aylantirdi. Eri u bilan gaplashmoqchi bo'lgan edi-yu, lekin qo'l siltab, indamay qo'ya qoldi.

Arina Vlasyevna burungi zamoning haqiqiy rus dvoryan xotinlaridan edi. U bundan bir-ikki yuz yil

ilgari, qadimgi Moskva davrlarida yashasa bo'lar edi. U taqvodor-u yumshoq ko'ngil bo'lib, har xil irim-sirim, bashorat, duo-yu tushlarga ishonar, ins-u jins, balo-qazolardan qo'rqrar, emi-dimi, issiq-sovuqlarga ixlos qo'ygandi. U yaqin orada oxir zamon kelishiga ishonar edi. Agar Pasxa tunida butxonada shamlar o'chmasa – qora bug'doy yaxshi unum berishiga; mabodo qo'ziqoringa odamning ko'zi tushsa – u butunlay o'smasligiga, ajina suv bor joyni yaxshi ko'rishiga, yahudiy ko'kragida qon dog'i bo'lishiga ko'r-ko'rona ishonardi. U qurbaqa, zuluk, chumchuq zotidan, momaqaldiroq, sovuq suv, shamol bo'lishidan; ot, echki, sariq odam-u qora mushuklardan o'lguday qo'rqrar, chigirtka-yu itlarni iflos hayvonlar qatoriga qo'shardi. Arina Vlasyevna na kaptar, na quyon go'shti, na qisqichbaqa va na pishloq yerdi. So'yilgan tarvuz Ioanna Predtechining¹ boshini esiga solgani uchun ham og'ziga ololmas, dengiz baqasi haqida seskanmasdan gapirolmas, ovqat yeyishni yaxshi ko'rар, ro'zani kanda qilmasdi. Bir kecha-kunduzda o'n soat orom olardi. Agar Vasiliy Ivanovichning boshi og'rib qolsa, mijja qoqmay o'tirib chiqardi. U umrida «Aleksis»² yoki «Ormondagi kulba»dan bo'lak hech bir kitobni o'qimagan, yilda bir, ko'p bo'lsa ikki marta xat yozib turar edi; o'zi qo'l urmasa ham va umuman joyidan istar-istamas qimirlasa ham, lekin xo'jalik bobida, ya'ni qatirma qilish va murabbo pishirishni yaxshi bilar edi. Arina Vlasyevna juda mehribon va o'zicha befahm xotinlardan

¹ Glavaa Ioanna Predtechi – nasroniyalar uni payg'ambar sifatida e'tirof qilishadi. Judeya qiroli Irod Antipa tomonidan uning boshi tanasidan judo qilingan.

² Fransuz yozuvchisi Dikre-Dimen tomonidan yozilgan qadimiy hissiyotga boy hikoya(1761–1819-yillar).

emasdi. U dunyoda buyruq beruvchi xo'jayinlar bilan birga xizmat qiluvchi oddiy fuqaro borligini bilardi, shuning uchun xushomad qilishga ham, ta'zim qilishga ham nafrat ko'zi bilan qaramas edi, biroq o'ziga tobe odamlar bilan muloyim-u beozor muomala qilar; hech bir gadoyni xayr-ehsonsiz jo'natmas, g'iybatni yaxshi ko'rsa-da, lekin hech qachon birovni yomonlamasdi. U yoshligida juda yoqimtoy qiz bo'lib, klavikard chalar va oz-moz fransuzchadan xabari bor edi, lekin o'z ixtiyoridan tashqari tekkan eri bilan ko'p yillar shaharma-shahar yurish natijasida semirib ketgan va musiqa-yu fransuz tilini esidan chiqarib qo'ygan edi. U o'g'lini jonidan ortiq ko'rар, lekin undan juda qo'rqardi. Yer-suvni idora qilib turishni Vasiliy Ivanovich ixtiyoriga topshirgach, bundan buyon hech ishga aralashmas edi, agarda chol kelgusida bo'ladigan islohotlar va o'z rejalaridan so'z ochib qolsa, u oh tortib, ro'molchasini siltab, uni yaqiniga keltirmas va qo'rqqanidan qoshlarini tobora yuqori ko'tarardi. U servahima xotin bo'lib, doim allaqanday falokat bo'lishini kutar va biror qayg'uli gap esiga tushishi bilan darrov yig'lab yuborar edi... Bunday xotinlar endi bu dunyodan safar qiladilar, bunga quvonish kerakmi, yo'ymi – Xudo biladi!

Arkadiy joyidan turib, derazani ochib yubordi va uning ko'ziga dastlab Vasiliy Ivanovich ko'rindi. Chol to'n kiyib, belini ro'mol bilan bog'lab, polizda zo'r berib ishlar edi. U o'zining yosh mehmoniga ko'zi tushib qoldi-da, belkuragiga suyanib:
– Salom, yaxshi uxbab turdilarmi? – dedi.

– Juda yaxshi, – deb javob berdi Arkadiy.

– Sinsinnat¹ kabi kechki sholg‘om ekkani jo‘yak olyapman. Hozir shunday zamon keldiki, bunisiga ham Xudoga shukr! Har kim o‘z qo‘li bilan ovqat topib yeyishi kerak, birovlarga ishonib o‘tirish yaramaydi. Har bir kishi o‘zi peshana terini to‘kishi lozim. Binobarin, Jan-Jak Russoning aytgani to‘g‘ri ekan-da. Bundan yarim soat ilgariroq siz meni, afandim, butunlay boshqa bir ahvolda ko‘rgan bo‘lar edingiz. Bir xotinning aytishicha, bostiriq, bizningcha, esa ichketar kasaliga mubtalo bo‘lgan. Sizga qanday qilib tushuntirsam ekan... Uni afyun bilan davolad-im. Yana bir xotinning tishini sug‘urib oldim. Bunisiga efirizatsiya² taklif qilgan edim, lekin u bunga ko‘nmadi. Bu ishlarni men gratis³ – anamatyor⁴ o‘rnida qabul qilaman, shunday bo‘lsa ham bu ajabilanarli hol emas, chunki men qora xalqdan, homo novus⁵ xotinim singari asilzoda dvoryanlardan chiqqan emasman... Bu yerga chiqib, nonushta vaqtigacha soyada, ertalabki sof havodan bahramand bo‘lsangiz bo‘lmaydimi?

Arkadiy uning oldiga chiqdi.

Vasiliy Ivanovich qo‘lini, harbiylarcha, yog‘ bos-gan qalpog‘iga qo‘yib:

– Yana bir karra aytay, xush keldingiz! Albatta, siz maishatga, zavq qilishga o‘rganib qolgansiz, biroq bu dunyoning buyuk zotlari ham qisqa umrlarini shunday kulbada o‘tkazishdan jirkanmaydilar, – dedi.

¹ Sinsinnat – miloddan burun V asrda o‘tgan Rim davlat arboblaridan bo‘lib, rais jumhur bo‘lgach, o‘z ixtiyori bilan qishloqqa qaytgan va umrini dehqonchilik bilan o‘tkazgan.

² Efirizatsiya – efir yordami bilan og‘riqni bitirish.

³ Gratis – tekin.

⁴ En amateur – havaskor sifatida.

⁵ Homo novus – yangi odam.

– Kechirasiz, – dedi Arkadiy, – men nega bu dun-yoning buyuk zoti bo'larkanman? Zeb-ziynatga ham odat qilganim yo'q.

Vasiliy Ivanovich muloyim qilib unga e'tiroz bildirdi:

– Ruxsat eting, ruxsat, men hozir endi qatordan chiqib qolgan bo'lsam-da, o'z davrimda ko'pni ko'rgan kishiman, qushlarni parvozidan bilaman. Men ham o'zimga yarasha ruhshunos-u fiziognomistman¹. Agar men, sizga aytsam, shunday qobiliyatga ega bo'lмаганимда edi, allaqachonlar xarob bo'lib ketar edim, mendek kichkina odamni oyoq osti qilardilar. Xushomad tariqasida emas-u to'g'risini aytay: siz bilan o'g'limning do'stlashganidan juda-juda xursandman. Men hozir o'g'lim bilan ko'rishdim. U, balki sizga ham ma'lum bo'lgan odaticha juda erta turib atrofga sayr qilgani chiqib ketdi. Sizdan bir gapni so'rashga ruxsat etsangiz. Yevgeniy bilan ko'pdan beri tanishmisiz?

– O'tgan qishdan buyon.

– Juda soz. Sizdan yana bir gapni so'rashga ijozat eting, o'tirib olsak qanday bo'lar ekan? Endi ota sifatida sizdan yana bir gapni ochiqcha so'rashga ruxsat eting. Mening Yevgeniyim haqida qanday fikrdasiz?

Arkadiy unga chaqqon javob qaytardi:

– O'g'lingiz shu vaqtgacha men uchratgan odamlarning eng ajoyibidir, – dedi.

Buni eshitgan Vasiliy Ivanovichning ko'zлари birdan katta ochildi, yuzi biroz qizardi, qo'lidagi belkuragi tushib ketdi.

– Demak, fikringizcha... – deb gap boshlagan edi, Arkadiy uning so'zini bo'lib:

– Fikrimcha, o'g'lingizni, shubhasiz, kelajakda buyuk istiqbol kutadi va u sizning ismingizni al-

¹ Fiziognomist – yuziga qarab, odamning xulqini belgilovchi.

batta, shon-sharaf bilan ulug'laydi. Men bunga u bilan ilk uchrashuvimizdayoq ishonch hosil etgan edim, – dedi.

Vasiliy Ivanovich quvonchdan so'zini zo'rg'a gapirib:

– Bu... bu qanday bo'ldi? – dedi.

Uning kamoli zavqlanganidan jilmayishi keng lablarini kattaroq ochdi va jilmayganicha qoldi.

– Bizning qanday qilib tanishganimizni bilmoxchimisiz?

– Umuman munosabatingizni...

Arkadiy Bazarov haqida, Odinsova bilan mazurkaga raqsga tushgan kecha qanday qiziqib gapirgan bo'lsa, hozir undan ham zo'r zavq bilan gapira ketdi.

Vasiliy Ivanovich uning gapiga quloq solar, quloq sola turib burnini qoqar, dastro'molini qo'lida o'ynatar, yo'talar, sochlarni yozar edi, nihoyat chidab turolmadi, Arkadiy tomon engashib, uning yelkasidan o'pdi, keyin hamon jilmayishini qo'ymay:

– Siz meni nihoyatda xursand qildingiz, men shuni aytishim kerakki, men... o'g'limni g'oyat hurmat qilaman, kampirim xususida gapirib ham o'tirmayman, chunki ona degani o'zingizga ma'lum. Biroq men uning oldida o'z tuyg'ularimni ochiq so'zlay olmayman, chunki Yevgeniy buni yaxshi ko'rmaydi. U ko'ngil bo'shatishni umuman yomon ko'radi. Ko'plar buni, hatto bag'ritoshlik, hissizlik yoki mag'rurlik alomati, deyishadi; lekin u kabilarni boshqalar bilan baravar qilib bo'lmaydi, shunday emassi? Mana, masalan, uning o'rnida boshqa odam bo'lsa, ota-onasidan hadeb pul ola-verar edi. U-chi, xoh ishoning, xoh ishonmang, dunyoga kelgandan beri bizdan bir tiyin ham oshiq-cha pul olgani yo'q!

– U beta'ma, to'g'ri odam, – dedi Arkadiy.

– Beta'ma bolganda ham qanday deng! Men esa Arkadiy Nikolayevich, uni taqdirlash uyoqda tursin, u bilan faxr'anaman va men shuni istaymanki, vaqt kelib, uning tarjimayi holida: «Oddiy bir shtab-tabibi-ning o'gli bolsa-da, otasi uning buyuk kishi bo'lishini burundan sezgan va uning tarbiyasi uchun hech ni-mani ayamagan...» degan so'zlar yozilsin.

Shu gaplardan keyin chol so'zini davom ettirol-may qoldi.

Arkadiy uning qo'llini qisdi.

Biroz jimlikdan keyin Vasiliy Ivanovich:

– Siz nima deb o'ylaysiz, u siz aytgan shuhratga tibbiyot sohasida erishmasa kerak? – deb so'radi.

– Albatta, bu sohada emas, lekin tibbiyotda ham birinchi olimlardan bo'lajak.

– Bo'lmasa, qaysi sohada erishadi, Arkadiy Ni-kolayevich?

– Hozir buni aytish qiyin, lekin u mashhur odam bo'ladi.

Chol Arkadiyning so'zini takrorlab:

– U mashhur odam bo'ladi! – deb deydi va o'yga botdi.

Qo'lida katta tovoqqa endigina terilgan malina ko'-targan Anfisushka ularning yonidan o'tib ketayotib:

– Arina Vlasyevna sizlarni choyga taklif qilayotir-lar, – dedi.

Vasiliy Ivanovich bir cho'chib tushdi.

– Malina bilan yenishga muzdek qaymoq ham bo'ladimi?

– Ha, bo'ladi.

– Muzdek bo'sin-a! Uyalib-netib o'tirmang, Arkadiy Nikolayevich, ko'proq olavering. Nega Yev-geniy kelmayapti, a?

Arkadiyning bo'lmasidan Bazarovning:

– Men bu yerdaman, – degan ovozi eshitildi.

Vasiliy Ivanovich unga burilib qaradi-da:

– Eh-he, o'rtog'ing yoniga kirgan ekansan-da, afsuski, kechikibsan, amice¹, biz u bilan ancha suhbatlashib ham oldik. Endi borib choy ichish kerak, onang chaqirayotir. Aytganday, sen bilan gaplashadigan gap bor edi.

– Nima to'g'rida?

– Bu yerda ikter kasaliga duchor bo'lgan bir odam bor...

– Ya'ni sariq kasaligami?

– Ha, juda og'ir, eskidan davom etib kelayotgan ikterga yo'lliqsan. Men unga turli davolar qilish va sabzi yenishga buyurdim. Soda berdim, biroq bular hammasi ham vaqtinchalik da'volar, boshqa durustroq chora topish kerak. Sen tibbiyotdan kulsang ham, menga foydali maslahat bera olarsan, deb o'ylayman. Lekin bu haqda so'ngroq gaplashamiz, hozir esa choyg'a boraylik.

Vasiliy Ivanovich o'rindiqdan chaqqon irg'ib turdi va Robertdan² ashula ayta boshladi:

«Qonun-qonun o'zimizga qonun tuzamiz.

Roh... roh... rohatda yashaymiz».

Bazarov deraza oldidan keta turib:

– Ajoyib bardam chol! – dedi.

Tush payti bo'ldi. Quyosh oppoq kumush bultlarning nozik pardasidan o'tib kuydiran edi. Hamma yoq jimjit, qishloqda xo'rozlargina qattiq

¹ Amice – do'st, o'rtoq.

² Plankent Robert – «Robert-Iblis» – fransuz bastakori Meyerlergning (1781–1864-yillar) operasi.

qichqirar va ularning tovushlarini eshitgan har bir kimsaning erinchoqligi tutar va zerikardi, yana al-laqayerdag'i balandlikdan, daraxt tepasida o'tirgan qirg'iy bolasining chiyillashi eshitilardi. Arkadiy bilan Bazarov, quruq bo'lsa ham hali ko'm-ko'k xushbo'y o'tdan ikki quchog'ini ostlariga solib, kichkina pichan g'arami soyasida yotardilar.

Bazarov gap boshlab:

– Anavi tog' teragi menga yoshligimni eslatadi, u terak g'isht ombordan qolgan chuqur bo'yida edi, Men o'sha vaqtarda, bu chuqur bilan shu terak qandaydir tilsim deb o'ylardim, men o'sha yerda o'ynab hech zerikmasdim. O'sha vaqtida bola bo'lganligim uchun zerikmasligimni tushunmas edim. Mana katta bo'lib qoldim, endi menga tilsimlar ta'sir etmaydi, – dedi.

– Hammasi bo'lib bu yerda qancha vaqt turding?
– deb so'radi Arkadiy.

– Bir yo'la ikki yil, so'ngra kelib-ketib yurar edik umrimiz ko'chish bilan o'tardi, ko'pincha shahar-ma-shahar yurardik.

– Mana bu uy anchadan beri bormi?
– Allaqaqachondan beri, buni buvam, onamning otasi solgan.

– Buvang kim edi?
– Kim biladi deysan, allaqanday sekund-mayor¹ bo'lgan. Suvorovda xizmat qilgan, Alp tog'lariidan o'tishganini hikoya qilar edi. Yolg'on aralashtirgan bo'lsa kerak.

– Shuning uchun mehmonxonangizda Suvorovning surati osig'lik ekan-da, men eski bo'lsa ham, sizlarniki singari issiq uylarni yaxshi ko'raman. Bularning hidi ham allaqanday boshqacha.

¹ Sekund-mayor – burungi harbiy unvon unvonlardan biri.

Bazarov esnab:

– Lampadka¹ moyi bilan donnik² hidi kelib tura-di. Bu sevimli uylarda yana pashshaning ko'pligi-chi... Eh! – dedi.

Biroz sukutdan keyin, Arkadiy gap boshlab:

– Ayt-chi, yoshligingda senga hech ozor ber-ganmilar? – dedi

– O'zing ko'rib turibsan-ku, ota-onamning qanqaligini, qattiqqo'l emas.

– Sen ularni yaxshi ko'rasanmi, Yevgeniy?

– Yaxshi ko'raman, Arkadiy!

– Ular seni shunday yaxshi ko'radilarki!

Bazarov biroz indamay turganidan keyin:

– Men nima to'g'rida o'ylayapman, bilasanmi? – dedi nihoyat, qo'llarini boshi ostiga qo'yib.

– Xo'sh, nima to'g'risida o'ylayapsan?

– Ota-onam xo'p yaxshi yashaydi-da, deyman!

Otam oltmis yoshga kirib ham serharakat, har xil «muvaqqat» davolash usullaridan bahs eta-di, odamlarni davolaydi, dehqonlarga muruvvat ko'rsatadi, xullas, davr suradi. Onamga ham yax-shi. Erta-yu kech ikir-chikir ishlar bilan shu qadar bandki, boshqa narsalar to'g'risida o'ylagani fursat topmaydi. Men esa...

– Xo'sh, sen-chi?

– Men o'ylaymanki, mana, men hozir shu g'aram tagida yotibman... Bu yerda men ishg'ol qilgan kichkina joy, men bo'limgan va menga hech bir aloqasi bo'limgan zo'r koinotga taqqoslab qara-ganda, zarracha umrim abadiyatga nisbatan shu qadar qisqa, ahamiyatsizki, bu abadiyatda men

¹ Lampadka – butlar oldiga yondirib qo'yiladigan moy – yog'och moyi.

² Donnik – doriga ishlatiladigan siyoh.

yo‘qman va bo‘lmayajakman... Ammo bu atomda, bu matematika nuqtasida qon yurib turadi, miya ishlaydi, bu nimanidir istaydi... bu nima degan gap! Qanday bema’nilik!

– Senga shuni aytayki, Yevgeniy, sen aytayotgan narsalar umuman hamma odamlarga ham tegishli...

Bazarov Arkadiyning so‘zini ilib olib:

– To‘g‘ri aytasan, men shuni aytmoqchi bo‘lgan edimki, mana, ya’ni, masalan, ota-onam shu qadar bandki, o‘zlarining arzimas odamligi haqida o‘ylashga ham vaqt yo‘q va bu ularni tashvishga ham solmaydi... Men-chi? Men nuqlu diqqat, tajang bo‘laman.

– Tajang bo‘laman? Nega endi?

– Nima uchun deysanmi? Esingdan chiqdimi?

– Hammasi esimda, lekin shunday bo‘lsa-da, tajang bo‘lishingga o‘rin yo‘q. Holim yo‘q deganing to‘g‘ri, lekin...

– Eh, Arkadiy Nikolayevich, ko‘rib turibman, muhabbatni sen hozirgi yoshlardek tushunasen. «Ma, tu-tu-tu tovug‘i», deb chaqirasan. O‘scha tovuq oldingga kelsa, Xudo oyoqqa quvvat bersin! Men bunday kishilardan emasman. Mayli, bu xusuda tugataylik endi. Yordam qilib bo‘lmaydigan ish to‘g‘risida gapirish ham uyat, – dedi-yu, u yonboshiga ag‘darildi. – Voy, anavi azamat chumolini ko‘r, chala o‘lik pashshani sudrab ketyapti. Sudra, birodar, sudra! Uning o‘jarlik qilishiga qarab turma. Jonivor sifatida azob tortish tuyg‘usini rad qilishga haqlisan, bizlar kabi o‘z jonini qiynovchi odamlarga o‘xshamaysan.

– Bu gapni sen gapirmasang ham bo‘lar edi, Yevgeniy, qachon sen o‘zingni qiyaganan bor?

Bazarov boshini ko‘tardi.

– Men shu bilan faxrlanaman-da. O‘z-o‘zimni qiyagananim yo‘q, demak, xotin zoti ham meni qiyay olmas. Omin! Gap tamom bo‘ldi! Bundan keyin bu haqda mendan bir og‘iz ham gap eshitmaysan.

Ikkala do‘sit bir necha vaqt jim yotishdi.

Bazarov gap boshladi.

– Ha, inson deganing g‘alati maxluq-da. Otalarning kechirgan hayotiga uzoqdan qarasang, bundan ham yaxshi hayot bormi, degan fikr tug‘iladi. Yegin, ichgin va shu bilan eng to‘g‘ri, eng aqli yo‘l tutayotibman deyaver. Biroq bunday qilib bo‘lmaydi, kishini g‘ussa yengadi. Ko‘ngil odamlar bilan so‘kishib ham mashg‘ul bo‘lishni istaydi.

Arkadiy biroz o‘ylab:

– Hayotni shunday yo‘lga qo‘ysangki, unda har lahma ma’noli bo‘lsa, – dedi.

– Shu gap sendan chiqayotiptimi! Ma’noligi soxta bo‘lsa-da, shirin bo‘ladi, ammo ma’nosizrog‘iga ham ko‘nish mumkin... Ikir-chikirlar – bir baloyi azim.

Agar inson unga qulq solmayman desa, uning uchun ikir-chikir yo‘qdir.

– Him... sen bu yerda umumiy qarama-qarshi nuqtadan so‘zlading.

– Nima? Bu bilan nima demoqchisan?

– Masalan, maorif foydali desak bu – umumiy nuqta bo‘ladi, agar maorif zararli desak, bunisi umumiy qarama-qarshi nuqta bo‘ladi. Bu... bir qadar nozik ko‘rinsa-da, zotan hammasi bir.

– Haqiqat-chi? Haqiqat qayerda, qaysi tomonda?

– Qayerda deysanmi? Men senga aks sado singari javob beraman: qayerda?

– Sen bugun savdoyiroq kayfiyatdasan, Yevgeniy.

– Rostdan-a? Oftob meni lanj qilganga o'xshaydi, endi malinani ham uncha ko'p yeish yaramaydi.

– Unday bo'lsa, biroz uxlab olish ham zarar qilmas, – deb qo'ydi Arkadiy.

– Yaxshi bo'ladi, lekin sen menga qarama. Uxlaganda har qanday odamning afti xunuk bo'ladi.

– Sen haqingda nima deb o'ylasalar, senga baribir emasmi?

– Senga nima deyishni bilmayman. Asil odam bu to'g'rida tashvish tortmasligi lozim, asil odam shunday bo'ladiki, u haqda hech narsa o'ylamaydi, faqat yo unga itoat qiladi yoki uni yomon ko'radi.

– Ajabo! Men hech kimni yomon ko'rmayman, – dedi Arkadiy biroz o'ylanib.

– Men esa ko'p odamlarni yomon ko'raman. Sen nozik tabiat, bachkana odamsan, sen qanday qilib birovni yomon ko'rasan!... Sen qo'rkoqsan, o'zingga ishonching kam...

– Sen-chi, – deb Bazarovning so'zini bo'ldi Arkadiy, – sen o'zingga ishonasanmi? Sen o'zingni oliganob deb hisoblaysanmi?

Bazarov hech nima demadi.

Nihoyat, Bazarov so'zlarini bo'lib-bo'lib gapira boshladi:

– Men so'zidan qaytmaydigan biror kimsani uchratsam o'zim haqimda boshqacha fikrda bo'laman. Yomon ko'raman! Mana, masalan, bugun oqsoqolimiz Filippning oppoqqina, yaxshigina uyi yonidan o'tib ketayotganimizda sen: «Mana, kambag'al dehqonlarning bari shunday uyga ega bo'lgan taqdirdagina Rossiya takomil topajak, bunga erishish uchun biz ham bir yoqadan bosh chiqarib kurashishimiz kerak», degan eding. Men esa sen aytgan o'sha eng kambag'al dehqonlardan bo'lgan

Filippnimi yoyinki Sidornimi – baribir yomon ko'rib qoldim, men u uchun jonkuyarlik qilarmishman, u menga rahmat ham demas ekan. Nega? Menga rahmatining nima hojati bor? Xo'sh, u oppoq uyda yashayveradi, mening qabrim ustini bo'lsa, tikonlar bosadi. Xo'sh, undan keyin-chi?

– Qo'ysang-chi, Yevgeniy... Bugun sening gaplaringga qulq solaversam, sizlarda hech qanday qarash yo'q deb ta'na qiluvchilar bilan noiloj qo'shilishga to'g'ri keladi.

– Amaking fikrini quvvatlayapsan, qarash degani umuman yo'q, shu choqqacha buni payqamabsanda! Uning o'rniga sezgi degani bor. Hammasi shu sezgiga bog'liq.

– Bu qanday gap bo'ldi?

– Shunday! Mana, masalan, meni olaylik, kamina sezgi kuchi tufayli inkor qilish yo'lini tutadi. Inkor etishdan lazzatlanaman, demak, mening miyam shunday tuzilgan, vassalom! Nechun menga kimyo yoqadi? Nechun sen olmani yaxshi ko'rasan? Buning sababi ham o'sha sezgi. Bularning bari – bir. Odamlar hech vaqt bundan nariga o'tolmaslar, buni senga hamma ham tan olmaydi, shuningdek, men ham buni senga ikkinchi marta aytmayman.

– Demak, halollik ham sezgimi?

– Ha-da!

– Yevgeniy! – dedi ma'yus bir ovoz bilan Arkadiy. Bazarov uning so'zini bo'lib:

– Ha, nima, yoqmayaptimi deyman? Yo'q, do'stim! Hammasini kesishga tutingandan keyin o'z oyog'ingni ham qoldirma!.. Lekin anchagina falsofa sotdik. Pushkin: «Tabiat – uyqu sukutini al-lalaydi», degan.

– U hech qachon bunday gapni aytgan emas, – dedi Arkadiy.

– Xo‘p, aytmagan bo‘lsin, lekin shoirligi uchun shunday deb aytishi mumkin va shart edi. Aytgandek, u harbiy xizmatda bo‘lgan shekilli.

– Pushkin hech qachon harbiy bo‘lgan emas!

– Kechirasani, uning har bir sahifasida: «Jangga, jangga, Rossiya sharafi uchuni!» degan so‘zlar uchraydi.

– Nima bo‘ldi senga, bo‘limg‘ur gaplarni to‘qiyapsan-a! Axir bu bo‘hton-ku!

– Bo‘hton! Ahamiyati yo‘q. Qo‘rqitmoqchi bo‘lib aytgan so‘zingni qara-ya! Insonga qanday bo‘hton taqamagin, haqiqatda u bundan besh battar bo‘lib chiqadi.

– Kel, yaxshisi, uxlaylik! – dedi Arkadiy bir oz o‘kingan ohangda.

– Jonim bilan, – dedi Bazarov.

Lekin Bazarovning ham, Arkadiynning ham ko‘ziga uyqu kelmas edi. Har ikki yigit qalbini allaqanday dushmanlik hissiga yaqin bir tuyg‘u chulg‘ab olgan edi. Besh daqiqadan keyin ikkovi ham ko‘zini ochib, indamasdan bir-biriga qarab qoldi.

Arkadiy birdan tilga kirib:

– Qaragin, qayinning quruq bargi uzilib yerga tushyapti. Uning uchib tushishi xuddi kapalakning uchishiga o‘xshaydi-ya, g‘alati-a? Eng nash’ali va jonli mavjudot kabi.

– Oh, do‘stim, Arkadiy Nikolayevich! – dedi Bazarov, – sendan bir iltimos: chiroyli gapirma.

– Bilganimcha so‘zlayman... Undan keyin bu zolimlik-ku, axir. Miyamga bir fikr kelganda nega uni so‘zlamay?

– Xo‘p, shunday bo‘lsin. Nima uchun men ham miyamga kelgan fikrni aytolmayman? Menimcha, chiroyli gapirish yaxshi ish emas.

- Yaxshisi qanaqa bo'ladi? So'kishishmi?
- Hay hay! Ko'riniб turibdiki, sen aniq amakingning izidan borasan, agar u ahmoq hozir gaplarining eshitganida, qanday xursand bo'lardi-ya!
- Pavel Petrovichni nima deding?
- Men uni ahmoq deb atadim.
- Bunga endi chidab turib bo'lmaydi! – dedi Arkadiy.

Bazarov pinagini buzmay:

- Ha-da! Qarindoshchilik tuyg'ulariga tegib-di-da. Men payqaganman: bu tuyg'u odamlarga qattiq singib ketgan bo'ladi. Inson hammasidan, o'z e'tiqodlaridan voz kechishga tayyor, lekin gap qarindoshlikka taqalganida ojizlik qiladi. Masalan, birovlarning dastro'molini o'g'irlab yurgan ukasini u hech vaqt o'g'ri deb aytishga tili bormaydi. Darvoqe, mening ukam, garchi dohiy bo'lmasa-da, meniki... Axir shunday bo'lishi mumkinmi?

Arkadiy jahl bilan e'tiroz bildirdi:

- Qarindoshlik tuyg'usi emas, balkiadolat tuyg'usi qo'zg'aldi. Ammo sen bu tuyg'uni anglamaysan, senda bu sezgi yo'q. Shuning uchun bu to'g'rida jo'yali fikr aytolmaysan ham.

– Boshqacha aytganda, Arkadiy Kirsanov biz anglamaydigan ko'klarda parvoz qilar ekan, bunga bosh egib, jim o'tiramiz.

– Qo'ysang-chi endi, Yevgeniy, bekorga urishib qoladiganga o'xshaymiz.

– Oh, Arkadiy! Koshki shunday bo'lsa-yu, qir-pichoq bo'lguncha mushtlashib olsak.

– Ahvol shu bo'lsa, shunday ham bo'larki...

Bazarov Arkadiyning so'zini ilib:

– Mushtlashishmi? Nima qipti? Bu yerda pichan ustida, shoirona bir sharoitda, dunyo va odamlar ko‘zidan panada yoqalashsak zarari yo‘q, lekin menga kuching yetmas... Men hozir g‘ippa bo‘g‘zingdan olarman deyman...

Bazarov o‘zining uzun barmoqlarini yozdi. Arkadiy unga tomon burildi-da, xuddi hazillasha-yotganday, qarshilik qilishga hozirlandi... Ammo do‘sstining yuzi dahshatli ko‘rinar va uning lablari-dagi iljayish bilan yonib turgan ko‘zlarida shunday tahdid namoyon ediki, u beixtiyor qo‘rqib ketdi.

Xuddi shu paytda Vasiliy Ivanovichning:

– Eh-he! Zap g‘alati joyni topib olibsizlar-ku! – degan ovozi eshitildi. Keksa shtab-tabibi movut pid-jakda, to‘qilgan poxol shlyapasini qo‘lida ko‘tarib, yosh yigitlar oldida paydo bo‘ldi. – Men sizlarni toza qidirdim-a... lekin juda yaxshi joy topib olib, maza qilib suhbatlashayotganga o‘xshaysizlar. Yerda yotib, osmonga tikilish-a... Bilasizlarmi, bunda qandaydir bir ma’no bor.

Bazarov to‘ng‘illab:

– Men aksa urgim kelgandagina osmonga qarayman, – dedi va Arkadiya qarab, astagina: – Afsuski, xalal berdi-da, – deb qo‘shib qo‘ydi.

Arkadiy shivirlab:

– Bas qil endi, – dedi va o‘rtog‘ining qo‘lini yashirincha qisdi, – lekin bunday mojarolardan hech qanday do‘slik uzoq chidamasa kerak.

Shu orada Vasiliy Ivanovich, o‘z qo‘li bilan burama qilib yasagan va tutqichiga turk nusxasi ishlangan hassasiga qo‘llarini chalmashtirib tayan-gani holda, boshini chayqab:

– Yosh suhbatdoshlarim, sizlarga havasim keladi. Sizlarda naqadar kuch-quvvat gullab turgan

yoshlik, iste'dod-u qobiliyat bor-a! Xullas... Kostor bilan Polluksning¹ o'zginasisizlar! – dedi.

Bazarov:

– Buni qara, afsonalardan gap boshladilar-ku! O'z davrida kuchli lotinchilardan bo'lgani darhol seziladi! Esimda bor, lotincha yozgan bir asaringiz uchun kumush medal olgan edingiz-a? Shunday emasmi?

Vasiliy Ivanovich o'z so'zini takrorlab yana:

- Dioskuralar, dioskuralar-ey!² – deb qo'ydi.
- Bas endi, ota, ko'p shirinsuxan bo'lmaning.

Chol g'udranib:

– Bir martagina mumkindir, – deb qo'ydi. – Lekin janoblar, men shirin so'zlik qilish uchun sizlarni izlamadim, balki tushlik vaqtি bo'ldi, ovqatlanamiz, deb xabar qilgani keldim. So'ngra, Yevgeniy, seni bir ish to'g'risida ogohlantirib qo'ymoqchi edim... Sen aqli kishisan... Odamlarni va shu jumladan, xotin kishilarni ham bilasan, shuning uchun kechirasan... Kelishing sharafiga onang ibodat marosimi qilmoqchi edi. Tag'in sen, ibodatda ishtirok qilish uchun meni chaqirgani kelgan deb o'ylamagin, marosim tamom bo'ldi, biroq padar Aleksey...

– Popmi?

– Ha, ruhoniy, u biznikida... tamaddi qiladi. Men buni kutmagan, hatto maslahat ham bermag'an edim... Lekin nechukdir shunday bo'lib qoldi. U menga tushunmadi... Undan keyin Arina Vlas-yevna ham... Bundan tashqari, u bizning ajoyib va mulohazali bir kishimiz bo'ladi.

¹ Kostor, Polluks – qadimda yunonlar ularni aka-uka, do'stlik timsoli sifatida e'tirof etishgan.

² Dioskuralar – bu ism «Iliada» dostonida uchraydi. Bu bilan qahramon Kostor va Pulluksni nazarda tutyapdi.

– Tushlik mahalida mening hissamni yeb qo'ymas-a? – deb so'radi Bazarov.

Vasiliy Ivanovich kulib yubordi:

– Omon bo'l, nimalar deyapsan?

– Bo'lak hech narsa talab qilmayman. Men har qanday odam bilan hamdasturxon bo'lishga tay-yorman.

Vasiliy Ivanovich shlyapasini tuzatib qo'ydi va gapira ketdi.

– Men sening eski qarashlardan xolilicingni il-garidan bilardim. Mana, meni qara, oltmisik ikki yoshga kirgan bir chol bo'sham ham, bulardan xoliman. (Vasiliy Ivanovich marosim qilishni o'zi xohlagan bo'lsa-da, buni iqror etishga jur'at etolmas edi...) Dindorlikda u xotinidan hech qolishmas edi.) Ammo padar Aleksey sen bilan tanishmoqni juda istaydi. U senga yoqadi, ko'rarsan. U qarta o'ynashdan ham qochmaydi, hatto... lekin bunisi o'z o'rtamizda qolsin... tamaki ham chekadi.

– Mayli, tushlikdan keyin aralash¹ o'ynagani o'tirarmiz, men uni, albatta yutaman.

– He-he-he, ko'ramiz! Kimning yutishi hali noma'lum.

– Nima? Yo eski davrni esga tushirmoqchimisan deyman? – dedi Bazarov ta'kidlab.

Vasiliy Ivanovichning yuzi biroz qizarindi.

– Uyat emasmi senga, Yevgeniy... O'tgan ishga salavot! To'g'ri, men o'z aybimni mana bu kishi oldida ham iqror etishga tayyorman. Menda bu dard yoshligimda ham bor edi, buning uchun xo'p ta'zirimni yeganman! Havo munchayam issiq. Yonlaringga o'tirsam bo'lar-a? Xalal bermasman deyman?

¹ Aralash – qarta o'ynilaridan biri.

– Aslo, – dedi Arkadiy.

Vasiliy Ivanovich yo'tala-yo'tala pichan ustiga o'tirdi.

– Sizlarning mana shu yotgan joylaringiz, afandilar, menga o'zimning harbiy, ko'chmanchi ha-yotimni va shunday g'aramlar oldida joylashgan yara boylash nuqtalarini ko'z oldimga keltiradi. – U og'ir nafas oldi – Men o'z hayotimda juda ko'p ko'rgulikni ko'rdim. Mana, masalan, ijozat ber-salaring, men sizlarga Bessarabiyada bo'lgan vabo to'g'risida qiziq bir voqeani aytib beraman.

Bazarov uning so'zini bo'lib:

– Shu ishda ishtirok qilganing uchun Vladimir nishonini olganing haqidagi voqeа emasmi? Bilamiz, bilamiz... Aytganday, nega taqib yurmay-san? – deb so'radi.

Vasiliy Ivanovich to'ng'illab:

– Axir men senga xurofotdan xoliman demadim-mi! – dedi (u kechagina nishon tasmasini kiyimi-dan olib tashlashni buyurgan edi) va vabo voqeа-sini hikoya qilishga kirishdi. U Bazarovga ishora qilib Arkadiyning qulog'iga: – uxlab qoldi-ku, – deb shivirladi. So'ngra baland ovoz bilan gapirdi: – Yev-geniy! Tur, tushlik qilgani boramiz...

Padar Aleksey yaxshilab taralgan juni qalin, belbog'li binafsharang ryasa¹ kiygan, savlatli va semiz bo'lib, juda abjir va epchil kishi edi. U Bazarov bilan Arkadiyning o'z fotihasiga muhtoj emasligini oldindan bilganday, shoshib-pishib ulardan oldinoq o'zi qo'l uzatdi va o'zini umuman erkin tutdi. U sir bermadi, boshqalar bilan ham ishi bo'lmadi. Payti kelganda seminariyadagi lo-

¹ Ryasa – poplar kiyadigan maxsus uzun kiyim, beli tor jubba.

tin tilidan kulib o'tirdi va o'zi arxereyasini¹ yoqlab so'zлади. Иккى qадаһ май ichdi-yu, uchinchisini rad qildi; Arkadiy bergen bitta sigarani olsa-da, lekin uyimga olib ketaman, deb chekmadi. Uning qo'li bilan astagina betiga urib, pashsha tutib o'tirishi va ba'zan pashshalarni ezib o'ldirishigina boshqalarga yoqmas edi. U qarta o'ynaydigan yashil stol yonida huzur qilib o'tirdi va natijada Bazarovning 2 so'm 50 tiyinini yutib oldi. Arina Vlasyevnaning uyida tangani pul hisoblashmas edi... Arina Vlasyevna (u qarta o'ynamas edi) yuzini boyagidek mushtumchasiga tirab, o'g'li yonida o'tirar va faqat biror yangi shirinlik oldirib kelish uchungina ora-sira o'rnidan turardi. U jigarbandini erkalashga qo'rkar, ham buni yoqtirmas va uning erkalashiga yo'l qo'ymasdi. Shu bilan birga Vasiliy Ivanovich ham Arina Vlasyevnaga: «O'g'lingni ko'pam bezovta qilaverma, yoshlар buni yaxshi ko'rmaydilar», deb pishittirib qo'yan edi. Bu kun ham dasturxon to'kinligi borasida ortiqcha gapirib o'tirishning hojati yo'q, chunki maxsus cherkas so'qim go'shti olib kelgani Timofeyichning o'zi tong mahalida otliq borgan edi. Oqsoqol, har xil baliq va qisqichbaqa izlab, boshqa tomonga jo'nagandi. Birgina qo'ziqorin uchun xotinlarga 42 tiyin to'landi. Ammo Arina Vlasyevnaning Bazarovga tikilib qarab turgan ko'zlari birgina sadoqat yoki mehribonlikni bildirmas, balki bu ko'zlarda maroq va qo'rquv aralashgan mahzunlik allaqanday o'pka asari borligi ham ko'rinardi.

Ammo Bazarov onasining ko'zlari nimani ifoda qilayotgani bilan ishi yo'q edi. U onasi bilan juda kam gaplashar va shunda ham qisqa-qisqa savollar berardi. Bir marta u «yo baxt» deb, onasining

¹ Arxereya – Gubernadagi barcha ruhoniylar boshlig'i.

qo'lini so'radi. Onasi yumshoqqina qo'lini uning qattiq va kattakon kaftiga ohistagina qo'ydi-da:

– Xo'sh, yordam bermadimi? – deb so'radi birpas-dan keyin.

Bazarov iljayib:

– Undan ham battar bo'ldi, – dedi.

Padar Aleksey Bazarovni ayaganday bo'lib:

– Bu kishi juda tavakkal qilayaptilar, – deb o'zining chiroyli soqolini silab qo'ydi.

Vasiliy Ivanovich uning so'zini ilib olib:

– Napoleon qoidasi, padar Aleksey, Napoleon qoidasi, – dedi va qartaning tuzidan boshlab yurdi.

Padar Aleksey:

– Uni Muqaddas Yelena oroliga olib borgani ham o'sha qoidasidir, – dedi va Vasiliy Ivanovichning tuzini kozir bilan yopti.

Arina Vlasyevna Bazarovga qarab:

– Qorag'at suvidan ichasanmi, Yenyushenka? – deb so'radi.

Bazarov faqat kiftini uchiribgina qo'ydi.

Ertasiga Arkadiy bilan gaplashib o'tirib, Bazarov:

– Bo'ljadi! Ertaga ketaman, zerikyapman, ki-shining ishlagisi keladi, lekin bu yerda ishlab bo'l-maydi. Yana sening qishlog'ingga boraman. Men butun preparatlarimni¹ o'sha yerda qoldirganman. Sizlarnikida xoliroq ishlab bo'ladi. Bu yerda otam: «Mening xonam sening ixtiyorningda, senga hech kim xalal bermaydi», desa ham o'zi mening oldim-dan bir qadam ham nari ketmaydi. Undan keyin, otadan qochib o'tirish ham allaqanday uyat tuy-iladi. Onam ham xuddi shunday. Men uning devor

¹ Preparat – organik narsalarning tuzilishlarini o'rganish uchun, ularning ma'lum usul bilan ishlab qo'yilgan qismlari.

orqasida oh-voh qilib o'tirganini eshitaman. Ammo oldiga kirsam, unga aytadigan so'z ham topilmaydi.

– Otang va, ayniqsa, onang juda xafa bo'ladi-da,
– deb qo'ydi Arkadiy.

– Yana qaytaman.

– Qachon?

– Peterburgga jo'nashim oldidan.

– Men, ayniqsa, onangga achinaman.

– Nega endi? Yo rezavor mevalari yoqib qoldimi?

Arkadiy yerga qarab:

– Sen onang qadrini bilmaysan, Yevgeniy, – dedi, – u yaxshi xotin bo'lishi birga juda ham aqlli. Bugun men u bilan yarim soatcha suhbatlashib o'tirdim. U shunday ajoyib, shunday qiziq fikrlarni bayon etdiki...

– Ha, men haqimda bor gapni gapirgan bo'lsa kerak?

– Yo'q, faqat sen to'g'ringdagina emas.

– Ehtimol, chetdan senga yaxshiroq ko'rinar. Xotin kishi yarim soat suhbat qilolsa, bu yaxshi alomat. Shunday bo'lsayam baribir ketaman.

– Ketish xabarini ularga bildirish senga qiyin bo'lar. Ular, bizning ikki haftadan keyin nima qilishimiz haqida muhokama qilayotirlar.

– Albatta, qiyin bo'ladi. Bugun otamning jig'iga tegib, chakki qilibman-da. Yaqinda u qo'l ostidagilaridan birini savalashga buyuribdi, lekin juda yaxshi ish qilibdi, ha, ha. Menga unaqa baqrayib qarama, – juda soz qilibdi, chunki u o'g'ri-yu, borib turgan piyonista odam. Ammo otam mening bu ishdan xabar-dor bo'lib qolishimni sira kutmagan ekan, juda uyalib qoldi. Hozir ketishimni aytadigan bo'lsam o'lganning ustiga tepgan bo'ladi, bechorani xafa qilishga to'g'ri keladi... Zarari yo'q! Joyiga kelib qoladi.

Bazarov «zarari yo'q» deb aytsa ham, o'zining ketish niyatini Vasiliy Ivanovichga kun bo'yи aytolmasdan yurdi. Oxiri, uqlash oldidan xonada otasi bilan xayrلashayotib, juda beparvo holatda:

– Ha... Esimdan chiqayozipti. Ertaga otlarni bekatga, Fedotga yuborsangiz, o'sha yerdan almashтирib ketilar.

Vasiliy Ivanovich hayron qolib:

– E, Kirsanov janoblari ketmoqchimilar? – dedi.

– Ha, men ham ketaman.

Vasiliy Ivanovich turgan joyida bir aylanib oldi.

– Ketaman?

– Ha... Ketishim kerak. Otlarni tayinlab qo'ysang.

Chol duduqlanib:

– Xo'п, Fedotga... Xo'п... Lekin... Nega bunaqa qilayapsan? – dedi.

– Arkadiynikiga qisqa muddatga borishim kerak. So'ngra yana qaytib kelaman.

– Shundaymi? Ko'п turmasdan... Yaxshi, – Vasiliy Ivanovich cho'ntagidan dastro'molini oldi-da, yergacha engashib, burnini qoqdi. – Xo'п bo'lmasa... Men bu yerda... Ko'proq turarsan, deb o'ylavdim. Uch kun-a... Uch yilda bir marta kelib, uch kun turish juda oz, juda oz, Yevgeniy!

– Darrov qaytib kelaman deb senga aytayapman-ku. Zarur ishim bor.

– Zarur degin-a... Ha, mayli! Zarur bo'lsa borish kerak. Demak, otlarni yuboraymi? Xo'п. Onang ikkovimiz bunday bo'ladi deb, hech kutmagan edik. Onang qo'shnimiznikidan gul olib, sening bo'l mangni yasatmoqchi edi (Vasiliy Ivanovich bu o'rinda o'zining har kuni saharda turib, Timofeyich bilan sarpoychang maslahatlashganlarini, qaltiroq qo'llari bilan yirtiq qog'oz pullarni ketma-ket chiq-

zib, Timofeyichga har xil narsalar va, ayniqsa, har xil ovqatlik narsalar bilan birga, yoshlar yaxshi ko'radigan qizil maydan olib kelishni buyurganlanini gapirib o'tirmadi).

— Eng muhimi, erkinlik — mening tutgan yo'lim shu... Erk berish kerak...

U birdaniga jim bo'ldi-da, eshikka tomon yurdi.

— Yana tezda ko'risharmiz, ota.

Biroq Vasiliy Ivanovich burilmadi, faqat qo'lini siltadi-da, chiqib ketdi. U yotog'iga qaytib kirgani-da, xotini uxbab yotardi, uni uyg'otmaslik uchun yotarda o'qiydigan duosini shivirlab, o'qiy boshla-di. Shunday bo'lsa ham xotini uyg'onib qoldi.

— Senmi, Vasiliy Ivanovich? — deb so'radi.

— Men onasi!

— Yenyushaning oldidan kelayapsanmi? Bilasanmi, men nima deb tashvish qilyapman, u divanda tinch uxbab olarmikan? Men Anfisushkaga Yenyushaga sening safar ko'rpachangni solib, yangi yostiq qo'yib ber, deb buyurgan edim. Men unga o'zimizning par to'shagimizni berardim-u, lekin u yumshoqda yotishni yaxshi ko'rmaydi.

— Zarari yo'q, onasi, tashvish tortma. Yaxshi yotipti, — dedi Vasiliy Ivanovich, — yo Parvardigorum, biz gunoh-korlaringga rahm qil, — deb shivirlab duosini davom et-tirdi. U kampirini ayadi, o'zini qanday noxush xabar kutayotganini unga kechasi aytgisi kelmadı.

Bazarov bilan Arkadiy ertasiga jo'nab ketishi-di. Uydagilarning bari tong sahardan xafa edi. Anfisushkaning qo'lidan idishiari tushib ketar edi, hatto Fedka ham hayratda qolganligidan beixti-yor etigini yechib tashladi. Vasiliy Ivanovich har vaqtdagidan ham ko'ra, ko'proq ivirsir edi. U te-

tik bo'lib ko'rinishga tirishar, qattiq gapirar va yer tepinar, ammo uning yuzi so'ligan va o'g'liga qaramas edi. Arina Vlasyevna ohistagina yig'lardi. Eri erta bilan ikki soat uni yupatmaganida, ehtimol, butunlay dovdirab qolib, o'zini tutolmagan bo'lar edi. Bazarov ko'p bo'lsa bir oydan keyin qaytib kelishga qayta-qayta va'dalar berib, zo'rg'a onasining quchog'idan qutulib tarantasga chiqib oldi. Otlar qo'zg'aldi, qo'ng'iroq jiringladi, tarantas yurib ketdi va birpasdan keyin uning ortidan ko'tarilgan chang ham bosilib qoldi. Ular ko'rinmay ketgach, Timofeyich tamoman bukchaydi-yu, zo'rg'a oyog'ini sudrab hujrasiga qaytib ketdi. Mana shundan keyin chol-u kampir, o'zlarining go'yo birdaniga qo'nishib va keksayib qolgan kabi bo'lgan o'ylarida yolg'iz qoldilar, bundan bir necha daqqa burun zinapoya-ada o'zini bardam tutib, dastro'molini hilpillatib turgan Vasiliy Ivanovich boshini quyi solib, kursiga o'tirdi. «Tashlab ketdi bizlarni, tashlab ketdi, bizning oldimizda zerikib qoldi», dedi. Keyin so'zlarini bir necha bor takrorlab va har so'zida ko'rsatkich barmog'ini ko'rsatib: «Endi yolg'iz qoldirdi!», dedi. Shundan so'ng, Arina Vlasyevna uning oldiga kelib, boshini uning boshi uzra qo'yib: «Nima ham qilamiz, Vasya! O'g'il qanot chiqargan qush. U, lochinday gap, xohlasa uchib keladi, xohlasa uchib ketadi. Biz esa, daraxt kovagida o'sib chiqqan qo'ziqorindek joyimizda qimirlamay o'tirayeramiz. Men uchun sen bir umrlik rafiq bo'lganining kabi, men ham sen uchun bir umrlik rafiqqa bo'lib qolaman», dedi.

Vasiliy Ivanovich yuzidan qo'lini oldi-da, xotinini shunday qattiq bag'riga bosdiki, yoshligida ham uni bunday qattiq quchoqlamagan edi. Rafiqasi qayg'usiga sherik bo'lib uni yupatdi.



Do'stlar ora-siragina bir-ikki og'iz gaplashib, Fedot bekatiga yetib keldilar. Bazarov o'z qilmishidan biroz norozi edi. Arkadiy undan norozi edi. Buning ustiga Arkadiy dilida yosh yigitlargagina ma'lum bo'lgan sababsiz g'ashlik borligini his qilar edi. Izvoshchi otlarni chiqardi va yangi otlar qo'shgandan keyin o'z joyiga chiqib o'tirib: «Qayoqqa yuramiz: o'nggami yo chapgami?», deb so'radi.

Arkadiy seskanib ketdi, o'ng tomonga ketgan yo'l shaharga va undan Arkadiyning uyiga, chap tomonga ketgan yo'l Odinsovanikiga olib borar edi.

Arkadiy Bazarovga qarab:

– Yevgeniy, chapgami, – deb so'radi.

Bazarov esa teskari o'girilib, to'ng'illadi:

– Bu qanday bema'nilik! – dedi.

– Bema'nilik ekanini bilaman, lekin nima zarri bor? Birinchi marta borishimiz emas-ku! – dedi Arkadiy.

Bazarov shapkasini peshanasiga tushirib oldi.

– Bilganiningni qil, – dedi nihoyat.

– Chapga yuraver, – deb qichqirdi Arkadiy izvoshchiga.

Tarantas Nikolskiyga qarab yo'l oldi.

Biroq, do'stlar bema'nilikka qaror qilgandan keyin ham aslo gapirishmas va, hatto, bir-biriga zarda qilganday ko'rinar edi.

Odinsonaning uyi zinapoyasida qarshi olgan eshik og'asining avzoyidan do'stlar, to'satdan miyalariga kelgan xayolga berilib kelish bilan naqadar noma'qulchilik qilganliklarini bilishlari mumkin edi.

Ularning kelishini, aftidan hech kim kutmagan-di. Do'stlar mehmonxonada ancha vaqt angrayib, yolg'iz o'tirdilar. Nihoyat, Odinsova chiqdi. U odaticha mehmonlarni ochiq chehra bilan qarshi oldi, biroq ularning shuncha tez qaytib kelishlari-ga ajablanganini va u qadar xursand bo'lmanagini sekin harakati va sekin gapirishidan sezish mum-kin edi. Ular faqat yo'l-yo'lakay kirganliklarini va to'rt soatlardan keyin shaharga jo'nab ketishlarini bildirishga shoshildilar. Odinsova «Shundaymi?» deb qo'ya qoldi va Arkadiyga: «Mendan otangizga salom ayting», dedi va xolasini chaqirtirdi. Biroz-dan keyin hozir uyqudan turgani uchun ajin bos-gan afti yana ham badjahlroq ko'ringan knyajna kirib keldi. Katya tobi yo'qligi uchun xonasidan chiqmadi. Arkadiy Anna Sergeyevnani qanchal-ik ko'rgisi kelgan bo'lsa, Katyani ham shunchal-ik ko'rgisi kelganini to'satdan his qildi. Nari-beri gaplar bilan to'rt soat ham o'tib ketdi. Anna Ser-geyevna boshqalarning gapini jilmaymasdan tin-glاب o'tirdi, o'zi gapirganda ham jilmaymadi. Faqat xayrlashayotgandagina uning qalbida ilgarigi xushmuomalaligi qo'zg'algandek bo'ldi. U mehm-onlarga murojaat qilib:

— Kayfiyatim yo'qroq, sizlar bunga ahamiyat bermanglar, yana kelinglar, ikkovlaringni ham ku-taman, — dedi.

Bazarov ham, Arkadiy ham uning gaplariga ta'zim bilangina javob berdilar, keyin tarantasga chiqib o'tirdilar, hech yerda to'xtamasdan to'g'ri uyga, ya'ni Marinoga jo'nashdi. Bu yerga ertasi kechqurun eson-omon yetib keldilar. Butun yo'l bo'yi Bazarov ham, Arkadiy ham Odinsovaning

ismini hech tilga olishmadi, xususan, Bazarov, hatto og'iz ham ochmadi. U zo'r berib, doim chetga, yo'ldan uzoq joylarga qarar edi.

Marinoda ularning kelishiga hamma juda xursand bo'ldi. O'g'lining uzoq yo'qolib ketishi Nikolay Petrovichni tashvishga sola boshlagan edi. Fenichka xursand bo'lib, uning oldiga yugurib kirdi va «yosh janoblar»ning kelganini xabar qilgach, Nikolay Petrovich qichqirib yubordi va oyoqlarini silkitib o'tirgan divan ustiga chiqib sakradi, hatto Pavel Petrovich ham qaytib kelgan sayoqlarni ko'rib, qalbida bir qadar yoqimli hayajon his qildi va muloyim tabassum bilan ularning qo'llarini silkib ko'rishdi. Gap-so'z boshlandi. Hammadan ko'p Arkadiy gapirdi. Xususan, yarim kechadan ham uzoqqa cho'zilgan kechki ovqat vaqtida juda ko'p gapirdi. Nikolay Petrovich kechki ovqatga endigina Moskvadan keltirilgan bir necha shisha may olib kelishni buyurdi va o'zi shu qadar ko'p ichdiki, betlari qizarib ketdi. U boladay yoxud asabiy kishiga o'xshab hadeb kulaverdi. Umumi shodlik xizmatkorlarga ham o'tdi. Dunyasha, kirganda-chiqqanda eshikni taraqlatib, jinnidek u yoqdan-bu yoqqa chopib yurar edi. Pyotr esa, hatto soat tungi ikkidan os-hgan bo'lsa ham, gitarada kuy chalishga urinar edi. Uning torlari sokin havoda juda mungli va yoqimli jaranglar, biroq o'qimishli kamerdiner kichik bir boshlang'ich fiorituradan¹ bo'lak hech nimani bilmasdi: tabiat uni boshqa qobiliyatlar bilan bir qatorda ijrochilik mahoratidan ham mahrum qilgan edi.

¹ Fioritura - ashulada kuyni bezaydigan qo'shimcha usul.

Ammo Marinoda hayot judayam joyida emas, bechora Nikolay Petrovichning ahvoli yomon edi. Fermaning tashvishi – ko'ngilsiz tashvishi kundan-kun ortmoqda edi. Yollanma ishchilar bilan ish qilish juda qiyin bo'lib qolgandi. Ba'zilari javob berishni yoki maoshni oshirishni talab qilar, boshqa birovleri qarzga pul olib, ishlamasdan ketib qolar edi. Otlar kasal bo'lar, egar-jabduqlar o'tda kuydirgandek kuyib ishdan chiqar, ishlar pala-partish qilinar edi. Moskvadan keltirilgan g'alla yanchish mashinasi og'ir bo'lganidan ishga yaramasdi, ikkinchisini esa bir ishlatishdayoq buzib qo'yishdi. Xizmatkorlardan bir ko'r kampir, o'z sigirini tutunga islatay deb shamol turgan kuni molxonaga yonib turgan chalani olib kirganida, molxonaning yarmi kuyib ketdi... Ammo kampirning aytishiga qaraganda, hamma balo Nikolay Petrovichning sigir asrab, allaqanday sut mahsulotlari tayyorlashni o'ylab chiqarganidan bo'lgan emish. Sarkor yalqovlashib, «tekin non» topgan har bir rus singari semirishni boshladi. U yiroq-dan Nikolay Petrovichning kelayotganini ko'rib, o'z jonkuyarligini unga ko'rsatish uchun oldidan chopib o'tayotgan cho'chqa bolasiga kesak otar yoki yarim-yalang'och bolaga do'q qilar, lekin o'zi vaqt ni ko'pincha uplash bilan o'tkazar edi. Obrok to'laydiganlar tegishli pulni muddatida to'lamas, hadeb daraxtlarni o'g'rincha kesar edi. Qorovullar har kechasi fermaga qarashli pichanzorlardan dehqonlar otlarini ushlab olar, ba'zan esa otlarni dehqonlar bilan janjallahib, haydab olib kelar edilar. Nikolay Petrovich ekinlarni payhon qilgani uchun ot boshiga pul jarima ham belgilab qo'ygan edi, lekin odatda bu ish shu bilan tamom bo'lar ediki, ushlab olingan otlar bir-ikki kun

xo'jayinnikida boqilganidan keyin egalariga qaytarib berilardi. Buning ustiga xizmatchilar bir-birlari bilan janjallashib qolar, aka-ukalar taqsim qilishni talab qilar, ularning xotinlari bir uyda chiqisholmas edi. Birdaniga mushtlashish boshlanib, xuddi buyruq berilganday, hamma qo'zg'alib qolar, to'planishib idora oldiga kelar, aksar musht yegan aft bilan mast holda xo'jayin oldiga kirishar vaadolat so'rab, jazo berishni talab qilishar edi. Natijada, shovqin-suron ko'tarilar, oh-voh ovozlari va erkaklarning so'kishlari orasida xotinlarning chiyillagan tovushlari eshitildi. Xusumatlashganlarning ishini tekshirish, to'g'ri bir qarorga kelish mumkinmasligini oldindanoq bilib turib, tomog'i xirillaguncha, xo'jayin o'zi baqirishi kerak bo'lar edi. Ekin o'rish uchun ham o'roqchilar yetishmasdi, aft-andomi juda yoqimli bir qo'shni odnodvores¹ ikki so'mdan o'roqchilar topib berishni kelishib, keyin o'taketgan insofsizlik bilan aldadi. Nikolay Petrovichga qarashli xotinlar haddan ziyod qimmat so'rashar edi. O'roq ishi sudralib, g'alla yerga to'kilmoxda, buning ustiga Vasiylar kengashi² po'pisa qilib, tegishli foizlarni darhol va boqimandasiz to'lashni talab qilar edi...

Nikolay Petrovich aksar vaqt umidsizlanib:

– Sira madorim qolmadi. O'zim mushtlasholmayman. Mirshab chaqirtirish tutgan yo'limga to'g'ri kelmaydi, ammo jazo berish bilan qo'rqitmay turib, hech ish qilib bo'lmaydi! – der edi.

Bunga qarshi Pavel Petrovich:

¹ Odnodvores – mayda dvoryanlar urug'iga mansub kishi.

² Vasiylar kengashi – Inqilobdan burun Rossiyada yetim-yesirlar va hokazolarning moddiy ta'minotiga oid ishlarni idora qiluvchi muassasa.

– Du calme, du calme¹, – deb qo'yar, ammo o'zi esa xurillar, qovog'ini solib mo'ylovini siypalardi.

Bazarov bu g'ovur-g'uvurlardan o'zini chetda tutar edi, undan keyin, mehmon bo'lib turib, birovlarning ishiga aralashish ham to'g'ri kelmasdi. Marinoa kelgan kunlarining ertasidan boshlab u o'zining baqalari, infuzoriyasi², kimiyoiy tarkiblari bilan shug'ullanishga kirishdi va doim shu ishlar bilan ovora edi. Arkadiy esa, aksincha, otasiga yordam qilish maqsadi bilan bo'lmasa ham aqalli o'zining yordam qilishga tayyorligini ko'rsatish uchun, ozmoz uning ishlariga aralasha boshladi. Otasi bir ish haqida gap ochib qolsa, gaplarini toqat qilib tinglab turar va bir marta unga bir maslahat ham berdi, buni ham, albatta, o'z gapiga kirsinlar, deb emas, balki otasining ishlariga o'zining ishtirok qilayotganini ko'rsatish uchun qildi. U xo'jayinlik ishlari dan jirkanmas, hatto agronomlik faoliyati to'g'risida jon deb o'ylar edi, biroq shu onda uning miyasida boshqa fikrlar tug'ilib qoldi. Arkadiy doim Nikolskiy to'g'risida o'layotganiga o'zi ham hayron edi, agar bundan ilgari unga biror kishi, sen Bazarov bilan bir joyda, yana qanday joyda degin, o'z ota-onang uyida tursang diqqat bo'lib qolasan deb aytса, u ajablanar, faqat kift qoqibgina qo'yan bo'lar edi; ammo hozir u haqiqatan zerikdi va uydan chiqib ketgisi kelar edi. U charchaguncha kezishni xayoliga keltirdi, bu ham unga yordam bermadi. Bir kuni gaplashib o'tirib, otasining qo'lida bir vaqtlar Odinsonning onasi tomonidan o'zining marhuma onasiga yozilgan qiziq xatlar borligini bilib qoldi. Bu nomalarni ertasidan olish uchun uni hol-joniga qo'ymadni va oxiri, Nikolay Petrovich o'zining

¹ Du calme, du calme – xotirjamlik, xotirjamlik.

² Infuzoriya – bir hujayrali jonivorlik.

yigirmatacha quti-yu sandiqchalarini titkilab, o'sha xatlarni topib berishga majbur bo'ldi. Yarmi chirigan xatlarni qo'lga kiritgandan keyin Arkadiy maqsadiga erishganday xotirjam bo'ldi. U nuqul shivirlab: «O'zi, ikkovlaring ham kelinglar, degan edi», deb takrorlar va: «Boraman, albatta boraman!» der edi. Biroq u so'nggi marta borganlarida, sovuq kutib olinganliklarini va o'shanda chekkan xijolatini xotirladi. Ammo yoshlikning «tavakkal»i, baxt toleyini pinhona sinab ko'rish istagi, o'z kuchingni yakkama-yakka birovlarining himoyasisiz salmoqlab ko'rish orzusi oxir uni yengdi. Marinoga qaytib kelishiga hali o'n kun ham bo'lmasdan, u bozor kuni maktablarning ish usulini o'rganish bahonasi bilan yana shaharga va undan Nikolskiyga qarab, ot choptirib ketdi. U xuddi jang maydoniga talpinayotgan yosh zabit singari, hadeb aravakashini qistar edi. Yigit ham qo'rqrar, ham vaqtı chog' bo'lar, sabrsizlik uni bo'g'ar edi. U o'z-o'ziga: «Eng muhimi, o'ylash kerak emas», der edi. Uning aravakashi juda chaqqon odam chiqdi, u uchragan har bir mayxona oldida to'xtab: «Cho'qishtiramizmi?» der, cho'qishtirib olgandan keyin otlarni sira ayamasdi. Nihoyat, tanish uyning baland tomi ham ko'rindi... To'satdan Arkadiyning boshiga: «Nima qilayapman?» degan savol keldi. «Endi orqaga qaytib bo'lmaydi».

Uch otliq tarantas vizillab chopar, aravakash hayqirar va hushtak chalar edi. Mana tarantas gumburlagani-cha, ko'prikdir ham o'tdi, mana tepasi tekis qilib qir-qilgan archa xiyoboni ham yaqinlashdi... Daraxtlar ora-sida pushtirang ayol ko'y lagi ko'rinish qoldi, yengilgina soyabon popuklari tagidan bir yosh chehra bo'y berib qaradi... Arkadiy Katyani, Katya esa uni tanidi. Arkadiy aravakashga qizishib ketgan otlarni to'xtatishni buyurdi va tarantasdan sakrab tushdi-da, Katyaning oldiga keldi. Katya uni ko'rib, biroz qizarib: «Siz ekansiz-u! Yuring,

opamning oldiga boraylik shu yerda, bog'chada u sizni ko'rib, juda xursand bo'ladi», dedi.

Katya Arkadiyni bog'chaga olib ketdi. Katya bilan uchrashuv Arkadiy uchun baxt alomatiday ko'rindi. U Katyani ko'rib, xuddi qarindoshini ko'rganday sevindi. Hamma ish o'ngidan keldi-qo'ydi. Uni eshik og'asi ham qarshi olmadi, uning kelganligi haqida hech kim xabar ham yetkazmadidi. Yo'lkaning muyilishida Arkadiy Anna Sergeyevnani ko'rdi. U orqasi bilan turar edi, oyoq tovushini eshitib, sekkingina o'girildi.

Arkadiy yana dovdirab qolayozdi, lekin Anna Sergeyevnaning birinchi so'zlarini eshitib, darrov o'zini bosib oldi. Anna Sergeyevna muloyim, yoqimli ovoz bilan «Esonmisiz, qochoq!» dedi-yu, oftob bilan shamlordan ko'zlarini qisa-qisa jilmayib, unga tomon keilar ekan: «Katya bu kishini qayerdan topding?» deb so'radi.

– Men sizga bir nima olib keldim, Anna Sergeyevna, lekin siz buni hech bir kutmagan bo'sangiz kerak... – deb gap boshladi Arkadiy.

– Kelganingizning o'zi hammasidan a'lo.

Bazarov Arkadiyni istehzoli achinish bilan shaharga borishdan asl maqsadi nimaligidan xabar dorligini unga bildirib, kuzatganidan keyin butunlay yolg'iz qoldi va butkul ishga berilib ketdi. Pavel Petrovich bilan u endi bahslashmas edi. Xususan, Pavel Petrovich uning oldida o'zini ilgarigidan ham battarroq asilzoda tutar va o'z fikrlarini so'z bilan emas, balki ko'proq tovush bilan bayon etardi. Pavel Petrovich bir kuni nigilist bilan bahslashmoq-

chi bo'lib, o'sha vaqtarda rasm bo'lgan masalalar-dan Ostzey dvoryanlarining¹ huquqlari to'g'risida so'z ochib qoldi-yu, lekin birdan gapdan to'xtab, sovuqqina tavoze bilan: «Ammo bir-birovimizning gapimizga baribir tushunmaymiz, har holda, men o'zim sizning gapingizga tushunishdan yiroqdaman», deb qo'ydi.

— Ha shunday! — dedi Bazarov. — Odamning hammasiga — fazoda nimalar yuz berayotgani-yu, quyoshda nimalar sodir bo'layotganiga ham aqli yetadi, lekin ba'zi odam har kimni ham o'ziday deb fahmlab, birovlar boshqacha yo'l tutganligiga aqli yetmaydi, — dedi.

— Nima, bu askiyami? — dedi Pavel Petrovich va o'zini chetga oldi.

Ammo, ba'zan Pavel Petrovich, Bazarovdan ijo-zat so'rab, uning ilmiy tajribalariga qatnashar, hatto bir marta o'zining atir sepgan va a'llo nav dori bilan yuvgan yuzini Bazarovning mikroskopiga ya-qin olib kelib, unda bitta shaffof infuzoriya qanday qilib ko'k gardni chaynab yutib yuborganini ko'rdi. Bazarovning oldiga o'z akasidan ko'ra ko'proq Nikolay Petrovich kirib turar edi. Agarda xo'jalik ishlari bilan ovora bo'lmaningda, o'zi aytganiday «o'rganish» uchun har kuni uning oldiga kirgan bo'lar edi. Nikolay Petrovich yosh tabiatshunosga xalal bermasdi. U bo'lmaning bir burchagiga o'trib olib, diqqat bilan tomosha qilar va har zamon sekingina bir savol berib qo'yardi. Tushlik va kechki ovqat mahalida Nikolay Petrovich ko'proq fizika, geologiya yoki kimyo haqida bahs ochishga harakat qilardi. Chunki barcha boshqa: siyosiy masa-

¹ Ostzey dvoryanlari – 1914-yilgi urushgacha Rossiyaga qarashli Boltiq bo'yи dvoryanlari.

lalar u yoqda tursin, hatto xo'jalik ishlari bora-sidagi munozaralar o'zaro janjal chiqishiga yo hech bo'limganda norozilik tug'ilishiga sabab bo'lar edi. Nikolay Petrovich akasining Bazarovni boyagidek yomon ko'rib yurishini payqar edi. Boshqa voqealar qatorida bo'lib o'tgan kichkina bir voqea uning bu fikrini tasdiqladi. Atrofdagi qishloqlarda vabo paydo bo'la boshladi va, hatto, Marinoning o'zidan ham ikki kishini «olib ketdi». Kechasi Pavel Petrovichni qattiq tutqanoq tutib, ertalabgacha azob tortib chiqdi-yu, lekin Bazarovdan yordam so'ramadi. Ertasiga uni ko'rganida va u: «Nega menga odam yubortirmadingiz?», deb so'ranganida, rangi hanuz oqarinqiragan, lekin sochlarini silliq tarab, soqolini qirib olgan Pavel Petrovich: «Siz o'zingiz tibbiyotga ishonmayman, deb aytgan emasmidingiz?», deb javob berdi. Kunlar shu tarzda o'tib borardi. Bazarov astoydil ishlar va qovog'i soliq edi... Ammo Nikolay Petrovichning uyida bir zot yashar va Bazarov u bilan zerikkanidan emas, balki bajonidil suhbatlashardi. Bu Fenichka edi.

Bazarov Fenichka bilan aksar ertalab bog'chada yoki hovlida uchrashardi. Bazarov uning bo'lmasiga kirmas va Fenichka ham uning eshigi oldiga faqat bir martagina kelib, «Mityani cho'miltirish mumkinmi, yo'qmi?» deb so'rab ketgan edi. Fenichka Bazarovga ishonish va hayiqish u yoqda tursin, balki uning oldida o'zini Nikolay Petrovichning huzuridagidan ham ko'ra erkinroq tutar edi. Buning sababini aytish qiyin, ehtimol, Bazarovda kishini o'ziga tortadigan, ham qo'rqtadigan o'sha dvor yanlik oliy martabasining yo'qligini ongsiz ravishda his qilishdan kelib chiqqan bir tuyg'udir.

Bazarov uning ko'ziga ham juda yaxshi bir doktor, ham juda sodda odam bo'lib ko'rinaldi. Bazarov oldida u hech uyalib-netib o'tirmasdan bolasi bilan ovora bo'lardi. Bir kuni to'satdan boshi aylanib, og'rib qolganda uning qo'lidan bir qoshiq dori ham ichgan edi. Nikolay Petrovich yonida u Bazarovdan yotsiraganday bo'lar, lekin buni mug'ombirlikdan emas, balki odob yuzasidan qildi. Pavel Petrovichdan ayol ilgarigidan ham battaroq qo'rqadigan bo'lib qoldi. U birmuncha vaqtidan buyon Fenichkani kuzatadigan va aksar bexosdan, go'yo yer ostidan chiqqandek qo'llarini cho'ntagiga tiqib, orqasida paydo bo'lib qoladigan odat chiqardi. Fenichka Dunyashaga: «Xuddi ustingga sovuq suv qo'ygandek bo'lasan, kishi», deb shikoyat qilar, u esa uning shikoyatiga javoban faqat oh tortar va boshqa bir «hissiz» odam to'g'risida o'ylar edi. Bazarov o'zi bexabar Dunyasha uchun shafqatsiz zolim bo'lib qolgan edi.

Bazarov Fenichkaga yoqib qoldi. Shuningdek, Fenichka ham Bazarovga ma'qul edi. U bilan gaplashganida, hatto Bazarovning rangi o'zgarib ketardi: chehrasi ochilar, mehribonlik aks etar va odatdagi e'tiborsizligi qandaydir hazilomuz diqqat-e'tiborga aylanardi. Fenichka kun sayin ochilmoxda edi. Yosh juvonlarning hayotida, xuddi yozdagi atirgul singari birdaniga gullab va ochilib ketadigan mavsumi bo'ladi, Fenichkaning ham xuddi ana shunday mavsumi kelgan edi. Hammasi, hatto shu vaqtagi iyul jaziramalari ham bunga ko'maklashar edi. Kiygan yengil oq ko'ylagi ichida u oqroq va yengilroq ko'rinaldi. Uning badani oftobdan qoraymagan, lekin qochib qutula ol-

magani issiq kunlar ta'siri bilan beti-yu qulqlari sal-pal qizarib, butun vujudiga yalqovlik singgan, xumor ko'zlarida esa uyqusirash alomatlari aks etar edi. U hech ishlay olmas, qo'llari hadeb tiz-zalariga sirg'alib tushar edi. U zo'rg'a yurar va ajib bir madorsizlik bilan doim oh tortar va zorlanardi.

– Sen tez-tez cho'milib tursang bo'lar edi, – der edi Nikolay Petrovich unga. Nikolay Petrovich hali qurib qolmagan hovuzlaridan birining oldiga atrofi surf bilan o'ratilgan katta cho'milish joyi qilgan edi.

– Uf, Nikolay Petrovich! Hovuzga yetguncha issiqdan o'lib ketish mumkin, qaytishda ham xuddi shunday, o'lib bo'lasan kishi. Bog'chada soya joy yo'q-ku, axir, – der edi Fenichka.

Nikolay Petrovich unga javoban:

– Gaping to'g'ri, haqiqatan soya joy yo'q, – der va qoshlarini artib, qo'yari edi.

Bir kuni ertalab, soat yettilarda Bazarov aylanib kelayotib, allaqachon gullari to'kilgan, lekin hali quyuq va qalampirgullar ko'karib turgan shiyonda Fenichkani ko'rib qoldi. Fenichka odatdagicha boshiga oq ro'mol solib, o'rindiqda o'tirardi. Uning yonida hali shudringdan qurimagan bir dasta qizil atirgul yotardi. Bazarov u bilan salomlashdi.

– Hal! Yevgeniy Vasilyevich! – dedi Fenichka va Bazarovga qaramoq uchun ro'molining chetini salgina ko'tarib qo'ydi, shunda qo'li tirsagigacha ochilib ketdi.

Bazarov uning yoniga o'tirayotib:
– Xo'sh, bu yerda nima qilib o'tiribsiz, gul boylayapsizmi? – deb so'radi.

– Ha, nonushta vaqtida stolga qo'yish uchun. Nikolay Petrovich buni yaxshi ko'radi.

– Nonushta mahaliga hali ancha bor. Eh-he, qancha gul uzibsiz-a!

– Men bularni hozirgina uzdim, bo'lmasa, kun isigandan keyin chiqib ham bo'lmaydi. Faqat hozir nafas olish mumkin, xolos. Issiqliqdan butunlay tinka kam quridi. Kasal bo'lib qolmasmikanman, deb qo'rqaman.

– Nima bu, qanaqa vahima! Qani, tomiringizni bering, bir ushlab ko'ray-chi, – Bazarov uning qo'lini olib, tekis urib turgan tomirini topib, ushlab ko'rdi va, hatto, necha marta urishini ham sanamasdan, uning qo'lini qo'yib yuborayotib: – yuz yil yashaysiz, – deb qo'ydi.

– Voy, Xudo saqlasin! – dedi Fenichka.

– Nima? Uzoq umr ko'rishni istamaysizmi?

– Yuz yil axir! Sakson besh yoshga kirgan bувимиз bor edi, sho'rlik qanday azob chekar edi-ya. Qop-qorayib ketgan, kar, bukri, doim yo'talganiyo'talgan edi. O'zi uchun turgan-bitgani azob. Shu ham hayot bo'ldimi?

– Demak, yosh bo'lish yaxshimi?

– Bo'lmasa-chi!

– Yoshlikning qarilikdan nimasi yaxshi qani, aytilib bering-chi menga?

– Nechuk nimasi? Mana, men hozir yoshman, hamma ishni qila olaman. O'zim boraman, o'zim kelaman, keragini o'zim ko'tarib keltiraman, xul-las, hech kimning yordamiga muhtoj emasman... Shunisi tuzuk emasmi?

– Menga, yoshmanmi yoki qarimanmi – baribir.

– Qanday qilib buni baribir deysiz? Bunday bo'lishi mumkin emas, nega bunday deysiz?

– Siz o'zingiz o'ylab ko'ring, Fedosya Nikolaevna, yoshligimning menga nima keragi bor? Men yolg'izman, bola-chaqam yo'q...

– Bu har vaqt o'zingizga bog'liq masala.

– Bu mening ixtiyorimga bog'liq emas. Aqalli bিrор kimsа menga achinsa edi....

Fenichka Bazarovga qиyo boqib qo'ydi-yu, hech nima demadi, birpasdan keyin:

– Qo'lingizdagи qanaqa kitob? – deb so'radi.

– Bumi? Bu darslik, qimmatli kitob.

– Siz hali ham o'qiysizmi? Zerikmaysizmi-a? Siz busiz ham hamma narsani bilsangiz kerak.

– Ko'rinib turibdiki, hamma narsani emas. Siz buni biroz o'qib ko'ring-chi.

Fenichka og'ir muqovali kitobni ikki qo'llab olayotib:

– Undan hech nimani tushunmasam kerak. Qanday qalin kitob-a, – dedi va: – ruscha yozilgаними? – deb so'radi.

– Ha, ruscha.

– Baribir men hech nima tushunmayman.

– Men haliyam buni sizga tushunish uchun berayotganim yo'q. Men faqat sizning o'qishingizni ko'rmoqchiman. Siz o'qigan vaqtingizda burunchangizning uchi juda g'alati harakat qilib turadi.

Fenichka kitobni ochib, «krionot haqida» degan bir maqolani sekingina o'qiy boshlagandi, lekin darrov kulib, kitobni tashlab yubordi. Kitob o'rindiqdan sirg'anib yerga tushib ketdi.

Bazarov unga qarab:

– Men sizning kulishingizni ham yaxshi ko'raman, – deb qo'ydi.

– Qo'ysangiz-chi!

– Men so‘zлаshingizni ham yaxshi ko‘raman. Ovozingiz qo‘ng‘iroqday.

Fenichka yuzini chetga o‘girdi va qo‘lidagi gullari o‘ynar ekan:

– Qo‘ysangiz-chi, siz shunday aqli xonimlar bilan gaplashgan odamsiz, – dedi.

– Eh, Fedosya Nikolayevna! Butun dunyodagi aqli xonimlarning bari tirmog‘ingizga ham arzimaydi desam ishonavering.

Fenichka shivirlab:

– Ana xolos, yana nimalarni o‘ylab chiqarayotibsiz! – dedi va qo‘llarini qovushtirdi.

Bazarov yerdan kitobni oldi.

– Bu tabiblik kitobi, nega siz uni yerga tashlaysiz?

– Tabiblik kitobimi? – dedi Fenichka va unga o‘girildi. – Bilasizmi, Mitya juda yaxshi uxlaydigan bo‘lib qoldi. Men endi qanday qilib sizni rozi qilishimni bilmay yuribman: chindan ham siz mehribon odamsiz.

Bazarov kulimsirab:

– Qoida shunday – tabiblarga haqiqiy haq to‘lash kerak. O‘zingiz bilasiz, tabiblar tamagir bo‘ladilar.

Fenichka Bazarovga qaradi, uning ko‘zlari yuzining yuqori qismiga tushib turgan oqimtir shu’ladan yanada qoraroq bo‘lib ko‘rinar edi. U Bazarovning hazillashibmi, yoki chindan aytganini bilmas edi.

– Agar qabul qilsangiz, biz hech narsani ayamaymiz... Nikolay Petrovichga aytish kerak.

Bazarov uning so‘zini bo‘lib:

– Siz meni pul tama qilayotipti, deb o‘ylaysizmi?

Yo‘q istaganim pul emas, – dedi.

– Bo‘lmasa nima? – dedi Fenichka.

– Nimaligini o‘zingiz o‘ylab topping, – dedi Bazarov.

- Men nima, folbinmanmi?
- Unday bo'lsa o'zim ayta qolay: men... ana shu atirgulingizdan bittasini so'rayman.

Bazarovning istagi Fenichkaga qiziq tuyildi, u yana kulib yubordi va, hatto, qo'llarini o'ynatib qo'ydi. U kular va ayni vaqtida Bazarovning xushomadidan taltayar, yigit esa unga tikilib turar edi.

Nihoyat, Fenichka so'z boshlab:

- Marhamat qiling, marhamat, - dedi va o'rindiqqa engashib, guldan tanlay boshladi. - Qanaqasini xohlaysiz, qizilidanmi, yo oqidan?
- Qizilidan, lekin juda ham kattasi bo'lmasin.

Fenichka qomatini rostlab:

- Mana oling, - dedi, lekin cho'zgan qo'lini darrrov tortib oldi-da, keyin labini tishlab, shiyponning kiraverishiga qaradi, keyin engashib, qulq sola boshladi.

- O'zi nima gap? Nikolay Petrovichmi? - deb so'radi Bazarov.

- Yo'q, u kishi dalaga ketdilar... Men ular dan qo'rqu mayman ham... Pavel Petrovich ko'ringanday bo'ldi.

- Nima?

- Menga o'sha kishi shu yerda yurganday bo'lib ko'rindi. Yo'q, hech kim yo'q ekan... Mana oling.

Fenichka Bazarovga atirgulni berdi.

- Nima uchun siz Pavel Petrovichdan hayiqasiz?

- U kishi doim meni qo'rqi tadilar. Gapirishga-ku hech gapirmaydilar, lekin qarashlari juda g'alati. Siz ham u kishini yomon ko'rasiz, shundaymi? Esingizda bormi, ilgarilari doim bahslashardingiz. Men sizlarning nima haqida bahslashganingizni bilmayman-u, lekin uni dam u yoqqa, dam bu yoqqa aylan-tirganingizni ko'rар edim...

Fenichka, o'z fikricha, Bazarovning Pavel Petrovichni qanday qilib aylantirganlarini qo'li bilan ko'rsatdi.

Bazarov kului va:

– Agarda u meni yengishni boshlasa, siz menga yordam berarmidingiz? – deb so'radi.

– Qanday qilib men sizga yordam beraman? Yo'g'-ey, sizga hech kim bas kelolmaydi.

– Hali shunday deng? Men shunday bir qo'lni bilamanki, agar u istasa meni bir barmog'i bilan ag'darib tashlaydi.

– Qanday qo'l ekan u?

– Go'yo siz buni bilmaysiz-a? Menga bergen atirgulin-gizni hidlab ko'ring-chi, qanday xushbo'y, a?

Fenichka bo'ynini cho'zib, yuzini gulga yaqinlashtirdi... Boshidagi ro'moli yelkasiga tushib, qop-qora, yaltiroq va sal to'zg'igan sochlari ko'rindi.

– Shoshmang, men ham siz bilan shu gulni hidlamoqchiman, – dedi-da, engashdi va uning ochilib turgan lablарidan qattiq o'pdi.

Fenichka seskanib ketdi va ikki qo'lini Bazarovning ko'kragiga tiradi. Lekin qattiq qarshilik ko'rsatmadidi. Bazarov uni yana bemalol o'pishda davom etdi...

Qalampir guli orqasidan yo'talgan tovush eshitildi. Fenichka darrov o'rindiqning narigi chetiga surildi. Shiypon oldida Pavel Petrovich iztirob bilan: «Siz shu yerdamisiz?», deb so'radi va o'z yo'lida davom etdi. Fenichka darrov gullarni yig'ishtirib olib, shiypordan chiqib ketdi. U ketayotib: «Uyal-maysizmi, Yevgeniy Vasilyevich?» deb shivirlab qo'ydi. Uning bu so'zlaridan samimiy o'pkalanish anglashilar edi.

Bazarov yaqindagina bolib o'tgan bolak bir voqeani xotirladi va o'z-o'zidan uyalib, pushaymon yedi.

Biroq u shu ondayoq, boshini silkib, istehzo bilan o'z-o'zini «rasman Seladon¹ bo'lishi bilan» tabrikladida, o'z bo'lmasiga qarab ketdi.

Pavel Petrovich esa bog'chadan chiqib ketdi va sekin-asta qadam bosib, o'rmonga bordi. U o'rmonda uzoq yurdi va nonushta mahalida qaytib kelganida, Nikolay Petrovich uning salomatligini so'radi, chunki uning yuzi juda qorayib ketgan edi.

Pavel Petrovich unga ohista javob berib:

– O'zing bilasanki, ba'zan safro g'olib kelib, azob chekaman, – dedi.

24

Oradan ikki soatcha o'tgandan keyin Pavel Petrovich Bazarovning eshigini taqillatdi va bo'limga kirgandan keyin deraza oldidagi kursiga o'tirib, fil suyagidan ishlangan go'zal naqshli hassaga ikki qo'li bilan suyangan holda (odatda u tayoqsiz yurar edi) so'z boshladi:

– Men ilmiy ishlaringizga xalaqit berayotganim uchun uzr so'rashim lozim, lekin besh daqiqa vaqtin-gizni olishga izn bering, deyishga majburman... besh daqiqadan oshiq emas.

– Butun vaqtim sizning ixtiyorningizda, marhamat qiling, – dedi Bazarov. Pavel Petrovich uyga kirib kelishi bilan Bazarovning yuragi shuv etib, yuzida allaqanday o'zgarish paydo bo'lgan edi.

– Menga besh daqiqa kifoya. Men sizga bitta savol bermoqchi bo'lib kirdim.

– Savol? Nima haqda?

¹ Seladon – fransuz yozuvchilaridan biri Yurfening (1567–1627-yillard) «Astreya» romanidan olingan yaramas xotinlar tipi.

– Xo‘p, marhamat qilib quloq soling. U kamning uyiga kelgan kunlaringizda, siz bilan suhbatlashib yurgan vaqtlarimda juda ko‘p masalalar xusu-sidagi muhokamalaringizni eshitgandim, ammo oramizda duel haqida hech bir gap-so‘z bo‘lgani yo‘q edi. Bu haqda siz qanday fikr dasiz?

Pavel Petrovichni qarshi olish uchun o‘rnidan turgan Bazarov qollarini tizzasiga chalmashtirib, stol chetiga o‘tirdi.

– Mening fikrim shunday – nazariy jihatdan duel ma’nosiz ish, endi amaliy nuqtayi nazardan qara-sak, boshqa masala.

– Ya’ni, agarda gapingizni to‘g‘ri anglagan bo‘lsam, siz shunday demoqchisiz: duel haqida nazariy fikrin-giz qanday bo‘lmasin, amalda haqorat da‘vo qilib, haqorat qilgan kishini duelga chaqirasiz?

– Siz mening fikrimni to‘g‘ri angladингiz.

– Juda soz. Men ham sizdan buni eshitganimdan behad mamnunman. So‘zlar ingiz meni betayinlikdan xalos etadi.

– Jur’atsizlikdan demoqchi bo‘lsangiz kerak?

– Men uchun baribir. Men o‘z so‘zimni boshqa-lar uchun tushunarli tarzda so‘zlayman. Men... seminariya kalamushi emasman. So‘zlar ingiz meni ba‘zi bir ko‘ngilsiz zaruratdan xalos etadi. Men siz bilan otishmoqqa qaror qildim.

Bazarovning ko‘zlarini olayib ketdi.

– Men bilanmi?

– Albatta, siz bilan.

– Nima uchun? Aytishingiz mumkinmi?

– Sababini sizga bayon qilishim mumkin edi-yu, lekin bu haqda og‘iz ochmaslikni afzal ko‘raman. Menimcha, bu yerda ortiqcha odamsiz. Sizni

ko'rgani ko'zim yo'q, sizdan nafratlanaman va agar bu ham kamlik qilsa...

Pavel Petrovichning ko'zlariga qon to'ldi... Bazarovning ham ko'zları qizarib ketdi.

– Juda yaxshi, – dedi Bazarov, – bo'lak tushuntirishlarning hojati yo'q. O'zingizning ritsarligingizni menga ko'rsatish xayoliga tushibsiz-da. Men bunday rohatdan sizni mahrum etishim mumkin edi. Lekin mayli, mendan nima ham ketdi!

– Sizdan minnatdorman, meni boshqacha tadbirga murojaat qilgani majbur etmay, chaqirig'imni qabul etarsiz, deb umid qilsam bo'ladi.

Bazarov sovuqqonlik bilan:

– Ya'ni, kinoyasiz aytganda, shu tayoqqa murojaat qilmasdan demoqchisiz-da, a? Bu juda to'g'ri. Haqorat qilishingizga aslo zarurat yo'q. Bu unchalik xavfsiz ham emas. Siz o'z jentlmenligingizda turavering... Chaqirig'ingizni men ham jentlmenlarcha qabul qilaman, – dedi.

– Juda soz, – dedi Pavel Petrovich va hassasini burchakka suyab qo'ydi. – Hozir biz duelimizning shartlari to'g'risida qisqacha gaplashib olishimiz kerak, ammo men dastavval shuni bilmoqchi edim, sizningcha, duelga chaqirishimga bahona bo'ladi-gan kichik bir rasmiy janjal chiqarishimiz kerakmi yo yo'q?

– Yo'q, yaxshisi, rasmiyatsiz.

– Men ham shunday deb o'ylayman. Undan keyin mojarolarimizning asl sabablarini, tekshirib o'tirishni ham o'rinsiz, deb bilaman. Bir-birimizni ko'rgani ko'zimiz yo'q-ku, axir. Bundan ortiq yana nima kerak?

Bazarov uning so'zlarini istehzo bilan takrorlab:

– Bundan ortiq yana nima kerak?

– Endi duelning shartlariga kelsak, bizda sekundantlar bo'lmaydi, chunki ularni qayerdan topamiz?

– Shunday, ularni qayerdan topamiz?

– Men sizga shunday shart taklif qilaman: ertaga ertalab, masalan, soat oltida, chakalakzorning narigi tomoniga chiqib, to'pponcha bilan otishamiz, baryer o'n qadam...

– O'n qadam? Bu nimasi? Axir biz bir-birimizni bu masofada ko'rolmaymiz.

– Sakkiz qadam bo'lishi ham mumkin, – deb qo'ydi Pavel Petrovich.

– Mumkin, albatta.

– Har birimiz ikki martadan otamiz, ammo har ehtimolga qarshi cho'ntagimizga xat yozib qo'yaylik, unda har kim o'limida o'z-o'zini ayblasin.

– Men bunga rozi bo'lolmayman. Biroz fransuzlar romaniga o'xshab ketdi, allaqanday haqiqatdan uzoq bo'lib chiqadi, – dedi Bazarov.

– Balki, lekin o'zingiz bir o'ylab qarang, birovning qotili degan shubhaga duchor bo'lish yaxshimi?

– Yaxshi emas. Lekin ko'ngilsiz ta'nadan qutulish chorasi bor. Bizda sekundantlar bo'lmasa, guvoh bo'lishi mumkin.

– Kimning guvoh bo'lishini bilish mumkinmi?

– Pyotr.

– Qaysi Pyotr?

– Ukangizning kamerdineri. Bu kishi hozirgi zamon ma'rifatining yuqori pog'onasida turadi va o'z vazifasini bunday vaqtarda, butun zarur shartlarga muvofiq, benuqson bajaradi.

– Siz hazillashayotganga o'xshaysiz, muhtaram afandim.

– Aslo! Mening taklifimni muhokama qilib ko'r-sangiz, aqlga muvofiq va sodda ekanini o'zingiz ham bilib qolarsiz. Oyni etak bilan yopib bo'lmas. Pyotrni yetarlicha tayyorlab, jang maydoniga olib borishni men o'z zimmamga olaman.

Pavel Petrovich kursidan turayotib:

– Siz hali ham hazil qilyapsiz, biroq rozilik bildirganingizdan keyin sizga boshqa da'vo qilishga haqim yo'q... Demak, gap tamom... Aytganday, sizda to'pponcha yo'qmi?

– Menda to'pponcha qayoqdan bo'lsin, Pavel Petrovich. Men askar emasman-ku.

– Unday bo'lsa men o'z to'pponchamni sizga beraman. Xotirjam bo'ling, besh yil bo'ldiki, men bir marta ham o'q otganim yo'q.

– Bu tasalli beradigan axborot.

Pavel Petrovich hassasini qo'liga oldi...

– Demak, muhtaram afandim, shu bilan sizga tashakkur bayon etaman, marhamat qilib, o'z ishingizni davom ettiravering. Xayr.

Bazarov mehmonni kuzatayotib:

– Ko'rishguncha xayr, muhtaram afandim, – dedi.

Pavel Petrovich chiqib ketdi, Bazarov esa birpas eshik oldida turib qoldi va birdaniga o'z-o'zicha: «Tuf senga, shayton! Naqadar chiroyli va naqadar bema'ni gap. Qarang, biz qanday komediya o'ynadik-a? O'rgatilgan itlar shu singari orqa oyoqlari ustida raqs tushadilar. Ammo rad qilishning iloji yo'q edi. Qanday yaxshilik kutasan, ehtimol, u meni urar va ayni o'sha chog'da... (Bu fikrni o'ylashi bilan uning yuzi oqarib ketdi, sochlari tik-kaydi) uni mushuk bolasidek bo'g'ib o'ldirishga to'g'ri kelar edi», dedi. Bazarov o'z mikroskopi oldiga

qaytib keldi, lekin uning yuragi besaranjom bo'ldi. O'z ishlarini davom ettirish uchun zarur bo'ladigan osoyishtaligini yo'qotdi. «U bugun bizni ko'ripti. Nahot o'z ukasi uchun shunchalik qilayotgan bo'lsa? Bitta o'pibman, nima bo'lipti? Yo'q, bu yerda boshqa bir sir borga o'xshaydi. Ha! O'zi jazman emasmikan-a? Aftidan, jazmanga o'xshaydi. Bu - kunday ravshan. O'ylab ko'ring, naqadar ishkak, – deb o'ylardi Bazarov. – Xunuk! Qaysi tomondan qarasang ham xunuk, avvalo, peshanangni o'qqa tutib berishga to'g'ri kelar, har qaysi bo'lganda ham ketish kerak. Bir yoqda Arkadiy va bu darvish Nikolay Petrovich. Xunuk xunuk...»

Kun juda jimjit va lanj o'tdi. Fenichkaning soyasi ham ko'rinxaldi. U iniga kirib, pisib yotgan sichqon bolasiday, bo'lmasidan chiqmay o'tirdi. Nikolay Petrovich o'z tashvishi bilan bandday ko'rinxardi. Ko'p hosil kutgan bug'doyiga kuya tushganligini unga bildirishdi. Pavel Petrovich hammani, hatto Prokofichni ham o'zining sovuq nazokati bilan ezar edi. Bazarov otasiga xat yozmoqchi bo'ldi-yu, lekin yirtib stol ostiga tashladi. U: «O'sam, o'lganimni eshitilarlar, yo'q, men hali o'lmayman. Yo'q, men hali dunyoda uzoq ivirsib yuraman», deb o'ylardi. U Pyotrni chaqirib, ertalab tong otarda kelishga burydi: «Juda muhim ish bor», dedi. Pyotr: «Bazarov meni Peterburgga olib ketmoqchi bo'lsa kerak», deb o'yladi. Bazarov juda kech yotdi va tun bo'yi har xil chalkash tushlar ko'rib, azoblanib chiqdi... Uning ko'z oldida Odinsova aylanib yurar, xonim uning onasi emish. Ayolning ortidan, qop-qora mo'ylovli mushuk ergashib yurar va bu mushuk Fenichkaga aylanar emish. Pavel Petrovich esa katta o'rmonda yurarkan, shunday bo'lsa ham u bilan otishish

kerak emish. Pyotr kelib, uni soat to'rtda uyg'otdi, u darhol kiyinib, Pyotr bilan tashqariga chiqdi.

Ertalab hamma yoq go'zal va musaffo edi. Tiniq ko'k yuzi bulutlar bilan qoplangan. Yaproqlarni va yerdagi o'tlarni mayda shudring tomchilari bosgan, o'rgimchak uyalarini kumush to'r singari yarqiraydi. Nam qora tuproq hanuz tong shafag'ining aksi urib turganday, sal qizarinib turar, hamma yoqdan to'rg'aylarning sayragani eshitilardi. Bazarov chakalakka yetdi. U soyaga o'tirdi-da, Pyotrga uni qanday maqsad bilan olib kelgani-yu, undan nima istaganini gapirib berdi. Ma'rifatli xizmatkor dahshatga tushdi, ammo Bazarov: «Sen uzoqdan qarab turasan, boshqa hech ish qilmaysan hamda hech qanday mas'uliyatga tortilmaysan», deb uni yupatdi va «Ko'rdingmi, sening oldingda qanday katta vazifa turadi», dedi qo'shimcha qilib. Pyotr hayron bo'lib ko'zlarini yerga tikdi va yuzi butunlay yashil tus olib, qayin daraxtiga suyanib qoldi.

Marino yo'li mo'jaz o'rmondan aylanib o'tar, uni kechadan beri na g'ildirak va na oyoq izi buzmagan yengil chang qoplab yotar edi. Bazarov ixtiyorsiz ravishda o'sha yo'l bo'ylariga qarar, ko'katlarni yulib, chaynab tashlar va: «Qanday tentaklik!» deb o'z-o'ziga gapirar edi. Ertalabki salqin havo uni bir-ikki marta seskantirdi... Pyotr, mung'ayib unga qaradi, lekin Bazarov kulibgina qo'ydi. U qo'rmas edi.

Yo'ldan ot tuyoqlarining tovushi eshitildi. Daraxtlar orasidan bir erkak ko'rindi. U ikki tushovli otni oldiga solib haydab kelardi, Bazarovning oldidan o'tayotib, shapkasini olmasdan unga g'alati nazar tashladi. Uning bunday qarashi aftidan Pyotrning nazariga bexosiyatday ko'rindi. Bazarov

yo'lovchiga qarab: «Mana bu ham erta turibdi. Balkim uning ishi bordir, ammo biz-chi?..» deb o'yadi.

Pyotr birdaniga:

– Kelayotganga o'xshaydilar, – deb shivirladi.

Bazarov boshini ko'tarib, Pavel Petrovichni ko'rdi. U yengil katak pidjak, oq cholvor kiygan, qo'lltig'iga ko'k movutga o'rog'lik quti qistirib, tez-tez qadam bosib kelardi.

U dastlab Bazarovga, keyin Pyotrga (Pavel Petrovich shu onda Pyotrni sekundant ornida hurmat qilardi) salom berib:

– Afv etasiz, men sizlarni kuttirib qo'ydim shekilli.

Men o'z xizmatkorimni uyg'otgim kelmadi, – dedi.

– Zarari yo'q, biz o'zimiz ham hozirgina kelgan edik, – dedi Bazarov.

– Ha-ha! Unday bo'lsa yana yaxshi! – Pavel Petrovich atrofga ko'z tashladi. Hech kim ko'rinxmaydi, demak hech kim xalal bermaydi. – Boshlasak bo'ladimi?

– Mayli, boshlaylik.

– Boshqa izoh talab qilmassiz?

– Yo'q talab qilmayman.

Pavel Petrovich qutidan to'pponchalarni olayotib:

– O'qlaysizmi? – deb so'radi.

– Yo'q, o'zingiz o'qlang. Men baryerni o'lchayman.

Mening oyoqlarim uzunroq, – deb qo'shib qo'ydi Bazarov kulib. – Bir, ikki, uch...

– O'zingiz aytgan edingiz, Yevgeniy Vasilyevich, men chetroqqa borib turaman, – dedi Pyotr so'zini zo'rg'a gapirib (u bezgak tutgandek qaltirardi).

– To'rt... besh... bor, og'ayni, bor, hatto daraxt panasiga o'tib, qulqlariningni bekitsang ham mayli, faqat ko'zingni yummashang bo'ldi. Birortamiz yiqlisak

darrov kelib ko'tarib olgin... Olti... yetti... sakkiz... – Bazarov to'xtadi va Pavel Petrovichga murojaat qilib: – bo'ladimi yoki yana ikki qadam qo'shaymi? – dedi.

Pavel Petrovich to'pponchaga ikkinchi o'qni solayotib:

- Ixtiyor o'zingizda, – deb qo'ydi.
- Xo'p, unday bo'lsa, yana ikki qadam qo'shamiz,
- dedi Bazarov va etigining uchi bilan yerni chizib,
- mana, baryer ham bo'ldi. Aytganday, har qaysimiz baryerdan necha qadam nariga chekinamiz? Bu ham muhim masala. Bu haqda kecha tortish-ganimiz yo'q edi, – dedi.

Pavel Petrovich ikkala to'pponchani Bazarovga berayotib:

- Menimcha, o'n qadam bo'lsa bo'ladi. Marhamat qilib, bittasini tanlab oling, – dedi.

- Xo'p! Pavel Petrovich, bizning duelimiz juda g'alati hangomaga o'xshaydi. Sekundantimizning aft-angoriga bir qarang.

- Siz hamon hazillashmoqchi bo'lasiz, – dedi Pavel Petrovich. – Men duelimiz g'alati bo'lishini inkor etmayman, ammo men bilan siz chinakamiga otishmoqchiman va buni sizga aytib qo'yishni o'zimning burchim, deb bilaman. A bon entendeur salut!¹

- O! Men bir-birimizni o'ldirishga qaror qilganimiz to'g'risida aslo shubha qilmayman, lekin nega biroz kulish va utile dulci² birga qo'shish yaramaydi? Siz menga fransuzcha gapirdingiz, men esa sizga lotincha javob berdim.

Pavel Petrovich yana takrorlab:

¹ Von entendeur salut – yaxshi tushunganga salom, gapni yaxshi tinglagan odam – idrok qilsin (fransuzcha).

² Yoqimli ishni foydali ish bilan (lotincha).

– Men chinakamiga, otishmoqchiman, – dedi va o‘z joyiga ketdi. Bazarov ham o‘n qadam sanab to‘xtadi.

– Tayyormisiz? – deb so‘radi Pavel Petrovich.

– Batamom tayyorman.

– Boshlasak bo‘lar?

Bazarov sekingina olg‘a yurdi. Pavel Petrovich ham chap qo‘lini cho‘ntagiga tiqib, to‘pponchaning og‘zini sekin-asta ko‘targanicha, unga qarab bordi... Bazarov: «U mening qoq burnimdan mo‘ljallayapti va qanday tirishib, ko‘zini qisyapti, qaroqchi! Odam g‘alati bo‘lar ekan. Men soatining zanjiriga qarab boray...» deb o‘yladi. Bazarovning xuddi qulog‘i tagida bir nima jaranglab ketdi va o‘scha ondayoq o‘q tovushi ham eshitildi. Bazarovning xayoliga birdan: «Eshitdim, demak, hech nima bo‘lmadi», degan fikr kelib ketdi. U yana bir qadam olg‘a bosdi va mo‘ljalga olmay turib, to‘pponchaning tepkisini bosib yubordi.

Pavel Petrovich andak titrab ketdi va sonini ushladi. Uning oq cholvoridan qon oqar edi.

Bazarov darhol to‘pponchani tashlab, raqibi oldiga keldi va:

– Yarador bo‘ldingizmi? – deb so‘radi.

– Siz meni baryerga chaqirishga haqli edingiz.

Bu yara hech gap emas. Shartimizga muvofiq, har qaysimiz yana bir martadan ota olamiz, – dedi Pavel Petrovich.

– Yo‘q, endi kechirasiz, boshqa vaqtga qoldiraylik, – dedi Bazarov va rangi oqarib ketayotgan Pavel Petrovichni ushlab oldi. – Endi men raqib emasman, doktorman, avvalo sizning yarangizni ko‘rishim kerak. Pyotr! Qani bu yoqqa kel-chi, Pyotr! Qayoqqa yashirinib olding?

Pavel Petrovich so‘zini bo‘lib-bo‘lib:

– Bu hammasi behuda... men hech kimning yordamiga muhtoj emasman... Boshqatdan... – dedi. U mo'ylovini buramoqchi bo'lgan edi, biroq qo'li bo'shadi va ko'zlari ichiga botib, hushidan ketdi.

Bazarov Pavel Petrovichni ko'kat ustiga yotqizib, beixtiyor:

– Ana yangilik, hushidan ketdi-ku! Hushdan ketarlik nima ham bo'ldi? Qani, ko'raylik-chi, nima bor ekan? – dedi va chontagidan ro'molchasini oldi, yaraning qonini artib, atrofini ushlab ko'rdi va sekin suyagi butun, o'z badaniga chuqur kirmasdan yuza qismidan teshib o'tgan, birgina muskulga, ya'ni vastus externusra tekkan, xolos. Uch haftadan keyin ko'rмагандай bo'lib ketadi. Nega hushdan ketdi ekan? Asabiy kishilar-da, terisi naqadar yupqa, – dedi.

Pyotr uning ortidan turib, qaltiragan tovush bilan shivirlab:

– O'ldimi? – deb so'radi.

Bazarov orqasiga qayrilib qaradi.

– Chopib suv olib kel, birodar, bu kishi sen-u mendan ham uzoqroq yashaydi.

Biroq kamolga erishgan xizmatkor, Bazarovning so'ziga tushunmaganday joyidan qo'zg'almadi. Pavel Petrovich astagina ko'zlarini ochdi. Pyotr shivirlab: «Jon beryapti!» dedi-da, cho'qinishni boshladi.

Yarador jentlmen zo'rma-zo'raki kulib:

– To'g'ri aytgan ekansiz... Buning basharasini qarang! – dedi.

Bazarov Pyotrga baqirib:

– Suv olib kelsang-chi, axir, la'nati! – dedi.

– Kerak emas. Bu faqat bir daqiqalik vertige¹... o'tirib olishimga yordam bering... Mana shunday...

¹ Vertige – bosh aylanish (fransuzcha).

Bu tirlalgan joy biror nima bilan sal boylab olinsa kifoya. Men uyga piyoda qaytaman, bo'lmasa ortidan arava yuborishlari mumkin. Agar istasan-giz, duel takrorlanmaydi. Siz bugun oliyjanoblik qildingiz.

– O'tgan ishga salavot, kelajak haqida bo'lsa, bu to'g'rida ham bosh qotirishga arzimaydi, chunki men tez kunda ketmoqchiman. Qani endi oyog'ingizni bir boylab qo'yay-chi, yarangiz qo'rqinchli emas, shunday bo'lsa ham qonini to'xtatgan yaxshi. Ammo, avval bu o'likni hushiga keltirish kerak.

Bazarov Pyotrning yoqasidan ushlab silkidi-da, aravani olib kelishga yubordi.

Pavel Petrovich unga:

– Hoy, menga qara, ukamga aytib uni qo'rqitib o'tirma, – dedi.

Pyotr o'qday uchib, aravani olib kelgani ketdi. Har ikkala raqib ham bir-biriga indamasdan yerda o'tirardi. Pavel Petrovich Bazarovga qaramaslikka harakat qilardi. U har holda Bazarov bilan yarashishni istamas edi. U o'zining qo'rsligidan va muvaffaqiyatsizligidan uyalar, qachon bo'lsa-da, yaxshilik bilan tugamasligini bilib turib, shu ishni boshlaganidan izza bo'lardi. U: «Hech bo'lmasa bu yerdan ketar-ku, shunisiga ham shukr», deya o'zo'zini ovutar edi. Og'ir va o'ng'aysiz sukut uzoqqa cho'zildi. Bu ikkalasi uchun ham og'ir edi.

Har qaysisi ham: «Ko'nglimdagini bu bilib turipti», deb o'ylar edi. Do'stlar uchun shunday deb o'ylash yoqimli, do'st bo'limganlar, ayniqsa, bir-biriga ichidagisini aytolmaydigan, ajralib ham ketolmaydigan kishilar uchun bu juda yoqimsizdir.

Nihoyat, Bazarov:

– Yarangizni juda qattiq boylaganim yo'qmi? – deb so'radi.

– Yo‘q, juda yaxshi, – dedi Pavel Petrovich va birpasdan keyin: – ukamni aldash juda qiyin, biz unga, siyosat ustida janjallashib qoldik, deb aytganimiz tuzuk, – deb qo‘shib qo‘ydi.

– Juda yaxshi. Siz unga meni ayblab, hamma anglomanlarni¹ so‘kdi, deb aytishingiz ham mumkin, – deb qo‘ydi Bazarov.

– Juda yaxshi, lekin mana bu odam biz to‘g‘rimizda nima deb o‘ylar ekan? Siz nima deb taxmin qilasiz? – dedi Pavel Petrovich boyta, dueldan burunroq tushovli otlarni haydab o‘tib ketgan odamni ko‘rsatib. U hozir qaytishda «janoblar»ni ko‘rib, boshidan shapkasini olib salom berdi.

– Kim biladi? – savolga savol bilan javob berdi Bazarov, – hech nima deb o‘ylamasa kerak. Rus – bir vaqtlar Ratkliff² xonim juda ko‘p yozgan sirli, noma‘lum odamdir. Uni kim tushunardi. U o‘zi ham o‘ziga tushunmaydi.

Pavel Petrovich:

– Ha, hali shunday deng! – deya gap boshlagan edi, yo‘lga ko‘zi tushdi-yu birdaniga: – Iy-ye! Tentagingizning qilgan ishini qarang, ukamning o‘zi kelayapti-ku! – dedi.

Bazarov orqasiga burilib qaradi va rangi oqarib ketgan Nikolay Petrovichni ko‘rdi. Arava to‘xtab ulgurmasdanoq u sakrab tushib akasiga qarab otildi va hovliqib:

¹ Anglomanlar – Inglzlarga xos narsalarni yaxshi ko‘rvuchi, ularga taqlid etishga tirishuvchi yuqori tabaqa.

² Anna Ratkliff (1764–1824-yillar) – ingliz yozuvchisi. Uning romanlari sirli hodisalar bilan boshlanib, keyin asta-sekin bu sirlar ochilib boradi. 1800–1820-yillarda Ratkliff asarları Rossiyada katta shuhrat qozonib, bir necha marta tarjima qilingan va ularga taqlid qilib, ko‘p asarlar yozilgan.

– Nima gap o‘zi, Yevgeniy Vasilyevich? Bu qanday gap?

– Hech nima bo‘lgani yo‘q, seni bekorga ovora qilibdilar. Bazarov afandi bilan biroz janjallahшиб qoldik. Men salgina shikast yedim... – dedi Pavel Petrovich.

– Tavba, bu nimadan chiqdi?

– Nima desam ekan? Bazarov janoblari Robert Pil¹ haqida nojo‘ya gaplar gapirdi. Lekin shuni tezlik bilan bildirishim kerakki, bu ishda yolg‘iz men o‘zim gunohkorman, Bazarov janoblari o‘zlarini juda yaxshi tutdilar. U kishini duelga men chaqirdim.

– Ana u yeringdan qon oqayotipti-ku!

– Tomirimda qon o‘rnida suv deb o‘ylaganmiding? Bunaqa qon oldirish menga, hatto foydali shunday emasmi, doktor? Sen meni aravaga chiqarib qo‘yishga yordam qil, vahima qilma. Ertaga tuzalib ketaman. Ha, balli, juda soz. Izvoshchi qayda?

Nikolay Petrovich arava ketidan yurdi. Bazarov orqada qolmoqchi bo‘ldi...

Nikolay Petrovich unga murojaat qilib:

– Shahardan boshqa doktor olib kelishlariga qadar akamga yordam berib turishingizni so‘rayman, – dedi.

Bazarov indamay, bosh egdi.

Bir soatdan keyin Pavel Petrovich, oyog‘i juda ustalik bilan bog‘langan holda to‘sakda yotar edi. Butun uy ichi to‘s-to‘polon bo‘lib ketdi. Fenichkaning ko‘ngli ozdi. Nikolay Petrovich bo‘lsa, boshqalarga sezdirmay, betoqatlikdan nima qilishi ni bilmay yurar, Pavel Petrovich esa kular, hazil-

¹ Robert Pil (1788–1850-yillar) – ingliz davlat arbobi. U yirik sanoat burjuaziyasining manfaatlarini himoya qilib, erkin savdo ruhida qonunlar chiqartirgan.

lashar, ayniqsa, Bazarov bilan ko'p hazillashardi. U yupqa batist ko'yak, ertalab kiyiladigan chiroyli kamzulcha va fas kiyib yotar, deraza pardalarini tushirgani qo'ymas, ovqat yemasligi kerakligidan tegishib shikoyat qilardi.

Ammo kechasi Pavel Petrovichning isitmasi oshib ketdi, boshi og'riy boshladi. Shahardan doktor keldi. (Nikolay Petrovich akasining gapiga qulq solmay, shahardan doktor chaqirgan edi. Bazarov ham shuni xohlagan edi. Uning yuzi butunlay sarg'aydi va achchiqlangan holda kun bo'y o'z bo'lmasida o'tirdi, faqat juda qisqa muddatga bir necha bor bemor oldiga kirib chiqdi. U bir-ikki marta Fenichka bilan uchrashib qoldi, lekin har uchrashganida, Fenichka undan qo'rqib qochib ketar edi.) Yangi doktor Pavel Pegrovichga sovuq ichimlik ichishni maslahat berdi va shu bilan birga Bazarovning – hech qanday xavf-xatar yo'q deganini tasdiqladi. Nikolay Petrovich unga: «Akam ehtiyoitsizlik ortida o'zini-o'zi yarador qilib qo'ydi», – dedi. Doktor bunga: «Shundaymi?» deb aytish bilan kifoyalandi. Ammo 25 so'lkavoyni olganidan keyin:

– Buni qarang-a! Bunday hodisa tez-tez bo'lib turadi, – dedi.

Uy ichidagilardan hech kim shu kecha kiyimini yechmadi, uxlamadi ham. Nikolay Petrovich hap zamon-har zamonda oyoq uchida akasining oldiga kirib-chiqib turardi: akasi goho o'zidan ketar, goho astagina inqillar, ukasiga fransuzchabalab: «Couchez-vous»¹ der va ichgani biror nima so'rар edi. Nikolay Petrovich Fenichkani bir marta unga sharbat olib kelishga majburladi. Pavel Petrovich

¹ «Couchez-vous» – yoting.

Fenichkaga tikilib qaradi-da, sharbatni oxirigacha ichdi. Ertasiga ertalab harorati biroz ko'tarildi va sal alahlay boshladi. Pavel Petrovich avval qovushmagan gaplarni gapirdi, keyin birdaniga ko'zlarini ochdi-da, to'shamaydi yonida ukasining tashvishga botib, engashib turganini ko'rib:

– Nikolay, Fenichkaning allaqayeri Nelliga o'xshamaydimi? – deb so'radi.

– Qaysi Nelliga, Pasha?

– Bilmaysanmi? Knyagina R...ga. Xususan, betining yuqori qismi juda o'xshaydi. C'est de la même famille¹.

Nikolay Petrovich javob qaytarmadi, ammo kishida eski tuyg'ular shu qadar uzoq saqlanganiga biroz ta'ajjublanib: «Shu vaqtida esiga tushdi-ya», deb qo'ydi.

Pavel Petrovich ingrab:

– Oh, shu puch zotni men naqadar yaxshi ko'raman-a! – deb qo'ydi. Birpasdan keyin u yana: – men biror behayoning unga qo'l tekkazishiga hech qachon chidab turolmayman, – dedi.

Nikolay Petrovich faqat og'ir nafas oldi-da, bu so'zлari kimga qaratib aytilganini xayoliga ham keltiroldi.

Bazarov ertasiga soat sakkizlarda uning huzuriga kirdi. U endi ko'ch-ko'ronini yig'ishtirib, o'zining baqa, hasharot va qushlarini ozod qilib yuborgan edi.

Nikolay Petrovich unga qarshi o'rnidan turib:

– Siz men bilan xayrlashgani keldingizmi? – dedi.

– Xuddi shunday.

– Men sizning vaziyatingizni fahmlayman va qaroringizni batamom ma'qullayman. Mening bechora akam, albatta, gunohkor va buning uchun jazo-sini ham tortayotir. Sizni shunga majbur qilganini

¹ C'est de la même famille – o'sha tipdan.

menga o'zi gapirib berdi. Bu duelning... bu duel chiqishiga sabab, oralaringdagi doimiy fikriy qarama-qarshilikdir, ish shu darajaga yetmay iloji bo'lmasligini o'zim ham bilaman. (Nikolay Petrovich gapini yo'qotib qo'yardi). Akam eski zamon odami, qiziqqon va o'jar. Xudoga shukr, ming qatla shukrki, ish shu bilan tamom adog'iga yetibdi. Bu sirni oshkora qilmaslik uchun men butun zarur choralarни ko'rib qo'ydim...

– Agar biror gap chiqsa deb, ehtiyotdan men sizga o'z manzilimni qoldirib ketaman, – deb qo'ya qoldi Bazarov.

– Men umid qilamanki, hech qanday voqeа yuz bermas, Yevgeniy Vasilyevich... Men mehmondor-chilikning oqibati shunday... shunday bo'lib chiqishiga taassuf etaman. Mening uchun yanada qayg'uliroq bo'lgani shu sababdanki, Arkadiy... .

Har xil «bayonot» va «sharhlar»ga sira toqati bo'limgan Bazarov:

– Men u bilan ko'rishsam kerak, aks holda mendan unga salom aytishingizni so'rayman va sizga o'zimning taassufimni bildiraman, – dedi.

– Men ham so'raymanki... – dedi Nikolay Petrovich bosh egib. Bazarov uning gapi tugashini kutmasdan tashqariga chiqib ketdi.

Pavel Petrovich Bazarovning ketishini bilib, uni ko'rishni istadi va ko'rishganida, uning qo'lini birodarlarcha siqib qo'ydi. Biroq Bazarov shunda ham muzdek bo'lib turaverdi. U Pavel Petrovichning oliyjanoblik qilmoqchi bo'lganini fahmlar edi. Bazarov Fenichka bilan xayrlasholmadi. U bilan faqat derazadangina ko'z urishtirib oldi. Fenichkaning yuzi unga xafa ko'rindi. U o'z-o'ziga: «Nobud bo'lmasmi? Mayli, bir iloj qilib qutular», dedi. Ba-

zarovning ketishiga Pyotr shu qadar xafa bo'ldiki, hatto uning yelkasiga osilib yig'ladi va faqat Bazarovning: «Ko'zlarining suv olib ketdimi?» degan savoldidan keyingina biroz qo'lga oldi. Dunyasha esa o'z hayajonini yashirish uchun chakalakzorga qochib ketishga majbur bo'ldi. Bu qayg'ularning sababchisi aravaga chiqib o'tirib, sigarasini chekdi. U to'rt chaqirim yo'l bosgandan keyin, burilishda ko'ziga so'nggi marta Kirsanovlarning yangi uyi bilan bir qatordagi qo'rg'onchalari ko'ringanda tupurib qo'ydi va «la'natি boyvachchalar» deb to'ng'illab, shinliga burkanib oldi.

Pavel Petrovich hademay tuzala boshladи, lekin to'shakda bir haftacha yotdi. U o'z ta'biricha, o'zining «asirligini» ancha sabr bilan o'tkazdi, ammo yotgan chog'ida juda ham ortiqcha pardozandoz bilan ovora bo'lar va hadeb atir sepishni buyurar edi. Nikolay Petrovich unga jurnallar o'qib berar, Fenichka ilgarigidek xizmat qilib, unga sho'rva, sharbat, tuxum va choy keltirib turar, lekin Pavel Petrovichning bo'lmasiga kirganida, har dam yuragiga yashirin qo'rquv tushar edi. Pavel Petrovichning kutilmagan bu qilmishi uy ichidagilarni, ayniqsa, Fenichkani ancha cho'chitib qo'yan edi. Faqat Prokofichgina bunga hayron bo'lmadi, u: «Bizning zamonimizda faqat marhamatli to'ralargina bir-birlari bilan otishar edi. Bunaqa oliftalarni dag'al muomalasi uchun otxonaga qamab, qamchilatar edilar», deb tushuntirardi.

Fenichka vijdonan qiyalsa ham, lekin janjalning asl sababi to'g'risidagi fikr ba'zan uni qiynar, boz ustiga Pavel Petrovich ham unga qandaydir juda g'alati qarar edi... Hatto Fenichka orqasini o'girganida ham, uning o'ziga qarab turganini his

qilar edi. U doimiy ichki tashvishdan oriqlab, yana-da so'limroq bo'lib qolgan edi.

Bu voqeа bir kuni ertalab sodir bo'ldi. Pavel Petrovich o'zini yaxshi sezib, to'shakdan divanga o'tdi. Nikolay Petrovich esa undan xabar olganidan keyin xirmonga ketgan edi. Fenichka bir piyola choy olib keldi va uni stolga qo'yib, chiqib ketmoq-chi bo'ldi. Pavel Petrovich uni to'xtatdi.

– Qayerga buncha shoshasiz, Fedosya Nikolayevna, biror zarur ishingiz bormi deyman? – deb gap boshladi Pavel Petrovich.

– Yo'q... Ha... Choy qo'yib berishim kerak.

– Dunyasha buni sizsiz o'zi ham qilaveradi, kasal odam bilan biroz o'tirsangiz-chi. Aytganday, siz bilan gaplashadigan gapim bor.

Fenichka indamasdan kursining bir chetiga o'tirdi.

Pavel Petrovich mo'ylovini burab:

– Fedosya Nikolayevna, men sizdan ko'pdan beri bir gapni so'ramoqchi edim. Nima desam ekan, – biroz ikkilandi Pavel Petrovich. – Menden hayiqadigandsiz nazarimda.

– Menmi?

– Ha, siz. Xuddi vijdoningiz sof emasdek hech qachon ko'zimga qaramaysiz.

Fenichka qizarindi, lekin Pavel Petrovichga qaradi. Uning ko'ziga Pavel Petrovich g'alati ko'rindi va yuragi shuv etib ketdi.

– Vijdoningiz sof-ku axir, to'g'rimi? – deb so'radi Pavel Petrovich undan.

– Nega sof bo'lmasin? – dedi Fenichka shivirlab.

– Kim biladi? Siz kimning oldida ham gunohkor bo'lishingiz mumkin? Mening oldimdam? Bu ehtimoldan uzoq. Uy ichidagi boshqa kishilar oldidami?

Bu ham shubhali. Ukam oldida bo'lishi mumkin, lekin siz uni yaxshi ko'rasiz, shunday emasmi?

- Yaxshi ko'raman.
- Joni dilingiz bilanmi?
- Men Nikolay Petrovichni butun yuragim bilan sevaman.

- Rostmi? Menga bir qarang-chi, Fenichka (u biringchi marta uni Fenichka deb atadi)... Bilasizki, yolg'on gapirish katta gunoh.

- Men yolg'on gapirayotganim yo'q, Pavel Petrovich. Nikolay Petrovichsiz menga dunyoda yashashning qizig'i yo'q.

- Siz uni hech kimga almashtirmaysizmi?
- Kimga ham almashtirardim.
- Topilmaydi deysizmi?! Mana, masalan, bu yerdan jo'nab ketgan janobni olaylik.

Fenichka o'rnidan turdi:

- Voy, Xudo! Nega meni bunchalik qiyayapsiz, Pavel Petrovich? Men sizga nima gunoh qildim? Nahot, shunday desangiz?...

Pavel Petrovich qayg'uli bir tovush bilan:

- Fenichka, axir, o'zim ko'rdirim-ku... - dedi.
- Nimani ko'rdingiz?
- Huv anavi yerda... shiyponda.

Fenichka butunlay qip-qizarib ketdi.

- Ayb mendami? - dedi u zo'rg'a.

Pavel Petrovich o'rnidan biroz ko'tarildi.

- Ayb sizda emasmi? Hech aybingiz yo'qmi?

- Dunyoda men yolg'iz Nikolay Petrovichnigina sevaman va abadiy sevajakman! - dedi Fenichka birdan o'zini dadil tutib. Uning o'pkasi to'ldi. - Siz ko'rgan voqeaga kelsak, men qiyomat kunida ham, bunda gunohim yo'q va bo'lgan ham emas, deb aytaman. Meni shunday ishda ayblastash mumkin bo'lar ekan, o'lganim yaxshi, yo'qsa, qanday qilib

menga shunchalik yaxshilik qilgan Nikolay Petrovich oldida...

Lekin Fenichkaning dami ichiga tushdi va shu onda Pavel Petrovich uning qo'lini ushlab qisib olganini his qildi... Fenichka unga qaradi va turgan yerida qotib qoldi. Pavel Petrovichning yuzi boyagidan ham battar bo'zarganday, ko'zлari chaqnadi va hammadan ham ko'proq shunisi qiziq ediki, uning betidan bir dona kattakon yosh tomchisi dumalab tushdi.

U qandaydir g'alati shivirlab:

– Fenichka! U kamni seving! U juda oliyanob va mehribon! Dunyoda uni hech kimga almashtirmang. Hech kimning gapiga qulq solmang! O'zingiz o'y lab ko'ring, birovni sevsang-u u seni sevmasa, bundan ham yomonroq nima bor? Bechora Nikolaydan hech qachon yuz o'girmang, – dedi.

Fenichka shu qadar hayratda qoldiki, ko'zlaridagi yosh to'xtadi, uning qo'rquvi tamoman yo'qoldi. Lekin Pavel Petrovich, shu Pavel Petrovichning o'zi uning qo'lini lablariga bosib, o'pmasdan, faqat entikib og'ir nafas olib turganda, Fenichka qay ahvolga tushgani yolg'iz Xudoga ayon.

«Voy, Yaratgan egam, buni tutqanoq tutib qolmadimikan?», deb o'yladi Fenichka.

Ammo Pavel Petrovichning qalbida shu on so'nib ketgan butun bir hayot jonlanmoqda edi.

Zinapoyada birovning tez-tez chiqayotganligi eshitilib qoldi... Pavel Petrovich darhol Fenichkani o'zidan nariga itarib yubordi va boshini orqaga, yostiqla tashladi. Eshik ochildi va bo'limga xushvaqt, rang-ro'yi qizil Nikolay Petrovich kirib keldi. O'ziga o'xshash yuzlari qip-qizil, ko'yakchan Mitya

otasining qishloqcha paltosi tugmalariga oyoqlarini tirab, uning bag'riga talpinar edi.

Fenichka birdan unga o'zini tashladi va uni ham, o'g'lini ham quchoqlab olib, boshini yelkasiga qo'ydi. Nikolay Petrovich hayron bo'ldi. Uyatchan va og'ir Fenichka, boshqalar oldida hech qachon erkalanmas edi.

– Senga nima bo'ldi? – dedi Nikolay Petrovich va akasiga qarab, o'g'lini Fenichkaga berdi, keyin Pavel Petrovichga yaqin kelib: – durustmisan, kayfing joyidami? – deb so'radi.

Pavel Petrovich yuzini ro'molchasi bilan yopdi.

– Tuzuk... kayfim ancha yaxshi, – dedi

– Sen shoshilib divanga bekor o'tibsan, – Nikolay Petrovich Fenichkaga tomon o'girilib: – Sen qayerga ketyapsan? – dedi. Lekin Fenichka allaqa-chon chiqib, eshikni yopgan edi. – Men senga polvonimni ko'rsatay, deb olib kelgan edim. U amakini sog'inib qolibdi. Nega uni Fenichka olib ketdi, hayronman? Xo'sh, senga nima bo'ldi? Yo oralar-ringdan biror gap o'tdimi?

– Uka! – dedi Pavel Petrovich tantana bilan.

Nikolay Petrovich seskanib ketdi. Uning yuragiga qo'rquv tushdi, lekin nima sababdan shunday bo'lganini o'zi ham bilmas edi.

– Uka! – dedi Pavel Petrovich takroran, – senga bir iltimosim bor, shuni bajarishga va'da ber.

– Qanday iltimos, ayt-chi?

– Iltimosim juda muhim, menimcha, butun baxting shunga bog'liqdir. Men senga hozir aytmoqchi bo'lgan gapim haqida ko'p o'yladim... Uka, sen o'z vazifangni, vijdonli va sof ko'ngilli inson vazifasini ado et. Boshqalarga ibrat qilib ko'rsatsa arzigudek odam bo'lib turib xunuk ko'rindigan ishni qilma, bas qil.

- Nima demoqchi bo'lyapsan, Pavel?
- Fenichkaga uylan... U seni sevadi. U o'g'ling-ning onasi...

Nikolay Petrovich bir qadam orqaga chekindi va hayratda qoldi.

- Bu gapni sen gapiryapsanmi, Pavel? Men seni hamma vaqt bu xildagi nikohlarning ashaddiy dushmani, deb yurar edim! Bu gapni sen aytding-mi? Mening vazifam deb, juda to'g'ri aytding, lekin bu ishni men shu kungacha faqat seni hurmat qilganim uchungina qilmaganimni bilmaysanmi?

Pavel Petrovich zo'raki bir tabassum bilan unga e'tiroz bildirib:

- Bu masalada meni bekor andisha qilgansan. Bazarov meni «asilzoda» deb to'g'ri ta'na qilgan ekan. Yo'q, endi, aziz ukam, odam haqida o'ylab bosh qotirishimiz yetar. Biz endi qarib qolgan odamlarmiz, har xil behuda narsalar ortidan yugurishni tashlashimiz lozim. Bunda keyin, xuddi shu sen aytgan vazifani o'taylik, sen qarab tur, buning ortida yana baxtli ham bo'larmiz.

Nikolay Petrovich akasining bo'yniga tashlanib, uni quchoqlab oldi.

- Batamom ko'zimni ochib qo'yding! Seni dunyoda eng mehribon va eng aqli odam, deb yurishim bejiz emas edi. Endi qanchalik sofdil bo'sang, shunchalik oliyjanobligingni ham ko'rib turibman.

Pavel Petrovich uning so'zini bo'lib:

- Sekinroq, sekinroq. Ellikka kirib, oddiy zabit singari duelga chiqqan oliyjanob akangning oyog'iga ozor berma. Demak, masala hal. Fenichka mening... belle-soeur¹ bo'ladi, - dedi.

- Azizim Pavel! Axir Arkadiy nima deydi?

¹ Belle-soeur – kelinim (fransuzcha).

– Arkadiymi? Shubhasiz, u xursand bo'ladi. Nikoh uning qarashlariga to'g'ri kelmasa ham, lekin tenglik tarafdori bo'lgani uchun quvonadi. Haqiqatan ham, o'n to'qqizinchi asrda oliv tabaqa-yu past tabaqa deb o'tirish nima degan gap o'zi?

– Oh, Pavel, Pavel! Qani yana bir marta seni o'pay! Qo'rqlama, astagina o'paman.

Aka-uka quchoqlashishdi.

– Bu niyatingni Fenichkaga hozir aytsak qanday bo'lar ekan, nima deysan? – deb so'radi Pavel Petrovich.

– Shoshilishning nima keragi bor? Yo oralaringda shunday gap bo'ldimi?

– Bizning oramizda gap? Quelle idee!¹.

– Juda yaxshi. Avvalo, tuzalib ol, bu ish qochmaydi. Yaxshilab o'ylash va mulohaza qilish kerak.

– Sen qaror qilding-ku, axir!

– Ha, qaror qildim. Samimiy ravishda senga tashakkur izhor etaman. Endi men chiqay. Har qanday hayajon hozir senga zararli. Hali bu to'g'rida ko'p gaplashamiz. Uxla, jonim, Xudo senga esonlik bersin.

Pavel Petrovich yolg'iz qolgandan keyin: «Nima uchun u menga bunchalik tashakkur aytyapti, go'yo bu ish uning o'z ixtiyorida bo'lmaganday. Men esa uylangandan keyin, darrov uzoqroq bir joyga, Drezdenga yoki Florensiyaga ketib, o'lgunimga qadar o'sha yerda turib qolaman», deb o'yADI.

Pavel Petrovich peshanasiga atir surkadi va ko'zlarini yumdi. Uning tiniq kunduzgi yog'du bilan yoritilgan chiroyli, qoq suyak bo'lib qolgan boshi oq yostiq ustida, murdaning boshiga o'xshab yetardi... Chindan ham u tirik murda edi.

¹ Quelle idee – bu qanday gap (fransuzcha).



Nikolskoyeda, bog'chada, baland shumtol soya-sida, chim o'rindiqda Katya bilan Arkadiy o'tirardi. Ularning oldida, yerda, o'zining o'zun tanasini cho'zib, Fifi yotar edi. Arkadiy ham, Katya ham jim o'tirardi. Yigit qo'lida yarim ochiq holdagi kitobni ushlab o'tirardi. Katya esa savat tagida qolgan oq non ushoqlarini terib, qo'rqa-pisa sakrashib va chug'urlashib yurgan bir gala chumchuqlarga tashlardi. Mayin shabada, shumtol yaproqlarini titratib, soya yo'lkada ham, Fifining sariq sirtida ham oqsil-oltinsimon yog'du nuqtalarini asta-sekin nari beri siljитib, o'ynatib turardi. Arkadiy bilan Katyani quyuq soya qoplab olgan, faqat onda-sondagina Katyaning sochlari yaproqlar orasidan tushgan quyosh nurlaridan yarqirab turardi. Ikkalasi ham sukut saqlab o'tirardi. Lekin ularning mana shu jimgina yonmayon o'tirishlaridan bir-birlariga ishonch bilan yaqinlashganliklari sezilib turar edi. Ikkovi go'yo bir-biri haqida o'ylamaganday bo'lsa ham, birga o'tirganiga ich-ichidan yashirinchha xursand bo'lardi. Biz so'nggi marta ko'rganimizdan beri ularning yuzlari ancha o'zgarib qolgandi. Arkadiy bosiqroq, Katya esa joni-liroq, dadilroq bo'lib ko'rinar edi.

Arkadiy gap boshlab:

– Siz nima deb o'ylaysiz? Shumtol daraxtiga ruscha «yasen» deb yaxshi nom berilgan, hech qanday daraxt orqali havo bunday ravshan ko'rinxaydi, – dedi.

Katya yuqoriga qarab: «ha», dedi. Arkadiy esa: «Mana bu qiz meni chiroyli gapiradi, deb ta'na qilmaydi», deya xayolidan kechirdi.

Katya ko'zi bilan Arkadiyning qo'lidagi kitobchaga ishora qilib:

- Men Geynening kulgan va yig'lagan paytini yoqtirmayman. Uning mahzun va o'ychan vaqtinigina sevaman, – dedi.
 - Menga esa uning kulgani yoqadi, – dedi Arkadiy.
 - Bu sizda eski satirik maslagingizdan qolgan ta'sir... (Arkadiy: «Eski ta'sir, Bazarov uni eshitsa nima deyar edi», deb o'ylaydi). Shoshmay turing, biz hali sizni bu yo'ldan qaytaramiz.
 - Kim qaytaradi, sizmi?
 - Kim bo'lar edi? Opam-da, yana endi janjallashmaydigan bo'lganingiz Porfiriy Platonovich, o'tgan kuni cherkovga uzatib qo'yaningiz xolam.
 - Qanday qilib yo'q der edim! Anna Sergeyevna bo'salar, o'zingiz bilasiz, Bazarovning ko'p fikrlariga qo'shilar edi.
 - U vaqtida opam ham, sizga o'xshab uning ta'siriga berilgan edi.
 - Menga o'xshab?! Siz hali meni uning ta'siridan qutulgan deb o'ylaysizmi?
- Katya hech nima demadi. Arkadiy so'zini davom ettirib:
- Men bilaman, u sizga hech qachon yoqqan emas, – dedi.
 - Men u haqda hech nima deyolmayman.
 - Bilasizmi, Katerina Sergeyevna, har gal bunday javobni eshitganimda, men bunga ishonmayman... Hech bir odam yo'qli, u to'g'risida biror gap aytolmasak! Bu faqat bir bahona.
 - Bo'lmasa, men sizga ayta qolay: u menga yoqmaydi emas, uni o'zimga, o'zimni unga yot sezaman... Siz ham unga yotsiz.
 - Nima uchun?

– Sizga nima desam bo'lar ekan... U yirtqich, biz bo'lsak qo'lga o'rgatilgan odamlarmiz.

– Men ham qo'lga o'rgatilganmanmi?

Katya boshini irg'ab qo'ydi.

Arkadiy qulog'inining orqasini qashib qo'ydi.

– Katerina Sergeyevna, bu axir, odamga qattiq tegadi-ku!

– Nahotki, siz yirtqich bo'lishni istasangiz?

– Yirtqich emas, kuchli, g'ayratli bo'lishni istardim.

– Buni istab bo'lmaydi... Sizning do'stingiz buni istamaydi ham, ammo unda nimadir bor.

– Him! Demak, siz Anna Sergeyevnaga uning ta'siri zo'r bo'ldi deb o'ylaysizmi?

– Ha. Lekin opamga hech kim uzoq ta'sir qilolmaydi, – dedi Katya sekin.

– Nega siz bunday deb o'ylaysiz?

– U juda mag'rur... Men bunday demoqchi emasdim... U o'zining mustaqilligini juda qadrlaydi.

– Mustaqillikni kim qadrlamaydi? – deb so'radi Arkadiy, ammo xayoliga lip etib: «Buning nima keragi bor?», degan fikr keldi va Katya ham shunday deb o'yladi. Bir-birlari bilan tez-tez va do'stona uchrashib yuradigan yoshlар xayoliga har doim bir xildagi fikrlar kelib turadi.

Arkadiy kulimsiradi, so'ng Katyaga yaqinroq o'tirdi va sekingina:

– Undan biroz hayiqishingizga iqror bo'ling, – dedi.

– Kimdan?

Arkadiy ta'kidlab:

– Anna Sergeyevnadan, – dedi.

O'z navbatida Katya:

– Siz-chi? – deb so'radi.

– Men ham, bilib qo'ying, men ham, dedim.

Katya barmog'i bilan tahdid qilib:

– Bu meni ajabilantiradi, opam hech qachon sizga hozirgidek, husni tavajjuh qilgan emas edi. Ilk marta kelgan vaqtingizdagidan ko'ra, hozir yaqinroq.

– Hali shunday deng.

– Siz buni sezganingiz yo'qmi? Sizni bu shodlantirmaydimi?

Arkadiy o'yga toldi.

– Men nima xizmat bilan Anna Sergeyevnaning iltifotiga sazovor bo'ldim ekan? Yoki marhuma onangizning xatlarini olib kelganim tufaylimikin?

– Bu bilan ham, boshqa sabablar bilan ham, lekin men ularni sizga aytmayman.

– Nega aytmaysiz?

– Aytmayman.

– Bilaman, juda qaysarsiz.

– Qaysarman.

– Ziyorak hamsiz.

Katya Arkadiyga ko'z qirini tashladi.

– Ehtimol, shundaydir, xafa bo'ldingizmi? Nima to'g'risida o'ylayapsiz?

– Men sizning shunchalik ziyorak bo'lishingiz sababini o'ylayman. Siz juda qo'rkoq, kishiga ishonmaydigan, hammadan o'zingizni tortasiz...

– Men ko'p vaqt yolg'iz turganman. Tanholikda beixtiyor har narsani o'ylashga o'rganasan. Men hammani yot ko'raymi?

Arkadiy minnatdorlik bilan Katyaga qarab qo'ysi.

– Bular hammasi juda yaxshi, lekin sizning o'rningizda bo'lgan, ya'ni aytmoqchimanki, siz kabi mol-dunyosi ko'p odamlar bunday qobiliyatga juda kam ega bo'ladiilar. Haqiqatning ularga borib yetishi – podshohlarga borib yetishi singari qiyindir.

– Men boy emasman-ku!

Arkadiy ajablandi va Katyaning so'zini darrov tushunmadi. Uning miyasiga: «Haqiqatan ham butun mulk opasiniki-ku!», degan fikr keldi. Bu fikr unga yoqimsiz tuyildi.

– Juda to'g'ri aytasiz! – dedi Arkadiy.

– Nega?

– Yaxshi aytdingiz, uyalmay-netmay to'ppato'g'risini aytdingiz-qo'ydingiz. Men o'zining kambag'alligini bilib: «Men kambag'alman», deb aytdigan kishining ko'nglida iftixor bo'lishi kerak, deb o'ylayman.

– Opamning marhamati soyasida men buni hech tatib ko'rGANIM yo'q, ahvolim to'g'risida faqat so'z o'rni kelgani uchun gapirib qo'ydim.

– Xo'p, lekin men aytgan iftixorning bir juz'i sizda ham bor, buni iqror etishingiz kerak.

– Masalan?

– Masalan, siz, savolim uchun kechiring, boy odamga tegmaysiz, shunday emasmi?

– Agar men uni juda sevsam... Yo'q, shunday bo'lgan taqdirda ham tegmasdim shekilli.

– Ana! Ko'rdingizmi! – dedi Arkadiy va birpasdan keyin, – Xo'sh, nima uchun unga tegmas edingiz?

– deb qo'shib qo'ydi.

– Chunki, hatto ashulalarda ham o'z tengiga tegmagan qiz haqida kuylanadi.

– Siz, ehtimol, hokimlik qilmoqchi yoki...

– Yo'g'-ey! Buning nima keragi bor? Aksincha, men itoat etishga tayyorman. Faqat tengsizlik og'ir. O'zingni kansitmay turib, bo'ysunsang tuzuk, buni men tushunaman, bu – baxt, lekin tobe bo'lib yashash... Yo'q, shunisi ham yetar.

– Arkadiy Katyaning so'zini takrorlab:

– Shunisi ham yetar, – dedi va so'zini davom ettirib: – Ha-ha, sizning Anna Sergeyevna bilan bir

qondan bo'lishingiz bejiz emas, u qanday mustaqil bo'lsa, siz ham shunday mustaqilsiz, lekin siz unga qaraganda, «ichimdagini top»siz. Menimcha, siz o'z tuyg'ungizni, u qanchalik kuchli va muqadas bo'lmasin, hech bir vaqt aytmaysiz... – dedi.

– Bo'lmasa qanday bo'lsin? – deb so'radi Katya.

– Siz ham opangiz singari aqlisiz, sizda ham, agarda ko'proq bo'lmasa, unda bo'lgan fe'l bor...

Katya uning so'zini darrov bo'lib:

– Siz meni zinhor opam bilan tenglashtirmang, men yutqizaman. Shuni esingizdan chiqarmangki, opam ham chiroyli, ham aqli, ham... Xususan siz, Arkadiy Nikolayevich, bunday so'zlarni, tag'in bu qadar jiddiy qiyofada so'zlamasangiz bo'lar edi, – dedi.

– Xususan siz, deganingiz nimasi? Xo'sh, nima uchun siz meni hazillashayapti, deb o'ylaysiz?

– Albatta, hazillashayapsiz.

– Sizningcha shundaymi? Agar men chin so'zlayotgan bo'lsam, nima deysiz? Kamina o'z fikrini kuchliroq qilib aytolgani yo'q, deb o'tirgan bo'lsam, nima deysiz?

– Men sizga tushunmayapman.

– Hali shundaymi? Endi ko'rib turibmanki, ziyrakligingizga ortiqcha baho bergen ekanman.

– Qanday?

Arkadiy javob qaytarmadi va yuzini teskari o'girdi. Katya esa savat tagidan yana bir necha dona non ushoqlarini topib, chumchuqlarga ularshdi, lekin non ushoqlarini sepaman deb, qo'lini balandroq ko'targani uchun chumchuqlar pirillab uchib ketdi.

Arkadiy to'satdan gap boshlab:

– Katerina Sergeyevna! Sizga bu, ehtimol baribirdir, lekin bilib qo'yingki, men sizni opangizgagina emas, balki dunyoda hech kimga ham almashtirmayman, – dedi.

U, o'rnidan turdi va o'z og'zidan chiqqan so'zlar-dan o'zi qo'rqqan kabi darrov ketdi.

Katya esa savati bilan birga qo'lini tizzasiga tu-shirib yubordi va boshini engashtirib, Arkadiyning ketidan uzoq qarab qoldi. Betlari sekin-asta biroz qizardi, lekin lablar kulimsiramas va ko'zlari hayrat-da qolganlikni va hozircha ma'lum bo'lмаган bir tuyg'uni his qilganini ko'rsatib turar edi.

Uning yonginasidan Anna Sergeyevnaning:

– O'zing yolg'izmisan? Bog'ga Arkadiy bilan birga chiqqan eding shekilli, – degan tovushi eshitildi.

Katya sekingina opasiga qaradi (nafis va nazokat bilan kiyingan Anna Sergeyevna, ochilgan soyabon uchi bilan Fifining qulqlarini qimirlatib, yo'lakda turar edi) va shoshilmasdan:

– Yolg'izman, – dedi.

Anna Sergeyevna kulib:

– Yolg'izligingni o'zim ham ko'rib turibman, demak, Arkadiy o'z bo'lmasiga ketipti-da?!

– Ha!

– Birga kitob o'qidilaringmi?

– Ha!

Anna Sergeyevna Katyani iyagidan tutib, yuzini salgina ko'tarib qo'ydi.

– Uriшмаган bo'salaringiz kerak, deb o'ylayman.

– Yo'q, – dedi Katya va sekingina opasining qo'li-ni iyagidan oldi.

– Muncha ham kerilib javob bermasang! Shu yerda bolsa birga aylanib kelishni unga taklif qilmoqchi edim. Anchadan beri iltimos qilib yur-gan edi. Senga shahardan poyabzal keltirishdi, borib kiyib ko'r, poyabzaling yirtilganini kecha ko'ruvdim. Oyoqlaring shunday chiroylik, oyoq kiyimiga hech ahamiyat bermaysan. Qo'llaring

ham yomon emas... Faqat biroz kattaroq, demak, oyoqqa ehtiyot bo'l. Hafsalang yo'q.

Anna Sergeyevna chiroyli ko'ylagini sal-pal shaldiratib yo'lordan ketdi. Katya ham o'rindiqdan turib, Geyneni qo'liga oldi, lekin poyabzalni kiyib ko'rish uchun bormadi. U ayvonning quyosh nuriда qizigan tosh zinapoyasidan sekin-asta qadam bosib chiqarkan: «Chiroyli oyoq... deysiz... u shu chiroyli oyoqqa bosh qo'yadi», deya ko'nglidan o'tkazdi. Lekin bu xayolidan o'zi uyaldi va chopib, yuqoriga chiqib ketdi.

Arkadiy yo'lakdan o'z bo'lmasiga qarab yo'l oldi, uning ketidan eshik og'asi yetib olib, bo'lmasida Bazarov o'tirganini bildirdi.

Arkadiy hayiqqanday to'ng'illab:

- Yevgeniy! – dedi va: – kelganiga ko'p bo'ldimi?
- deb so'radi.
- Hozirgina keldilar va Anna Sergeyevnaga bildirmay, sizning bo'l mangizga olib borishni buyurdilar.

Arkadiy: «Uyimizda biror baxtsizlik ro'y bermadimik?», deb o'yladi va zinapoyadan shoshilib chiqib, birdan eshikni ohib yubordi. Tajribaliroq ko'z kutilmagan mehmonning ilgarigidek kuchli, lekin oriqlangan jussasidan uning ko'ngli notinchligini payqashi mumkin bolsa ham, u Bazarovni ko'rishi bilan tinchlandi. Yigit egniga chang bosgan shinel va boshiga kartuz kiygani holda deraza tagida o'tirardi. Arkadiy shovqin-suron bilan bo'yniga tashlanganda ham u o'rnidan qo'zg'almadidi.

Arkadiy xursand ko'rsatishga urinadigan odamlar singari, o'zini qayerga qo'yishini bilmay:

- Men kutmagan edim! Qaysi shamol uchirdi? Bizning uydagilar sog'-salomat va tinch bo'salar kerak axir, shunday emasmi? – deb so'radi.

Bazarov unga javob berib:

– Hammasi tinch, lekin hammasi ham sog‘-salomat emas. Ko‘p shaqillayverma, ayt, menga ichishga biror nima keltirishsin. Men senga aniq, qisqa va lo‘nda qilib, ta’sirli voqeani so‘zlab beraman, – dedi.

Arkadiy jim bo‘ldi, Bazarov esa unga o‘zining Pavel Petrovich bilan qilgan dueli haqida gapi-rib berdi. Arkadiy hayratda edi, hattoki xafa ham bo‘ldi, lekin buni Bazarovga bildirishni lozim ko‘rmadi. U faqat: «Amakimning yarasi haqiqatan ham xavfli emasmi?», deb so‘radi va Bazarovning: «Amakingning yarasi yaxshi, biroq tibbiy jihatdan emas», degan javobini olib, zo‘rma-zo‘raki jilmayib qo‘ydi. Ammo yuragi allaqanday bo‘lib, xijolat tortdi. Bazarov buni fahmladi shekilli:

– Ha, uka, feodallar bilan yashasang shunday bo‘ladi. O‘zing ham feudal bo‘lib qolasan va ritsarlar musobaqalarida ham qatnashasan. Xo‘s, shunday qilib men uyga qarab jo‘nadim, – dedi Bazarov, – yo‘l-yo‘lakay bu yerga keldim... Agarda, foydasiz yolg‘onni ahmoqlik deb bilmasam bu yerga nima uchun kel-ganimni o‘zim ham bilmayman. Bilasanki, odam o‘zining kokilidan ushlab, jo‘yakda o‘sib yotgan turpni tortib yer ostidan chiqarganday o‘zini tortib chiqarsa, ba’zan foydali bo‘ladi, biroq men o‘zimni tortib chiqargan va ilgari o‘tirgan jo‘yagimni yana bir marta ko‘rishni istadim.

– Bu gaplarning menga taalluqli joyi bo‘lmasa kerak deb o‘ylayman, – dedi Arkadiy hayajon bilan. – Menden ajralmoqchi emasdirsan, deb umid qilaman.

Bazarov unga tikilib qoldi.

– Shunday bo‘lsa, go‘yo xafa bo‘lasan-a? Nazarimda, menden allaqachon ajralganday ko‘rinasan.

Sen juda ochilib ketibsan... Anna Sergeyevna bilan ishing juda joyidaga o'xshaydi.

– Anna Sergeyevna bilan mening qanaqa ishim bor?

– Sen uni deb shahardan bu yerga kelmading-mi? Aytganday, yakshanbalik maktablarning ishi qalay ekan? Anna Sergeyevnaga oshiq emasmisan? Yo endi talmovsiraydigan bo'lib qoldingmi?

– Yevgeniy, o'zing bilasanki, men sendan hech qachon sir yashirganim yo'q, ont ichib aytamanki, sen yanglishasan.

Bazarov past tovush bilan:

– Him! Yangi gap, – deb qo'ydi, – lekin qizishmasang ham bo'ladi, men uchun baribir. Mening o'rnimda birorta xayolparast bo'lganda: «Ikkimiz ikki tomonga qarab ketayotibmiz», degan bolardi. Ammo men to'g'risini aytaman: bir-birimizdan to'ydik.

– Yevgeniy...

– Jonim, hechqisi yo'q, dunyoda odam deganing nimalardan to'ymaydi! Endi vidolashsak ham bo'lar deyman? Men bu yerga kelganimdan beri xuddi Gogolning Kaluga gubernatorining xotiniga yozgan xatlarini o'qib chiqqanday o'zimni juda yomon his qilyapman. Ha, aytganday, otni aravadan chiqarmay tur degan edim.

– Qo'ysang-chi, bo'lмаган gap!

– Sabab?

– Meni qo'yaver, ammo kelganiningni eshitsa, albat-ta, ko'rishni istaydigan Anna Sergeyevna ranjiydi.

– Hech unday emas, yanglishasan.

– Aksincha, men o'z fikrimni juda to'g'ri deb bilaman. Nima uchun sen o'zingni bilmaslikka solasan? Men ham ochig'ini aytsam, sen o'zing bu yerga Anna Sergeyevnani deb kelgan emassanmi?

– Shunday bo'lishi mumkin, to'g'ri, lekin har holda yanglishasan.

Lekin Arkadiy to'g'ri aytgan edi. Anna Sergeyevna Bazarov bilan ko'rishmoqchi bo'lib, uni eshik og'asi orqali o'z huzuriga chaqirtirdi. Bazarov uning huzuriga borish oldidan, avvalo kiyimlarini almashtirib oldi. Yangi kiyimlari jomadonining eng yuqorisiga qo'yilgan edi.

Odinsova uni Bazarovning kutilmagan holda o'ziga muhabbat izhor etgan bo'lmasida emas, balki mehmonxonada qabul qildi. Odinsova lutfan unga qo'lini uzatdi, lekin chehrasidan ixtiyorsiz chiranganligi sezilib turar edi.

– Anna Sergeyevna, – dedi Bazarov oshiqib, – avvalo, men ko'nglingizni tinchlantirishim kerak. Huzuringizda o'zi ham ko'pdan esini yig'ib olgan va boshqalar ham uning ahmoqliklarini shoyad unutgandirlar, deb umid qilgan osiy bir banda turipti. Men ko'pga ketayotirman, shuning uchun, garchi, yumshoq tabiatli odam bo'lmasam-da, siz meni xotirangizga olganda, albatta mendan jirkanasiz degan fikr bilan ketishim uchun g'oyat ko'ngilsiz, – dedi.

Anna Sergeyevna baland toqqa zo'rg'a chiqqan kishiday chuqur nafas oldi va yuzida tabassum paydo bo'ldi. U Bazarovga boshqatdan qo'l cho'zdi va uning qo'l qisishiga javoban qo'lini qisib qo'ydi.

– Eski gapni esiga olganning ko'zi chiqsin, – dedi u. – Insov bilan aytganda, o'shanda ayb o'zimdan o'tdi, karashma qilmagan bo'ssam ham bo'lak bir nima bilan sizni shunga dalolat qildim. Bundan keyin ilgarigidek, do'st bo'laylik. O'tgan ishlar tushday o'tdi, ketdi, shunday emasmi? Kim tushni eslaydi, deysiz?

– Tush kimning esida qoladi? Axir muhabbat... so'nggi bir tuyg'u-ku!

– Shundaymi? Bunday gaplarni eshitish men uchun katta baxt.

Anna Sergeyevna shu ravishda, Bazarov ham shu tarzda gapirar edi, ular ikkovi ham rostini aytdik, deb o'ylar edilar. Ularning gapi to'g'ri, tom ma'nosi bilan to'g'rimidi? Buni ularning o'zlari ham bilmas edilar, shunday bo'lgach, muallif qayerdan bilsin? Biroq ularning suhbatи shunday qizib ketdiki, go'yo bular bir-birlariga batamom ishongan edilar.

Anna Sergeyevna, so'z orasida Bazarovdan Kirsanovlarnikida nima qilib yurganligini so'radi. Bazarov Pavel Petrovich bilan qilgan dueli haqida so'zlay dedi-yu, lekin Anna Sergeyevna mubolag'a qilayotipti deb o'ylar, degan xayolga borib, ayt-madi va uning savoliga: «Bor vaqtimni ishga bag'ishladim», deb qo'ya qoldi.

Anna Sergeyevna:

– Men, Xudo biladi, nimagadir ruhim tushib yurdim, hattoki chet elga ketmoqchi ham bo'ldim, qarang!.. Keyin bu savdolar o'tib ketdi, do'stingiz Arkadiy Nikolayevich kelib qoldi va men yangidan o'zligimga qaytib, rolimni bajarishga tushdim, – dedi.

– Bu qanday rol ekan, bilish mumkinmi?

– Xolalik, murabbiyalik, onalik roli deysizmi, xohlaganingizcha atayvering. Aytganday, bila-sizmi, men sizning Arkadiy Nikolayevich bilan yax-shi do'stligingizni bilmas edim. Uni inson sifatida qadrlardim. Endi esa uni yaqindan tanidim, shu bilan birga uning aqliligiga ham ishondim... Eng muhimi shuki, u yosh, hali yosh... Siz bilan men kabi emas, Yevgeniy Vasilyevich.

- U sizning huzuringizda hali ham tortinadimi?
- deb so'radi Bazarov.

Anna Sergeyevna:

- Nahot u... – deya so'z boshlagan edi, lekin biroz o'ylanib: – u hozir tortinmaydigan, men bilan gaplashib o'tiradigan bo'lib qoldi. Ilgarilari mendan o'zini olib qo-chardi. Men ham uning suhbatiga u qadar ishtiyoyq-mand emas edim. U ko'proq Katya bilan do'st edi.

Bazarovga alam qildi. U: «Ayol kishining hiyla qilmay iloji yo'q!» deb o'yladi va sovuqqina tabassum bilan:

- U mendan tortinar edi deysiz, lekin uning sizga oshiqligi, albatta, endi sizga sir emasdир? – dedi.

Anna Sergeyevna birdan:

- Nechuk? U hammi? – deb yubordi.

Bazarov yuvoshgina bosh egib:

- U ham, – deb takrorladi. – Nahotki, buni bilmasangiz, mening gapim sizga yangilik bo'lsa?

Anna Sergeyevna yerga qaradi.

- Yanglishasiz, Yevgeniy Vasilyevich.

- O'ylamayman. Lekin buni, ehtimol, eslatmasligim kerak edi. – Bazarov o'zicha: «Sen hiyla qilma», deb qo'ydi.

- Nega eslamaslik kerak edi? Lekin men, har masalada ham bir lahzalik taassurotga juda katta ahamiyat berasiz, deb o'layman. Sizning ortiqcha mubolag'a qiladigan odatingiz bor ekan, deb shubhalana boshladim.

- Yaxshisi, bu haqda gaplashmaylik, Anna Sergeyevna.

- Nima uchun? – dedi Odinsova, biroq o'zi gapni boshqa yoqqa burib yubordi. U Bazarovga ham o'ziga ham «O'tgan ishga salavot», degan bo'lsa-da harqalay u bilan suhbatlashib o'tirishdan o'ng'aysizlandi. Bazarov bilan eng oddiy gaplardan

so'zlashib, hatto u bilan hazillashib o'tirgan holda ham Anna Sergeyevna biroz qo'rquv his etardi. Odamlar paroxodda, dengizda ketayotib bir-biri bilan xuddi yerdagi singari beg'am suhbatlashishar, kulishar, lekin paroxod ozgina to'xtab qolsa, salpal xavf alomati sezilsa, hammaning yuzida darrov vahima alomati paydo bo'ladi, bu esa hayoti xavf ostidaligini ular har daqiqa sezib turganligini anglatadi.

Bazarov bilan Anna Sergeyevnaning suhbatи uzoqqa cho'zilmadi. Anna Sergeyevna doim o'yga tolar va Bazarovning so'zlariga parishonxotirlik bilan javob berar edi, nihoyat, «Katta mehmonxonaga chiqaylik», deb taklif qildi. Katta mehmonxonada knyajna bilan Katya o'tirardi. Anna Sergeyevna ulardan: «Arkadiy Nikolayevich qani?» deb so'radi va uning bir soatdan oshiq vaqtidan beri ko'rinnaganini bilgach, chaqirtirgani odam yubordi. Yigitni topish qiyin bo'ldi. U bog'chaning bir burchagiga borib, iyagini qo'llariga tirab, xayolga cho'mib o'tirardi. Uning xayollarji juda chuqur va muhim, lekin ko'ngilsiz xayollar emas edi. U Anna Sergeyevnaning Bazarov bilan yolg'iz o'tirganini bilar va ilgarigiday rashk qilmas edi, aksincha, sekin-asta uning yuzi yorishar, nima-gadir ajablanar, shodlanar va qandaydir bir ishga jazm qilganday bolardi.

26



Marhum Odinson yangiliklar kiritishni yomon ko'rар, lekin «Baribir oliv tabiat didlarining zavqi»ga yo'l qo'yar edi. Shu sababdan u o'z bog'chasida, ko'chatxona bilan hovuz o'rtasiga, rus g'ishtidan yunoncha portik soldirgan edi. Bu portikning yoki

gallereyaning orqa devoriga haykallar qo'yish uchun oltita taxmon qilingan edi. Haykallarni Odinsov chet ellardan oldirmoqchi bo'ldi. Bu haykallar «uzlat, su-kut, tafakkur, savdoyilik, uyatchanlik va hissiyot», degan mazmunlarni ifoda qilishi lozim edi.

Ulardan bittasi barmog'i bilan lablarini ushlab turgan sukut ilohasi joylashtirilmoqchi edi, le-kin xizmatkorlarning bolalari keltirilgan kuniyoq, uning burnini tosh bilan urib sindirdilar, garchi qo'shni suvoqchi unga «ilgarigidan ikki marta yax-shiroq» burun qilib berishni o'z zimmasiga olmoq-chi bo'lgan bo'lsa ham, Odinsov bunga unamagan va haykalni olib chiqishni buyurgan edi. Natijada bu haykal omborning bir burchagiga tashlanib, xurofotga ishongan xotinlarni hurkitib, uzoq yillar o'sha yerda qolib ketgan edi. Portikning oldingi tomonini allaqachon buta bosib ketgan va yashil o'simliklar orqasidan faqat kolonnalarning kapitel-larigina¹ ko'rinish turar edi. Portikning o'zida, hatto tush vaqtida ham salqin bo'lar edi. Anna Sergeyev-na u yerda bir marta sariq ilon ko'rib qolganidan beri, u yerga bormaydigan bo'lib qolgan edi, ammo Katya taxmonlardan biri oldiga yasab qo'yilgan katta tosh o'rindiqqa har zamon kelib o'tirar edi. U soya-yu salqinda kitob o'qir, ish tikar yoki bata-mom sukunat daryosiga g'arq bo'lib o'tirardi. Bu har kimga ma'lum bo'lsa kerak, buning go'zalligi bizning artofimizda va ham bizning o'zimizda uz-luksiz kechayotgan keng hayot to'lqinlarini endi-gina anglay boshlar, ularga jimgina qarab turishdan iboratdir.

Bazarov kelgan kunining ertasiga Katya o'zining sevgan o'rindig'ida o'tirar va uning yonida bu safar

¹ Kapitel – kolonnaning (ustunning) yuqori qismi.

ham Arkadiy bor edi. Arkadiy undan «peshayvon»ga birga boraylik deb o'tindi.

Nonushtaga bir soatcha qolgan edi, shudringli erta issiq kun bilan almashindi. Arkadiyning yuzi hanuz kechagi qiyofada, Katya biroz tashvishmand ko'rinar edi. Opasi choydan keyin uni o'z xonasiga chaqirib oldi va biroz erkalagandan keyin (Katya opasining erkakashidan har doim bir qadar qo'rqrar edi), unga Arkadiy bilan yurganda ehtiyotroq bo'lishni va ayniqsa, go'yo xolasi hamda butun uy ichi sezib qolgan ishdan; ya'ni Arkadiy bilan xilvatta suhbat qurib o'tirishdan o'zini tortishni maslahat berdi. Bundan tashqari, Anna Sergeyevna kechqurun biroz xafaday ko'rindi. Katya ham xuddi o'z aybiga iqror bo'lganday, xijolatda edi. Shuning uchun Arkadiyning iltimosiga rozi bo'layotib, o'ziga: «Bu – oxirgi borishim bo'lsin», deb qo'ydi.

Arkadiy uyalgansimon so'z boshlab:

– Katerina Sergeyevna, siz bilan men bir hovlida turishga muyassar bo'lganimdan beri siz bilan ko'p narsalar to'g'risida suhbatlashdim, lekin men uchun... juda muhim bir masala to'g'risida shu kungacha og'iz ochganim yo'q, – dedi va Kataning o'ziga savol nazari bilan tikilib qarab turganini ko'rib, uning ko'ziga qaramaslikka tirishib, davom etdi. – Kecha siz: «Meni bu yerda u yo'ldan qaytarishdi», degan edingiz. Haqiqatan ham, men ko'p jihatdan o'zgardim, buni siz hammadan yaxshiroq bilasiz va o'zgarishimga sabab bo'lgan kishi zotan siz bo'ldingiz, bu o'zgarish uchun sizdan qarzdorman, – deb qo'shib qo'ydi.

– Men?.. Menga?.. – dedi Katya.

Arkadiy so'zini davom ettirdi:

– Men endi ilgarigi, bu yerga kelgan vaqtimdagи singari qo'rs bir bola emasman, mening yigirma

uch yoshta kirishim ham beziz emas. Men ilgarigidek foydali odam bo'lishni, o'zimning butun kuch-quvvatimni haqiqat yo'liga bag'ishlashni istayman, lekin o'z g'oyalarimni endi ilgari izlagan joylarimdan qidirmayman. G'oyalarim menga ancha yaqin bo'lib ko'rindi. Shu vaqtgacha men o'z-o'zimni tushunmas edim, o'z oldimga qo'limdan kelmaydigan maqsadlarni qo'yari edim... Ko'zlarim yaqindagina tuyg'u tufayli ochildi... Men o'z fikrimni yetarli darajada aniq qilib aytolmayman, lekin siz meni tushunarsiz, deb umid qilaman...

Katya hech narsa demadi, lekin Arkadiyga qaramay qo'ydi.

– Menimcha, – dedi Arkadiy yana ham haya-jonliroq tovush bilan. Bularning tepasida qayin yaproqlari orasida qizilto'sh beg'am sayrab turardi, – har bir to'g'ri odam o'zining... o'zining... xul-las, o'zining yaqin kishilari bilan sir yashirmay, so'zlashuvi lozim, shuning uchun men... mening niyatim...

Lekin Arkadiy chuldirab qoldi, gapidan adashdi, nima deyishini bilmay, gangib qoldi va birpas jim qolishga majbur bo'ldi. Katya hanuz unga qaramas edi. U Arkadiyning nima demoqchi bo'lganini go'yo tushunmay, nima der ekan, deb quloq solib tur-ganday edi.

Arkadiy kuch to'plab, yangidan so'zga kirishdi:

– Men sizni hayron qoldirayotganimni sezib turibman, chunki bu tuyg'u bir daraja... diqqat eting, bir daraja sizga tegishli, – Arkadiy botqoqqa botgan va tobora ko'proq botib ketayotganini sezsa ham, undan tezroq chiqish umidida hamon olg'a shoshilib talpinayotgan odam singari so'zini davom ettirdi. – Siz meni kecha, menda yetarli da-

rajada jiddiylik yo‘q deb ta’na qilgan edingiz, bu ta’na ko‘pincha yoshlarga, hatto ular bunga sa-zovor bo‘lmasalar ham yoshlarga qaratiladi; agarda men o‘zimga ishongan bo‘lsam... (Arkadiy betoqat bo‘lib, ichida: «Axir yordam qilsang-chi, yordam qil!» der, lekin Katya hanuz boyagicha unga qaramas edi). Agar men umid qilolsam edi...

Xuddi shu on birdan Anna Sergeyevnaning:

– Agarda men siz aytgan so‘zlarning to‘g‘ri bo‘lishiga to‘la ishonsam edi, – degan tovushi eshitildi.

Arkadiy darrov jim bo‘lib qoldi, Katyaning bo‘lsa rangi bo‘zarib ketdi. Peshayvonni to‘sib turgan butalar yonida bir yo‘lka bor edi. Anna Sergeyevna Bazarov bilan birga, shu yo‘lkadan kelar edi. Arkadiy bilan Katya ularni ko‘rmas, lekin so‘zlarini, ko‘ylakning shaldiragan tovushini va, hatto, nafas olishlarini ham aniq eshitar edi. Ular bir necha qadam olg‘a borib, jo‘rttaga qilgandek, peshayvon oldiga kelganlarida to‘xtadilar. Anna Sergeyevna so‘zini davom ettirib, dedi:

– Mana, ko‘rdingizmi, ikkimiz ham yangli-shibmiz, ikkalamiz ham, xususan, men yoshlikning birinchi davrini kechirganman. Yoshimizni birmuncha yashaganmiz, charchaganmiz, yashirishning nima hojati bor, ikkimiz ham aqllimiz, boshida bir-birovimizga qiziqdik, ammo keyin...

Bazarov uning so‘zini ilib olib:

– Ammo keyin men so‘nib qoldim, – dedi.

– Bizning o‘rtamizda anglashilmovchilik chiqishiga sabab bo‘lgan narsa bu emas, buni siz yaxshi bilasiz. Biroq qanday bo‘lmasin, biz bir-birovimizga muhtoj emas edik, asosiy sabab shu. Bizda... Qanday desa bo‘lar ekan... Bizda ortiq darajada bir-birovimizga o‘xshashlik bor edi. Biz buni boshqa sezmagan edik. Arkadiy esa, aksincha...

– Siz unga muhtojmisiz? – deb so‘radi Bazarov.

– Qo‘ysangiz-chi, Yevgeniy Vasilyevich. Siz uni menga oshiq deb aytasiz, men o‘zim ham buni sezgan edim. Men unga xola bo‘lishga loyiqligimni bilaman, lekin keyingi vaqtarda u haqda ko‘proq o‘ylaganimni sizdan yashirmayman. Bu yosh va sof tuyg‘uda qandaydir go‘zallik bor...

Bazarov uning so‘zini bo‘lib:

– Bu o‘rinda latofat so‘zi ishlatsa, muvofiqroq bo‘ladi, – dedi. Uning osoyishta, bo‘g‘iq tovushidan dilida zahar qaynab turgani sezilar edi. – Arkadiy kecha negadir mendan sirini yashirib o‘tirdi, – na siz to‘g‘ringizda gapirdi va na singlingiz to‘g‘risida... Bu muhim bir alomat.

– Ikkalasi xuddi aka-singildek. Bu menga yoqadi, ammo ularning bu qadar yaqinlashuvlariga yo‘l qo‘yganim, ehtimol, chakkidir, – dedi Anna Sergeyevna.

Bazarov so‘zini cho‘zib-cho‘zib:

– Opa bo‘lganingiz uchun shunday deyapsizmi? – dedi.

– Albatta... Lekin nega biz to‘xtab turibmiz? Yuring. Biz qanday g‘alati mavzularda gaplashayapmiz-a, shunday emasmi? Men siz bilan shunday gaplasharman, deb kutganmidim? Bilasiz-ku, men sizdan qo‘rqaman... va ayni zamonda sizga ishonaman ham, chunki siz yaxshi odamsiz.

– Birinchidan, men yaxshi odam emasman, ikkinchidan, men sizning oldingizda ahamiyatimni yo‘qotganman, tag‘in siz meni yaxshi odam dey-siz... Bu o‘likning boshiga gulasta qo‘yish bilan baravar.

Anna Sergeyevna:

– Yevgeniy Vasilyevich, bizda qudrat yo‘q... – deyar ekan, daraxt yaproqlarini shildiratib, birdaniga shamol ko‘tarildi va uning so‘zlarini uchirib olib ketdi.

Birozdan keyin Bazarov:

– Siz ozod kishisiz-ku, – dedi. Bundan boshqa hech gapni anglab bo‘lmadi, qadamlar uzoqlashdi va hech nima eshitilmay qoldi.

Arkadiy Katyaga qaradi. U boyagi holatda o‘tirar, faqat boshini yana ham quyiroq solgan edi. Arkadiy qaltiragan tovush bilan:

– Katerina Sergeyevna, men sizni abadiy sevaman va hech vaqt sizdan bo‘lak hech kimni sevmayman. Men shuni sizga aytib va fikringizni bilib, qo‘lingizni so‘ramoqchi edim, chunki men boy ham emasman, jonimni fido qilishga ham tayyorligimni sezaman... Nega javob bermaysiz? Menga ishonmaysizmi? Siz meni yengiltaklik qilib gapiroyatir, deb o‘ylaysizmi? Shu so‘nggi kunlarni bir esingizga olsangiz-chi! Ko‘zimga sizdan boshqasi ko‘rinmasligiga nahot qanoat hosil qilmagan bo‘lsangiz? Menga qarang, bir og‘iz so‘z aytинг... Sevaman... Men sizni sevaman... Menga ishoning! – dedi.

Katya jiddiy va ochiq chehra bilan Arkadiyga qarab qo‘ydi va uzoq xayoldan so‘ng biroz kulimsirab:

– Ha, – dedi.

Arkadiy o‘rindiqdan irg‘ib turdi.

– Ha! Ha, dedingiz-a, Katerina Sergeyevna! Bu so‘zning ma’nosi nima? Sen meni sevasan, senga ishonaman deganingizmi, yoki u yog‘ini aytishga tilim bormayotir...

– Ha, – dedi Katya yana va bu safar Arkadiy tu-shundi. U darrov Katyaning katta, go‘zal qo‘llarini mahkam tutib, shodligidan nafasi bo‘g‘ilgani holda ko‘kragiga qisib oldi. U zo‘rg‘a tikka turar va

faqat: «Katya, Katya...» deb takrorlar edi. Katya esa ma'sumona yig'lab, yig'laganiga o'zi sekingina kular edi. Sevgilisining ko'zlaridan yosh oqqanini hech ko'rmanган odam, bu yoshni ko'rganning qanchalik minnatdor bo'lishini va o'zini qanchalik baxtiyor sezishini bilmaydi.

Ertasiga ertalab Anna Sergeyevna Bazarovni o'z xonasiga chaqirtirib oldi va zo'rma-zo'raki kulib, unga ikki buklangan bir taxta qog'ozni uzatdi. Bu qog'oz Arkadiy tomonidan yozilgan bir xat edi. Arkadiy Anna Sergeyevnadan singlisining qo'lini so'rab yozgan edi.

Bazarov chaqqon ko'z yogurtirib, xatni o'qib chiqdi va darhol o'z dilida paydo bo'lgan ichi qoralik hissini sezdirmaslikka tirishdi.

– Shunday deng, kechagina ikkovining muhabbatи aka-singil muhabbatiday degan edingiz shekilli? Xo'sh, endi nima qilmoqchisiz?

Anna Sergeyevna hamon kular ekan:

– Siz qanday maslahat berasiz? – deb so'radi.

Garchi Bazarov uchun bu aslo ko'ngilli bo'lmasada, u ham Anna Sergeyevna kabi hech kulgisi kelmagani holda kulib turib:

– Meningcha, yoshlarga oq fotiha berish kerak. Ikkalasi ham bir-biriga har jihatdan mos, Kirsanovning boyligi katta, otasining yolg'iz o'g'li, buning ustiga otasi ham yaxshi odam, qarshi bo'lmas, – dedi.

Odinsova nari-beri yurdi. Uning yuzi goh qizari, goh oqarib turardi.

– Siz shunday deb o'ylaysizmi? Men hech qanday monelik ko'rmayman... Men Katya uchun... Arkadiy Nikolayevich uchun ham xursandman... Albatta, men otasining javobini kutaman. Men o'zini otasining oldiga yuboraman. Mana, mening kechagi, biz ikkimiz ham qarib qolganmiz, degan

gapim to'g'ri chiqdi... Qanday qilib, men payqamay qolibman-a? Bu meni hayratga soldi!

Anna Sergeyevna yana kulib yubordi va darhol orqasini o'girdi.

Bazarov ham kulib:

- Hozirgi yoshlar juda hiylakor bo'lib qolgan,
- deb qo'ydi. U birpas sukut saqlaganidan keyin yana so'zga kirishib: – mayli, bu ishingizning oqibati baxayr bo'lsin, men yiroqdan turib quvona-man, – dedi.

Odinsova darhol unga o'girildi.

- Siz hali ketmoqchimisiz? Nima uchun hozir qol-moqchi emassiz? Qoling... Siz bilan suhbatlashib o'tirish ko'ngilli... Xuddi tagi yo'q jarlikning chetidan yurganday bo'lasan kishi. Boshida qo'rqa-san, keyin qayerdan botirlik paydo bo'lganini bilmay qolasan. Qoling.

- Taklifingizga, Anna Sergeyevna va mening gapga ustaligim haqida yaxshi fikrda bo'lishingizga, tashakkur, biroq men, hatto hozir ham o'zim uchun yot bo'lgan bir daqiqada juda uzoq aylanib qoldim, deb o'ylayman. Uchar baliqlar birmuncha vaqt havoda tura olishlari mumkin, lekin birpasdan keyin noiloj shalop etib, suvg'a tushib ketmay ilojlari yo'q, endi menga ham shu kabi o'z dunyoyimga cho'mishga ruxsat eting.

Odinsova Bazarovga qarab qo'ydi. U zaharxanda oqargan yuzini tirishtirib, turar edi. Odinsova: «U meni sevar edi», deb o'yladi va Bazarovga achinib qo'lini o'zatdi.

Lekin Bazarov ham uni tushundi. U:

- Yo'q! – dedi-da, bir qadam orqaga chekindi,
- men kambag'al odamman, lekin shu vaqtgacha sadaqa so'ragan emasman. Xayr, sog' bo'ling.

Anna Sergeyevna beixtiyor joyidan qo'zgalib:

– Bu ko'rishuvimiz so'nggi marta emasdир, – dedи.

Bazarov унга javобан:

– Dunyoda nimalar bo'lmaydi deysiz, – dedи va bosh egib, chiqib ketdi.

O'sha kuni Bazarov narsalarini jomadonga solayotib, Arkadiyga:

– Demakki, sen o'zingga uy solmoqchi bo'libsan-da! Nima qipti, yaxshi ish. Lekin behudaga mug'ombirlik qilding. Men seni butunlay boshqa-chá ish tutasan, deb o'ylagan edim. Yoki boshing aylanib qoldimi?

– Men sendan ajralib ketayotganimda buni kutmagan edim, nega sening o'zing buni «yaxshi ish» deb piching qilasan, sening nikoh haqida qanday fikrdaligingni bilaman-ku!

– Eh, qadrdon do'stim, – dedи Bazarov, – g'alati gaplarni gapirasан-a? Ko'rayapsanmi, men nima qilyapman: jomadonda bo'sh joy bor ekan, shuni pichan bilan to'lg'izyapman. Bizning hayot jomadonimiz ham shunday, uni qanday narsa bilan to'lg'izsang ham baribir – faqat bo'sh joyi qolmasa bo'lgani. Zinhor xafa bo'lma, sen Katerina Sergeyev-na haqida doim qanday fikrda bo'lganimni bilsang kerak. Bir xil qizlar aqlii oh tortish bilan aqlilikda nom chiqaradi, ammo sening qizing o'zini himoya qila oladi va shunday himoya qila biladiki, hatto seni ham o'z qo'liga oladi, aslida shunday bo'lishi ham kerak. – Bazarov jomadonini taq ettirib yopib, o'rnidan turdi. – Mana endi xayrlashayotib, senga qaytarib aytamanki, aldanish kerak emas, biz sen bilan abadiy vidolashyapmiz, buni o'zing ham sez-yapsan... Men senga yana bir marta aytaman, aqlii ish qilding, sen bizning achchiq, nordon, bexonu-

mon hayotimiz uchun yaratilgan emassan... Senda surbetlik, yovuzlik degan narsa yo‘q. Senda faqat yoshlik jasorati va yoshlik g‘ayrati bor. Bu bizning tutgan yo‘limizga to‘g‘ri kelmaydi. Siz dvoryanlar oliyjanob yuvoshlikdan yoki oliyjanob jo‘sinqinlikdan nari o‘ta olmaysizlar, biz uchun bu puch gap. Sizlar, masalan, mushtlashmaysizlar va mushtlashmay turib, o‘zlariningni yigit deb hisoblaysizlar; biz bo‘lsak mushtlashishni istaymiz. Nimasini aytaman! Bizning changimiz sening ko‘zingni achitadi, kirimiz seni iflos qiladi, sen bizning darajamizga cha o‘sib yetganing ham yo‘q, sen o‘zingni ko‘rib, o‘zing beixtiyor suyunasan, senga o‘zingni o‘zing so‘kishing yoqadi. Bizga buning qizig‘i yo‘q – bizga boshqalarni ro‘para qil! Biz boshqalarning bo‘ynini sindirishimiz kerak! Sen yaxshi yigitsan, lekin har-qalay yumshoqsan, liberal boyvachchasan, otam aytmoqchi – e volatu¹.

Arkadiy xafa bo‘lib:

– Men bilan abadiy xayrlashyapsanmi, Yevgeniy? Menga aytadigan boshqa gaping yo‘qmi? – dedi.
Bazarov bo‘ynini qashib qo‘ydi.

– Bor, boshqa so‘zlarim ham bor, Arkadiy, lekin ularni senga aytmayman, chunki bu xom xayol, shakarguftorlik bo‘lib ketadi. Sen tezroq uylan, o‘zingga boshipana qur va bola-chaqani ko‘paytir. Bolalaring aqli bo‘ladi, chunki vaqtida tug‘iladi, ular sen bilan bizday bo‘lmaydi. Iye, otlar ham tayyor bo‘lipti. Endi jo‘nash kerak! Men hamma bilan xayrlashdim... Xo‘s, quchoqlashamizmi?

Arkadiy o‘zining sobiq xalfasi va do‘stining bo‘yniga osildi, uning ko‘zlaridan birdaniga duv etib, yosh oqib ketdi.

¹ E volatu – vassalom.

Bazarov ohistagina:

– Yoshlik shunday-da! Men Katerina Sergeyev-naga ishonaman. Ko'rasan, seni darrov ovutadi! – dedi.

Bazarov aravaga chiqqanidan keyin Arkadiyga qarab:

– Xayr, endi, og'ayni! – dedi va otxona tomida yonma-yon qo'nib turgan ikki zag'chani ko'rsatib: – mana ko'r, ibrat ol! – deb qo'shib qo'ydi.

– Bu nima deganing? – deb so'radi Arkadiy.

– Bilmaysanmi? Tarixdan shunchalik bexabarmisan yo zag'chaning eng mo'tabar oilaparvar parrandaligini esingdan chirqarib qo'ydingmi? Senga ibrat!.. Xayr, sinyor!

Arava g'irillab, jo'nab ketdi.

Bazarovning gaplari to'g'ri chiqdi. Arkadiy kechqurun Katya bilan gaplashib o'tirar ekan, o'zining xalfasini butunlay esidan chirqardi. U endi Katyaga itoat qila boshladi. Katya ham buni sezар va bunga ajablanmas edi. Ertasiga u Marinoa, Nikolay Petrovich huzuriga ketishi lozim edi. Anna Sergeyevna yoshlarga xalaqit bergisi kelmas, faqat odob yuzasidangina ularni juda uzoq yolg'iz qoldirmas edi. U oliyanoblik qilib knyajnani ulardan uzoqlashtirib qo'ydi. To'y bo'lajagini bilib, knyajna xafa bo'ldi va ko'zlari yoshta to'ldi. Anna Sergeyevna boshqa, yoshlarning baxtini birga qo'shish tomoshasi o'zi uchun birmuncha og'ir bo'lar deb qo'rqi, ammo tamoman teskarisi bo'lib chiqdi. Bu tomosha uning uchun og'ir bo'lmasdi, balki bu ishga u chindan berilib ketdi va bu uning ko'nglini yumshatdi. Anna Sergeyevna bunga ham

xursand, ham xafa bo'ldi. U: «Rost, Bazarov haq. Maroq, yolg'iz maroq. Tinchlikni sevish – xudbinlik...», deya xayol qildi. U jahl bilan:

– Nima deysizlar, bolalar, muhabbat bir sun'iy tuyg'umi? – dedi.

Biroq Katya ham, Arkadiy ham uning gapini tushunolmadilar. Ular Anna Sergeyevnadan tortinishar edi, bexosdan eshitgan so'zlari quloqlaridan nari ketmas edi. Lekin Anna Sergeyevna ularni tinchitib qo'ydi. Uning uchun bu ish qiyin ham bo'lmasdi va o'zi ham tinchib qoldi.

27



Keksa Bazarovlar o'g'llarini qanchalik zoriqib kutgan bo'salar, uning to'satdan qaytishiga shunchalik xursand bo'ldilar. Arina Vlasyevna shu qadar shoshib, tipirchilab qoldiki, Vasiliy Ivanovich uni «kaklikka» o'xshatdi. Uning kalta koftasi haqiqatan ham unga qush tusini berib turardi. Vasiliy Ivanovich kahrabo trubkasini og'zining bir chetiga qo'yib, xuddi boshim joyida mahkam turibdimi deganday bo'ynini ikki qo'llab ushlab, boshini chayqar va birdaniga og'zini katta ochib, tovush chiqarmay kulardi.

– Men bu safar olti haftaga keldim, dada, men ishlamoqchiman, shuning uchun menga xalaqit bermasligingni so'rayman, – dedi Bazarov.

– Men senga shunchalik xalal bermayki, hatto nusxamni unutvorasan! – dedi Vasiliy Ivanovich.

U va'dasida turdi. O'g'lini ilgarigidek o'z xonasi ga joylashtirdi. Unga ko'rinish u yoqda tursin, xotinini ham ortiqcha mehribonchilik qilishdan tiydi. U xotiniga: «Biz onasi, Yenyushka birinchi kelganida,

uni biroz bezor qiluvdik, endi hushyor bo'lishimiz lozim», dedi. Arina Vlasyevna erining gapiga kirdi, lekin bundan ko'p foyda ko'rmadi, chunki o'g'lini faqat dasturxon ustidagina ko'rар va u bilan gaplashishga butunlay qo'rqar edi. U ba'zan: «Yenyushenka!» deydi-yu, o'g'li qaraguncha, darhol redikulining iplarini o'ynab: «Yo'q, hech gapim yo'q, men shunday, o'zim» der, keyin Vasiliy Ivanovich oldiga borar va yuzini mushtumiga tirab: «Yenyushadan so'rash kerak, bugun tushlikka karam sho'rva ichadimi?», der edi.

Bunga eri: «Nimaga o'zing so'ramading?» der, Arina Vlasyevna esa: «Bezor qilaman-da!» deb javob berardi. Lekin tezda Bazarovning o'zi ham ulardan qochmaydigan bo'lib qoldi. Ishga qo'li bormaydigan, diqqati oshadigan, ko'ngli g'ash bo'ladigan bo'lib qoldi. Uning butun harakatida g'alati horg'inlik sezildi, hatto shaxdam va dadil yurishi ham o'zgardi. U aylangani ham yolg'iz chiqmaydigan bo'ldi, ulfat axtardi, choyni mehmonxonada ichadigan, polizga Vasiliy Ivanovich bilan chiqib, aylanib yuradigan va u bilan xuddi basma-basiga o'ynaganday indamay, tamaki chekadigan bo'ldi. U bir kuni Aleksey otani so'rab qoldi. Vasiliy Ivanovich undagi bu o'zgarishlarni ko'rib, avvaliga quvondi, lekin uning quvonchi uzoqqa cho'zilmadi. U xotiniga yashirinchha: «Yenyusha to'g'risida tinchimayapman, u bir nimadan norozi yoki achchiqlangan. Shunday bo'lganda ham mayli edi-ya, balki qattiq ranjigan, diqqat ko'rindi, mana bunisi yomon. U hech gapirmaydi, aqalli bizni so'ksachi. Yevgeniy kundan-kunga oriqlayotir, rang-ro'yi ne ahvolda», der edi. Kampir esa: «Yo Xudoim, yo Xudo! Men uning bo'yniga tumor taqib qo'yardim, lekin ko'nmaydi-da», deb oh tortardi. Vasiliy Ivanovich juda ham ehtiyyotkorlik bilan o'g'lidan bir ne-

cha marta ishini, sog'lig'ini va Arkadiyni so'radi, lekin Bazarov har safar unga istar-istamas javob berar edi. Bir kuni otasi uni gapga solib, sekin-asta undan nimalarnidir bilib olishni istaganini sezib, Bazarov xafa bo'ldi va: «Nima uchun sen mening oldimda oyoq uchida yurganday yurasan? Bu qiling'ing ilgarigidan ham battar», dedi. Bechora Vasiliy Ivanovich shoshib-pishib: «Xo'p, xo'p, xo'p, bilmabman», deb javob berardi. Uning siyosiy kinoyalari ham natijasiz qoldi. Bir kuni yaqin o'ttada dehqonlar ozod qilinajagi va buning ortida taraqqiyot davri boshlanajagi to'g'risida so'z ochib, o'g'lining bu fikrga qo'shilishini umid qilgan edi, lekin usovuz qilganlik bilan: «Kecha men devor yonidan o'tib ketayotib, dehqon bolalaring eski ashula o'rniga: «Asil zamonlar keladi, yurak muhabbat sezadi...», deb baqirganlarini eshitib qoldim... Mana senga taraqqiyot», deb qo'ydi.

Bazarov ba'zan qishloqqa borar va odatdagicha tegishib, o'tgan-ketgan bilan gaplashib qolar edi. U odamga: «Qani, sen menga o'zingni hayotga qarashingni bir aytib ber-chi, birodar, aytadilarki, Rossiyaning butun kuchi-yu kelajagi sizning qo'lingizda, tarixda yangi davr sizdan boshlanajak siz bizga haqiqiy til va qonun berar emishsizlar», der edi. Tanishlari bunga yo javob bermas yo bo'lmasa: «Ha, biz ham... Qo'limizdan keladi, masalan... bizza qanday, masalan, taxminan chegara...» degan ma'noda g'uldirar edi. Bazarov uning so'zini bo'lib:

– Sen menga shuni tushuntirib ber-chi, sizning dunyo deganingiz o'zi nima, demak? Bu dunyo o'sha uch baliq ustida turadigan dunyo emasmi? – deb so'radi.

– Uch baliq ustida yer turadi, taqsirim, bizning dunyo, turgan gap, boyarlar qo'lida turadi, shuning uchun ham sizlar bizga ota bo'lasizlar. Boyar

qancha qattiqqo'l bo'lsa, odam shuncha muloyim bo'ladi, – deb javob berar edi.

Bazarov bir kuni shunday so'zni eshitib, nafrat bilan yelkasini qisdi va orqasiga burildi, yo'lovchi esa yo'lida davom etib, olg'a odimladi.

Uning Bazarov bilan gaplashib turganini uzoq-dan, o'z uyining ostonasidan ko'rib turgan o'rta yoshlardagi va qovog'i soliq ikkinchi odam yigitga murojaat qilib:

– Nima to'g'risida safsata qildi? Boqimonda to'g'risidami? – dedi. Birinchi odam unga javob berib:

– E, birodar, boqimondani gapirarmidi! U-bu deb laqillaydi, tili qichigandir-da. Boyar-da, bu narsalarni bilarmidi? – dedi. Uning ovozida hozir boyagi soddalik emas, aksincha, qandaydir g'azab ohangi bor edi.

Ikkinci odam unga:

– Qayoqdan bilsin! – dedi.

Shundan keyin har ikkisi ham telpagini qoqib va belbog'larini sal bo'shatib, o'z ishlari va ehtiyojlari to'g'risida gaplashib ketdilar. Hayhot! Nafrat bilan yelkasini qisganlar bilan gaplashib bilgan (Pavel Petrovich bilan bahslashgan vaqtida u shunday deb maqtangan edi), o'z-o'ziga ishongan Bazarov erkak-larga masxara bo'lganini xayoliga ham keltirmadi.

Nihoyat, u o'ziga mashg'ulot topib oldi. Bir kuni Vasiliy Ivanovich bir erkakning oyog'idagi yarani boylamoqchi bo'lgan edi, qo'llari qaltirab bog'lolmadi. Bazarov unga yordamlashdi va shundan boshlab, otasining davolash ishlariga qatnasha boshladi. Ayni zamonda u o'zi maslahatlaridan ham, bu davolash usullarini otasi hamon ishlatishidan ham kular edi. Lekin Bazarovning kulishi Vasiliy Ivanovichni aslo xafa qilmas, bal-

ki uni yupatardi. U moyi chiqib ketgan chophonini ikki barmog'i bilan qorni ustiga qo'yib, trubkasini chekar va huzurlanardi. Shuningdek, indamay Bazarovning so'zlarini tinglar edi. Uning qiliqlari odamga qanchalik og'ir botmasin, uning baxtiyor otasi shunchalik xursand bo'lar va o'zining qora tishlarini ko'rsatib, astoydil qah-qah otib kulardi. U, hatto o'g'lining ba'zan to'mtoq, bema'ni shu qiliqlarini takrorlardi. Masalan, bir necha kun sidrasiga u hech narsadan hech narsa yo'q: «Mana bu to'qqizinchি» deya takrorlar edi, chunki o'g'li uning ertalabki ibodatga borganini bilib, bir kuni shunday deb qo'ygan edi. U xotiniga shivirlab: «Xudoga shukr, endi kayfiyati joyiga kelib qoldi, bugun meni ko'p rasvo qildi-da!», dedi. Lekin shunday yordamchiga egaligi uni g'oyat shodlantirar va faxrlantirar edi. U biror kasal xotinning qo'liga dori berar ekan: «Sen, jonim, bu yerda mening o'g'lim mehmon bo'lib turganiga daqiqa sayin Xudoga shukr qil. Chunki hozir tibbiyotning eng yaxshi-yu yangi usuli bilan davolanmoqdasan, buni fahmlaysanmi? Fransuz imperatori Napoleon ham yaxshi doktorga ega emas», der edi. «Sanchiq turdi», deb kelgan (buning ma'nosiga o'zi ham tushunmas edi) xotin faqat bosh egar va sochiqqa o'ralgan to'rt dona tuxumni olib berish uchun qo'yniga qo'l tiqardi.

Bazarov, hatto bir marta o'tkinchi bir chitfurushning tishini sug'urdi va garchi bu oddiy tish bo'lsa-da, Vasiliy Ivanovich uni nodir, topilmas mato buyumday saqlab qo'ydi va Aleksey otaga ko'rsatib:

– Buning ildizini ko'ring-a! Yevgeniyning xo'p kuchi bor-da. Chitfurush bir ko'tarilib tushdi... Bu tortishda eman daraxti bo'lsa ham qo'porilar edi!... – der edi.

Aleksey ota terisiga sig‘may quvonayotgan cholla nima javob qilishni bilmay, gapni qisqa qilish uchun:

– Ofarin! – deb qo‘ydi.

Bir kun qo‘snni qishloqlik bir odam Vasiliy Ivanovich huzuriga terlama kasali bilan og‘rigan ukasini olib keldi. Bir bog‘ poxol ustiga mukka tu-shib yotgan sho‘rlik kasal jon bermoqda edi. Uning badanini qop-qora dog‘lar qoplagan, u allaqachon hushidan ketgandi. Vasiliy Ivanovich shu vaqtgacha kasalni doktorga ko‘rsatilmaganiga achinib, endi najorot yo‘qligini bildirdi. Haqiqatan ham kasal uyigacha yetmay, yo‘lda aravada o‘lib qoldi.

Oradan taxminan uch kun o‘tgandan keyin Bazarov, otasining oldiga kirib:

- Lyaps bormi? – deb so‘radi.
- Bor, nima qilasan?
- Yara chiqipti... kuydirish kerak.
- Kimga chiqipti?
- O‘zimga.
- A? Nega yara chiqadi? Qanaqa yara? Qayeringga?

– Mana, barmog‘imga. Men bugun o’sha terlama kasali bilan og‘rigan bemorni olib kelgani qishloqqa boruvdim. Nimagadir o‘likni yorib ko‘rmoqchi bo‘libdilar, men anchadan beri o‘lik yormagan edim.

- Xo‘sh?
- Shunday qilib, viloyat doktorlaridan ijozat so‘radim va o‘likni yordim, shunda qo‘limni kesib oldim.

Vasiliy Ivanovichning rangi birdaniga oqarib ketdi va indamay o‘z xonasiga qarab yugurib kirib, bir bo‘lak lyaps olib keldi. Bazarov uni olib ketmoqchi bo‘lgan edi, Vasiliy Ivanovich to‘xtatib:

– Xudo haqi, kel, o'zim suray, – dedi.

Bazarov kulib qo'ydi.

– Tajribani buncha ham yaxshi ko'rmasang.

– Qo'y, hazillashma. Barmog'ingni ko'rsat, yarang uncha katta emas. Og'rimaydimi?

– Yaxshiroq bos, qo'rhma...

Vasiliy Ivanovich to'xtab qoldi.

– Nima deysan, Yevgeniy, temir qizdirib bossak, yaxshiroq bo'lmasmikan?

– Buni ilgariroq qilsa bo'lardi, hozir, to'g'risini aytganda, lyapsning ham keragi yo'q. Agar menga kasal yuqqan bo'lsa, endi vaqt o'tdi.

Vasiliy Ivanovich zo'rg'a:

– Nega? Nega vaqt o'tdi... – dedi.

– Albatta! To'rt soatdan ortiqroq vaqt o'tdi.

Vasiliy Ivanovich yarani yana biroz kuydirdi.

– Viloyat doktorida lyaps yo'q ekanmi?

– Yo'q ekan.

– Yo Tangrim, bu nima degan gap! Doktorda shunday zarur narsa bo'lmasa-ya!

– Sen uning nishtarlarini ko'rsang edi, – dedi Bazarov va xonasidan chiqib ketdi.

Vasiliy Ivanovich kechga qadar va ertasiga kun bo'yi qanday bo'lmasin, o'g'lining huzuriga kirish, uni ko'rish uchun har xil bahonalar izladi. Gar-chand farzandiga yarasi to'g'risida gapirish emas, hatto butunlay boshqa mavzularda so'zlashga tirishtsa ham, juda diqqat bilan uning ko'ziga qarar va benihoyat tavshish tortib, uni kuzatar edi. Buni payqab turgan Bazarov oxiri chidayolmadi. «Agar shunday davom etaversa, men ketaman!» deb po'pisa qildi. Vasiliy Ivanovich: «Bo'ldi, endi ko'p kiravermayman», deb so'z berdi. Arina Vlas-yevna (undan Vasiliy Ivanovich sirni, shubhasiz, yashirgan edi) unga hadeb bijirlab: «Senga nima

bo'ldi, nimaga uxlamaysan», deyaverGANI uchun ham shunday qilishi kerak edi. Vasiliy Ivanovich o'g'lini hamon pinhona kuzatib, uning rangi yomonligini ko'rsa ham ikki kun bardosh qildi... Lekin uchinchi kuni tushlik vaqtida toqat qilolmadi. O'g'li shumshayib o'tirar, ovqatga qo'l urmasdi.

Vasiliy Ivanovich o'zini beg'am ko'rsatishga tirishib:

– Nega yemayapsan, Yevgeniy, ovqat juda yaxshi bo'lganga o'xshaydi-ku! – dedi.

– Yegim kelmasa nima qilay?

Vasiliy Ivanovich qo'rqa-pisa so'zini davom ettirib:

– Yo ishtahang yo'qmi? Boshing-chi, boshing og'riyaptimi? – deb so'radi.

– Og'riyapti. Og'rimay nima qilsin?

Arina Vlasyevna qaddi-qomatini rostlagach, cho'chib tushdi.

Vasiliy Ivanovich so'zini davom ettirib:

– Jahling chiqmasin, Yevgeniy, tomiringni ushlab ko'ray, – dedi.

Bazarov o'rnidan qo'zg'aldi.

– Men ushlab ko'rmasdanoq, aytaman. Isitmam bor.

– Eting uvishgandimi?

– Ha, uvishgan edi. Borib yotay, juka bargidan choy damlab beringlar. Shamollagan bo'lsam kerak.

– Shuning uchun kechasi yo'talgan ekansan-da,

– deb qo'ydi Arina Vlasyevna.

– Shamollabman, – dedi yana Bazarov va chiqib ketdi.

Arina Vlasyevna juka gulidan choy damlagani ketdi. Vasiliy Ivanovich bo'lsa, qo'shni bo'lmaga kirib, qo'llari bilan sochini ushlab, jim o'tirganicha qoldi.

Bazarov o'sha kuni joyidan turmadi va kechan yarim hushsiz, og'ir holda o'tkazdi. Kechasi soat birlarda zo'rg'a ko'zini ochdi va chiroq yorug'ida,

tepasida engashib turgan otasining oppoq, oqar-gan yuzini ko'rib: «Bor, uxlay qol», dedi. Otasi chiqib ketdi-yu, darhol oyoq uchi bilan yurib, astagina qaytib keldi va javon eshiklarining orqasiga yarim gavdasi bilan yashirinib, ko'zini o'g'lidan uzmay qarab turaverdi. Arina Vlasyevna ham hech yot-madi. «Yenyushenkaning qanday nafas olganini» tinglash va Vasiliy Ivanovichni ko'rish uchun teztez xona eshigini qiya ochib qarardi. Arina Vlasyevna o'g'lining, faqat harakatsiz, bukchaygan orqasinigina ko'ra olar, biroq shu ham unga biroz tasalli berardi. Erta bilan Bazarov o'rnidan turishga harakat qilib ko'rdi, lekin boshi aylanib, burnidan qon keldi, yana o'rniga yotib oldi. Vasiliy Ivanovich indamay, unga xizmat qilib turdi. Arina Vlasyevna uning oldiga kirib: «Durustmisan, bolam», – deb so'radi. U «tuzuk» deb javob berdi va devor-ga o'girilib yotdi. Vasiliy Ivanovich ikkala qo'lini siltab, xotiniga ishora qildi. U yig'lamaslik uchun labini tishlagan holda uydan chiqib ketdi. Uy ichi birdaniga qorong'ilashganday bo'ldi, hammaning rang-ro'yi oqarib ketdi va qandaydir bir g'alati xomushlik paydo bo'ldi. Hadeb qichqiraveradigan bir xo'rozni hovlidan qishloqqa olib ketishdi, nima uchun o'zini bunday qilayotganlarini xo'roz tushu-nolmasdi. Bazarov hamon devorga o'girilganicha yotar edi. Vasiliy Ivanovich har xil savollar bilan unga murojaat qilishga urinar, lekin bu savollar uni zeriktirganini sezib, har zamon barmoqlarini qirsillatib o'z kursisida jim o'tirishga majbur bo'lardi. Keyin u birpasgina bog'chaga chiqdi va hayratda qolgandek (uning yuzidan hayrat asari umuman arimasdi) u yerda haykal kabi qotib turgandan keyin xotinining savollariga javob berish-dan qochib, yana o'g'lining yoniga kirdi. Nihoyat,

xotini uning qo'lidan mahkam ushlab, qaltirab, baland ovozda undan: «Unga nima bo'ldi axir?», deb so'radi. U o'ziga kelib, xotiniga javoban, o'zini jilmayishga majbur etdi, lekin jilmayish o'rniga yuzida g'alati bir kulgi ifodasi paydo bo'ldi. Vasiliy Ivanovich ertalab doktorga odam yuborgandi. O'g'li achchig'lanmasligi uchun bu haqda uni ogohlan-tirib qo'yishni o'ziga lozim topdi.

Bazarov yotgan joyida birdaniga otasiga o'girildi va xira ko'zlari bilan otasiga tikilib, suv so'radi.

Vasiliy Ivanovich unga suv berdi va shu bilan birga manglayini ushlab ko'rdi. Uning manglayi misdek qizib turardi.

Bazarov bo'g'iq ovoz bilan sekingina:

– Holim xarob, chol. Kasal yuqdi, bir necha kundan keyin o'laman, – dedi.

Vasiliy Ivanovich, xuddi birov oyog'ini chalib yuborganday, qalqib ketdi. U arang:

– Yevgeniy! Nega unday deysan?.. Xudo asrasin! Shamollagansan... – dedi.

Bazarov asta uning so'zini bo'lib:

– Qo'ysang-chi, doktor bo'lib turib, shunday deyishing yaramaydi. Kasal yuqqanligining alomatlari ko'rinib turipti, o'zingdan qolar gap yo'q-ku, – dedi.

– Yuqqanligining alomati qani, Yevgeniy?.. Qo'ysang-chi!

– Bular nima? – dedi Bazarov va yengini biroz ko'tarib, qo'liga toshgan mash'um dog'larni ko'rsatdi.

Vasiliy Ivanovich seskanib ketdi va badanidan muzdek ter chiqdi.

– Xo'p, faraz qilaylik... Agar... Kasallik... yuqqan desak...

– Piemiya degin, – dedi Bazarov.

– Ha... epidemiyadek...

Bazarovning jahli chiqib, ochiq ravishda:

– Piemiya, – deb takrorladi. – Daftaringga yozganlaringni ham esingdan chiqardingmi?

– Ha, ha, nima desang deyaver... lekin har holda biz seni davolaymiz!

– Yo‘q, bu gap – loydan yasalgan hushtak, lekin gap bunda emas. Men bunchalik tez o‘lamан deb kutmagandim. Bu tasodif, lekin to‘g‘risini aytish kerakki, juda yomon tasodif. Siz onam bilan ikkingiz ham hozir diniy e’tiqodingiz kuchlilagini sinab ko‘rish uchun bu yaxshigina sabab, – u yana biroz suv ichib oldi, – hozir aqli-hushim joyidalida senga bir iltimosim bor edi... Ma’lumki, erta yoki indin mening miyam ishlamay qoladi. Hozir ham gapimni ravshan bayon etishimga ko‘zim yetmaydi. Yotgan chog‘imda ko‘zimga hamon qizil itlar yugurib yurganday bo‘lib ko‘rinadi. Boshim uzra qoqqan qoziqdek bo‘lib turibsan. Xuddi mastdayman. Mening gapimga yaxshi tushunyapsanmi?

– Qo‘ysang-chi, Yevgeniy, tappa-tuzuk gapiryapsan.

– Hozirgina yaxshi doktorga odam yubordim deding... Bu bilan o‘zingni ovutding... Endi meni ham ovut, odam yubor...

Chol uning so‘zini bo‘lib:

– Arkadiy Nikolayevichgami? – dedi.

Bazarov biroz o‘yga tolganday bo‘lib:

– Kim u Arkadiy Nikolayevich? – dedi. – Ha, aytganday, qushchani aytyapsanmi? Yo‘q, uni qo‘yib tur, u hozir zag‘cha bo‘lib qolgan. Ajablanma, men alahlayotganim yo‘q. Odinsovaga, Anna Sergeyevna degan bir zamindor xotin bor, shunga odam yubor... Bilasanmi? (Vasiliy Ivanovich bosh

irg‘adi). Yevgeniy Bazarov salom aytib yubordi va o‘layotganligini aytishni buyurdi desin. Xo‘pmi?

– Xo‘p... lekin shu mumkinmi, nahot sen o‘lsang, Yevgeniy... O‘zing o‘ylab ko‘r! Bunday bo‘ladigan bo‘lsa,adolat qayda qoladi?

– Bunisini bilmayman, lekin odam yubor.

– Hozir yuboraman, o‘zim xat ham yozaman.

– Yo‘q, nima hojati bor? Aytgin-ki, salom aytdi desin, bo‘lak hech gapning hojati yo‘q. Men yana haligi itlarni ko‘ray. Ajab! Fikrimni o‘limga sari burmoqchi bo‘laman, lekin hech nima chiqmaydi. Qandaydir bir dog‘ni ko‘raman... Boshqa hech nima ko‘rinmaydi.

U yana devorga tomon o‘girildi. Vasiliy Ivanovich xonadan chiqib ketdi va zo‘rg‘a xotinining yotog‘iga yetib borib, butlar oldiga gursillab, tiz cho‘kdi. Fig‘on chekib:

– Xudoga sig‘in, Arina, Xudoga sig‘in! O‘g‘limiz o‘lyapti, – dedi.

Shu orada haligi, lyapsi bo‘lmagan viloyat doktori kelib qoldi. U bemorni ko‘rib, sabr qilib turishni maslahat berdi va o‘sha ondayoq, bemorning tulish ehtimoli to‘g‘risida bir necha og‘iz so‘z aytди.

– Mening ahvolimdagi odamlarning Yeliseyskga safar qilmaganlarini ko‘rmaganmisiz? – deb so‘radi Bazarov va yonida turgan og‘ir stolning oyog‘idan birdaniga ushlab, silkitib joyidan qo‘zg‘atdi. – Kuch hali ham joyida, ammo o‘lmay iloj yo‘q!.. O‘lgan chol hech bo‘maganda, hayotdan bezib ulgurgan edi, men-chi? Mana, o‘limni e’tirof qilmay ko‘r, u seni e’tirof qilmaydi, vassalom! – U birpasdan keyin so‘zini davom ettirdi. – Kim yig‘layapti? Onammi? Sho‘rlik onam! Bundan keyin u o‘zining totli karam sho‘rvasini kimga ichirarkan? Sen, Vasiliy Ivanovich, ingrayapsan shekilli! Nas niylik yor-

dam qilmas ekan, faylasuf bo'l, masalan, ruhan baquvvat bo'l. Sen faylasufman deb maqtangan emasmidin? – deb qo'shib qo'ydi.

– Mendan qanday faylasuf chiqsin! – dedi Vasiliy Ivanovich va ko'zlaridan yosh sizib chiqdi.

Bazarovning ahvoli soat sayin og'irlasha bordi, kasallik tez kuchaymoqda ediki, jarrohlikdan hazarlangan odamlarning kasali odatda shunday bo'ladi. U hali esini yo'qotmagan va gapni tushunar, kasallik bilan kurashardi. U mushtlarini qisib: «Alahlamayman, bu bo'lman gap!» deb shivirladi va darhol: «Xo'sh, sakkizdan o'nni olsak, qancha qoladi?» deb qo'ydi. Vasiliy Ivanovich devonadek yurari, hali unday, hali bunday dori tavsiya qilar va hadeb o'g'lining oyoqlarini yopar edi. U zo'r berib: «Sovuq choyshabga o'rash kerak... qustirtiradigan dori... qorniga malham sur... qon oldirish...», deya so'zlanardi. Yalinib-yolvorganligi ortda qolgan doktor uning so'zlarini ma'qullab turar, kasalga sharbat ichkizar, o'zi uchun esa yo tamaki yoki Baquvvat qiladigan, badan isitadigan dori, ya'ni sharob so'rardi. Arina Vlasyevna doim eshik yonida, goh o'rindiqqa o'tirar, goh betinim ibodat qilardi. Bundan bir necha kun avval qo'lidan oyna tushib ketib singan, buni u har doim yomonlik alomati, deb hisoblar edi. Anfisushkaning o'zi unga hech narsa aytolmasdi. Timofeyich Odinsovaning oldiga ketdi.

Kechasi Bazarov yana og'irlashdi... Uni qattiq isitma qiyndi. Ertalab esa ahvoli sal-pal yaxshilandi. U onasini chaqirib, sochini taratdi va uning qo'lini o'pib, bir-ikki qultum choy ichdi. Vasiliy Ivanovichga biroz jon kirdi.

– Xudoga shukr, xavf boshlandi... xavf o'tdi, – deb qo'ydi.

– Topgan gapingni qara-ya! Shu bilan xotirjam bo'ladi endi. Odamning bu so'zga ishonib, yurgani qiziq. Masalan, birov unga ahmoqni hech kim urmaydi, deb aytsa xafa bo'ladi. Birovlar uni aqlli desa va pul bermasa ham sevinadi, – deb qo'ydi Bazarov.

Bazarovning ilgarigi «qiliqlarini» esga tushiradigan bu gapi Vasiliy Ivanovichning ko'nglini yumshatdi.

– Barakalla! Juda to'g'ri gap, juda soz! – dedi uva o'zini chapak urganday qilib ko'rsatdi.

Bazarov qayg'uli tarzda kulib qo'ydi.

– Xo'sh, sening-cha, qanday? Xavf o'tdimi, yoxud boshlandimi? – deb so'radi.

– Biroz tuzalding, ko'rib turibman, men shunga xursandman, – dedi Vasiliy Ivanovich.

– Juda ham soz, xursand bo'llish hech qachon yomon sanalmagan. U yoqqa odam yubordingmi?

– Yubordim, albatta, yubordim.

Bazarov biroz yengil tortganday bo'lsa-da, bu uzoqqa cho'zilmadi. Kasallik yangidan kuchaya boshladi. Vasiliy Ivanovich uning yonida o'tirardi. Chol allaqanday bir og'ir dard chekkanday edi. U bir necha marta nimadir so'zlamoqchi bo'ldi-yu, lekin aytolmadi, nihoyat:

– Yevgeniy! O'g'lim, jonim, azizim, – dedi.

Vasiliy Ivanovichning bunday deyishi Bazarovga ta'sir qildi... U boshini salgina burdi va o'zini bosib turgan og'ir hushsizlikdan qutulishga tirishganday bo'lib:

– Nima, otam? – dedi.

Vasiliy Ivanovich so'zini davom ettirdi:

– Yevgeniy, – dedi va Bazarovning oldiga kelib, tiz cho'kdi, lekin Bazarov ko'zini ocholmas va uni

ko'rolmas edi. – Yevgeniy, hozir durustmisan, Xudo xohlasa tuzalasan, biroq shu fursatdan foydalanib, bizlarni tinchlantir, nasroniylik burchingni ado et! Buni senga aytish men uchun juda og'ir, benihoyat qayg'uli, lekin... oxirat... bundan ham qo'rqinchliroq, Yevgeniy... O'zing o'ylab qara, qanday...

Chol gapirolmay qoldi. O'g'lining yuzida esa, garchi ko'zlarini yumib yotgan bo'lsa ham qandaydir g'alati bir o'zgarish paydo bo'ldi.

– Agar shu sizlarni tinchlantiradigan bo'lsa, mayli, lekin, menimcha, shoshilishning keragi yo'q. O'zing biroz durust bo'lding deyapsan-ku, – dedi nihoyat.

– Durustsan, Yevgeniy, durustsan, biroq kim biladi. Hammasi Xudoning irodasi bilan bo'ladi, burchni ado etgandan keyin...

– Yo'q, men hali biroz sabr qilaman, – dedi Bazarov otasining so'zini bo'lib, – xavf boshlandi deganingga qo'shilaman. Agarda biz ikkovimiz yanglishgan bo'lsak mayli. Hushidan ketgan bemorlarni ham domлага o'qitadilar-ku!

– Xudo saqlasin, Yevgeniy...

– Men sabr qilaman. Hozir uyqum kelayotir. Sen menga xalal berma.

U boshini avvalgi joyiga qo'ydi.

Chol o'rnidan turib, kursiga o'tirdi va iyagini ushlab, barmoqlarini tishlay boshladи.

Shu orada birdan uning qulog'iga, uzoq qishloq joylarida juda baralla eshitiladigan ressorli ekipajning taraqlab kelayotgan tovushi eshitildi. Yengil g'ildirak tovushlari borgan sari yaqinlashib, birpas-dan keyin otlarning pishqirgan tovushi ham eshitildi... Vasiliy Ivanovich o'rnidan irg'ib turdi-da,

derazadan qaradi. To'rt ot qo'shilgan ikki o'rini izvosh darvozadan kirib kelmoqda edi. U izvoshning kimnikiligini o'ylab ham o'tirmay, qandaydir ma'nosiz shodlik bilan zinapoyaga yugurib chiqdi... Izvoshdan qora vual¹ yopingan va qora mantiлия kiygan bir xonim chiqdi... U Vasiliy Ivanovichga qarab:

– Men Odinsova bo'laman, Yevgeniy Vasilyevich tirikmi? Siz uning otasi bo'lasizmi? Men doktor olib keldim, – dedi.

– Qadamingizga hasanot, – dedi Vasiliy Ivanovich va hayajon bilan uning qo'lini ushlab, lablari ga bosdi. Shu on Anna Sergeyevna olib kelgan, ko'ziga ko'zoynak taqqan, nemis qiyofali jikkak doktor shoshilmay izvoshdan tushdi, hali tirik, tirik mening Yevgeniyim, endi o'limdan qutuladi! Xotin! Xotin! Bizga osmondan farishta tushdi...

Kampir mehmonxonadan dahlizga yugurib chiqib:

– Voy Xudo, nima bo'ldi? – deb, hech nimaga tushunmay, Anna Sergeyevnaning oyog'iga yiqildi, beixtiyor uning etagini o'pa boshladi...

Anna Sergeyevna qayta-qayta:

– Sizga nima bo'ldi? Sizga nima bo'ldi? – desa ham Arina Vlasyevna qulq solmas, Vasiliy Ivanovich bo'lsa faqat: «Farishta! Farishta!» deb takrorlar edi.

Doktor biroz hayronlikdan keyin:

– Wo ist der Kranke?² Kasal qayerda? – deb so'radi.

Vasiliy Ivanovich esini bir joyga yig'ib:

– Shu yerda, shu yerda, marhamat qiling, bu yoqqa yuring, Werthester herr college³, – derdi.

¹ Vual – yengil to'r ro'mol.

² Wo ist der Kranke? – Kasal qayerda?

³ Werthester Herr college – muhtaram hamkasb.

Nemis unga qarshi:

– E! – dedi va tirjaydi.

Vasiliy Ivanovich uni xonasiga olib kirdi.

U, o'g'lining qulog'i tagiga engashib:

– Anna Sergeyevna Odinsovadan doktor keldi,
Anna Sergeyevnaning o'zi ham shu yerda, – dedi.

Bazarov birdaniga ko'zini ochdi.

– Nima deding?

– Anna Sergeyevna Odinsova shu yerda, mana
shu janobi doktorni olib kelipti.

Bazarov tevarak-atrofga javdirab qaradi.

– Shu yerdami? Men uni ko'rishni istayman.

– Uni ko'rasan, Yevgeniy, lekin avvalo janob doktor bilan suhbatlashish kerak. Men unga kasallik tarixini so'zlab beray, chunki Sidor Sidorovich ketib qolgan (viloyat doktorini shunday atashardi), kichik kengash qilib olamiz.

Bazarov nemisga bir qarab qo'ydi.

– Xo'p, lekin tezroq suhbatlashinglar, faqat lo-tincha gaplashmang, men ham jam moritur¹ nima-ligini tushunaman.

Ekskulapning yangi shogirdi, Vasiliy Ivanovich-ga murojaat qilib:

– Der Herr scheint des Deutschen mächtig zu sein?² – dedi.

Chol unga javoban:

– Ix... gabe,³ yaxshisi ruscha gapiring, – deb qo'ydi.

– A, a! Shundaymi... mumkin, – dedi nemis.

Shu bilan maslahat boshlandi.

¹ Jam moritur – o'layotipti.

² Der Herr scheint des Deutschen mächtig zu sein? – Janoblari nemischani biladilar chog'i?

³ Gabe – Men (nemischa).

Yarim soatdan keyin Anna Sergeyevna Vasiliy Ivanovich bilan birga xonaga kirib keldi. Shu payt doktor uning qulog‘iga shivirlab, kasalning tuzalishiga umid qilib bo‘lmasligini aytdi.

Anna Sergeyevna Bazarovga qaradi... Uning shishgan va ayni zamonda murdaning yuzidek oqar gan yuzi-yu tikilib turgan nursiz ko‘zlarini ko‘rib, eshik oldida taxtadek qotib qoldi. Uning yuragiga qandaydir sovuq va og‘ir qo‘rquv tushdi. Ayol xayoliga birdan, agarda bu odamni sevgan bo‘lsam edi, o‘zimni bunday his qilmagan bolardim, degan fikr kelib ketdi.

Bazarov arang:

- Rahmat, men buni kutmagan edim. Bu – katta lutf. Biz yana ko‘risharmiz degan edingiz, mana ko‘rishdik, – dedi.
- Anna Sergeyevna shunchalik marhamat qilib...
- deb Vasiliy Ivanovich so‘z boshlamoqchi edi, Bazarov uning so‘zini bo‘ldi:

– Ota, ikkovimizni xoli qoldirsang. Anna Sergeyevna, ruxsat etasizmi? Hozir, endi...

U boshi bilan ishora qilib, o‘zining cho‘ziq zaif gavdasini ko‘rsatdi.

Vasiliy Ivanovich chiqib ketdi.

Bazarov so‘zini takrorlab:

– Ko‘p rahmat, – dedi. – Shohona ish qildingiz. Shohlar ham o‘layotgan odamni ko‘rgani boradilar, deb aytadilar.

– Yevgeniy Vasilyevich, men umid qilamanki...

– Eh, Anna Sergeyevna, to‘g‘risini aytsam, men tamom bo‘ldim. G‘ildirak tagida qoldim. Demak, ke lajak to‘g‘risida o‘ylashning hech keragi yo‘q. Ajal – azaldan ma‘lum holat, lekin har bir jon berayotgan

yangilikdir. Hozirgacha ham undan qo'rqlmayman... keyin esa xush ketajak va shu bilan fyuit¹ (u darmonsiz qo'l siltadi). Xo'sh, endi men nima desam sizga... Men sizni sevar edim, deb aytaymi? Bu gapning ilgari ham hech qanday ahamiyati yo'q edi, hozir yana ham. Muhabbat – shakl, mening o'z shaklim esa iriy boshladidi. Yaxshisi, bir gapni aytay, siz g'oyat yaxshi ayolsiz! Mana hozir ko'z o'ngimda turibsiz, qanday chiroylisiz-a...

Anna Sergeyevna beixtiyor seskanib ketdi.

– Mayli, tashvishlanmang... O'sha yerda o'tiring... Menga yaqin kelmang, kasalim yuqumli kasal.

Anna Sergeyevna darhol to'rga o'tib, Bazarov yotgan divan yonida turgan kursiga cho'kdi.

Bazarov shivirlab:

– Oliyjanobsiz! – dedi. – Oh, naqadar yaqin, naqadar yosh, naqadar sof va beg'ubor... Bu iflos uyda... Xayr, alvido! Uzoq umr ko'ring, yaxshisi vaqtini g'animat bilib, hayotdan foydalaning. Buni ko'ring, naqadar xunuk manzara: chalajon o'lik, tag'in so'z bermaydi. Bu ham ko'p ish qilarman, o'lmayman degandi! Dunyoda qiladigan ishim bor, mana men turibman-ku. Mening ishim – hech kimni bu qiziqtirmasa ham, qanday qilib bo'lsa-da, yaxshiroq o'lish g'amidan iboratdir... Baribir bo'yin tovlamayman.

Bazarov jim bo'lib qoldi va shisha idishni qo'li bilan paypaslab ko'rdi. Anna Sergeyevna, qo'lqopini yechmasdan va qo'rqa-pisa nafas olib, unga suv berdi.

Bazarov yana gap boshlab:

– Meni esingizdan chiqarasiz, o'lik tirikka oshno bo'lolmaydi. Otam sizga, mana Rossiya qanday odamdan ajralayotir, deb aytar... Bu behuda gap, le-

¹ Fyuit – vassalom.

kin cholni o‘z ishonchidan sovutmang. Siz bilasizki, bola nima bilan yupansa ham mayli, faqat yig‘lamasa bas. Onamni ham yupating. Ular kabi odamlarni kunduzi chiroq yoqib, izlasang ham topib bo‘lmaydi. Men Rossiya uchun kerak emishman. Yo‘q, kerak emasga o‘xshayman. Xo‘sh, unga kim ham kerak? Etikdo‘z kerak, tikuvg‘i kerak, qassob... qassob go‘sht sotadi, qassob... To‘xtang adashayapman. Bu yerda o‘rmon bor...

Bazarov qo‘lini manglayiga qo‘ydi.

Anna Sergeyevna unga engashdi.

– Yevgeniy Vasilyevich, men bu yerda...

U darhol uning qo‘lini ushlab, boshini ko‘tardi va to‘satdan baland ovoz bilan:

– Alvido, – dedi va ko‘zlari eng so‘nggi nur bilan yaltirab ketdi. – Alvido... menga qarang... O‘shanda men sizni o‘pmagan edim-ku... So‘nayotgan chiroqni puflang, o‘chsin...

Anna Sergeyevna engashib, lablarini uning manglayiga bosdi...

– Endi bo‘ldi! – dedi Bazarov va boshini yostiqqa qo‘ydi. – Endi... qorong‘ilik..

Anna Sergeyevna astagina bo‘lmadan chiqib ketdi.

Vasiliy Ivanovich shivirlab, undan:

– Xo‘sh, qanday endi? – deb so‘radi.

Anna Sergeyevna eshitilar-eshitilmas:

– Uxladi, – deb javob berdi.

Bazarovga uyg‘onish nasib qilmagan edi. Kech tomon u butunlay hushidan ketdi va ertasiga jon taslim qildi. Aleksey ota diniy marosimni ado etdi. Ibdat marosimida yigitning ko‘kragiga muqaddas miro surkalganida, bir ko‘zi sal ochilib, oldida cherkov kiyimidagi popni, isiriq tutatilganini-yu, butlar oldida nur sochayotgan shamlarni ko‘rishi bilan uning

yuzida qandaydir qo'rquv alomati ko'ringanday boldi. Nihoyat, u so'nggi nafasini chiqarganida, uy ichidagilar dod-faryod ko'tarishdi. Vasiliy Ivanovich esa to'satdan aqldan ozib qoldi. U yuzi qip-qizargan va qiyshaygan holda, xuddi birovga do'q qilganday, mushtini do'laytirib: «Men shikoyat qilajakman, degandim, shikoyat qilajakman, shikoyat qilajakman!» deb xirillab qichqira boshladi.

Arina Vlasyevnaning ko'zlarini jiqla yoshga to'lib, uning bo'yniga osildi va ikkovi ham chalqanchasiga yiqildi. Keyin xizmatkorlar uyida gaplashib o'tirib, Anfisushka: «Shunday qilib ular, kun qizig'i vaqtidagi qo'zilar singari, boshlarini quyi solib, bir joyda yonma-yon turib qolishdi», deb hikoya qilar edi.

Biroq kech kiradi, uning ortidan tun kiradi va shundan keyin tinch uyga qaytib, azob chekkan va charchagan odamlar shirin uyquga toladilar.

28

Oradan olti oy o'tdi. Oppoq qish, qahraton sovuq, zinch, qalin qor oyoq ostida g'irchillaydi. Daraxtlarni pushtirang qirov bosgan, osmon zumradday mo'rilar ustini tutun qoplagan, bir lahzaga ochilib ketgan eshiklardan quyuq bug' otilib chiqadi. Odamlarning yuzlari qip-qizil, sovqotgan otlar chirani chopadi. Yanvar kunlari oxirlamoqda. Kechki sovuq harakatsiz havoni yanada kuchliroq siqar, qonli shafaq esa tez so'nib ketmoqda. Marinodagi ulyar derazalarida chiroqlar ko'rindi. Prokofich ustiga qora frak va qo'llariga oq qo'lqop kiyib olgan holda, alohida bir tantana bilan yetti kishiga dasturxon yozgan. Bundan bir hafta burun, kichkina mahalla ibo-

datxonasida jimgina va hech qanday guvohsiz, ikki nikoh: Arkadiy va Katya hamda Nikolay Petrovich-u Fenichkaning nikohi bo'lgandi, xuddi o'sha kuni Nikolay Petrovich ish bilan Moskvaga ketayotgan akasi Pavel Petrovich sharafiga xayrashish ziyofatini uyuştirdi. Anna Sergeyevna ham to'y o'tgandan keyin yoshlarga katta ulush ajratib, darhol Moskvaga jo'nab ketdi.

Rosa soat uchda hamma dasturxon yonida hozir bo'ldi. Mityani ham shu yerga o'tqizdilar, hozir endi uning shoyi qalpoq kiyib yuradigan enagasi ham bor edi. Pavel Petrovich Katya va Fenichkaning o'rtasiga o'tirdi. Kuyovlar o'zlarining xotinlari yonlariga o'tirishdi. Bizning tanishlarimiz keyingi kunlarda ancha o'zgargan: hammalari qandaydir chiroyli va yetilganday ko'rinar, faqat Pavel Petrovichgina oriqlab qolgandi, lekin bu unga ko'proq go'zallik va uning ajoyib ifodali chehrasiga savlat berib turardi... Fenichka ham o'zgacha bo'lib qolgandi. Ustiga yangi ipak ko'ylak kiygan, boshiga keng ro'mol o'ragan va bo'yniga oltin zanjir osib olgan holda u o'z-o'ziga va atrofidagilarga ehtirom bilan jimgina qarab o'tirib, shunday jilmayar ediki, go'yo «Siz meni kechiring, men aybdor emasman», demoqchi bo'lganday tuyilar edi. Yolg'iz ugina emas, boshqalar ham jilmayishar va ular ham afv so'raganday bo'llishardi. Hammalari uchun xiyol o'ngaysiz, xiyol ko'ngilsiz, lekin aslida hammalari uchun ham juda yaxshi edi. Hammasi bir-biriga iltifot ko'rsatar, go'yo hammasi bir bo'lib qandaydir oq ko'ngil bir komediya o'ynashga ahslashganday ko'rinar edi. Katya hammadan ham xotirjamroq edi. U o'z tevarak-atrofiga komil ishonch bilan ko'z tashlar, chetdan qaraganda, Nikolay Petrovichning

uni allaqachon juda ham yaxshi ko'rib qolganligini sezish mumkin edi. Tushlik tamom bo'lishi oldidan Nikolay Petrovich o'rnidan turdi va qadah ko'tarib, Pavel Petrovichga murojaat qildi:

– Siz bizni tashlab ketyapsiz... Siz bizni tashlab ketyapsiz, jonim akam albatta, ko'pga bo'lmasa kerak, lekin shunday bo'lsa ham men sizga shuni aytmay o'tolmaymanki, men... biz... modomiki, men... modomiki, biz... mana ko'ryapsiz, butun fojia shundaki, tumtaroqli so'zlashni bilmaymiz! Arkadiy, sen gapir.

– Yo'q, otajon, men tayyorlanganim yo'q.

– Men yaxshi tayyorlanganman! To'g'ridan-to'g'ri sizni quchoqlab, oq yo'l tilashga ruxsat eting, aka, va tezroq qaytib keling!

Pavel Petrovich hamma bilan, turgan gapki, Mitya bilan ham o'pishdi. U Fenichkaning qo'lini ham o'pdi. Fenichka hali qo'l berishni yaxshi bilmas edi. Pavel Petrovich ikkinchi marta qo'yilgan qadahni icharkan, og'ir bir nafas oldi-yu: «Qo'sha qaringlar, qadronlarim! Farewell!»¹ – dedi. Uning vidolashganini hech kim payqamadi, lekin hamma bundan ta'sirlandi.

Katya erining qulog'iga shivirlab: «Bazarov xotirası uchun», dedi va qadah urishtirdi. Unga javoban Arkadiy uning qo'lini mahkam qisdi, lekin bu qadahni baland ovoz bilan taklif qilishga jur'at qilmadi.

Shu bilan hikoya adog'iga yetishi kerak edi, lekin kitobxonlardan ba'zi birlari, ehtimol, bu asarda ko'rsatilgan shaxslar shu kunlarda nima ish qilayotganini bilmoxchi bo'ladilar. Biz ularning talabini qondirishga tayyormiz.

¹ Farewell – xayr!

Anna Sergeyevna yaqindagina erga tegdi, lekin sevib emas, e'tiqod bilan tegdi, uning eri kelajakdag'i rus arboblaridan bo'lib, juda aqli, qonunshunos, pishiq, tajribali, mustahkam iroda sohibi va so'zga g'oyat darajada chechan, o'zi hali yosh, yuvosh-u sovuqqina odam edi. Ular inoq hayot kechiradilar va bora-bora, ehtimol baxtli ham bo'larlar. Ehtimol, bir-birini sevib ham qolarlar. Knyajna X... oldi va o'sha kuniyoq, hammaning esidan chiqdiketdi. Ota-bola Kirsanovlar, Marinoda turib qoldilar. Ularning ishlari tuzalib bormoqda. Arkadiy juda tirishqoq xo'jayin bo'lib ketdi va «ferma» ancha katta foyda keltiradigan bo'ldi. Nikolay Petrovich yarashtiradigan vositachi¹ bo'lib qoldi va butun kuchini sarf qilib, shu yo'lda xizmat qiladi. Har doim o'z hududiga qarashli qishloqlarga borib-kelib yuradi. Uzundan-uzoq nutqlar so'zlaydi (u odamlarga «aql kiritish» kerak, ya'ni hadeb bir xil so'zni takrorlab, ularni zeriktirish kerak, degan fikrda) va shunday bolsa ham, to'g'risini aytganda, goh dabdaba va goh savdoyilik bilan («an»ni «ang» deb burun ichidan chiqarib) mansipatsiya² to'g'risida so'zlovchi ma'rifatli dvoryanlarni va takallufsiz ravishda «bu munsipatsiya» so'kib yuradigan marifatsiz dvoryanlarni hech qanoatlantirolmasdi. Har ikkala tomon uchun ham u ortiq darajada yumshoq. Katerina Sergeyevna o'g'il tug'di, uning ismi Kolya, Mitya bolsa endi yugurib yuradi va juda gapdon

¹ Yarashtiruvchi vositachi – Rossiyada dehqonlarni krepostnoylikdan ozod qilgandan keyin, ular bilan sobiq xo'jayinlari o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solish uchun ta'sis etilgan mansab.

² Mansipatsiya va munsipatsiya – emantsipatsiya (ozod qilish) so'zining buzib aytilgan shaklidir.

bo'lib qoldi. Fenichka, Fedosya Nikolayevna avvalo eri bilan Mityani, keyin kelinini juda yaxshi ko'radi va kelini fortepyano chalganda, kun bo'yи uning yonidan nari ketmaydi. Pyotr haqida ham zikr qilib o'taylik. U tentakligi va gerdaganligidan butunlay qotib qoldi. U hamma vaqt «yo» ni «yu» talafluz qilardi, lekin u ham sepi ko'pgina yaxshi bir qizga, shaharlik bir rezavorchining qiziga uylandi. Uni Pyotrdan avval ikki yaxshi kuyov so'rab kelgan bo'lsa hamki, faqat ularning soatlari bo'lmagani uchun, tegmagan. Pyotrning esa soatigina emas, hatto amirkon etigi ham bor edi.

Drezden shahridagi Bryulyov tepaligida, soat ikki bilan to'rtlar o'rtaida, sayr qilish uchun qulay vaqtida siz, ellik yoshlarga borgan va sochlari butunlay oqarib, bod kasaliga mubtalo kabi, lekin hali ham kelishgan-u po'rim kiyingan va faqat ko'p yillardan beri yuqori tabaqa orasida yashagan odamlardagina bo'ladijan ko'rkan chehraли bir odamni uchratishingiz mumkin. Bu Pavel Petrovich. U o'zining salomatligini tuzatish uchun Moskvadan chet elga ketib, Drezden shaharida turib qoldi. Bu yerda Pavel Petrovich ko'proq inglizlar va shu yerga kelgan ruslar bilan ulfatchilik qiladi. Inglizlar oldida u o'zini sodda tutadi, qarib shikasta nafslik qiladi, lekin o'zini o'z darajasiga munosib tutadi; inglizlar uni biroz ko'ngilsiz deb biladilar. Lekin takomillashgan jentlmen – «a perfect gentleman» bo'lgani uchun hurmat qiladilar. Ruslar bilan uning muomalasi betakallufroq, zaharli tiliga erk berib, ham o'zidan, ham ulardan kulib o'tiradi. Biroq uning bu qiliqlari har doim ko'ngilga yoqimli, ham iltifotsiz, ham odobli bo'lib chiqadi. U slavyanparastlik nazarlariyясини yoqlay-

di. Ma'lumki, yuqori mansab amaldorlari o'rtasida bu narsa tres distingue¹ hisoblanadi. U ruscha hech nima o'qimaydi, lekin yozuv stoli ustida dehqon chabatasiga o'xshatib, yasalgan kumush kuld'on turadi. Sayyoohlarimiz uning ketidan juda ko'p sudralib yurishadi. Iste'foga chiqqan Matvey Ilich Kolyazin, Bogemiya suvlariga borayotib, kamoli muhabbat bilan uni ziyorat qildi. Yerli xalq esa Pavel Petrovich garchi ular bilan oz ko'rishsa ham, uni juda hurmat qiladi. Saroy kapellosiga, teatrga va xalq saralab kiritiladigan ibodatxona va boshqa shu singari joylarga chiptani hech kim der herr Baron von Kirsanoff² kabi oson va tez ololmaydi. U hammaga qo'lidan kelgancha yaxshilik qiladi, hali ham oz-moz ovoz chiqarib turadi. Bir vaqt-lar uning arslon bo'lganligi ham bejiz emas, lekin yashash uning uchun og'ir, o'zi gumon qilgandan ham og'irroq... Rus cherkovida unga ko'z solinsa bas, bu yerda u har doim bir chekkada devorga suyanib, lablarini ojiz qisib, uzoq vaqt qimirlamay o'yga tolib turadi. Keyin birdaniga o'ziga kelib qoladi-da, qariyb kishi bilmas tarzda cho'qinadi.

Kukshina ham chet elga ketdi, hozir Geydelberga turadi va bu yerga kelganidan beri tabiiy fanlarni bir yoqqa qo'yib, me'morchilikni o'rganyapti. O'zining gapiga qaraganda, bu bobda u yangi qonunlar kashf qilgan emish. U avvalgiday talabalar bilan o'ralashib yuradi va xususan, soddadil nemis professorlarini o'zlarining har masalaga o'tkir-u teran qarashi bilan bir qatorda g'oyat yalqovliklari bilan taajjubga soladigan ko'pgina rus yosh fizik va kimyogarlarini bilan qo'shilib yurishni yaxshi ko'radi. Shundaqa,

¹ Tres distingue – juda kelishimli, yaxshi.

² Der Herr Baron von Kirsanoff – baron Kirsanov janoblari.

ya'ni kislorodni azotdan ajrata olmaydigan, lekin dunyodagi barcha qarashlarni inkor etib, o'zlarini yuqori qo'yadigan ikki-uch kimyogar va buyuk Yeliseyevich bilan birga Sitnikov ham buyuk odam bo'lishga urinib, Peterburgda o'ralashib yuradi va uning o'z so'ziga qaraganda, u Bazarovning «ishini» davom ettiradi. Yaqindagina kimdir uni urgan deb gapiradilar, lekin u ham indamay qolgani yo'q: bir qorong'i jurnalda bosilgan sirli maqolada u kinoya tariqasida yozib, o'zini urgan odamni qo'rkoq degan. U buni ochiriq deb ataydi. Otasi uni avvalgiday ishga solib turadi, xotini bo'lsa uni ahmoq va adib deb hisoblaydi.

Rossiyaning uzoq burchaklaridan birida bir kichkina qishloq qabristoni bor. Barcha qabristonlarimizdagi kabi bu qabristonda ham qayg'uli bir manzara kasb etgan. Uning atrofidagi zovurlarni allaqachon o't bosib ketgan, yog'ochdan qilingan kulrang butlar turli tomonga engashib, bir zamonlari bo'yalgan tomlar tagida chirib yotadilar. Yalpoq qabr toshlari, yer tagidan turib, birov itarayotganday, hammasi joyidan qo'zg'alib, bir chetga surilib qolgan. Po'stlog'i shilingan ikki-uch mayda daraxt zo'rg'a sal-pal ko'lanka tashlab turadi, qo'ylar qabrlar ustida bemalol o'tlab yuradi. Lekin bu qabrlar o'rtasida kishi qo'li yetmas, hayvonlar toptamaydigan bir qabr bor. Uning ustiga yolg'iz qushlargina qo'nadi, tong mahalida sayraydi. Uning atrofi panjara, har ikkala boshiga yosh archalar o'tqazilgan. Bu qabrga Yevgeniy Bazarov dafn qilingan. Yaqin qishloqchadan bu yerga tez-tez ikki keksa odam – er va xotin kelib turadi. Ular bir-birlarini qo'ltiqlashib, og'ir qadam tashlab, yo'l bosadilar, panjara yoniga kelganlaridan keyin tiz cho'kib o'tiradilar. Uzoq va

achchiq-achchiq yig'laydilar, tagida o'g'illari yotgan tilsiz toshga anchagacha diqqat bilan qarab qoladilar, qisqa-qisqa so'zlashadilar, tosh ustiga qo'ngan changlarni artadilar, keyin archa shoxlarini tuzatib qo'yadilar, yana duoyi fotiha qiladilar va bu joyni, go'yo o'z o'gillarini yodlash uchun yaqinroq bo'lgan bu joyni tashlab ketolmaydilar... Nahotki, ularning ibodatlari, to'kkan ko'z yoshlari chindan ham samarasiz bo'lsa? Nahotki, muhabbat, muquddas va chin muhabbat degani haqiqatan ham, zaif bir tuyg'u bo'lsa? Aslo unday emas, qabrdha qanday hissiyotli, gunohkor, isyonkor yurak bekinib yotmasin, uning ustida o'sgan gullar o'zlarining gunohsiz ko'zları bilan bizga sokin va jim qarab turadilar. Ular bizga yolg'iz abadiy tinchlik o'sha «beparvo» tabiatning buyuk tinchligi haqidagina gapirmaydilar, ular yana abadiy totuvlik va mangu hayot to'g'risida ham hikoya qildilar.

1861-yil, avgust

Adabiy-badiiy nashr

IVAN TURGENEV

OTALAR VA BOLALAR

Muharrirlar
Ma'mura QUTLIYEVA,
Shahnoza RAHMONOVA

Badiiy muharrir
Husan MEHMONOV

Texnik muharrir
Surayyo AHMEDOVA

Musahhihlar
Sunnat MUSAMEDOV,
Sadoqat ESHQO'ZIYEVA

Kompyuterda sahifalovchi
Dildora JO'RABEKOVA

Litsenziya raqami: AI № 252. 2014-yil 02.10 da berilgan.
Bosishga 04.02.2015-yilda ruxsat etildi. Bichimi 84x108 1\32.

Bosma tobogi 9,0. Shartli bosma tobogi 15,12.

Garnitura «Bookman Cyr+Uzb». Ofset qog'oz.

Adadi 5000 nusxa. Buyurtma № 13.

Bahosi kelishilgan narxda.

«Yangi asr avlodi» nashriyotida tayyorlandi.
100113. Toshkent, Chilonzor-8, Qatortol ko'chasi, 60.

Murojaat uchun telefonlar:

Nashr bo'limi – 278-36-89; Marketing bo'limi – 128-78-43
faks – 273-00-14; web-saytimiz: www.ibook.uz
e-mail: yangiasr@ibook.uz; yangiasravlod@mail.ru

**«YANGI ASR AVLODI» NMM
2015-YILDA «KAMOLOT KUTUBXONASI»
RUKNIDA CHOP ETILGAN QUYIDAGI
KITOBLARNI TAQDIM ETADI:**

Alber Kamyu

«BEGONA»

84x108 1/32 , 476 bet, qattiq muqova

Alber Kamyu – XX asr fransuz adabiyotining yirik namoyandalaridan biri, adabiyot yo‘nalishda Nobel mukofotining sohibi, mohir adib, dramaturg, faylasuf, «Tubanlashuv», «Vabo», «Sifiz haqida asotir», «Kaligula», «Asotir va qiyofa», «Isyonkor odam», «Begona» kabi asarlar muallifi.

A.Kamyu o‘z asarlarida Ikkinchiji jahon urushi dahshati oqibatida paydo bo‘lgan insoniy taqdirning absurd hissiyotlarini kuylaydi.

Adibning «Vabo» va «Begona» asarlari Ahmad o‘zbekchaga A’zam tomonidan mohirona tarjima qilingan. «Hikmatlar», «Yon daftarchalar» asarlari esa I.Bek tomonidan o‘zbek tiliga o‘girilgan.

Asar keng kitobxonlar ommasiga mo‘ljallangan.

Yohann Wolfgang Gyote

«FAUST»

84x108 1/32, 536 bet, qattiq muqova

Buyuk nemis shoirining bu yirik asari jahon adabiyotining durdonalaridan sanaladi. Unda ikki mangu qarama-qarshi kuch: yaxshilik va yovuzlik, iqror va inkor kurashadi. Faust – hayot oshig‘i, taraqqiyot jangchisi,adolat jarchisi. Mefistofel – hayot yovi, taraqqiyot dushmani,adolat kushandası. Asardagi murakkab voqealar silsilasi shu ikki qahramon xatti-harakatlari orqali rivojlanib boradi.


Ilya Ilf, Yevgeniy Petrov
«O'N IKKI STUL»
84x108 1/32, 456 bet, qattiq muqova

«O'n ikki stul» – ushbu asar 1927–1928-yillarda yaratilgan bo'lib, o'tkir yumoristik romanlar qatorida e'tirof etiladi. Asar hayotda sodir bo'lgan vogeliklarga asoslangan. Roman qahramonlari Ostap Bender hamda Ippolit Matveyevich Petuxova xonim boyliklarini izlab topish maqsadida birgalikda sayohatga otlanadilar va juda ko'p sarguzashtlarni boshdan kechiradilar. Ular mahoratlari usta Gambs tomonidan yaratilgan ajoyib san'at namunalari bo'l mish o'n ikki stul jamlanmasini birma-bir qo'lga kiritishga intiladilar. Bu ikki hamtovoq o'z maqsadiga erishish uchun eng qabih jinoyatlarni amalga oshirishdan toymaydi.

O'quvchi ushbu asar orqali jinoyat jazosiz qolmasligi va birovning mulkiga ko'z olaytirish qanday foyjalarga olib kelishi mumkinligini fahmlaydi.

Jeyn Ostin
«ANDISHA VA G'URUR»
84x108 1/32, 404 bet, qattiq muqova

Jeyn Ostin «Andisha va g'urur» asarida qishloq asilzodasining qizi Elizabet Bennet bilan o'zining kelib chiqishi, boyligi ila mag'rur boy zamindorning o'g'li Fitsuilyam Darsi o'rtasidagi sarguzashtlarni hikoya qiladi. Asar 1813-yilda nashr qilinib, adabiyot dunyosida katta shov-shuvga sabab bo'ldi. Ushbu asar haqida o'sha paytdagi «Britaniya tanqidchisi» jurnali shunday yozgan edi: «Asar shu paytgacha o'quvchilar hukmiga havola qilingan bu turdag'i hamma romanlardan yuqori turadi». Umid qilamizki, mazkur asar hurmatli o'zbek kitobxonlariga ham manzur bo'ladi.



Ivan Turgenev (1818–1883)

1818-yilda tug'ilgan. Peterburg universitetining falsafa fakultetini tugatgach (1837), Berlinga borib (1838), falsafa va klassik filologiya bo'yicha ma'ruzalar tinglagan.

1844-yilda «Andrey Kolosov» qissasini, keyinroq «Pomeshchik» dostoni (1846), «Uch surat» (1846) va «Breter» (1847), shuningdek, gogolona hajviy ruh bilan yo'g'rilgan «Petushkov» (1848) qissalarini e'lon qilgan.

Turgenev dramaturgiya janrlarida ham qalam tebratib, «Sarmoyasizlik» (1846), «Yo'l boshlovchining nonushtasi», «Bo'ydoq» komedyasi (1849), «Tekinxo'r» maishiy dramasi (1849) va «Qishloqda bir oy» liro-psixologik dramasi (1850)ni yozgan. Shundan so'ng «Mumu» (1855), «Ortiqcha kishining kundaligi» (1850), «Yakov Pasinkov», «Karvonsaroy» (1855) va «Yozishma» (1856) singari qissalarini yaratgan. «Dvoryanlar uyasi» romani (1859) esa adib ijodining barkamol namunasi sanaladi.

U 60-yillarning boshlarida zamonaviy mavzuga murojaat etgan hamda «Otalar va bolalar» romani (1862)ni yozgan. Asar rus adabiyotshunosligida Turgenev ijodining cho'qqisi sifatida talqin etiladi.

Turgenev hayotining so'nghi 20 yilda mashhur fransuz yozuvchilarini va san'atkorlari bilan yaqin ijodiy aloqada bo'lib, hatto 1878-yilda Parijda o'tkazilgan xalqaro yozuvchilar anjumaniga V. Gyugo bilan birga rahbarlik qilgan. 60-yillarning 2-yarmi — 70-yillarda Turgenev «Brigadir» (1868), «Cho'l qiroli Lir» (1870), «Bahor toshqinlari» (1871) singari qissalarini, «Qo'riq» (1877) romani va boshqa bir qancha asarlarini yozgan.

ISBN 978-9943-27-414-3



9 789943 274143